Idiomalar tarkibida uni hosil qiluvchi grammatik kategoriyalardan ot, sifat, fe'l, olmosh, ba'zan son ishtirok etishi mumkin. Idiomalar tarkibidagi olmoshlar ko'pchilik hollarda *one's, smb's* so'zlari va ular o'rniga keluvchi olmoshlar xususiyatlari bilan aloqador bo'ladi. Masalan, *to make smb's heart leap* – yuragini o'ynatmoq. Agar *smb's* o'rniga aniq olmosh qo'yilsa, masalan, ayol kishini ibora, *to make her heart leap*, ya'ni uning yuragini o'ynatmoqqa aylanadi. Agar men olmoshini ishlatsak, *to make my heart leap* – “mening yuragimni o'ynatmoq”qa aylanadi. Ya'ni idiomalar tarkibidagi olmoshlarga xos bo'lgan xususiyat ularning son va shaxs jihatidan tuslanishidir. Agar mazkur iborani son va shaxs nuqtayi nazaridan turlasak, quyidagicha bo'ladi:

Birlik	Ko'plik
<i>to make my heart leap</i>	<i>to make our heart leap</i>
<i>to make your heart leap</i>	<i>to make your heart leap</i>
<i>to make it (her, his) heart leap</i>	<i>to make their heart leap</i>

Idiomalardagi bunday son va shaxs nuqtayi nazaridan turlanishlar o'zbek tiliga ham xos bo'lib, bunday turlanishni o'zbek tili orqali adekvat tarjima qilish imkoniyatlari mavjuddir [4]. Ya'ni, agar yuqoridagi idiomani oladigan bo'lsak, uning o'zbekchalashtirilgan turlanishi quyidagicha bo'ladi:

Birlik	Ko'plik
<i>Mening yuragimni o'ynatmoq</i>	<i>Bizning yuragimizni o'ynatmoq</i>
<i>Sening yuragingni o'ynatmoq</i>	<i>Sizning yuragingizni o'ynatmoq</i>
<i>Uning yuragini o'ynatmoq</i>	<i>Ularning yuragini o'ynatmoq</i>

Demak, idioma bir so'z birligiga monand kelar ekan, u gap tarkibida morfologik nuqtayi nazardan son va shaxsda tuslanishi, fe'llar esa vaqt va zamonda turlanishi tabiiydir. Agar mazkur iborani o'tgan zamonda beradigan bo'lsak, o'zbekchasiga “Mening yuragimni o'ynatdi” bo'ladi. Inglizchasida esa “*Made my heart leap*” bo'ladi. Ya'ni idioma tarkibidagi fe'l zamon va vaqtda turlanadi.

Idiomalar tarjimasida qiyinchilik tug'diradigan yana bir morfologik o'rinlardan biri bu – jins, ya'ni rod masalasidir. Ma'lumki o'zbek tilida rod tushunchasi mavjud emas. Shunga ko'ra, [5] rod belgisi mavjud idiomalar mazmuni o'zbekchalashtirilganda rod tushunchasi asosan yo'qotiladi. Ammo ba'zi o'rinlarda uni qo'shimcha so'zlar bilan qisman saqlab ifoda qilish mumkin bo'ladi. Masalan, *He set his heart at rest* (U o'z yuragini bosdi) iborasini olsak, so'z erkak kishi to'g'risida ketmoqda, ya'ni idiomada mujskoy rod qo'llanilgan. Uni o'zbekchalashtirganda, aynan erkak kishi to'g'risida so'z ketayotganligini anglatish mumkin. Idiomani “Er kishi o'z yuragini bosdi” tarzida berish mumkin.

Idiomalar tarkibida yana bir muammoli o'rinlardan biri ham ikki, ya'ni ingliz va o'zbek tillarining ikki turdagi tillar oilasiga mansubligi bilan aloqadordir. Ya'ni ingliz tilida padej munosabatlari mavjud emas. Ularni turli predloglar amalga oshiradi. O'zbek tilida esa kelishik munosabatlari mavjud. Shu bois, idioma tarkibida keng qo'llaniladigan predloglar funksiyasini

kelishiklar asosida berish imkoniyati mavjud. Ammo tarjimon har bir predlogning qaysi kelishikka mos va monand ekanligini aniq bilishi va kontekstdan kelib chiqqan holda u yoki bu kelishikni tanlashi joyiz bo'ladi. Predloglardan idiomalar tarkibida *at, on, in, of, to, out, into, after, with, up* va boshqalar qo'llaniladi. Masalan:

With open arms – quchoq ochib

To set (or put, or to lay, or to turn) one's foot on the neck of smb. - birovning bo'yniga minib olmoq

To shut (or to close) one's eyes to smth. –ko'z yummoq

To fall into smb's hands – birovning qo'lga tushmoq

To hold up one's hands – qo'l ko'tarmoq

To put smb.on smb's feet – oyoqqa turg'izmoq.

Idiomalar tarkibidagi ingliz tilida predloglar anglatgan leksik ma'nolar o'zbek tilida turlicha ifodalanadi: - kelishik qo'shimchalari orqali

- ko'makchilar orqali;

- bog'lovchilar orqali;

- ravishlar orqali;

- modal so'zlar orqali;

- ma'lum so'z yasovchi affiksalar orqali.

A.V.Kunin tomonidan taklif etilgan klassifikatsiyaga ko'ra, turli frazeologizmlar nutqdagi o'z funkcionalligi xarakteriga ko'ra ikki asosiy guruhga bo'linadi. Ular nominativ funktsiya va nominativ-kommunikativ funktsiyalardan iborat bo'lib, nominativ-kommunikativ funktsiya nutqni kuchaytirish, uni boyitishga yo'naltirilgan bo'ladi. Nominativ funktsiyali iboralar turli tuzilishga ega bo'lislari mumkin (*a bitter pill to swallow a wolf in sheep's clothing; a cock-and-bull story; to stir up a hornets' nest; much cry and little wool; to call a spade a spade; etc.*).Nominativ-kommunikativ funktsiyali frazeologizmlar turli undov so'z birikmalaridan iborat bo'ladi (*as hell; birds of a feather; this cat won't jump; the fat's in the fire; etc.*)[3].

Frazeologik ekvivalent bu barcha lingvistik ko'rsatkichlari bo'yicha tarjima qilinayotgan birlikka mos va monand bo'lgan so'z birikmasi, ko'pchilik hollarda tarjima qilinayotgan tildagi frazeologik birikmadir. Uning qanday kontekstda ishlatilishidan qat'iy nazar, ekvivalent birikma asliyatdagi denotativ va konnotativ ma'nolarga ega bo'ladi, ya'ni asliyat va uning tarjimasida ma'nodorlikda, stilistik tuzilishda, istioraviylik va ma'joziylikda, obrazlilikda, hissiy ekspressiyada, tarkibidagi komponentlar tuzilishida, bir xildagi leksik-grammatik ko'rsatkichlarda, bir grammatik kategoriya tarkibiga kirishda, undan foydalanishda, grammatik munosabatlarga kirishishda bir xillik kasb etadi. Masalan, *to bind (a person) hand and foot* – (*birovning*) *qo'l va oyoqlarini bog'lamoq; to open a persons eyes* –(*birovning*) *ko'zini ochmoq.*

Bu talab juda keng tarmoqli va aslida har tomonlama o'zaro teng kelishni anglatadi. Ammo ikki har tomonlama o'zgacha bo'lgan til strukturalarida ham mana shunday ekvivalentlikni topish mumkin. Idiomalarning ekvivalentlarini topish aslida ikki til leksik xususiyatlarini juda chuqur bilishni anglatadi.

To'la ekvivalentlikdan tashqari qisman ekvivalentlik mavjud. Unda ko'p ma'noli frazeologizmga nisbatan biror ma'noning to'la takrorlanishiga aytiladi. Bunday holatlar ham ikki til strukturasida uchray turadi. Masalan, *to get the heart of subject*– *mavzuning mag'ziga yetmoq; a man with hard heart* - *bag'ritosh odam.*

Ammo eng keng uchraydigan ekvivalentlik nisbiy frazeologik ekvivalentlik hisoblanadi. Nisbiy ekvivalent asliyatdan o'z tarkibiga ko'ra, sintaktik imkoniyatlari yoki ma'nodorligi, uning tarkibidagi so'zlarning ketma-ketligi, ma'joziylik kuchi, obrazlilik qirralari kabi xususiyatlar bilan farq qiladi. Ammo bunday ekvivalent ham asliyat o'rniga to'la ravishda foydalanishga haqli hisoblanadi, masalan, *to take the heart of smb.* – *jonini sug'urib olmoq; one's years hardens* – *diydasini qotmoq.*

Shu bilan birga, tarjima jarayoniga nisbatan ishlatiladigan individual idiomalar, individual frazeologizmlar degan tushuncha ham mavjud. Tarjima jarayonida tarjimon tomonidan beixtiyor ravishda ijodiy jarayonlar qonuniyatlari asosida tarjimonlar o'zlari idiomalar tarjimasida ohori ketmagan turli yangi iboralarni yaratadilar va keyinchalik ular keng iste'molga kirib boradi.A.Iminov tarjimonlik faoliyatida ham mana shunday o'ziga xos turg'un konstruksiyali iboralar yaratilganligi shohidi bo'lamiz. Masalan, *to keep a civil tongue in one's mouth* iborasini tarjimon "chuchuk til bo'lmoq" sifatida, *born with a silver spoon in his mouth* iborasini "zuvalasi katta tug'ilmoq", *flap*

smb's in the mouth iborasini “yolg‘onni ayamay yutmoq”, *a honey tongue, a heart of gall* iborasini “tili asal, dili zahar” tarzida tarjima qilingan. O‘zbek tilida aslida “chuchuk til bo‘lmoq”, “zuvalasi katta tug‘ilmoq”, “yolg‘onni ayamay yutmoq”, “tili asal, tili zahar” kabi turg‘un iboralar mavjud emas. Ammo tarjima shunchalik uddaburolik va mahorat bilan qilinganki, xuddi o‘zbek tilida mana shunday iboralar mavjuddek ko‘rinadi. Aslida esa unday emas, mazkur iboralar tarjimon faoliyatining natijasi hisoblanadi. Demak, A.Iminov tarjimonlik faoliyatida individual ekvivalentlar uchun ham o‘rin topilgan va ular mohirona ishlatilgan.

Ko‘pincha idiomatik ekvivalentlar turg‘un istioralar ichida ko‘p topiladi. Masalan, ko‘pchilik xalqlarda “bulbuldek ovoz”, “bulbuldek sayrash”, “sherdek botir”, “eshakdek o‘jar”, “cho‘chqadek mast” kabi o‘xshatishlar mavjud. Tarjimon mana shunday istioradorlik asosida ham idiomaning ekvivalentini yaratishi yoki topishi mumkin bo‘ladi [6].

Idiomalar tarjimasiga xos bo‘lgan o‘rinlardan biri bu idiomalar tarjimasida sintaksis talablarining qay darajada bajarilishi va qayta tiklanishi muammosidir. Chunki idiomalar tarkibida turg‘un sintaksisli, ya‘ni turg‘un gap tarzida kelgan idiomalar ham uchrab turadi. Asliyat bilan tarjimada agar asliyat turg‘un sintaksis bilan kelgan bo‘lsa, ana shu sintaktik qurilishni qayta shakllantirish lozimdek ko‘rinadi. Ammo mazkur sintaksis qurilishi idioma ekanligi anglash idioma qurilishi va uni ifoda qilish bo‘yicha avvallari ta‘kidlangan o‘rinni esga olishga yana bir bor majbur etadi. Chunki idioma tarjimasida bosh omil til shaklini emas, balki mana shu til vositasida anglashilgan bosh mazmundorlikni tarjima qilishni taqozo etadi.

Shu bois, tarjimon ikki yo‘lni tutishi mumkin. Ya‘ni, bir tomondan, tabiiy asliyatdagi sintaksis qurilmasini, ya‘ni turg‘un gap strukturasi qayta shakllantirishga sa‘y-harakat qilish darkor. Ammo bu jarayonda idioma mazmuniga umuman putur yetmasligi lozim bo‘ladi. Ya‘ni gap qurilishi qayta shakllantirish jarayoni uning mazmuniga mutlaqo salbiy ta‘sir o‘tkazmasligi lozim. Ikkinchi tomondan esa tarjimon tarjima qilish va idiomaning ekvivalentini topish jarayonida asosan uning mazmun qirrasiga o‘z e‘tiborini qaratishi va idiomaning mazmun jihatidan ekvivalentini yaratishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Abduazizov A. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: - Sharq, 2010. 60-92-b.
2. Amosova N.N. Основы англиской фразеологии-LGU, 1963
3. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка- Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. – 2-е изд., перераб. – М.: Высш. шк., Дубна: Изд. центр "Феникс", 1996 - 381 с
4. Longman dictionary of English Idioms –first edition. 1979
5. Raxmatullayev Sh. Sistem tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Universitet 2007
6. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik –Toshkent 2007

UDK 75.042

ANIMALISTIKA JANRI, UNING GENEZISI, TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY HOLATI

Ashurova Sh. A.

TATU Samarqand filiali

E-mail: ashurovashani@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy adabiyotdagi hayvonlar obrazlari, insonlar va hayvonlar o‘rtasidagi munosabatlar, jonivorlarning insonlar hayotidagi o‘rni kabi masalalar ko‘rib chiqildi. Animalistik adabiyot uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Uning ildizlari uzoq qadim zamonlarga – yer yuzida hayot paydo bo‘lgan davrlarga borib taqaladi. Inson va hayvonlarni uzoq evolyutsion taraqqiyot birlashtirib turadi. Bu taraqqiyot davomida hayvonlar insonlarga qiyinchiliklarni yengib o‘tishda yaqindan yordam bergan.

Kalit suzlar: animalistik janr, hayvonlar, inson, ertak, satirik qissalar.

Текущее состояние развития анималистического жанра и его генезис

Аннотация. В этой статье рассматривается жанр анималистики животных, так как из покоя веков состоит связь между человечеством и животным. Именно поэтому человечество не перестаёт говорить о животных, это мы можем увидеть даже в средневековых мифологиях. В

узбекской народной поэтической творчестве мы можем разглядеть ряд животных в облике сытности и обеспеченности таких как крупнорогатых скот, лошадей и баранов.

Ключевые слова: анималистические жанры, звери, человечество, сказка, эволюция.

The current state and development of the animalistic genre and it's genesis.

Abstract. In this article we can see consideration of animalism genre. Cause there is relationship between humanity and animal from ancient ages. There are so many kinds of poems, versicles, fairytales and stories about animals, even we can find it in architecture, antique monuments and art.

Keywords: animalistic genre, animals, fairytale, evolution, human.

Badiiy ijodning ma'lum bir qismi, bo'limi maxsus tadqiqotning predmeti qilib olinishining metodik to'g'riligi va amaliy maqsadga muvofiqligini har bir filolog va adabiyotshunos yaxshi tushunadi. Bizning tadqiqotimizda animalistik adabiyot, ya'ni hayvonlar haqidagi badiiy adabiyot haqida so'z yuritiladi.

Badiiy adabiyotdagi hayvonlar obrazlari, insonlar va hayvonlar o'rtasidagi munosabatlari, jonivorlarning insonlar hayotidagi o'rni jahon adabiyotida yangi narsa emas. Animalistik adabiyot uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Uning ildizlari uzoq qadim zamonlarga – yer yuzida hayot paydo bo'lgan davrlarga borib taqaladi. Inson va hayvonlarni uzoq evolutsion taraqqiyot birlashtirib turadi. Bu taraqqiyot davomida hayvonlar insonlarga qiyinchiliklarni yengib o'tishda yaqindan yordam berdi. Aynan shu sababli ham inson hayvonlarga tahsin o'qiydi, ularni olqishlaydi, ularga ta'zim qiladi, haykaltaroshlikda, arxitekturada, tasviriy san'atda va, nihoyat, badiiy adabiyotda o'zi yaratgan eng sara asarlarni ularga bag'ishlaydi. “Qushlar va hayvonlar haqidagi afsonalar, makkor jonzodlar haqidagi ertaklar, g'aroyib maxluqlar haqidagi masallar va fantastik xarakterli bitiklar, hayvonlar saltanati haqida hikoya qiluvchi epik poemalar va satirik qissalar – animalistik adabiyotning to'liq bo'lmagan badiiy shakllari ana shulardan iborat”.

Asotirlarda hayvonlarning o'rni beqiyos. Mifopoetik tafakkurda hayvonlar asotiriy kodning bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi, asotirlar va asotirlashtirilgan ertaklar esa mana shu kod asosida yaratiladi. Asotirdagi hayvonlar insonning atrof-muhitni va o'zini o'zi ifodalashining bir usulidir. Insonning o'zini tabiatda mifologik gavdalantirishi totemistik asotirlarga yo'l ochib berdi. Totem (urug' jamoalari sig'inadigan hayvon, o'simlik, tosh va h.k.) ma'lum insonlar jamoasini, urug'ini ular yashaydigan hudud bilan, o'tmishni bugungi kun bilan bog'laydi. Urug'larning totemlari odatda ma'lum bir hayvon bilan bog'liq. Bu yerda animalizm unsuri urug'ning urf-odatlarini, rasm-rusmlari, e'tiqodi, yashash tarzi bilan namoyon bo'ladi. Bu motivlar oxir oqibatda hayvonlar yaratguvchi qiyofasida tasvirlangan kosmogonik asotirlar paydo bo'lishiga olib keladi. Ko'p xalqlarning asotirlarida qator hayvonlar dunyoning yaratilishida bevosita ishtirok etadi. Qadimiy tasviriy san'at yodgorliklarida ham hayvonlar asosiy tasvir obyekti bo'lib kelgan.

Agar asotirlarda hayvonlar xudo yoki yarim xudo ko'rinishida namoyon bo'lsa, badiiy adabiyotda ular real voqelikka yaqin turgan obrazlar sifatida tasvirlanadi. Har bir xalqning folklorida hayvonlar mavjud. Jonivorlar folklorida qadim-qadimda paydo bo'lgan. Ularga shunchaki inson xizmatkorlari sifatida qaralgan, ular bir jonli buyum sifatida tasvirlangan. Hayvonlarning turi esa xalqlarning mashg'uloti, geografik joylashuvi, madaniyati, dunyoqarashi, an'ana va urf-odatlarini bilan bog'liq. O'zbek xalqi og'zaki ijodida, dostonlarida, jumladan, azaldan ot, tuya, yirik shoxli qoramol, qo'y-qo'zilar kuylangan. Ular boylik, to'qlik va xotirjamlik ramzi hisoblangan.

Badiiy adabiyotdagi hayvonlar tasviri o'quvchiga obrazli-emotsional ta'sir qilish usuli hisoblanadi. Hayvonlar tasvirlangan asarlar mazmuni yuksak emotsionalligi bilan ajralib turadi. Insonlar hayotini hayvonlar obrazlari orqali tasvirlash badiiy adabiyotdagi animalistik janrning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotda foydalanilgan o'nlab badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik manbalari turli adabiy janrlardagi hayvonlar obrazlarini tahlil qilish, ularning o'zaro munosabatlari va aloqalarini ko'rib chiqish, Yevropa va Okean ortidagi (Kanada, AQSh) tarixiy-adabiy jarayon davomida hayvonlar haqidagi tasavvurlarning o'zgarishini kuzatib borish imkonini beradi. Hayvonlar haqidagi adabiyotning asosiy badiiy tamoyillari xalqlarning folklorida (og'zaki ijodida) aniqlangan bo'lsa, umumiy animalistik motivlarni har bir xalq va har bir milliy adabiyot vakillari o'zlaricha ishlab chiqqanlar. Yozma adabiyotda, jumladan insoniyat badiiy tafakkurining eng ko'hna va o'lmas

namunalaridan biri bo'lmish "Avesto"da jonivorlarga, ayniqsa qushlarga chuqur hurmat bilan qarashgan.

Barcha davrlar adabiyotlarida hayvonlar obrazlarini uchratish mumkin. Jahon adabiyotida bunday asarlar mo'l-ko'l. Antik dunyoda badiiy adabiyotda jonivorlarni tasvirlashning ma'lum bir mezoni, ma'lum bir qolipi paydo bo'ldi. Jonivorlar va qushlar masallarning qahramonlariga aylandilar. Mashhur Ezop bu janrning o'lmas namunalarini yozib qoldirdi. Bu mezon bora-bora odatdagi risolaga sig'may qoldi. Keyinroq jonivorlar badiiy adabiyotda bir vositachi sifatida tasvirlanadigan bo'ldi. Muallif o'z maqsadini amalga oshirish uchun hayvonlarni kerak bo'lganda ishlatadi, kerak bo'lmaganda ishlatmaydi. Jumladan, Apuleyning "Oltin eshak" romani shunday asarlar qatoriga kiradi.

O'rta asrlarda G'arbiy Yevropada hayvonlar, xususan uy hayvonlari va qushlar dastlab "le" va "fablio" (Fransiya), "minnizang" (Germaniya) kabi kichik janrlardagi asarlarning personajlariga aylandilar, jonivorlar asarlardagi insonlar bilan ularning tilida so'zlashadigan, ko'pincha ularni tutib olgan insonlar qo'ldan quvlik va makkorlik qilib chiqib ketadigan bo'lishdi. "Estula" (Yulduz), "Le dit des perdrix" (Kurkalar hikoyasi) va "Du vilain et de l'oiselet" (Makor kishi va qushcha) kabi o'rta asrlar fransuz fabliolari hozirgacha xalq orasida mashhur. Shu davrda yaratilgan yirik janrdagi asarlardan Yevropaning boshqa davlatlariga ham tarqalgan "Tulki haqida roman"ni ajratib ko'rsatish mumkin.

Biroq o'rta asrlarda dinlar ta'siri ostida Yevropada inson bilan hayvonlar o'rtasiga Xitoy devori qo'yildi. Yevropada ilohiyotchi faylasuf Foma Akvinskiy "Hayvonlarning qalbi yo'q", deya ta'lim berayotgan bir paytda Sharqda, aksincha, hayvonlarga o'zgacha munosabatda bo'ldilar. Dostonlarda otlar insonning eng yaqin do'sti etib tasvirlandi. Abulqosim Firdavsiy o'zining mashhur "Shohnoma"sida afsonaviy Semurg' qushining o'lmas obrazini yaratdi. Sanoyi Razvoniy "Tasbihi tuyur" va Hoqoni Shirvoniy "Mantiq ut-tayr" qasidalarida qushlarning hayoti, ularning tillari haqida ilk asarlarni bitdilar. Keyinchalik bu an'anani Shayx Farididdun Attor o'zining "Mantiq ut-tayr" asarida, Alisher Navoiy esa "Lison ut-tayr" (1499)da davom ettirdilar. Ulug' Navoiy "Lison ut-tayr" – "Qush tili" asarida inson bilan tabiat, ilohiyot masalasini badiiy ta'rif-tavsifladi. Buyuk shoir o'z qarashlarini To'ti, Tovus, Popishak kabi o'ttizdan ortiq qushlar tili, qilmish-qidirmishlari, sarguzashtlari orqali majoziy tarzda badiiy ifodaladi.

XVI asrda Yevropada Migel Servantes (1547-1616) o'zining "Itlar suhbatlari" (Las Dialogas des Caenes) novellasini yaratdi.

XVII asrda Ezop an'alarini davom ettirgan fransuz adibi Jan de Lafonten (1621-1695) o'n ikki kitobdan iborat "Masallar" (Fables)ida hayvonlarning majoziy obrazlari orqali jamiyat va insonlar orasidagi illatlarni fosh etib tashladi.

XVII asrning oxiri – XVIII asrning birinchi yarmi fransuz adabiy ertak janri taraqqiyotida oltin davr bo'ldi. Bu davrda mashhur fransuz ertakchisi Charl Perro (1628-1703)ning "Ona G'oz ertaklari" (Contes de ma mère l'Oye) deb ham ataluvchi "Qadimgi zamon voqealari va ertaklari" (Histoires ou contes du temps passé), Komon de Lafors (1650-1724)ning "Ertak ketidan ertaklar" (Contes suivis des contes), grafinya de Myura (1670-1716)ning "Sehrli ertaklar" (Contes merveilleux) nomli kitoblari nashr qilindi.

XVIII asrda ingliz adibi Jonatan Svift (1667-1745) o'zining "Gulliverning sayohatlari" (Gulliver's Travels, 1726)ni yaratdi va animalistik adabiyot maydoniga ippik (yunoncha hippos - "ot" so'zidan) janrni olib kirdi. J.Svift o'zining bu mashhur satirik asarida o'z zamondoshlarining nuqsonlarini fosh etar ekan, jirkanch *yexu*larga olijanob otlar – *guigngnml*larni qarshi qo'ydi. Svift kashf etgan *yexu* so'zi o'zlarining eng tuban gunohlari bilan hayvon darajasiga yetgan odamlarni belgilash uchun qo'llanilsa, adib to'qigan *guigngnm* so'zi otlarning kishnashiga taqliddir.

Adabiyotlar

1. Мирсаидов Б.Т. Художественный образ птиц в мистической поэзии средних веков (XI-XIII вв). Автореф. дисс. КФН. - Худжанд, 2004.
2. Орехова Ю.С. Анималистическая литература Франции: традиции и их трансформация в творчестве С.Г.Коллет. Автореф. дисс.КФН. - Калининград, 2008.
3. Ruscha-o'zbekcha lug'at. Ikki tomli. T.II.-T.: O'zbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1984.

4. Tog'ay Murod. Seton-Tompson kitobiga so'zboshim.//E.Seton-Tompson. Yovvoyi yo'rg'a. Jonivorlar haqida hikoyalar. – T.: Noshir, 2010.

UDK: 494.3

QIPCHOQ ETNONIMI PROFESSOR XUDOYBERDI DONIYOROV TALQINIDA

Sanaqulov U., Karimov S.

Samarqand davlat universiteti

Professor Xudoyberdi Doniyorov tavalludining 90 yilligiga bag'ishlangan «Istiqlol davri o'zbek dialektologiyasining dolzarb muammolari» ilmiy-nazariy anjumani oldidan

Annotatsiya. Maqolada atoqli o'zbek tilshunosi professor Xudoyberdi Doniyorovning dialektologiya ilmiga doir, xususan qipchoq etnonimi to'g'risidagi qarashlarini tahlil qilish orqali olimning nafaqat o'zbek tilshunosligi, balki turkologiyaga qo'shgan hissasi haqida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: qipchoq, etnononim, etnogenez, turk-o'zbeklar, qipchoq-o'zbeklar, o'g'uz-o'zbeklar, dialekt.

Этноним «Кипчак» в интерпретации профессора Худойберди Дониёрова

Аннотация. В данной статье в процессе анализа взгляды виднейшего узбекского языковеда, профессора Худайберди Даниярова о диалектологии и этнониме кипчак изложены мысли о вкладе ученого в развитии узбекского языкознания и тюркологии.

Ключевые слова: кипчак, этноним, этногенез, тюрки-узбеки, кипчаки-узбеки, огузы-узбеки, диалект.

Ethnonym of «Kypchak» in interpretation of Khudaiberdi Daniyarov

Abstract. In this article analyzed views of famous Uzbek linguist prof. Kh.Daniyarov about ethnonym of «Kypchak» and his contribution for developing of Uzbek linguistics and turkology.

Keywords: kypchak, ethnonymus, etnogenesis, turk-uzbeks, kypchak-uzbeks, oghuz-uzbeks, dialect.

Respublikamizning toponimik xaritasida qipchoq nomi bilan juda ko'p joy nomlari o'rin olgan. Bu nomlarining o'ziga xos etnogenez va etnik tarixga egaligi haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud. Jumladan, taniqli tilshunos olim Xudoyberdi Doniyorovning o'nga yaqin asarlari ana shu mavzuga bag'ishlangan.

X.Doniyorov qipchoq etnonimi haqida fikr yuritar ekan qipchoqlarni o'zbek xalqining shakllanishida asosiy komponentlardan biri deb hisoblaydi [4]. Hozirgi paytda bu fikr fanda o'z tasdig'ini topdi. Olim taniqli etnograf M.G'.Vahobovning fikriga qo'shilgan holda o'zbek xalqining shakllanishida uch guruh qabila-urug'lar asosiy komponent sanalganligini aytgan: turk-o'zbeklar, qipchoq-o'zbeklar, o'g'uz-o'zbeklar kabi. Birinchisi turkiy-o'zbeklar bo'lib, ular eng qadimgi davrlardan hozirgi O'zbekiston hududida tub aholi sifatida yashab kelishgan va o'zlarni XVI asrga qadar turklar deb ataganlar; ikkinchisi, qipchoq-o'zbeklar ham qadimgi turkiy qabilalardan sanalgan. Ular asosiy qismi qadimgi davrlarda Itil (Volga), Dunay daryolari, Hazar (Kasbiy), Orol dengizlari va Urol tog'lari, G'arbiy Sibirdagi Irtish va Yenisey daryolari bo'ylarida hamda Yettisuvda yashaganlar. Yettisuvda ham Turk hoqonligida ancha katta mavqega ega bo'lgan. XIII-XIV asrlarga kelib, bu ko'chmanchi o'zbeklar Dashtiqipchoq cho'llaridagi Oltin O'rda davlatidan ajralib chiqqan «Oq O'rda» nomli o'zbek ulusini (davlatini) tuzishgan. Uning markazi Sirdaryoning o'rta oqimidagi Turkiston (Sig'noq) shahri bo'lgan.

X.Doniyorov ko'chmanchi qipchoq-o'zbeklarning Markaziy Osiyodagi tub aholining turk-o'zbeklar bilan aloqa-munosabatini va tarkibiga kelib qo'shilishi davrini ba'zi tarixchilarning XV-XVI asrlardan, aniqrog'i Shayboniy boshchiligidagi yarim ko'chmanchi o'zbeklarning kirib kelish vaqtidan boshlangan deb qarashlariga haqli ravishda e'tiroz bildirgan. Olim bunday qarash haqiqatga to'g'ri kelmasligini aytib, qipchoq-o'zbeklarning Markaziy Osiyo bilan yaqin munosabati va bu yerlarga

kela boshlashi juda qadim davrlardan boshlanganligini ta'kidlaydi. Shuning uchun ham ular son va tarkib jihatidan o'zbek xalqining eng katta komponentini tashkil etganligi haqidagi fikri haqiqatga mos keladi. Chunki hozir ham dialektal jihatdan ularning lahjasida so'zlovchilar O'zbekistonning ko'p hududlarida mavjud. Qipchoqshunos olim Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududlariga qipchoq-o'zbeklarining kirib kelishi va bu yerdagi tub turg'un yashab kelgan turk-o'zbeklar bilan aralashuvini uch davrga bo'lib ko'rsatadi:

Birinci davr eng qadimdan (miloddan avvalgi davrdan) to milodiy XIII asrgacha (Chingixon istilosi, ya'ni 1222-yilgacha) deb qaraladi. Olim sharqshunos N.A.Aristovning fikriga tayanib, qanglilar va qipchoqlar miloddan avvalgi 159-yilda hozirgi O'zbekiston hududlariga kirib kelishganligini aytadi. U bu davrlarda qipchoqlar Toshkent, Farg'ona, Zarafshon vodiylarini, Buxoro, hatto, Xivagacha bo'lgan yerlarni egallaganliklarini yozadi.

Ikkinchi davr XIII asrning 20-yillaridan XVI asrning boshlarigacha, ya'ni Chingixonning Markaziy Osiyo hududlarini istilo qilgan davri bilan bog'liq. (Bu davrlarda qipchoqlarning Kunjek nomli boshlig'i bo'lgan [4.25]).

Uchinchi davr XVI asrdan boshlangan. Bu davrda qipchoq-o'zbeklari Markaziy Osiyoga yoppasiga kelib joylashgan va ana shu davrdan boshlab, ular Markaziy Osiyodagi turg'un turk-o'zbeklar bilan har tomonlama aralashish yo'liga o'ta boshlaydilar. Shaybonixon boshchiligidagi qipchoq-o'zbeklar Movarounnahr va Xuroson hukmronligini to'liq qo'lga kiritgach, ular bu yerlarga abadiy o'nashib qoladilar va bu yerdagi o'troq turk-o'zbeklar bilan birlashib, aralashib ketganlar [4.7-12]. Shuningdek, bu davrlarda temuriylar avlodlari bilan chatishuv-aralashuvi ham tezlashgan [8].

X.Doniyorov «O'zbek xalqining shajara va shevalari» nomli kitobining yana bir o'rinda qipchoqlar haqida qiziqarli ma'lumotlarni beradi. U tarix fanlari doktori T.A.Jdankoning Qoraqalpog'istondagi ba'zi qipchoq urug'larga oid bo'lgan kishilarni XI asrda O'rta Osiyoni egallagan kidanlar bilan kelib chiqishi jihatdan bog'liq degan fikriga qo'shiladi. U O'zbekistondagi shunday qabilaga mansub bo'lgan kishilarning, ya'ni Qoraqalpoq qipchoqlarining kelib chiqishi tarixi ham o'sha kidanlar bilan bog'liq deb hisoblaydi [5., 4.91]. Umuman, X.Doniyorov qipchoqlarning Markaziy Osiyoga kirib kelishi davri haqida quyidagicha xulosaga keladi: «Qipchoq o'zbeklari Markaziy Osiyoga ba'zi olimlar o'ylaganlaridek, faqat XVI asrdagina kelgan emas. Balki ular miloddan avvalgi III-II asrlardan (hatto undan oldingi davrlardan) beri kela boshlaganlar. Lekin u vaqtlarda bu yerdagi qipchoqlar boshqa turkiy komponentlarga soniga nisbatan ancha ozchilikni tashkil etganlar. Ularning son jihatdan bu yerga ko'zga ko'rinarli darajada ko'p bo'lib kelishi, olim ta'kidlaganidek, oldinroq qoraxoniylar va saljuqiylar, keyincha chingiziylar va eng so'nggi hamda ko'p miqdorda kelishi XVI asrning boshlarida, aniqrog'i Shaybonixon hukmronligi davriga to'g'ri keladi.

Shuningdek, qipchoq o'zbeklar, ba'zi kishilar o'ylaganidek, Markaziy Osiyoga kelganga qadar ko'chmanchi, juda qoloq davlat vakillari bo'lgan emas, balki ular ham bu davrgacha turg'un hayotga, ancha katta madaniyatga, og'zaki va yozma adabiyotga ega bo'lganlar. Ular bu yerga kelganga qadar Misrda, Turkiyada va xususan, Oltin O'rda hamda temuriylar davlatida juda katta mavqega ega bo'lganlar. Ular temuriylar davlati bilan eng yaqin iqtisodiy, siyosiy, madaniy va hatto, qarindoshlik munosabatlarida bo'lishgan...» [4.94-95]. Ushbu muhim ma'lumotlar bilan birlikda olim o'z asarida qipchoq qabilasiga xos juda ko'p urug'lar va ularga xos tarmoqlarining nomlari va tarqalish hududi haqida muhim ma'lumotlar bergan.

X.Doniyorovning «O'zbek xalqining shajara va shevalari» nomli kitobidagi qipchoqlarning o'zbek xalqining qadimiy ajdodlaridan biri ekanligi o'tmish va zamondosh olimlarning ma'lumotlarida to'liq o'z tasdig'ini topdi.

Tarixiy, jumladan, tilshunoslik manbalarida «qipchoq etnonimi» etnogenezi qadimgi yirik turkiy qabilalardan biri sifatida qaraladi. Bu etnonim haqida o'tmish mabalaridan XI asr olimi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida muhim ma'lumot mavjud. Asarda qipchoqlar turkiy qavmlar orasida ancha katta va qadimiy qabila-urug'lardan deb izohlanadi. Hatto, ularning yashagan joylari va ba'zi shaharlari hamda tili haqida ma'lumotlar beriladi. Masalan, Tavar shahri va Qashqar yaqinidagi bir shahar ularga tegishli bo'lgan. Tiroz yonidagi Kantuan shahri ularning chegarasi deyiladi. Qangli urug'lari qipchoq qabilasining kattalari sifatida ko'rsatiladi. Bundan qipchoqlar bilan qanglilarni til jihatdan yaqin va qadim davrlarda bir ittifoqda bo'lishgan, deb qarash mumkin. Til jihatdan ularning bir qismi o'g'uz, bir qismi chigil va yana bir qismi ko'chmanchilarga o'xshash bo'lganligi ham aytiladi [6.495-496].

Tarixchi Abulg'oziy Bahodirxon (1603-1664)ning «Shajarai turk» asarida «qipchoq» etnonimining etnik xususiyati va qipchoqlar tarixi hamda Dashtiqipchoq haqida quyidagi fikrlar mavjud: «Ulug' podsholarning odatlari turur. Uzoq safarg'a borg'anda ko'chlarin olib bormoq... O'g'uzxonning bir begi ko'chin olib borib erdi. O'zi urushg'a o'ldi. Xotuni qurtulub ikki suvning orasinda xon keyinidin ketdi. Yukli erdi. To'lg'ag'i tutdi. Ko'p sovuq erdi. Kirmaqqa ev yo'q, bir chirik yag'ochning ichinda o'g'lon tug'urdi. Muni xong'a ma'lum qildilar, ersa, xon aytdi: «Muning otasi bizning oldimizda o'ldi. G'amqo'ri yo'q», deb o'g'ul o'kundi (o'g'il qilib oldi), otini Qipchoq qo'ydi. Qadimgi turk tilida ichi qo'sh (bo'sh, kovak) yog'ochni qipchoq derlar erkandur... Ul (Qipchoq ataligan) o'g'lonni xon o'z qo'linda saqladi (tarbiyaladi). Yigit bo'lgandin so'ng... Qipchoqg'a ko'p el va navkar berib... Atil (Itil) suvining yaqasina yubordi... Uch yuz yil Qipchoq ul yerlarda podshohliq qilib o'lturdi. Barcha qipchoq eli aning naslindin tururlar. O'g'uzxonning zamonidin to Chingizxon zamonigacha Tin, Atil va Yoyiq, bu uch suvning yoqosinda Qipchoqdin o'zga el yo'q erdi... Aning uchun ul yerlarni Dashtiqipchoq derlar» («Shajarai turk», 21-22-b) [9.82]. Demak, Abulg'oziy Bahodirxon qipchoq etnonimini yuzaga kelishini shaxs nomi bilan bog'lagan. Shunga qaramay, Abulg'oziy Bahodirxon qipchoqlarning yuzaga kelishi, yashash va tarqalish o'rni, hukmdorlik davrlari haqida bergan ma'lumotlar xarakterlidir. Aslida o'zbek etnonimidek, qipchoq ham qadimgi turkiy urug'-qabila nomini ifodalagan.

Ba'zi tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, qipchoqlar Osiyoda juda eski turk qabilalardan biri (Abulg'oziy bo'yicha O'g'uzxon zamonida paydo bo'lgan) bo'lsalar-da, Yevropa va Ruslarga hijriy 447, milodiy 1055-yillardagina Dnepr daryosi bo'ylarida, Peryoslovul shahri atroflarida paydo bo'lganligi ma'lum bo'lgan. Ularning ko'prog'i ko'chmanchi va ba'zilar shaharlarda turg'un madaniy hayot kechirganlar. Tarixiy manbalarda ularning maxsus shaharlari ham bo'lganligi aytilgan. Turkiston saholari atrofida, Yoyiq, Volga, Don daryolari sohillarida, Bahri Hazar, Azoq va Qora dengizi bo'ylarida, Qrim hududlari, Dnepr, balki, Dunayga qadar bo'lgan yerlar qipchoqlarga nisbat berib, Dashtiqipchoq (Qipchoq sahrosi) nomi bilan ataganlar. Boshqa manbalarda ularga xos juda ko'p urug'lar bo'lganligi ham ta'kidlanadi [2.156-157].

Qipchoqlarning qadimda turkiy qabilalar ittifoqidagi o'rni haqida taniqli olim Nasimxon Rahmonov muhim ma'lumotlar beradi. Uning fikricha, qipchoq urug'i aslida arshakiylarga borib taqaladi. Ashakiylar sak turklari birlashmalari tarkibida bo'lgan, ularning miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikda mustaqil davlatlari yuzaga kelgan. Ular turkiy tilning qipchoq-o'g'uz lahjasida so'zlashganlar. Shu bois qipchoqlar bu davlatning tayanchlaridan bo'lgan urug'lardan sanalgan. Bu davlat o'sha davrlarda Eronning Sharqiy qismini, Turkmanistonni, Anatoliya (Turkiya)ni o'z ichiga olgan. *Arshak* aslida turkiycha bo'lib, *ar* va *shak*, ya'ni *er* va *sak* so'zlaridan shakllangan. Yevropada ular *kimerlar* deb yuritilgan. Arshak davlatiga Kasbiy dengizining janubi-sharqidagi *day* qabilasining boshlig'i Arshak asos solgan. Bu davlat 7 ta turk urug'i-qabilasidan: imi, imak, tatar, boyandir, qipchoq, xidxaz va islanlardan tashkil topgan. Keyinchalik ular bilan yana (milodgacha 452-429-yillarda) *kichikarshakiylar* birlashib iqtisodiy va harbiy jihatdan mavqeyi mustahkamlangan sakiskitlarning dunyodagi eng qudratli davlatlaridan biriga aylangan. Shuningdek, miloddan avvalgi VII asrda shakllangan Kengaras (Kenagas) davlati tarkibida ham qipchoqlarning mavqeyi baland bo'lgan. Hatto, davlat boshida kenagaslar tursa-da, ularga qaraganda qipchoqlarning mavqeyi ustun turgan. Davlat boshqaruvida qipchoqlar bilan birga qorluq va o'g'uz guruhlarining mavqeyi ham sezilarli bo'lgan. Umuman, bu davlatda miloddan oldingi VII asrdan to turk hoqonligi tugaguncha qipchoqlar, qarluqlar, o'g'uzlar mavqeyi ustun bo'lgan. Kengaras davlati milodiy V asrgacha yashab, Samarqand, Kesh, Kushon, Toshkent, Buxoro va Xorazm hududlarida hukmronlik qilgan [7.9-11].

Qipchoqlar va ularning qisqacha tarixi haqida akademik Karim Shoniyozovning, ma'lumotlari o'ziga xos o'rin egallaydi. Olimning yozishicha, qipchoqlar qadimgi turkiy qabilalardan biri bo'lgan. Bular miloddan avvalgi III-II asrlarda va milodiy I-II asrlarda Oltoy tog'larining shimoli-g'arbiy mintaqalarida, Irtish daryosi bo'ylarida, Tarbag'atayning g'arbiy mintaqalarida yashaganlar. VI asrning ikkinchi yarimlarida qipchoqlarning talay qismi Turk hoqonliklari tarkibida bo'lgan. Shu davrlarda ular Oltoydan chiqib, Irtish daryosining sohillariga ko'chib o'tib, Ishim, Tobol daryosi havzalarida va Urol tog'oldi mintaqalariga joylashgan, IX-X asrlarda Kimak davlati tarkibida bo'lgan. XI asr boshlarida qipchoqlar kuchayib ketib, o'zlari mustaqil qabila ittifoqini tuzishgan. XI asrning birinchi choraklarida qipchoqlarning katta qismi Sirdaryo bo'ylariga, unga tutash cho'llarga kelib o'rtnashgan edilar. XI asr o'rtalarida esa, ularning yana bir katta qismi Volga daryosi sohillariga – Janubiy rus cho'llariga borib o'rtnashganlar va XIII asr boshlarigacha bu yerlarda hukmronlik

qilishgan. Rus solnomalarida ular *polovsi*, *kuman* nomlari bilan tilga olingan. XIII asrning birinchi yarimida qipchoqlar mo'g'ullar istilosidan qattiq talafotga uchrab, ularning bir qismi G'arbiy Yevropaga (Vengriya, Yunoniston), Misr, va Old Osiyo mintaqalariga borib o'rinishganlar, keyinchalik o'sha yerdagi mahalliy aholi bilan aralashib ketgan [10.177].

Shuningdek, akademik G'.Abdurahmonov o'zining «O'zbek xalqi va tilining shakllanishi haqida» risolasida R.A.Guseynov fikrlariga qo'shilgan holda, X asrning birinchi yarimida Turkistonda o'g'uz va qipchoq turkiy qabilalarining uyushmasi (saljuqiylar) tuzilib, X-XII asrlardan oldingi Osiyoni egallab, Turkistondan O'rta yer dengizigacha bo'lgan hududlarda o'z hokimiyatlarini o'rnatgan, degan xulosaga kelgan. K.Shoniyozovning ma'lumotlariga asoslanib, qipchoqlarning sharqiy guruhi hozirgi O'zbekiston hududida, Sirdaryo bo'ylarida XI asrlarda yashab, o'zbek xalqining tarkibiga kirganliklarini (g'arbiy qipchoqlar o'zbek xalqi tarixiga keyinroq, XIV-XVI asrlarda qo'shilganligini) aytgan va O'zbekistondagi qipchoq urug'lari nomi va ularning til xususiyatlari hozirgacha respublikamizning deyarli hamma viloyatlarida saqlanganligini ta'kidlagan. Shuningdek, ko'chmanchi qipchoqlarning bir qismi Dashtiqipchoqda qolib, XV asr 80-yillarida turk-mo'g'ul qavmlari bilan qozoq xonligiga asos soldilar, deydi [1.29, 43].

Dashtiqipchoq toponimining qipchoq etnonimiga aloqasi haqida O'zbekistonda etnologiya sohasining asoschilaridan hisoblangan B.Ahmedov, A.Asqarov va K.Shoniyozovlarning ma'lumotlari diqqatga molik. Dashtiqipchoq hududi va qipchoq aholisining qadimda yashash va tarqalish o'rnini, nomlanishi haqida ularning muhim mulohazalari mavjud.

Akademik Ahmadali Asqarov ma'lumotlariga ko'ra, Sirdaryoning yuqori oqimi va Tyanshan tog' tizmalarining g'arbiy yon bag'irlaridan Dnepr daryosining quyi oqimiga qadar yoyilgan dashtlar XI-XV asrlarga oid arab-fors manbalarida Dashtiqipchoq deb tilga olingan. Dashtiqipchoq aholisi sharq manbalarida – qipchoqlar, ruslarda – poloveslar, vizantiyaliklarda – kumanlar, vengerlarda – kunlar (gunlar) deb atalganligi ta'kidlanadi. Dashtiqipchoq ikki, ya'ni sharqiy va g'arbiy qismlardan iborat bo'lgan. G'arbiy qismiga Yoyiq (Urol) va Itil (Volga) daryolaridan to Dneprgacha bo'lgan hududlar kirgan. Undan Sharqqa tomon cho'zilgan dashtlar sharqiy Dashtiqipchoq hududlarini tashkil qilgan. Yoyiq daryosi ularning chegarasi hisoblangan.

XIII asr boshlarida Dashtiqipchoqqa mo'g'ul istilochilari kirib keldi. Qipchoqlar XIV-XV asrlarda guruh-guruh bo'lib, Shimoliy Kavkazda, Qrimda, Volgabo'ylarida, Urol tog'oldi mintaqalarda, Dashtiqipchoqning sharqiy qismida, Yettisuvda yashar edilar. Amir Temur Sirdaryoning quyi qismida yashovchi qipchoqlarni Movarounnahrqa ko'chirgan. Ular tarkibi jihatdan: arlot, bahrin, burqut, do'rmon, iyjon, qitoy, qarluq, mo'yor, qipchoq, qiyot, qo'ng'iroq, qurlovut, mang'it, nayman, nukus, tangut, uyg'ur, markit, qo'shchi, o'tarchi, jot, chimboy, kenagas, uyshin, tuboyi, toymas, echki, tuman-ming, shodbaxtli va boshqalardan iborat bo'lgan. Bu qabilalar XIII asr boshlaridan tarix maydonida sahroyi suvoriy o'zbeklar nomi ostida ataldilar [3.258, 266].

Qipchoqlar haqida Temur tuzuklarida, ayniqsa, akademik Bo'riboy Ahmedovning «Tarixdan saboqlar» kitobida muhim ma'lumotlar bor. Masalan, Sirdaryoning quyi oqimi va Balxash ko'lidan to Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlar XI asrdan boshlab Dashtiqipchoq deb atalgan. *Qipchoq* shaklidagi so'z rus va Vizantiya solnomalarida uchramaydi. Balki bu so'z o'rnida rus solnomalarida *poloves*, vizantiyaliklarda esa *kuman* atamasi qo'llanilgan. Sharq solnomalarida *qipchoq* shaklidagi atamani ilk bor Nosir Xusrav (1003-1088 yy.) qo'llagan. So'ng qipchoqlar tarqalgan hududlar shu nom bilan atala boshlangan. Bu o'lkaning aholisi, asosan, turkiy tilli qipchoq qabila-urug'lardan tashkil topgan. Dashtiqipchoq davlati XII asr boshlarida katta harbiy kuchga ega bo'lgan va 1220/21- yillarda Kavkazda gruzinlar bilan ittifoq bo'lib, Eronga qarshi kurashgan.

Dashtiqipchoq ikki qismga: Sharqiy va G'arbiy qismga bo'lingan. Uning sharqiy qismi Yoyiq (Urol) daryosi va Sirdaryoning quyi oqimidan to Balxash ko'ligacha bo'lgan yerlar va g'arbiy qismi Yoyiq va Volga daryolaridan to Dneprgacha bo'lgan hududlari (Volganing o'rta va quyi oqimi, Qrim va Janubiy Rus yerlari)ni o'z ichiga olgan. Dashtiqipchoqning asosiy aholisi ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi bo'lib, chorvachilik va ovchilik bilan, vohalarida, daryo va ko'l yoqalarida istiqomat qiluvchilari esa o'troq holda yashab, qisman dehqonchilik, ziroatchilik bilan mashg'ul bo'lishgan. Ularning Saroy Botu (Oltin O'rda davlatining poytaxti, hozirgi Astraxan yaqinida joylashgan), Saroy Berka (hozirgi Volgograd yaqinida), O'rdu-O'rda bozor (taxminan Qorasuv daryosi bo'ylarida joylashgan. Bu yer Mahmudxon, Ahmadxon va Abulxayrixonlar davrida qarorgoh bo'lgan), Sig'noq, Suzoq, Arquq, O'zgand kabi bir qancha shaharlari bo'lgan. Bu shaharlarda hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan ham shug'ullanishgan. Ularning savdo-sotig'ida mol ayriboshlash asosiy o'rin egallagan.

Chorva mollari va mahsulotlari hayvon terisidan va junidan tayyorlangan. To'qilgan turli buyumlar, matolar asosiy savdo tovarlari sanalgan. Ko'chmanchi aholi tarkibida turli qabila-urug'lar bo'lsa-da, ularning asosiy qismi turkiyzabon ko'chmanchi o'zbeklar edilar. Lekin Dashtiqipchoqni chingiziylar istilo etgach, kelgindilar bilan aralashuvi tufayli bu o'lkadagi qabilalar, jumladan qipchoqlar ham turkmo'g'ul nomini olgan. Aslida Dashtiqipchoq elati va uning hududlari bilan mo'g'ul qavmining qadimda aloqasi bo'lmagan.

Tarixiy manbalarga asoslangan bu ma'lumotlar ham X.Doniyorovning qipchoq-o'zbeklar turkiy qabilalarning yirik va eng qadimgi bo'g'inlaridan biri ekanligi, ularning Markaziy Osiyoda tub aholi sanalgan turkiy-o'zbeklar bilan aloqa-munosabati va aralashuvi miloddan avvalgi davrlarga borib taqalishi haqidagi fikrlarning ilmiy asosga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar

1. Abdurahmonov G'. O'zbek xalqi va tilining shakllanishi haqida. – Toshkent, 1999. -88 b.
2. Abushiy X.A. Turkiy qavmlar tarixi. – Toshkent: Cho'lpon, 1993. -240 b.
3. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: Universitet, 2007. -340 b.
4. Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. – Toshkent: Fan, 1968. -99 b.
5. Jdanko T.A. Karakalpaki (osnoviye problemi etnicheskoy istorii i etnografii). – Moskva, 1964. – 172 c.
6. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1960. -500 b.
7. Rahmonov N. Turk hoqonligi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy, 1993. -142 b.
8. Sanaqulov U. Qipchoq etnonimi va uning Dashtiqipchoq toponimiga aloqasi. – Toshkent: Navro'z, 2015. -48 b.
9. Xudoynazarov H. «Shajarai turk» va uning o'rganilishi. – Toshkent: O'qituvchi, 1993. -128 b.
10. Shoniyozov K. Qarluq davlati va qarluqlar. – Toshkent: Sharq, 1999. -191 b.

УДК: 81'276.11

СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ВЫРАЖЕНИЙ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ

Хушмуродова Ш. Ш.

Самаркандский государственный университет

E-mail: xushmurodova.shahnoza@yahoo.com

Аннотация. В статье автор исследует английские и узбекские фразы и выражения, которые используются в определенных ситуациях в межкультурной коммуникации. Большое внимание автор уделяет несоответствиям английских и узбекских выражений при переводе с одного языка на другой. Статья обладает практической ценностью, так как результаты исследования могут быть применены в практике межкультурного общения. Теоретическая часть исследования подтверждается многочисленными примерами.

Ключевые слова: общение, культура, международный, межкультурный, языковая культура, фраза, выражение, эквивалент, аналог.

Ingliz va o'zbek tillarida madaniyatlararo muloqot iboralarining qiyosiy tahlili

Annatsiya. Maqolada muallif ingliz va o'zbek tillariga xos ibora va kalimalarning madaniyatlararo muloqotning ayrim vaziyatlarida qo'llanilishini o'rganadi. Bunda muallif tarjima jarayonida o'zbek va ingliz tilidagi iboralar hamisha ham ma'no jihatdan mos kelavermasligiga katta e'tibor qaratadi. Maqola amaliy ahamiyatga ega, chunki unda aks etgan tadqiqot natijalari madaniyatlararo muloqot jarayoni amaliyotida qo'llanilishi mumkin. Tadqiqotning nazariy jihati misollar yordamida dalillangan.

Kalit so'zlar: muloqot, madaniyat, xalqaro, madaniyatlararo, til madaniyati, ibora, ifoda, ekvivalent, analog.

The comparative analysis of the English and Uzbek expressions of intercultural communication

Abstract. In the article the author investigates English and Uzbek phrases and expressions used in definite situations in intercultural communication. A special attention is paid to differences of

English and Uzbek expressions in translation from one language into another. The article has practical value as the results of investigation can be used in the practice of intercultural communication. Theoretical part of investigation is proved by numerous examples.

Keywords: communication, culture, international, intercultural, lingual culture, phrase, expression, equivalent, analogue.

На современном этапе развития общества и расширения сферы международных отношений знание иностранного языка (в нашем случае английского) становится крайне необходимым и востребованным. Почти все иностранные партнёры, независимо от их нации и языка, прекрасно говорят на английском языке. Как известно, английский язык является топ языком межкультурного общения, так как именно на английском языке ведутся международные научные конференции и симпозиумы, спортивные соревнования и политические переговоры.

Английский язык невероятно богат фразами и выражениями, которые регистрируются в специальных словарях, справочниках и используются в повседневной речи. Английский язык изучается и преподаётся почти во всех странах мира. Статистика показывает, что более 70 % людей, говорящих на английском языке, не являются его носителями, т.е. английский не является их родным языком.

Хорошее знание английского языка недостаточно для правильного общения между носителями английского языка и не носителями. Возникает вопрос: почему? Ответ ясен: участники межкультурного общения, в нашем случае узбекские и английские партнёры, принадлежат к разным языковым культурам со своеобразной историей, религией, культурой и национальной спецификой. В процессе межкультурного диалога происходит определённое несоответствие между выражениями разных языковых культур, например: узбекской и английской.

Самой распространенной ошибкой межкультурного общения становится буквальный или дословный перевод узбекских выражений или фраз на английский язык и наоборот. Многие коммуниканты лишь переводят существующие в узбекском языке выражения на английский язык, не задумываясь о последствиях дословного перевода. Особенно это важно учитывать специалистам сферы межкультурного общения, которые должны глубоко изучать фразы и выражения, которые реально существуют в английском языке и используются в той или иной ситуации.

Всё это свидетельствует об актуальности темы исследования, так как она связана с межкультурной коммуникацией представителей разных языковых культур. Подготовка компетентных специалистов в этой сфере становится важным в нашей стране, развивающей международные отношения со странами мира в разных сферах. Правильное использование английских выражений в межкультурном общении играет важную роль.

Следовательно, цель настоящей статьи – изучить английские и узбекские выражения, применяемые в разных ситуациях на основе сопоставительного анализа.

Самой частой причиной неправильного использования тех или иных выражений является, как это было указано выше, буквальный перевод. Это было доказано Линн Виссон (Lynn Visson) в значимом труде “Where Russians Go Wrong in Spoken English: Words and Expressions in the Context of Two Cultures” (Русские проблемы в английской речи: Слова и фразы в контексте двух культур). В этой книге автор указала, что часто используется американизированный вариант “I gonna” (я иду) вместо стандартного выражения “I’m going” или “I wanna” (я хочу) вместо of “I want to”. Использование этих фраз является некорректным и даже грубым. Хотя фразы обладают совершенно одинаковой семантикой, они принадлежат к разным лексическим слоям и стилям речи.

Однажды автор стала свидетелем случая, когда русская женщина хотела попросить, чтобы не открывали окно, она сказала: “Don’t open the window” (Не открывайте окно). Такое предложение послышалось слишком грубым, так как приобрело акцент приказа. Она должна была сказать: “It is not necessary to open the window” [3; 4-5] (Нет нужды в том, чтобы открыть окно). Значение этого предложения одинаковое со значением первого, но оно является более приемлемым и приобретает вежливую форму.

На материале английских и узбекских фраз и выражений стало очевидным их разнообразие и несоответствие на лингвокультурологическом уровне. Это говорит о том, что нельзя дословно переводить выражения с одного языка на другой. Проблема заключается не в выборе лексики, а в выборе ситуации, для которой данная лексика подходит. Специалисты английского языка должны знать, когда можно или нужно употреблять то или иное выражение.

В узбекской лингвокультуре распространённым выражением, которое говорят родственники, знакомые или друзья при случайной встрече на улице, в магазине или каком-либо учреждении, является выражение «Келинг» (для единственного числа), «Келингла» (для множественного числа). Эта фраза имеет буквальный перевод: «Приходите». Узбекский народ славится своим гостеприимством и дружелюбностью, поэтому эту фразу можно услышать на каждом шагу. Такой повседневной и обиходной фразы не существует в английской языковой культуре, вернее при необходимости её можно сказать, но лишь тогда, когда речь идёт о реальном приглашении кого-либо к себе домой и т.д.

Накрыть на стол, пригласить на пиалу чая и угостить восточными сладостями – обязательная процедура в узбекском домашнем быту. При этом гостеприимные хозяева часто говорят: “Дастурхонга каранг”, прося гостей угощаться и чувствовать себя как дома. Если мы переведём это выражение дословно, то получим: «Смотрите на скатерть». Мы не сможем перевести фразу на английский язык, используя дословный перевод. В английском языке существует другая фраза “Helpyourself (yourselves)”, которая дословно переводится: «Помогите себе».

На примере этих самых обыкновённых выражений, употребляемых за столом, становится ясно, что следует избегать буквальный перевод, который может привести к неправильному ходу беседы, а дословно переведённые фразы с одного языка на другой, могут быть не только непонятными, но порой грубыми или смешными.

Трудно переводить и выражения, не свойственные для определенной языковой культуры. Так, английскому фразеологизму “zoodaddy” трудно подобрать узбекский эквивалент или аналог, так как подобного выражения не существует в узбекском фразеологическом фонде. Данная фразеологическая единица переводится лексическим способом как «разведённый мужчина с правом встречаться со своими детьми, которых он отводит в зоопарк по выходным».

Вспомним, что «идиомы – это выражения, которые обозначают вовсе не то, что заложено в их лексике» [2; 129]. К примеру, при употреблении английского выражения “it’s raining cats and dogs”, не имеется в виду, что кошки и собаки падают с неба, а подразумевается, что идет сильный дождь, ливень. Такое выражение не может быть переведено на узбекский язык.

Как и простые слова, идиоматические высказывания обладают национально-культурной спецификой. Например, выражения типа “MerryChristmas”, связанные с национальными праздниками или религиозными культурами, являются подтверждением этому.

Видный специалист в теории и практике перевода Бэсснет Сьюзан отмечает: «это ... напрямую связано с английским социально-поведенческим образцом» и предлагает переводчику «не вносить фразу в другой язык, не имеющего общего с переводимым явлением в другой языковой культуре» [1; 42].

Таким образом, в выборе различных выражений в процессе коммуникации с носителями английского языка мы должны обращать внимание на национальные и культурные особенности английской лингвокультуры и их функционирование в речевом акте.

Литература

1. Bassnett Susan. Translation Studies: Revised Edition. – London and New York: Routledge, 1991. – 334 p.
2. Larson Mildred L. Meaning-Based Translation. – University Press of America, 1984. – 269 p.
3. Lynn Visson. “Where Russians Go Wrong in Spoken English: Words and Expressions in the Context of Two Cultures”. – 110 p.

UDK: 891.709

TARIXIY VOQELIK VA BADIY TALQIN**Sulaymonov I.I.***Samarqand davlat universiteti*E-mail: isroil-8103@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur...” nomli dostonida tasvirlangan Zahiriddin Muhammad Bobur badiiy obrazi, uning hayoti, ijodiy faoliyati tahlil etilgan. Dostonda “Boburnoma”da keltirilgan tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar tasviri qay darajada ifodalangani, shoir unga qay yo‘sinda yondashgani xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Sirojiddin Sayyid, firoq va sog‘inch dostoni, Bobur, tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar, ruhiy holat tasviri.

Историческая действительность и художественная интерпретация

Аннотация. В статье анализируется творческая деятельность, жизнь, художественный образ Захириддина Мухаммада Бабура в дастане «Юз ох, Захириддин Мухаммад Бобур» народного поэта Узбекистана Сирожиддина Сайида. В статье говорится о том, насколько отражены исторические личности и события, упомянутые в дастане «Бабурнаме» и авторский подход к нему.

Ключевые слова: Сирожиддин Саййид, дастан разлуки и тоски, Бабур, исторические события, исторические личности, изображение духовного состояния.

Historical reality and artistic interpretation

Annotation. The article analyzes the creative activity, life, and artistic image of Zakhiriddin Mukhammad Babur in the dastan “Yuz oh, Zaxiriddin Muhammad Bobur” of the Uzbek poet Syroziddin Sayyid. In the article it is said how much the historical personalities and events mentioned in dastan “Baburname” and the author’s approach to it are reflected.

Keywords: Syroziddin Sayyid, dastan of separation and longing, Babur, historical events, historical personalities, image of spiritual condition.

Keyingi yillarda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi, ayniqsa uning «Boburnoma» asari tadqiqotchilar diqqatini yanada teranroq o‘ziga jalb etmoqda. Shu sabab Bobur mavzusi turli adabiy turlar: roman, qissa, doston hamda boshqa janrdagi asarlarning yaratilishiga asos bo‘lmoqda. Xususan, O‘zbekiston Xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning «Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur» nomli «firoq va sog‘inch dostoni»ni[5]ham ushbu mavzuda yozilgan asarlar sirasiga kiritish mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, muallif bu janrga qo‘l o‘rishdan oldin Bobur hayoti, ijodiy faoliyati, yashagan davr haqida batafsil ma’lumotga ega bo‘lgani, maxsus tajriba to‘plagani ko‘rinib turibdi. Shoir Sirojiddin Sayyid o‘zbek adabiyotida doston yaratishning yangicha yo‘nalishida «Firoq va sog‘inch dostoni»ni yaratar ekan, Bobur ijodining qaysi tomonlariga e’tibor qaratishi haqida o‘quvchini ogohlantirgandek bo‘ladi. Zamonaviy adabiyotimizda yangilik tarzida yuzaga kelgan mazkur dostonni yaratishda «Boburnoma» matnidan eng diqqatga molik satrlarni tanlab oladi, ularning ba’zilarini epigراف tarzida keltiradi, keltirilgan matnlardan davr ijtimoiy, iqtisodiy, tarixiy faktlarga oid dalillarni XXI asr shoiri dunyoqarashi bilan Bobur dunyoqarashini solishtirgan holda tasvirlaydi, voqealarni rivojlantiradi hamda Bobur yashagan davr ishtirokchisi, Bobur dunyoqarashining hamdami, hamdardi bo‘lib dostonini yaratadi. Bunda kishini hayratlantirgan jihat shundaki, muallif o‘zi yaratgan she’rlari bilan ham yetuk boburshunos olim, ham shoir sifatida namoyon bo‘ladi. U Bobur yashagan davrning eng muammoli nuqtalariga, tarixiy shaxslarning nozik ruhiy holatlari, g‘olib va mag‘lub shaxslar psixologiyasining Bobur tasvirlagan nozik lahzalarini topib, o‘z fikrlarini bayon etadi. Bu o‘z navbatida, tarixiy fakt va dalillardan foydalangan holda badiiy obrazlar yaratib, ularning xarakter-xususiyatida Bobur yaratishni istaganu, ammo ifoda etolmagan o‘rinlarni mahorat bilan tasvirlaydi, shu bois u XXI asr shoiri ma’naviyati va tafakkurini, mustaqillik mafkurasini bayon qilgan shoir sifatida gavdalanadi. S.Sayyid «Boburnoma»ning butun jahonda shuhrat qozonganligi, insoniyat tarixi haqqoniylik bilan ifoda etilgan asar ekani xususida fikr bildirar

ekan, bu asar Boburning umr daftari ekanligi, katta mehnat va mashaqqat evaziga yaratilganligini ta'kidlab, uning ahamiyatini izohlab beradi. Shoir o'z fikrini «Boburnoma»dan olingan parchani keltirish bilan boshlaydi va butun dostonida shu uslub hukmronlik qiladi: «Bu bitilganlardin g'araz shikoyat emas, rost hikoyatturkim, bitibturmen. Bu mastur bo'lg'onlardin maqsud o'zning ta'rifi emas, bayoni voqii bu edikim, tahrir etibturmen. Chun bu tarixda andoq iltizom qililibturkim, har so'zning rostini bitilgay va har ishning bayoni voqiini tahrir etilgay...» (1506-1507-yil voqealari) [5;9].

Bu olam aro ajab alamlar ko'rdum,

Olam elidin turfa sitamlar ko'rdum.

Har kim bu «Vaqoyi'»ni o'qur, bilgaykim,

Ne ranju ne mehnatu ne g'amlar ko'rdum.

«Boburnoma»dan keltirilgan ushbu epigraf – ruboiy orqali doston muallifi Boburning fikrini rivojlantirib «Boburnoma»ning jahon adabiyotidagi o'rnini badiiy tarzda ifodalab beradi. Bunda badiiy obraz sifatida Bobur yaratgan shoh asarning o'zi Sirjiddin Sayyid qalami bilan ta'riflanib, shoir sifatleri bilan ifodalanadi:

«Boburnoma»,

«Boburnoma» –

Shoh shoirdan avlodlarga

Mangu o'lmas,

Qadrnoma.

Bunda ko'ngil lolasidir,

Bunda umr nolasidir,

Dardu g'am maqolasidir,

Har bir noma, –

Taqdirnoma.

Shu tarzda she'r bandining oxirgi misrasi, misli «Jabrnoma», «Harbiynoma», «Kabir noma», «Botirnoma», «Xotirnoma», «Sabrnoma» -«Boburnoma» kabi «Boburnoma»ning mazmuni, mohiyatini anglatib keluvchi shartli sinonim nomlar sifatida talqin etiladi.

S.Sayyid «Boburnoma»dan iqtibos tanlar ekan, juda ehtiyotkorlik bilan yo'l tutadi. Bobur asarining tub mohiyatini anglagan holda shoir faqat asarni o'zini sinchiklab o'rganmagan, balki Bobur ijodi va uning bu shoh asari bilan bog'liq o'sha davrda yaratilgan tarixiy, adabiy, esdaliknomalarni ham chuqur o'rgangan holda dostonini yaratishga muvaffaq bo'lgan. Bu holat «Boburnoma»dan olingan har bir parchada o'z aksini topgan desak, xato bo'lmaydi. Bu parchalar tub mohiyati jihatidan Boburning hayoti, dunyoqarashi, asarda ko'zda tutilgan har bir g'oyasi va aytilmay qolgan fikrlaridek taassurot uyg'otadiki, o'quvchi gohida bu misralarni Bobur aytgandek qabul qiladi, uning mag'lublik holati tasvirida Bobur bilan birgalikda aziyat chekadi, uning atrofidagi beklari, davr a'yonlari tomonidan ko'rsatilgan behisob xiyonatlarga achinish hissi paydo bo'lib, Boburga hamdard bo'ladi.

Dostonda muallif «El tavri» nomli she'rida «Boburnoma»dan olingan quyidagi parchani tarixiy asos sifatida keltirib, unga Bobur nazmidan bir necha baytni ham birinchi manba sifatida ilova qilib o'z qarashlarini bayon etadi: «O'zlarining beklariga ne vafo qildilarkim, bizga vafo qilgaylar?.. Bataxis bizning ko'zimizning o'trusida bizning otimizni minib, bizning to'numizni kiyib, bizning qo'yumizni yeb yurugaylar, munga kim xud taammul qilgay?... («Boburnoma», 1495-1498- yil voqealari) [5;34].

Shoir bu davr tarixiy voqealarini yanada oydinlashtirish, shu mavzuni yoritish uchun Bobur lirikasidan namunalar keltirib, tarixiy haqiqatni badiiy talqinda berish uchun ko'mak sifatida foydalanadi:

Ulfatim el birla ozdur, ko'pdir el javri manga,

Ne mening tavrimga yoqar elga, ne el tavrimga.

Yoki:

Go'shae tutsam, jahonning elidin g'am ko'rmasam,

Istaram el ko'rmasa meni yu men ham ko'rmasam.

Ushbu satrlar Boburning eng tushkinlik payti, mag'lublik kayfiyatidagi davriga to'g'ri keladi. S.Sayyid bunga javoban keltirgan she'rida Boburning ushbu tushkin holatini, uning ruhiyatidagi abgor kayfiyatini badiiy tasvirlaydi. Bunda shoir «Boburnoma» muallifining ruhiy holati, mag'lublik paytidagi murakkab kayfiyatini yanada keng, rang-barang tasvirlarda ifodalaydi va bu sahnalarni Bobur obrazi tilidan keltiradiki, o'quvchi uni Bobur qalb qo'ridan chiqqan nido sifatida qabul qiladi:

Doim dil va dinim muvofiq keldi,
 Dinim ne buyursa – dil voqif keldi.
 Mastu bexudlig‘da kechdi goh umrim,
 Arzir nola qilsam: umrim, voh umrim!
 Holim bilgaydirsiz, o‘qib satrimdan,
 El voqif bo‘ldimi biror dardimdan?..
 Xojami, rojami sohibmisan, el?
 O‘zing o‘z holingdan voqifmisan, el?
 Meni nifoqingdan toldirgan ham sen,
 Boshimga balolar yog‘dirgan ham sen.
 Fisqu fasodingda qilmaydursan farq,
 Goh g‘iybatga g‘arqsan, goh chog‘irga g‘arq.

S.Sayyidning «O‘zga savdo» nomli she‘ri Boburni juda hayratga solgan Afg‘onistonning turfa, Bobur uchun yangilik bo‘lgan tabiiy sharoiti – Ningnahor (hozirgi Jalolobod viloyati) tabiati, nabotot va hayvonot olami xususida: «Sha‘bon oyida oftob dalv burjida edikim, Kobuldin Hinduston azimati bila otlanildi... Ningnahorg‘a yetgach, o‘zga olame nazarg‘a keldi: giyohlar o‘zgacha va yig‘ochlar o‘zgacha va vuhush o‘zgacha va tuyur o‘zgacha, el va ulusning roh va rasmi o‘zgacha, hayrate bo‘ldi, filvoqi‘ joyi hayratdur» («Boburnoma», 1503-1504- yil voqealari).

S.Sayyid «Boburnoma»dagi ushbu parchaga tarixiy fakt va Bobur nazari bilan yondashar ekan, tabiatning bu sinoatiga, kishi ruhiyatida hayrat ustiga hayrat uyg‘otgan mu‘jizasiga o‘zining badiiy tasvirini ilova qilib Boburni hayratga solgan bu tasvirni yusak badiiy tarzda ifodalab beradi. Bu tasvirda Bobur asarida sezilmagan ruhiy holat, ajablanish, Bobur tasavvurida paydo bo‘lgan nogahoniy o‘zgacha tabiat manzarasini S.Sayyid rivojlantirib, uni badiiy tasvirlash orqali o‘quvchiga Ningnahor viloyati tabiati, jonli va jonsiz borlig‘i tasvirini beradiki, o‘quvchi «Boburnoma»ning maftunkor tasviridan dostonning badiiy tasviriga ko‘chganini sezmay qoladi. Shu bilan birga, dostonda Bobur badiiy obrazining ichki kechinmalari, ruhiy holati, ko‘p sonli «o‘zgacha»lar girdobida qolgan tasavvurining tasviri dostonga ko‘chib yuksak badiiy tasvirni tashkil etishi kishi hayratini oshiradi:

Bunda davru charxi davvor o‘zgacha,
 Kun bilan tun, shomu nahor o‘zgacha.
 Giyohlar bir g‘arib, og‘ochlar hazin,
 Bunda rangu bo‘yu ifor o‘zgacha.
 Meni keltirmishdir g‘urbat to‘zoni,
 Bunda yuzimdagi g‘ubor o‘zgacha [5;58].

Bunda Sirojiddin Sayyid Bobur badiiy obrazini yaratib uning ichki olamini, «Boburnoma»dagi yuqorida keltirilgan parchaga ilova tarzida obrazning badiiyligini ta‘minlovchi misralarni qo‘shadiki, bu misralar Boburning ichki olami, davr nohaqligidan hayqirig‘i sifatida jaranglaydi. Shuningdek, Bobur atrofida bo‘lgan beqaror kishilarining xarakteri, g‘ayri insoniy tomonlarini yorituvchi badiiy to‘qimalardan iborat misralarki, unda ranj alamga to‘la taqdir ustidan fig‘on kabi yangraydi. Shoir «Boburnoma»dagi tarixiy fakt va dalillar asosida voqealarni umumlashtirib, Bobur obrazini yarata olgani bois o‘quvchi buni go‘yo Boburning o‘zi aytgan fikrlar sifatida qabul qiladi:

Barchaga ranju g‘am bermishsan, falak,
 Menga buyurmishsan ozor o‘zgacha.
 Men o‘zga savdoni xohlagan erdim,
 Berganing menga bu bozor o‘zgacha.
 O‘zing yor bo‘l endi, yo qodir Olloh,
 Bo‘lmish menga yoru diyor o‘zgacha.

Sirojiddin Sayyid dostonini yaratish jarayonida «Boburnoma»ni astoydil o‘rganadi, undagi eng muhim parchalarni she‘rlariga epigraf sifatida keltiradi. Bu parchalar Bobur hayotiy faoliyatiga oid eng muhim lahzalar bo‘lib, Bobur badiiy obrazini yaratishda yuragi tubidan vulqon yanglig‘ otilib chiqayotgan fikrlarni doston satrlariga mohirlik bilan tizganini ko‘ramiz.

«Boburnoma»dan keltiriladigan quyidagi parchada Boburning ruhan tushkun holati, mag‘lubnamo kayfiyati tasvirlangan. Eng yaqin kishilari, qarindosh urug‘lari tomonidan qo‘llab-quvvatlash zarur bo‘lgan bir paytda ular tomonidan dushmanona harakat bo‘lgani, uning taqdiridagi bu mag‘lublik va tushkinlik tasvirini shoir tarixiy haqiqani badiiy libosda juda hayotiy, realistlik

ifodalaydi. Jumladan, «Boburnoma»dagi: «Necha qatla ham kim zamona nohamvorlig'idin va davron nosozkorlig'idin va taxt va mulk va navkar va savdardin ayrilib, alarg'a iltijo etdim, onam ham bordi, hech nav' rioyate va shafqate ko'rmaduk. Mening inim Mirzoxonning va onasi Nigorxonimning ayn va ma'mur viloyatlari bor edi, men va onam viloyat xud tursun, bir kent va bir necha qush egasi bo'la olmaduk. Mening onam Yunusxon qizi va men nabirasi emasmu edim. Ul tabaqadin har kimki mening sarvaqting'a tushti, iligimdin kelgancha tuqqonliqni va yaxshiliqni bajo kelturdim... yana har nav' farzandliq va xizmatkorliqta taqsire qilmadim... Bu tarixgacha ul tabaqadin har kimki keldi, o'z tuqqonlarimdin o'zga ko'rmadim. ...barchani o'z tuqqonlarimdin yaxshiroq ko'rub, rioyat va shafqatlar qilibturman» («Boburnoma», 1506-1507-yil voqealari), bu tarixiy fakt va dalillarga tayanib S.Sayyid dostonida Bobur badiiy obrazi nomidan quyidagicha fikr bildiradi:

Ey umr, o'rtar meni oqqonlaring,
Dardu hasrat bo'ldi bor yiqqonlaring.
Sen meni hijronga tandir aylabon,
So'ng o'zumni o't qilib yoqqonlaring.
Ne deyin, ey charx nokaslarga rost,
Menga umrim bo'yi ters boqqonlaring.
Bori olam g'urbatin solding manga,
Men edimmu yo sening qolqonlaring?
Odam, avlodingmidir shul barchasi,
Ezgulikka chohlaring, o'pqqonlaring.
Qayga borgung, kimga bosh urgung kuyib,
Yaxshilikni bilmasa tuqqonlaring?
Hayf, yuz ming hayf, ey jon, sengakim,
El uchun tandin necha chiqqonlaring [5;76-77].

Shoir dostonida Bobur asarlarida ko'p uchraydigan sariq rang – sariq gul, xazon sayli va xazonning hazinlik holatini muallif umrining poyoni hayotiy in'ikos sifatida ifodalasa, ikkinchi tomondan shu hazinlik timsollari orqali Boburning hayotdan bir shodlik daragini topa olmagan, aksincha xazon sayliga oshiqqani va undan kayfiyatini ko'taruvchi lahzalarni topib, quvongani holatini ko'rish mumkin. Bu manzaralar Boburning ichki olamini ochishda, ruhiy holatini ko'rsatishda ne chog'lik ijobiy ta'sir o'tkazganligini sariq gul badiiy timsoli orqali yoritib bergan. Shoir Boburning bog'dagi gulzorni tafarruj (tamosha) qilish lahzasidan faqat «bir daf'a sariq» gulga e'tibor berib, uning badiiy obrazi – timsolida umri sariq gulsimon dardli, tashvishli, xiyonatga to'la hayotini badiiy libosda tasvirlab beradi. Birgina sariq gul timsolini asos qilib, tarixiy shaxs Boburning g'amgin, ayanchli damlarini, shu bilan birga, oshiq shoh Boburning ruhiy holati tasvirini ham ifodalagan muallif dilga yaqin satrlarni kashf etadi, Bobur badiiy obrazini yaratishga intiladi, uning mag'lublikka moyil davrini tasvirlashga harakat qiladi. Bu tasvirlar «Boburnoma»dan epigraf qilib olingan: «Panjshanba kuni oftob chiqqanda suv yoqasidin ko'chuldi... Sariq arg'uvoniy parcha-parcha yerlarda yakdast sariq gullar ochilibtur. Yana ba'zi yerlarda afshon qilg'ondek darham ochilibtur. O'rdu yovug'ida bir balandi ustida o'turub, gulzor tafarruj qilduk. Tarrohliq qilg'ondek bu tepaning olti tarafida bir daf'a sariq va bir daf'a arg'uvoniy gul xat-xat musaddas shaklda ochilibdur... Ko'z kor qilg'uncha ushmundoq gulzor edi» («Boburnoma», 1518-yil voqealari).

Ushbu tarixiy manzara, tarixiy faktdan ruhlangan shoir Bobur badiiy obrazini mukammallashtirib tasvirleydi va uning ruhiyatidagi orzu armonlarini ochishga harakat qiladi:

Umr – dardim, sariq guldir, sariq gul,
Mening sabrim sariq guldir, sariq gul.
Agar olam bahoru navbahordur,
Mening qalbim sariq guldir, sariq gul.
G'azallar aytgan erdim arg'uvoniy,
Bukun tab'im sariq guldir, sariq gul.
Sariq pulcha zamon qadringni bilmas,
Mening qadrim sariq guldir, sariq gul.
Qizil gul bitmagay hijron uyida,
Hazin hajrim sariq guldir, sariq gul...
Mening dunyoda chekkan bor jafoyim,
Hama jabrim sariq guldir, sariq gul... [5;84-85].

«Badiiy matn inson, tabiat va jamiyat sarhadlariga tarqalib ketgan uyg'unlikni kashf etadi. Ichki mohiyat va tashqi shamoyil orasida aloqa badiiy yaxlitlikni kafolati, unda subyekt va obyektning ohangdoshligi, shakl va mazmun vobastaligi, tasavvur va g'oya mushtarakligi, talqini va tahlil ziddiyati o'z ifodasini topadi»[4;15]. Jumladan, «Boburnoma»dan epigraf sifatida olingan quyidagi ruboiyda ham bu holatni ko'rishimiz mumkin:

Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki, ayladim – xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

«Boburnoma»dan keltirilgan: «Balxiy polizkorni qovun ekkali qo'yulub edi. Bir necha qovun saqlag'on ekandur, kelturdi. Xili yaxshig'ina qovunlar edi. Bir-ikki buta tok «Hasht behisht» bog'ida ekturub edim, aning ham yaxshig'ina uzumlari bo'lub edi. Shayx Go'ran ham bir sabad uzum yiborib edi, yomon emas edi. Hindustonda qovun, uzumning muncha bo'luridin filjumla xursandlig'e bo'ldi»(«Boburnoma», 1528-yil voqealari)matndagi tasvirlar ham shoir ilhomini jo'sh urishiga sabab bo'ladi. Ikkala tarixiy fakt ham dostonda Bobur badiiy obrazini mushtaraklikka erishishga, shoir mahoratini ko'rsatishga xizmat qilgan:

Yurtdan ketib, qaro mening yuzim bo'ldi,
G'urbat mening kecham ham kunduzum bo'ldi.
Menga tuzding dardu hasrat tuzumini,
Yo Rab, aytgil, bu qandayin tuzum bo'ldi?
Hijron ekan bir umrlik rizqu ro'zim,
Tole'sizlik mening nonu tuzum bo'ldi.
Bir savdolar beribsanki, poyoni yo'q,
Umid yo'li, oh, bunchalar uzun bo'ldi...
Hasratlarim qovun bo'lib yetilmishlar.
Ko'z yoshlarim yot ellarda uzum bo'ldi [5;137].

«Badiiy asar go'yo bir jonli organizmdir, organizm jonsiz yashay olmagandek, «jon» ham tanasiz o'zini namoyon qilolmaydi. Jonli organizmning eng kichik hujayrasi ham unda aylanib turgan iliq qon yashagani tufayli, badiiy asarning har bir katta va kichik qismi ham unga hayot baxsh etib turgan mazmun tufayli yashaydi va shu mazmunning nishonasi, tashqi ifodasi bo'lib xizmat qiladi» [6;163].

S.Sayyid «Boburnoma»da keltirilgan quyidagi tabiatning ajib hodisasi bo'lmish hayotiy tasvir orqali Bobur yashagan davrning siyosiy, axloqiy, jamiyat kishilarining jirkanj xarakter, xususiyatlarini ochib bergan, ularni jamiyatning zararli maxluqi sifatidagi badiiy obrazini, qiyofasini yaratadi. Bu muallifning topqirligidan, birgina tabiat hodisasi ifodalangan tarixiy faktdan kishilik borlig'ini badiiy tarzda ochib bera oladigan iste'dodidan darak beradi: «... Sanjid darasining orasi bila o'tub, Xoja Seyoronning yaqinig'a yetganda, bir ulug' yilonkim, yo'g'onlig'i bilakcha va uzunlig'i bir quloq bo'lg'ay edi, o'lturuldi. Bu ulug' yilonning ichidan bir inichkarak yilon chiqti, g'olib o'shal yaqinda yutub ekandur, bori a'zosi butun edi. Bu inichka yilonning ichidan bir katta sichqon chiqti, ul ham butun edi»(«Boburnoma», 1518-yil voqealari).

Ushbu tarixiy faktdan doston muallifi quyidagi badiiy tasvirni yaratadiki, uning yuksak badiiy mahoratidan darak beradi:

Duch kelmishdir bizga ajab sir ilon,
Ul ilonning ichida ham bir ilon...
Insonlar bor – ko'ngli to'la kir, ilon,
Har birining ichida ham bir ilon.
Hayrondirman odamzodning ishidan:
Ichidagi ilonning ham ichidan
Chiqib kelaverar yana bir ilon...
Rostin aytsam, sen asli go'l ekansan,
Ilonliging bilan bir pul ekansan.
Bashar ichra bordir shunday insonlar,
Ichi to'la g'ij-g'ij chayon, ilonlar.
Og'iz, burun, quloqlar tirqishidan,
Hasad ilonlari chiqar ichidan.

Qonin ichar bir-birini birikmay,
 Bir-birining go'shtin yeydi tiriklay.
 Bu ishlarni o'zing o'ylab ko'r, ilon,
 Aytgil endi: qaysi biring zo'r ilon?.. [5;90-91].

S.Sayyid Bobur badiiy obrazini dostonda takomillashtirib boraveradi. «Boburnoma»dan keltirilgan parchalar, nazmiy asarlaridan misol sifatida tanlangan ruboiylardagi mavzu, tarixiy faktlar, yangidan yangi g'oyalar paydo bo'lishiga, Bobur badiiy obrazidagi g'oliblik va mag'lublik lahzalarini to'ldirishga, Bobur ruhiyatiga kirib borishga imkon beradi, badiiy obraz mukammalligi oshib boraveradi, kitobxon nazdida sirli va jumboqli bo'lgan tarixiy shaxs Bobur timsoli, irodasi, sabri, matonati yangicha rakursda namoyon bo'laverdi.

Adabiyotlar

1. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С. Ҳасанов. – Тошкент: Шарқ. 2002. – 335.
2. Захириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. - Тошкент: Шарқ. 2014. – 744.
3. Низомиддинов Н.Ф. Буюк бобурийлар тарихи (XVI-XIXаср). Монография. – Тошкент: Фан ва технология, 2012 йил. – 516.
4. Носиров А. Одил Ёқубов романлари поэтикаси. Тошкент: Фан, 2012.
5. Сирожиддин Саййид. “Юз ох, Захириддин Муҳаммад Бобур...”. Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2011.– 160.
6. Султон И. Адабиёт назарияси, Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – 163.

UDK 891.709

ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” ASARIDA MAQOMATLARNING BADIY TALQINI

Mardieva N.

Samarqand davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqola Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida tasavvufona qarashlarning nazariy negizlari va badiiy talqinini yoritishga qaratilgan. Asardagi boblar ta'rifida keltirilgan komil inson sifatleri kamolot darajalarining bosqichlari sifatida tadqiq etilgan. Shuningdek, sharq mumtoz adabiyotidagi pir va murshid munosabati masalasi asardagi hikoyat va hikmatlar misolida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, badiiy talqin, komil inson, pir va murshid, kamolot bosqichlari.

Художественное толкование степеней суфийских макамов в произведении Алишера Навои “Махбуб ул-кулуб”

Аннотация. В данной статье освещены проблемы художественной интерпретации и теоретических основ суфийских взглядов Алишера Навои в поэме “Махбуб ул-кулуб”. Качества совершенного человека, приведённые в определениях глав произведения, исследованы в качестве этапов совершенствования души человека. Также, в статье анализируется вопрос взаимоотношений между наставником и учеником в восточной классической литературе.

Ключевые слова: суфизм, художественная интерпретация, совершенный человек, апостол и учитель, этапы совершенствования.

Literary interperency of levels of sufist “maqamat”s in the work of “Mahbub ul-qulub” of Alisher Navai

Abstract. This article shows the artistic interpretation and theoretical basics of the sufizmic opinions in the “Makhub ul-kulub” – the work by Alisher Navai. Qualities of perfect man which was emphasized during the chapters in this work were investigated as the stages of perfection. Moreover, problems related to the attitudes between apostle and teacher in the Oriental classic literature was analyzed with the examples of aphorisms and stories in the work.

Keywords: sufizm, artistic interpretation, perfect man, apostle and teacher, stages of perfection.

Sharq mumtoz adabiyotida tasavvufiy qarashlarning o'zni katta bo'lishi bilan birgalikda bu qarashlar turli nazariyalarni yuzaga keltirgan. Tasavvuf ilmida inson kamolot bosqichlarini ifodalovchi, shakllantiruvchi qoidalar- shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat kabi tushunchalarda o'z ifodasini topib bordi. Tariqatda asosiy bosqichlar maqomotlardir. Ana shunday tariqat maqomotlari haqida Navoiy o'zining "Mahbub ul-qulub" asarining ikkinchi qismida to'liq holda maqomot darajalarini badiiy talqinini beradi. Maqomot o'zi nima?-"Maqomot"-maqom (manzil, bekat) so'zining ko'pligi bo'lib, solikning ruhiy-ma'naviy kamoloti bosqichlarini anglatadi[1]. Bu haqda Aziziy shunday yozadi: "Tariqatdagi maqomlarni odamning ma'naviy jihatdan etilish jarayonidagi tarbiyalanish bosqichlariga o'xshatish mumkin. Bu bosqichlar har bir tariqat ta'limotchilarining tushunchasi tarafidan belgilanadigan bo'lgani uchun uning soni ham birdek emas. Ba'zilar bularni olti maqom desa, ba'zilar to'qqiz maqom deb qaraydilar, yana ayrimlar bundan ham ko'p deb qaraydilar"[2]. Abunasr Sarroj tariqatning quyidagi maqomlarini qayd etgan:

1.Tavba, 2.Vara, 3.Zuhd, 4.Faqr, 5.Sabr, 6.Xavf, 7.Rajo, 8.Tavakkul, 9. Rizo.

Navoiy ham "Mahbub ul-qulub" asarida ana shu tushunchalarni badiiy jihatdan sayqallab, ta'sirli va tushinarli qilib ifodalaydi va to'rtliklar, hikoyatlar bilan asoslaydi. Navoiyning bu asarida Farididdin Attorning "Ilohiynoma" sidan ta'sirlanganligi seziladi. Navoiy asarning ikkinchi qismini "Hamida af'ol va zamima xisol xosiyati" (Yaxshi fe'llar va yomon xislatlar xosiyati) deb nomlash bilan birga tariqatdagi maqomatlarga yaqin bo'lgan boblarni kiritadi. Ular quydagicha:

Birinci bob: Tavba zikrida. Tavba-shariatda vojib, tariqatda shart, sulukda lozim bo'lgan tushuncha. Tasavvufda bandaning parvardigor sari safari(uning hayoti) bo'lsa, bu safar manzillari-maqomlari ettita bo'lib, birinchi maqom tavbadir. Tavba haqida Imom Sha'roniy yozadi: „Tavba banda maqomining yuksalish tamalidir. Asossiz bino mavjud bo'lmaganidek, tavbasi yo'q kishining hol va maqomi bo'lmaydi. Buyuk so'fiylardan ba'zilar bunday deyishgan: «Kim tavba maqomini mustahkam qursa, Alloh taolo uning amallarini turli nuqsonlardan muhofaza etadi. Tavba zohidlik maqomiga o'xshaydi. Alloh taolo dunyodan yuz o'girgan zohidni O'ziga yetishishda to'siq bo'layotgan narsalardan himoya qiladi».[3]Tasavvuf istilohida esa tavba ruhning bedorligidir, deb ham ta'rif qilinadi. Hatto tavbani inson ruhining birinchi isyoni hisoblaganlar. Navoiy esa asarning "Tavba zikrida" bobida shunday ta'rif beradi: "Tavba haqiqiy mazmuni af'ol qabohatig'a mo'talle bo'lmoqdir va tavfiqi rafiq bo'lib, ul af'oldin ijtinob qilmoqdir..."

Tavbaekim, aning saodatidin,

Bir qul o'g'li bu poya kasb etgay

Kim, anga shohlar qul o'lg'aylar

Munga o'zluk bila nechuk etgay

Ikkinchi bob: Zuhd zikrida. Zuhd-dunyo va uning lazatlari orzusidan kechib, toat-ibodat bilan mashg'ul bo'lishlikni anglatadi. Bu haqda Zohid parhezkor bo'lib, jismoniy xalovat va lazatlardan saqlanib, dunyo, mol-u joh, yor-u ag'yorning ko'p-u oziga parvo qilmaydi. Navoiy aytadi: "Zuhd dunyo orzularidan kechmakdir va nafs alarning mavto zahrin ichmakdur. Va molu joh xayoli rishtasin ko'nguldin uzmakdur va nangu nomus butlarin ushaturg'a o'zin tuzmakdur va qabul umidig'a riyozat tariqin tutmakdur..."

Uchinchi bob: Tavakkul zikrida. Tavakkul-Parvardigorga dilbastalik va komil e'timod-ishonchdir. Bu ma'rifatning kamoliga bog'liq maqom bo'lib, valiylarga nasib qiladi. Navoiy shunday izohlaydi: "Tavakkul haq yo'lida vosita asbobin raf qilmoqdir va vasila hijobin daf qilmoq. Va sabtlarg'a miyonchiliqdin uzr qo'lmoqdir va sabab va uzrsiz musabbibqa banda bo'lmoqdir..."

Tavakkul chin durust ermas muxaldur,

Anga na'layining ortug' shikori.

Durust o'lg'ach yig'ilsa ganji Qorun

Yo'l ul dam rohravning hech boki.

To'rtinchi bob: Qanoat zikrida. Qanoat- qismatdan rozi bo'lish, nafsdan voqiflikdir. Ozga qonelik qanoatdir. "Qanoat ibodat quvvati hosil bo'lg'ancha quvvat bila o'tkarmakdur va andin ortug' barcha nimaning havasin xayoldin, ko'tarmakdur. Va benavolig' bila nafsni ozurda tutmoqdir va mahrumlig' bila quvvoi shaxvoniyni pajmurda qilmoqdir..."

Har kimki, qanoat tarafi nisbati bor,

Borcha el aro tavozeu izzati bor,

Ulkim tamau hirs bila ulfati bor

Yaxshi-yomon ichra zillatu nakbati bor.

Beshinchi bob: Sabr zikrida. Sabr-toqat, chidam. Soʻfiylar tilida qiyinchiliklardan shikoyat qilmaslik, ayniqsa Xudodan boshqaga nola iltijo qilmaslik. Sabr etuvchi (sobir) oʻzini balo girdobiga solib, balolardan qoʻrqmaydigan odamlar. Navoiy yozadi: “Sabr oʻzni chiqarmoqdur huzuz nafsonidin va tanaʼumot jismonidin va nafsni hibis qilmoqdur ibodat mehnatida va qadamni sobit qoʻymoqdur riyozat suubatida. Haq yoʻlida qotigʻ irikka tuzmakdur va yaxshi-yomondin har ne eshitgan va koʻrganga taxammul koʻrguzmakdur...”

Kimki bir shiddat aro sabru tahammul ayladi,

Baxt aning nishini noʻshu xorini gul ayladi.

Toʻqqizinchi bob: Rizo zikrida. Rizo-tasavvufda tavakkuldan keyingi maqom boʻlib, solik oʻz nafsi rizosidan qutilib, Xudo iroda qilgan, taqdir etgan narsalarga rozi boʻladi. Rizo qazoning achchiqligiga nisbatan dilning shohligidir. “Rizo oʻz dilxoh va rizosidin kechmakdur va Haqqi subhonahu rizosi jomin lo jurʼa ichmakdur. Oʻz koʻngli tilaganlar mavto adosin farq bilmak va mahbubi haqiqiy rizosi bila tirilmak. Bu maqoldur. Solikning aʼzam maqomoti va arfaʼ darajoti nechunkim, solik bidoyatda maskanat va haqorat maqomida haqirning rizosi va matlubi ham haqir boʻlur. Chun oʻz rizosin bilkul fano oʻtigʻa otti va haq subhanahu taolo rizosi bila oʻzin tuzatti...”

Rozi oʻlsa gar yomon, gar yaxshi boʻlsa jilvagar,

Sunʼi kilkidin musavvardur chu har yangligʻ savar.

Bu boblar Abunasr Sarroj sanab oʻtgan maqomotlarga mosligi va shu bilan birgalikda Navoiy bu sifatlarga ishqni ham qoʻshishi ishqni bu xislat va darajotlarga erishishning asosi deb bilganligida deyishimiz mumkin. Ammo, ishq tasavvufiy adabiyotlarning bazilarida “Hol” tarkibida keladi. Darhaqiqat, ishq muridda murod xosil qiluvchi asosiy sababdir. Shu sababli Navoiy badiiylikda ularning orasida qatʼiy chegara belgilamaydi. Chunki, ishqqa oshno boʻlgan solikkina talab yoʻliga qadam qoʻyadi. Navoiy bu asari orqali tasavvuf talqinida tariqat yoʻlini yanada yuqoriga olib chiqish bilan birgalikda badiiy ifodasini goʻzal bir koʻrinishda ham namoyon qilib bergan. Bu boblarda tariqat bosqichining muhim mezonlari haqida soʻz boradi va insonni komillik sari boshlovchi, botiniy tarbiya, ruhni yuksaltirish, uni poklash kabi fazilatlarini shakllantirishni maqsad qilib oladi.

Komillikka intilgan solik bir nechda bosqichlarni bosib oʻtishi lozim, ana shu boshqichlardan avvalgisi haqida ham Navoiy toʻxtalib oʻtadi. Tariqatga qadam qoʻygan solikning oʻzini maʼnan yuksaltirishda eʼtibor berishi kerak boʻlgan botiniy ilmlar bilan birgalikda dastlabki bajarishi lozim boʻlgan amaliy koʻnikmalarni ham keltiradi. Bu shunday amaliy bosqichki, tariqat boshqichiga qadam qoʻygan talabmand dastlab oʻziga yoʻlboshchi-pir tanlashi lozim. Murshid va muridlikning ham oʻziga xos talablari mavjud boʻlib, maqsadga etmoqda ham har ikkalasidan maʼlum vazifalarni bajarishni talab qiladi. “Murid-murod, yaʼni maqsadga intiluvchi odam; murod esa –Alloh taoloning vasli. Muridning asosiy xislati niyozmandlik, yaʼni talabgor boʻlish, murshidi komil etagini tutib, aytganlariga soʻzsiz rioya qilishdir. Pirsiz solik manzilga etolmaydi. Chunki odam oʻzini oʻzi nazorat qilishi qiyin, toki birov rahnamolik qilib, yoʻl koʻrsatmasa, mushkuli oson boʻlmaydi”[1]. Bundan koʻrinadiki, inson komillikka bosqichma bosqich etib boradi, pir rahnamoligida uning qalbi sayqallanib, shakllanib boradi. Rahnamosiz bu yoʻlni bosib oʻtishi qiyin boʻlishini taʼkidlagan holda Navoiy oʻz asarida shu mazmundagi fikrlarini keltirar ekan, “Mahbub –ul-qulub” asarining uchinchi “Mutafarriqa favoid va amsol surati”(Xilma-xil foydalar va hikmatli soʻzlarning koʻrinishi) qismida bunga alohida etiborini qaratadi. Navoiy bu dunyoning oʻtkinchiligi, ramziy maʼnoda inson bu dunyo uchun bir sayyor, sayohatchi ekanligi, bu sayohatga kelishda ixtiyorsiz va ketishda bosib oʻtishi lozim boʻlgan yoʻllari haqida soʻz yuritir ekan 107- tanbehda shunday keltiradi: “Peshai solik er zarur erkoniga odamizod vujud mulkidin xonapardozdur. Va adam kishvarigʻa sarafrozdur. Safar maxsus sanga va manga emas yo xususiyat qilgʻonni kishi shohu gadogʻa demas. Har kim adam nihonxonasidin vujud anjumanigʻa qadam urubtur va bu baqosiz oromgohda bir nafas oʻlturubdur, yana qaytib asli vatangʻa azm etmak kerak va qaydin kelibdur yana ul yon ketmak kerak”. [4] Navoiy oʻlim muqarrar va undan oʻtib ketish mumkin emas, tiriklikda tezda qaytish asbobini toʻgʻirlash kerak, degan mazmundagi fikrlarni aytib oʻtgan. Qaytish “asbobi” nima? Navoiy bu “asbob”larni keltirar ekan asarning ikkinchi qismida keltirilgan boblardagi xislat va xususiyatlarga, badiiy ifodasi, deb takidlayotganimiz tariqat maqomlariga urgʻu berib oʻtadi va buni alohida takidlaydi: “Ul safar asbobi solih aʼmoldur va hamida hisol. Va aning zikri ikkinchi qismda tafsil va tartib bila raqamgʻa keldi va mashhur bitildi”. [4] Bu tanbehda yozuvchi pir rahnamoligida muridni mushkulliklarni engib oʻtishga qodir boʻla olishi, faqat talabmand boʻlishning oʻzi etarli emasligini bayon qilib bir rivoyat, tamsil keltiradi: Aytishlaricha, soliklik ustuni va oriflar sultoni, haqiqat ahli imomi, Shayx Boyazid

Bistomiy (quddisa sirrihu) bir tomonga bormoqchi bo‘lib unga bir muridi hamroh bo‘ldi. Bir ulug‘ suvning oldiga keldi. Va Shayx “Ollloh” deb u suvga qadam tashladi va muridiga “Boyazid”, deb qadam tashlashni buyurdi. Shayx va murid “Ollloh” va “Boyazid” deb borishardi. Va sabo va nasimdek suvdan o‘zlari o‘tib borardilar. Nagoh muridning xayoliga keldikim, Shayx Olllohn zikr qilib bormoqda va meni boshqarmoqda. Men ham u kishini nomini qo‘yib dengizga Ollloh zikri bilan qadam qo‘yay. Shu muddao bilan u ham qadam qo‘ygan edi, suvga cho‘kdi. Shayx uni suvdan chiqarish uchun qo‘lini uzatdi, qo‘lidan tortib dengiz sohiliga olib chiqdi va dedi: ey farzand, sen avval Boyazidning darajasiga et, undan so‘nggina tangriga etmoqni xavas et. Navoiy bu rivoyatni keltirar ekan, muridning kamolot boshqichlarini bosib o‘tishida purning o‘rni katta va muridning botinini tarbiyalashda, undagi qusrlarni yo‘qotishda purning bilimdonligi va qobilyati muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Pir shu darajada zehni bo‘lmog‘i kerakki, murid etishgan maqomotlarni anglay bilishi, uni etishgan darajasini baholay olgan holda unga vazifalar yuklashi joiz. Koshifiy o‘zining “Futuvvatnomai sultoniyy” asarida pir va shayxlik ruknlarini ettita deb keltiradi va pir o‘tkir farosatli odamshunos kishi bo‘lib, bir nigoh tashlash bilan muridning qobilyatini ilg‘ay olishi, etuk ruhiy-ma‘naviy quvvatga ega bo‘lib agarki murid tariqat yo‘lidan adashsa, unga ma‘naviy madad berib, mushkulini oson qila olishi, to‘g‘ri yo‘lga solishi kerakligi haqida aytib o‘tadilar[5]. Navoiy ham Boyazidni etuk pir ekanligini va pirlilik vazifasini mukammal darajada bajarganligini aytish bilan birga “Maqsudki, pir irshodidin ayru bu yo‘lg‘a qadam urmamoq kerak, balki dam, degan xulosa bilan shunday ruboiyni keltiradi:

Ruboiy: Kimki bu yo‘l qat‘ig‘a soldi taqdir
 Pir amrini qilmasa, keraktur tag‘yir
 Onsiz qadam ursa, angla makru tazvir,
 Mal‘un desa behrakki, desalar be pir

Bu yo‘l talabgordan nihoyatda mashaqqatli mehnatni talab qiladi va agar bu yo‘lda unga pir yo‘lboshlovchilik qilmasa nafs dushmanlari va shayton hiylalaridan o‘tib maqsad manziliga etishi dargumon, degan xulosaviy fikrga keladi. Navoiy tasavvufdagi asriy qarashlarni asar negizga singdirgan holda bayon etib bergan. Asardagi bunday orifona badiiy talqin Navoiyning yuksak mahorat sohibi, ilm chashmasining qaynoq bir bulog‘i, o‘ziga xos bo‘lgan mahoratini yana bir bor isbotlaydi.. Navoiy o‘zining bu asari bilan tasavvuf ta‘limotidagi tushunchalarning etuk badiiy tarjimoni ekanligini namoyon etgan.

Adabiyotlar

1. Komilov N. Tasavvuf.-Toshkent. Yozuvchi, 1996.- 272 b.
2. Aziziy. Fariddin Attor.-Toshkent. XILOL-NASHR, 2012.- 88 b.
3. Imom Sha‘roniy. Zikr ahliga tavsiyalar.-Toshkent. Istiqlol, 2006.-26 b.
4. Navoiy A. Maxbub ul-qulub. MAT 14-tom.-Toshkent. Fan, 1998.-315 b.
5. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniyy. –Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1994. -112 b.
6. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi.-Toshkent. Istiqlol, 1999.-180 b.

UDK 891.709

SALOHIDDIN MAHDUMNING POETIK USLUBI HAQIDA MULOHAZALAR

D.Salohiy, S.Omonov

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada Salohiddin Mahdum she‘riyatining o‘ziga xosligi, devon tuzganligi, mumtoz adabiyotning o‘n bir lirik janrida ijod qilganligi, Navoiy, Fuzuliy, Mavlona Rumiy, Shayx Sa‘diy an‘analarini davom ettirganligi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Kattaqo‘rg‘on adabiy muhiti, zullisonayn shoir, o‘n bir lirik janrda asarlar, O‘zbekiston qasidasi, Navoiyona uslub, Mavlono Rumiy va Shayx Sa‘diy an‘anasi, “sharhi hol”.

Мнения о поэтическом стиле Салохиддин Махдума

Аннотация. В статье изучается поэзия и стихи Салохиддин Махдума, который является лирическим жанром узбекской классической литературы, и продолжением традиции Навои, Фузулий, Мавлона Румий, Шайх Саъди.

Ключевые слова: Каттакурганское литературное окружение, двуязычный поэт, произведения с одиннадцатью лирическим жанром, ода об Узбекистане, стиль Навои, традиции Мавлона Румий и Шайх Саъди, “шархи хол”.

Opinions about Salokhiddin Mahdum’s poetic style

Abstract. In this article it have narrated literary heritage of Salokhiddin Makhdum, composed devan, created eleven lyric genres of the uzbek classical literature, carry on the traditions Navoi, Fuzuliy, Mavlona Roumiy, Shaykh Sadi.

Keywords: Kattakurgan’s literary environment, double language poet, creative works eleven lyric genres, ode of Uzbekistan, style Navoi, traditions Mavlona Roumiy and Shaykh Sadi, “sharhi hol”.

Qadimiy ijtimoiy-siyosiy va madaniy tarixga ega bo‘lgan Kattaqo‘rg‘on o‘zbek adabiyoti tarixida muhim o‘rin egallab kelgan. Yozma manbalarda bu yurtning fozil kishilari haqida qimmatli ma‘lumotlar uchraydi. O‘tmishda bu vodiya “Noz va Niyoz” masnaviysining muallifi Zavqiy Miyonkoliy, So‘fi Oллоhyor, Nozimiy va boshqa olim-u shoirlar faoliyat ko‘rsatishgan. Birgina XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Kattaqo‘rg‘onda o‘ndan ortiq kishi badiiy ijod bilan shug‘ullanib, sohibi devon shoir sifatida shuhrat qozongan. Ana shu silsilaning oxirgi xalqasi Salohiddin Jaloliddin o‘g‘li Salohiydir (1874-1962). Buxoro madrasasida ta‘lim olgan, mumtoz adabiyotning bilimdoni, shuningdek, matematika, astronomiya, astrologiya, tabobat ilmlari bilan ham jiddiy shug‘ullangan. Ajoyib g‘azallar, muxammaslar, ruboiylar bitib, ko‘plab shogirdlar tayyorlagan. Kattaqo‘rg‘on adabiy muhitining yirik vakillari bo‘lgan bir necha shoirlar o‘z kitoblarida Salohiyning sohibdevon ustoz deb tilga olib, o‘zlarining ana shu devondan bahra olganliklarini eslatadilar. [2:21-bet]

Salohiyning kattagina hajmdagi, shiru shakar uslubida yozilgan she‘riyat namunalari mavjud. Zullisonayn shoir turkiyda, fors-tojik tilida bitgan she‘rlari qatorida devon hoshiyasida “Bahori donish” deb nomlangan nasriy asarning doston janrida o‘zbek tiliga qilingan tarjimasini ham joylashtirgan. Devonda o‘zbek tilida yozilgan qasida, g‘azal, muxammas, musaddas, tarkibband, masnaviy, doston janridagi asarlar joylashtirilgan. Fors-tojik tilidagi asarlar esa yuqoridagi janrlar va bunga qo‘shimcha tarzda tarje‘band, ta‘rix, qit‘a, ruboiy, fard kabi janrlarda yaratilgan. Shoir Sharq mumtoz she‘riyatining o‘n bir lirik janrida asarlar yaratgan.

Devon O‘zbekiston madhida bitilgan qasida bilan boshlanadi. Shoir vatani bo‘ylab sayohatga chiqqanlarga murojaatan betimsol, jannatmonand yurtining fayz-u tarovatini, boyligi, tabiati sofligi, insonlari xushsurat, qalbi pok va mehnatsevar ekanliklarini ta‘riflaydi:

O‘zbekistonning havosi murdag‘a jon berg‘usi,
Tufrog‘i iksiri a‘zam, obi hayvonini ko‘r...

Siymu firuza, zabarjad koni behad, behisob,
Ma‘dani billur ila yoquti rummonini ko‘r...

O‘zbekiston mulki ermish mamlakatlar sarvari,
Necha sarvarlar ani ko‘rmoqqa kelgonini ko‘r.

Mushkbo‘yu mushkbezu mushkrezu mushkhez,
Bog‘i rizvon ko‘rmak ersang, Kattaqo‘rg‘onini ko‘r...

O‘zbekiston gulshani ichra barobarzodalar,
Yuz adovu noz ila sarvi xiromonini ko‘r...

Necha ming yillar yasha, ey O‘zbekiston, shod bo‘l,
Kimki dushmandur sanga hasratda o‘lg‘onini ko‘r. [1:52-bet.]

Salohiy devoniga mashhur shoirlardan Navoiyning “Yor hijronida sarvaqtimga yetding, ey ajal”, Fuzuliyning “Ey xush ul kunlarki, men hamroz edim jonon ila”, Amiriyning “Sanga arzi ahvolim aylay bayon”, Fazliyning “Sham boshi yona-yona keldi tob ustundadur”, Shavqiyning “Kel, ey xublarni xubi, kiynalarni tashlamog‘imu?” misralari bilan boshlanuvchi g‘azallarini yuksak badiiylik bilan beshlantirib, muxammaslar yozgan.

Shoir poetik ijodida o'ziga xoslikka, an'analar qolipi doirasida qolib ketmaslikka, yangi mavzu, yangi timsol, yangi usullar topishga intiladi. U bir ishqiy-lirik she'rida ma'shuqa tilidan sharhi hol bayon etadi. Bu o'zbek mumtoz she'riyatida (g'azal janrida) ko'zga tashlanmagan hodisa. G'azalda ma'shuqa o'z-o'zini vasf etib, o'zining zohiriy va botiniy qiyofalardagi portretini chizadi:

Sarvi qomatim solmish olam ichra g'avg'olar,
Jilvai jamolimdur muncha sho'r-u savdolar...

Kokulumni rashkidin tortar erdi dard sunbul,
Yoqa chok etib gullar gul yuzumg'a shaydolar.

Menda ko'p latofatnisor bor, har birini ko'rganda,
Naqdi jon etgay zufununu donolar.

Qulg'a jom olib, bo'lsam majlis ichra soqiy man,
Mast o'lub, fido bo'lg'ay shayxu shobu mullolar.

Sayr uchun qadam qo'ysam bir kuni kalisog'a,
Tarki but qilib kirg'ay dinimga nosarolar. [1:68-bet.]

Shoir Salohiy betakror ijod namunalarini yaratar ekan, boy adabiy merosi bilan o'bek adabiyotida o'zining o'rni, ijodiy yo'li va uslubiga ega bo'lgan yirik ijodkirlar qatoriga kiradi.

Shoirning o'zbek va tojik tillaridagi she'rlarida mavzu, g'oya, mazmun va shakl jihatidan uyg'unlik mavjud. Bu tabiiy hodisa. Chunki, ikki tildagi she'riyat bir ijodkor qalami zakovatining mahsuli.

Salohiy o'zbek tilidagi she'riyatini "Husning namoyon etmading..." mazmunidagi hamd bilan boshlasa, tojik tilidagi asarlari boshida ham "Husni tu..." deb boshlanivchi hamdni joylashtiradi. Bu g'azalda ham yaratguchi san'ati uning mazhari bo'lmish ma'shuqa husni ta'rifi vositasida yoritiladi:

Husni tu hamisha fuzun bod,
Ro'yat hama sol lolagun bod,

Andar man havoishqat,
Har ro'zki hast dar fuzun bod.

Qaddi hama dilbaroni olam,
Dar xizmati qomatat nigun bod...

Tarjimasi:

Sening husning doimo afzun bo'lsin,
Yuzlaring hamisha lolagun bo'lsin.

Boshimda sening ishqingning orzusi,
Istayman, ko'paysin kundan-kun bo'lsin.

Olam dilbarlarin qaddi-qomati,
Egilishi xizmating uchun bo'lsin.

G'azalning an'anaga ko'ra falsafiy, donishmandona fikrlar bayoni keladigan maqta'dan oldingi baytida shoir o'zining behamto Yaratguchisini faqat "ahli ma'ni"ga "xos oshiqlar"largagina ravo ko'radi, ixlosi sust, irodasiz da'vogarlardan qizg'anadi:

Har kas, ki ba hachri tu nasozad,
Az xalqai vasli tu berun bod.

Tarjimasi:

Kimga og'ir bo'lsa hajru firoqing,
U visoling sahnidan berun bo'lsin.

G'azal maqta'sida daf'atan pir timsoli yuzaga chiqadi. Tasavvuf ta'limotida ma'rifat istovchi pirsiz yo'lga chiqsa, unga dushman, ya'ni shayton yo'lboshchilik qilishi aytiladi. Tasavvuf

she'riyatida "lab" istilohi dono so'zlarni so'zlovchi, nuqtadon pir timsoliga ishora etadi. She'r nihoyasida Hofiz o'zining dil dardiga davo topuvchi tabib – piriga murojaat qilib, uning rahbarligida r nihoyasida Hofiz o'zining dil dardiga davo topuvchi tabib – piriga murojaat qilib, uning rahbarligida Yaratgan dargohiga yo'l izlaydi:

La'li tu, ki hast choni Hofiz,
Dur az labi har xasisu dun bod.

Tarjimasi:

Seni la'ling Hofizning joni erur,
Pastlar bilan masofang uzun bo'lsin. [1:127-bet.]

G'azalga shoir "Hofiz" deb taxallus qo'ygan. Maxdum hofizi Qur'on bo'lgani sababidan bo'lsa kerak, tojik tilida yaratgan bir guruh she'rlariga "Hofiz" taxallus qiladi.

O'z she'riyatida shoir nay timsoliga tez-tez murojaat etarkan, bir qit'asida "Nay kim?" deb savol beradi. Mavloni Rumiy she'riyati g'oyalari va an'analari ta'sirida yozilgan ushbu qit'ada shoir oliy darajadagi pokiza ishqni shamol va olov, nay va otash, may va g'ubor timsollari muqoyasasi vositasida o'quvchiga tushuntirib berishga harakat qiladi:

Otash ast in h-on, ki yobi, nest bod,
Har ki in otash nadorad, nest bod.

Ki otashi ishq-ast andar nay xumor,
Cho'shishi ishq-ast andar may g'ubor.

Kist nay, on kas, ki go'yad dam ba dam;
"Man nayam chuz mavchi daryoi qidam".

Tarjimasi:

Bu sen topgan narsa shamolmas, olov,
Yo'qolsin kim ko'ksi yonmasa lov-lov.

Nayda ishq otashi, g'avg'olari bor,
Ishqning qaynashidir maydagi g'ubor.

Kim bilar nay nima, ne der sadosi,
U der: "Nayman, mavjim azaldaryosi". [1:342-bet.]

Devonda Sharq poeziyasi uchun yangilik bo'lgan Hazrat Navoiy kashfiyotlaridan biri bo'lmish yakpora, voqeaband atalmish g'azal turlaridan ham namunalar mavjud. "Bud" radifli g'azalda oshiqning xayol surib, do'st-u habibini yodga olgani, nogahon uning boshiga ranju kulfat yog'dirgan shum raqib ham esiga tushgani hikoya qilinadi. U sahar vaqti gulshanga chiqib, o'ziga o'xshash sho'rida bulbulni uchratadi. Noilojlikdan ishq devonini olib, taqdiridan fol ochishga ahd qiladi. Ammo bu folda faqat g'am va mehnat ko'radi. (Sharqda Xoja Hofiz devonini ochib, fol ko'rish urf bo'lgan, hozir ham Eronda bu urf mavud. "Ishq devoni" – Hofiz devoniga ishora ham bo'lishi mumkin.)

Oshiq yulduzlardan fol ko'ray deb, usturlob axtaradi. Shu onda tole'i badi va zabun baxti yodiga tushadi. Tasavvurida raqibning dildor bilan bazm qilishi tasviri namoyon bo'ladi va shu on o'lishni istab, ajal yodiga tushadi. Nihoyat, dardiga davo istab, Rabbiga iltijo qiladi, ammo bu jonga yopishgan dardning davosi shu paytga qadar o'tgan yuzlab Aflotunga ham nasib etmagani yodiga tushadi. Shundan so'ng shoir o'ziga o'zi nasihat qiladi:

Chand noli, ey Salohiy az firoqu javru yor,
Ishq varzidan turo kori achib aftoda bud.

Tarjimasi:

Salohiy, yor jafosidan tokay noliysan beshumor,
Oshiq ma'shuqlik emasmi bir ish ajib, yodga tushdi. [1:150-bet.]

Devonning katta qismi shoir yashagan davr ijtimoiy hayotida yuz bergan turli voqea-hodisalar munosabati bilan yozilgan, yaqin kishilari vafotlari munosabati bilan yozilgan ta'rixlar ishg'ol etadi. Bu mo'jaz asarlar qimmatli tarixiy aniq ma'lumotlar berishi bilan katta ilmiy ahamiyatga ega.

Devonning g'oyaviy-badiiy qimmatini kichik lirik janrlardan qit'alar, ruboiylar va fardlarda namoyon bo'ladi. Bu asarlar ham chuqur ma'rifiy-so'fiyona, pandnoma-didaktik mavzularda yozilgan. Xususan, bir qit'ada shoir tolibi ilmlarga haqiqiy ishq mazmunini tushuntirish uchun Aql va Ishqni bahsga kiritadi, ishq mohiyatiga e'tiborni tortadi. Asarda Aql – shariat, Ishq - tariqat ma'nosida yoki Aql – mo'min, Ishq – orif timsolida namoyon bo'ladi:

Aql mego'yad, ki: "In nang astu nom",
Ishq mego'yad, ki: "In xom astu xom".

Tarjimasi:

Aql aytadi: "Bu uyat, badnom",
Ishq kuyadi: "Bu hali ham xom". [1:340-bet.]

Qit'alardan keyin joylashtirilgan ruboiylarda ham tariqatga, pir-muridlikka ishora etadigan vafo, sabr kabi xislatlar talqini, dono-ablah munozaralari keltirilgan mazmun ifoda etilgan. Munojot ruhidagi ruboiylar mavjud.

Fardlar shoir aql-u idroki, zakovati, yuksak salohiyati ifodasidan iborat bo'lgan asarlardir. Uning orasida hayyomona ruhdagi, didaktik, kinoya, mutoiba mazmunidagi yangi tashbehtar, favqulodda chiroyli lavhalarga boy badiiy yaratmalar o'rin olgan.

Salohiy ijodida o'zi yashagan davr bilan bog'liq ziddiyatlar, ko'proq maishiy muammolar talqinidan iborat asarlar uchraydi. Ammo shoir adabiy merosining mohiyatini bugungi milliy mafkuramiz asosini tashkil etgan hayotsevar g'oyalar, xalqchil ruhdagi g'oyaviy-badiiy jihatdan yuqori saviyadagi asarlar tashkil etadi. Bu asarlar adabiyotimiz tarixida o'ziga xos qimmatga egadir.

Adabiyotlar

- 1.Salohiy. Kutilgan kitob. -T.: Sharq, 2015.544 b.
- 2.Salohiddinov I. "Noqis Kattaqo'rg'oniy va uning ijod yo'li". Samarqand. SamDU, 2014. 22-b.

UDK 82-32

OYBEKNING "NAVOIY" ROMANIDA BUYUK ZOT TA'RIFI Omonova F.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Annotasiya. Maqolada Oybekning "Navoiy" asarining tarbiyaviy ahamiyati, tahlili, badiiy to'qima obrazlar haqida bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Oybek "Navoiy" romani, asarning ahamiyati, tarixiy haqiqat, tarixiy shaxs, badiiy to'qima obrazlar.

Трактовка великого человека в романе "Навои" Айбека

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы воспитательного значения романа "Навои" Айбека, его анализа, о выдуманных художественных образах.

Ключевые слова: роман "Навои" Айбека, значение произведения, историческая правда, историческая личность, выдуманные художественные образы.

The interpretation of the great man in the novel "Navoi" Aibek

Annotation. The article deals with the educational significance of the novel "Navoi" by Aybek, his analysis, and fictional artistic images.

Key words: Aibek's "Navoi" novel, the meaning of the work, historical truth, historical personality, fictional artistic images.

O'zligimizni anglash, ertamizni yaratish, tarbiyani haqiqat asosida qurish muammosini biz tarixiy romanlar asosida o'rganishimiz hozirgi kunimizda juda muhim ahamiyatga ega. Sababi san'at, badiiy asar orqaligina kishining qanday insonligini anglash mumkin. Har bir asarda muayyan bir shaxsning ichki olami, dunyoqarashi, o'y-fikrlari o'z aksini topadi. Shuning uchun ham inson hayotda javobini topa olmayotgan savollariga javob oladi.

Bizning o'tmishimiz buyuk tarixga ega. Jumladan, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kamollidin Behzod kabi tarixiy shaxslar haqida ko'plab tarixiy asarlar yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining har tomonlama iqtisodiy, ijtimoiy, moddiy, madaniy tarafdin rivojlanib borishi yoshlarga ularning ta'lim tarbiyasiga bog'liq. Bunda ta'lim jarayonida o'quvchilarda milliy asarlardagi qahramonlarga xos ezgu ma'naviy fazilatlarini shakllantirish katta o'rin tutadi. Ammo bugunning o'quvchisiga bugunning usuli bilan ta'lim berilgandagina samaraga erishish mumkin. Demak, milliy romanlarni o'quvchilarga ta'limning zamonaviy usullari orqali o'rgatish yo'llarini tadqiq etish dolzarb ilmiy-pedagogik muammodir.

Bugungi kunga kelib tarixiy romanlardagi haqiqatni qanchalik teran aks etganligini kun tartibiga qo'yish dolzarb vazifaga aylangan. Chunki o'tmish buzib ko'rsatilmasagina asarda ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Badiiy adabiyotning asosiy vazifalaridan biri tarixda sodir bo'lgan voqealarni, tarixiy shaxslar hayotiga bag'ishlangan asarlarni yaratishdir. Bunday asarlarni yaratishda ilmiy asarlardan farqli o'laroq, tarixda sodir bo'lgan voqealar, yaqin va olis o'tmishda yashagan tarixiy shaxslarga bag'ishlangan asarlarni dunyoga keltirishdir.

Mana shu yo'lda o'zbek adabiyotida zamonaviy tarixiy asar birinchi marta A. Qodiriy tomonidan yaratildi. Yozuvchining "O'tkan kunlar" romani bilan o'zbek adabiyotida tarixiy roman janri maydonga keldi. Oybek "Qutlug' qon" romanida Qodiriy boshlab bergan tarixiy roman an'analarini rivojlantirdi va "Navoiy" romani bilan tarixiy-biografik janrga tamal toshini qo'ydi. Keyinchalik Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasi", Pirmiqul Qodirov "Yulduzli tunlar", Muhammad Ali "Sarbadorlar", Erkin Samandar "Sulton Jaloliddin" romanlari bilan tarixiy janrni yangi bosqichga ko'tardilar va o'zbek milliy romannavislik maktabining yuksalishiga katta xissa qo'shdilar. Ustoz adiblarning ijodiy izlanishlari sababli shakllangan o'zbek romannavislik maktabi keyinchalik A. Muxtor, Shuhrat, Mirmuhsin, H. G'ulom, Sh. Rashidov, va boshqa yozuvchilarning turli mavzuda yozilgan asarlari bilan boyidi.

Romanning qay darajada tarixiy haqiqatga yaqinligi ijodkorning badiiy mahoratiga ham bog'liq. Shunday hayotiy haqiqat asosida yozilgan asarlardan biri Oybekning "Navoiy" nomli tarixiy asaridir. Oybek bu asarni yozish jarayonida nafaqat ulug' shoir hayotini balki, XV asr Xuroson hayotini ham puxta o'rgangan. Navoiyni ham shoir sifatida, ham insonparvar, xalq deb jonini fido qiluvchi shaxs sifatida gavalantirib bera olgan. Oybek Navoiy obrazi bilangina cheklanib qolmasdan, Xurosonda ro'y bergan muhim tarixiy voqealarni, Temuriylar davlatini ichidagi ayrim chirkin voqealarni, xalqning ma'naviy hamda moddiy hayotini mohirona aks ettirgan. Oybek mazkur asari bilan o'zbek adabiyotida tarixiy- biografik roman janrini boshlab, uning asosiy tamoyillarini belgilab berdi.

Oybek romanda buyuk shoir obrazini yaratishda Navoiyni turkiy til va adabiyotga bo'lgan munosabatini, asosiy o'rinlardan biriga qo'ygan. Asarni mutolaa qilish jarayonida ham turkiy til va arab, fors tillari haqida ko'plab bahslar yuritiladi, ayniqsa shoir Binoiy tomonidan turkiy tilga qarshi fikrlar aytiladi. "Xamsa" asarining yaratilishi esa barcha qarshi fikrlarga chek qo'yadi hamda turkiyzabon aholining og'rigan dillariga malham bo'ladi.

Ushbu asar Alisher Navoiy hayotini tarixiy haqiqatga tayangan holda yozilganki, badiiy to'qima obrazlar ham asardagi voqealarga bog'lanib, uyg'unlashib ketgan, asarni o'qiyotgan chog'ingizda tarixiy shaxslar bilan badiiy to'qima obrazlarni bir-biridan ayro holda tasavvur eta olmaysiz. Go'yoki, bu obrazlar shu paytdagi sharoitga, muhitga, jang sahnalariga singib ketganday bo'ladi. Albatta, har bir tarixiy asar badiiy to'qimasiz bo'lmaydi chunki, to'qimalar bosh qahramonning hayotini teranroq anglashga xizmat qiladi. Ulug' rus yozuvchisi Maksim Gorkiy esa "San'at to'qima bilan tirik". "To'qimasiz" "badiiylik" yo'q va bo'lishi ham mumkin emas", degan edi. Darhaqiqat, asarlarni badiiy to'qimasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Tarixiy mavzuda asar yozuvchining badiiy mahoratini ko'rsatuvchi belgilardan biri bu-badiiy to'qimadir. Yozuvchi badiiy to'qimadan qay darajada o'rinli va unumli foydalanishidadir. Ushbu asardagi Sultonmurod, Zayniddin, To'g'onbek, Arslonqul, Dildor, Bo'dana va Po'dana obrazlari Navoiy obrazini ko'p qirralarini ochib berishga xizmat qilgan. Bu to'qima obrazlar yozuvchi fantaziyasining mahsuli bo'lib, Navoiy yashagan makon va zamonga moslab yaratilgan. Har bir to'qima obraz Navoiyning qirralarni ochib berishga xizmat qilgan. Misol tariqasida Arslonqul va Dildor obrazlarini oladigan bo'lsak, bizga tarixdan ma'lumki, Navoiy oila qurmagan, lekin asarga ikki sevishtan yosh qalbni haloskori sifatida Navoiy ularga

benihoya yordam berishi aks ettirilgan . Navoiyni ishq mavzularidagi nasriy va nazmiy asarlardan kelib chiqadigan bo'lsak, Navoiyning qalbi ishq va muhabbatga to'la ekanligini ko'ramiz. Oybek ham shu sabablardan ikki yosh sevishganlarni asarga qo'shgan. Chunki, Navoiydek ma'rifatparvar odam bunday buyuk sevgini asrab qolishga qodir edi. Oybek asar yozish jarayonida quruq xayollarga berilmagan. Aksincha, xayollarini hayot bilan bog'lagan. Har bir to'qima obrazlarni, to'qima voqealarni asosli ravishda asarga kirgizadi. Asarni bu darajada ta'sirchan chiqishi, albatta, yozuvchining badiiy mahoratiga bog'liq. Badiiy to'qimadagi hayot turmushdan ko'ra realroq va to'liqroqdir. Shaxs, asardagi qahramonga qanchalik o'xshab ketmasin, baribir unda qandaydir nuqson, kamchilik bo'ladi.

Demak, yozuvchi ijodiy fantaziyaga, xayolga, badiiy to'qimaga qancha boy bo'lsa, u yaratgan obrazlar shu qadar haqqoniy, hayotiy mukammal bo'ladi. Badiiy to'qima qahramon obrazini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Asardagi Sultonmurod obrazi ham xayolot mevasi asarning dastlabki qismida kirib kelgan bu obraz roman davomida Navoiyni qanoti ostida bo'ladi. Bu obraz esa Navoiyning ulm-ma'rifat ahliga yuksak darajada e'tibor berganini ko'rsatadi.

Oybek Navoiyning yigitlik fasliga nazar tashlashni o'ziga munosib ko'rmaydi, shuning uchun ham Navoiy siymosini biroz keyinroq Sultonmurod va Zayniddinlarning sog'ina boshlagan paytda tantanali ravishda olib kiradi. Asarni bu lavhasidan boshlanishi ham yozuvchining badiiy mahoratidir, Sababi, huddi shu vaqtlarda Hirotga bo'layotgan nohaqliklarni oldini olishga va bartaraf qilishga xalqqa buyuk shaxs, xalqparvar, e'tiqodli va iymonli komil inson kerak edi. Va bu, albatta –Alisher Navoiy edi.

Tarixni xalq yaratadi, xalq buyuk shaxslarni yaratadi. Har bir buyuk shaxs xalqning yuragidan otilib chiqqan ozodlik, erk, tinchlik uchun kurashni olg'a surmog'i darkor. Alisher Navoiy ham xalqning yuragidan otilib chiqqan shaxs. Xalq butun orzu-umidini Alisher Navoiyda ko'radi. Asarning boshlanish qismida Hirotga Navoiyni kirib kelish sahnasini olsak, bundan butun Hirot xalqi ruhlanadi. Navoiyni "nodir siymo" deb xalq ulug'laydi. Alisher xalq uchun judayam ko'p ishlarni xohlaydi, bu yo'lda ko'plab qarshiliklarga, to'siqlarga uchraydi, uning hayotiga tajovuzlar uyushtirishadi. Lekin Alisherning bu voqeadan qattiq iztirobga tushsa ham, bu holatni dushmanlariga sezdirmaydi, o'ch olishga harakat qilmaydi. Hammasini taqdir hukmiga topshiradi. Bu holat ham Navoiyning qay darajada oliyjanobliligini ko'rsatadi. Alisher tushkunlikka tushib davlat ishlaridan voz kechadi. Hamda o'zini adabiyotga bag'ishlaydi, Alisher faqat ijod bilan shug'ullanishni istardi, lekin xalqqa bo'lgan mehr Navoiy tinch o'tirishga qo'ymaydi. Hayotda shunday vaziyatlar bo'ladiki, o'sha davrdagi muhit, sharoit bunday yuksak g'oyalarga to'sqinlik qiladi. Har bir inson o'sha jamiyatga, muhitga moslashishga majbur bo'ladi.

Muhit – murakkab va ko'p ma'nolilik tushuncha.

Muhit tushunchasi badiiy asarda ham, inson hayotida ham juda katta ahamiyatga ega. Navoiy yashagan davrdagi muhit davlatdagi nohaqliklar, adolatsizliklar, xalqning qiynalayotgani Alisherning qalbiga tikondek sanchilardi, bularga qarshi qalbi faryod qilardi. Lekin Husayn Boyqaro davrini tamomila muhiti yomon edi deya olmaymiz, chunki, asarda hamda bir necha tarixiy hujjatlarda ham Hirotidagi adabiy muhit haqida ko'plab iliq fikrlar yozilgan. Asarning dastlabki boblarida g'azalnavislik, ilmi toliblarning har bir bayt ustidagi qizg'in bahslar bilan boshlanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, Husayn Boyqaro davrida adabiy muhit yaxshi bo'lgan. Podshohning o'zi ham she'riyat muxlislaridan biri bo'lgan. Lekin davlatda bo'layotgan nohaqliklar vazirlar, beklarning o'z manfaatlarini o'ylab qilayotgan ishlari, podshoh Husayn Boyqaroning farzandlari taxt talashib ayrim beklarning fisqu-fasodlariga uchib, o'z qari otalariga qarshi urush e'lon qilishi, Alisherning davlat ishlaridan chetda turishga yo'l qo'ymaydi. Oybek Navoiyning vatanga bo'lgan muhabbatiga juda ko'p to'xtalib o'tadi. Bu bilan Oybek o'quvchini vatanga bo'lgan muhabbatini Navoiydek mustahkam bo'lishiga da'vat etadi.

Yozuvchi asardagi Darveshali, Majididdin, Binoiy, Husayn Boyqaro tarixiy shaxslar orqali Alisher Navoiyning go'zal qirralarini mohirona ochib bergan. Oybek bu asarni yozishda adabiy , ilmiy manbalar bilan tanishibgina qolmay, o'sha davrda yaratilgan tarixiy manbalarni ham chuqur o'rgandi. Oybek "Navoiy" asaridan avval ham Alisher Navoiy haqida bir qancha asarlar, ilmiy maqolalar yozgan, lekin bu asarlardan ko'ngli to'lmaydi. Va u o'zining "Navoiy" romanini yaratdi. Akademik Oybek "xalqning madaniy darajasini ko'tarish, uning moddiy va ma'naviy jihatlaridan gullashini ko'rish- Navoiyning eng buyuk orzusi va g'oyasi edi. U hayotni boy nash'ali va sevgi ham adolat nuri bilan yashnagan bir holda ko'rishni xayol qilardi" –deb yozgan edi. Oybek ham "Navoiy"

asarida yozishni bosh qahramonini ana shu adolat nuri sari talpinganini butun asar davomida aks ettirgan. Romanda bosh qahramonning ruhiy ma'naviy hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar qalamga olinadi. Romanda Navoiyni xotirlashga arzirlik ishlarini mohirona aks ettirilgan, bu esa Navoiyni avlodlar xotirasida saqlanib qolishga xizmat qiladi.

Navoiy obrazi orqali biz insonning eng nozik nafis fazilatlarini ko'ramiz. Jumladan, uning vatanparvarligi, xalq manfaatini o'ylaganligi, xalq uchun binolar suv inshootlari qurdirganligi, dinga bo'lgan munosabati, qadriyatlarga sodiqligini ko'rishimiz mumkin. Oybek Navoiyning bu hislatlarini to'la ochib bera olgan. Roman o'quvchining ma'naviy olamini boyitishga ko'mak beradi.

Oybekning XX asr navoiyshunosligida muhim o'rni bor. Sababi Oybek chin badiiy san'at asarini, mangu yashaydigan asar yaratgan. "Navoiy" romani asrlar oshib yashaydi. Chunki, Oybekning "Navoiy" romani yuksak san'at mahsulidir. O'quvchilar qalbidan joy olgan ushbu asar bugungi kunda ingliz tiliga to'liq holda tarjima qilinib, kitobxonlar e'tiboriga havola qilindi. Ushbu asar hali qanchadan-qancha qalblarni ma'rifat nurlari bilan quyosh misol qizdiradi.

Adabiyotlar.

1. Zaynitdinova A. "Badiiy asarda fakt va to'qima". – T.: "O'zbekiston". 1980.
2. Niyazmetova R., Oxunjonova O. "Ona tili va adabiyot" fanidan o'quv qo'llanma. – T.: 2014.
3. To'xliyev B., Isayeva Sh., Shermuhammedov T. "Adabiyot" III kurs akademik litsey darsligi. – T.: "Cho'lpon", 2012.
4. To'xliyev B., Ahmedov H. "Akademik litseylarda adabiyot faning namunaviy dasturi ta'lim yo'nalishi ijtimoiy – gumanitar-1" – T.: 2016.
5. To'xliyev B., Abdurahmonova B. Navoiyni o'rganamiz. T: 2010.132-b.

UDK 494.3:809

MUHAMMAD ALINING "SHOHRUX MIRZO" TARIXIY ROMANIDA ISTORIZMLAR MUHIM USLUBIY VOSITA SIFATIDA

Xushmurodova Ch.

Samarqand davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada Muhammad Alining "Shohrux Mirzo" tarixiy romanida qo'llanilgan istorizmlar va ularning uslubiy xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, ushbu asarda qo'llanilgan istorizmlarning guruhiy tasnifi ham berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Istorizmlar (javong'or, cho'qmor), istorizm guruhlari: harbiy tushunchalarni ifodalovchi (muhoraba, barong'or), o'rin-joy ma'nosini ifodalovchi (o'rdu, saroparda) va boshqa istorizmlar.

Историзмы как стилическое средство в романе "Шохрух мирзо" писателя Мухаммад Али

Аннотация. Статья освещает историзмы свойственные им методические особенности взятые из исторического романа Мухаммада Али "Шохрух Мирзо" так же в данном произведении приводится типовое описание использованных историзмов.

Ключевые слова: историзмы (булава, фланг), группы историзмов: интерпретирующие военные понятия (мухораба, баронгор), понятия места (урду, саропарда) и другие историзме.

Historisms in "Shohrukh Mirzo" historical novel of muhammad ali as main stylistic implement

Annotation. The article describes historisms and their methodical features interpreted in the historical novel "Shohrukh Mirzo" by Mukhammad Ali and also it gives a typical description of those historisms used in the analysed novel.

Keywords: historisms (weapon, flank), types of historisms: referring to military terminology (muhoraba, barongor), place and location (urdu, saroparda) and other historisms.

Ma'lumki, tilimizning eski leksik qatlamiga mansub tarixiy so'zlar, ya'ni istorizmlar o'zbek tili leksikasining hozirgi kun tarkibida ham narsa-hodisalarning atamalari sifatida uchraydi. Istorizmlar

hozirgi kunda tilimizda iste'moldan chiqqan bo'lsa-da, ammo, tarixiy voqea-hodisalar haqidagi ma'lumotlar eslatilgan taqdirda ular ba'zan qo'llaniladi: *javong'or*, *hirovul*, *shiqovul*, *sarkarda*, *suvoriy*, *sipoh*, *cho'qmor*, *qalqon*, *qamal*, *haram*, *saroparda*, *xotuno'dana*, *jubba*, *bakovul*, *munshiy* kabilar [1]. Haqiqatdan ham istorizmlarning ayniqsa, badiiy nutq tarkibida tutgan o'rni, vazifasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ular, nafaqat, fikr ifodasi, tarixiy davrni jonlantirish vositasi, balki nutq egalarining ruhiyati, dunyoqarashi, salohiyati va madaniyati kabi xususiyatlarini ham namoyon qiluvchi muhim omildir [2].

Istorizmlar yozuvchi Muhammad Alining "Shohrux Mirzo" tarixiy romani matnida ham keng qo'llanilgan bo'lib, ular asarda tasvirlangan voqealarda va personajlar nutqida faol qo'llanilgan, bu esa tabiiyki, asarda tasvirlangan davr muhitini yoritishda, asardagi tarixiy koloritni ochib berishda muhim uslubiy vosita bo'lib xizmat qilgan.

"Shohrux Mirzo" tarixiy romani leksikasidagi istorizmlarni asosan quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Mansab, unvon, lavozim nomlari: *Valiahd* (podshohning tiriklik chog'ida o'z o'rniga tayinlab qo'ygan taxt vorisi), *Dodxoh* (saroydagi yuqori martabalardan biri), *Mahdi ulyo* (Saroymulxonimning unvoni), *Xonzoda xonim* (Xorazm malikasi Sevinbeka unvoni), *bakovul* (podsho, xon saroyida xizmat qiluvchi mansabdor, lashkarga ovqat tayyorlashni tekshirib turuvchi, lashkarga ovqat taqsimlash ham ular zimmasiga yuklatilgan), *munshiy* (munshi, qadimda davlat amaldorlarining kotibi, ular oddiy kotiblardan farq qilib, amaldorlarning maxsus farmonlari va xatlarini yozishgan), *chopar* (otliq xabarchi), *mulozim* (saroydagi quyi lavozimlardan biri), *kanizak* (haramdagi xonga tegishli ayol yoki qiz) quyi lavozim nomlaridir.

2. Harbiy tushunchalarni ifodalovchi istorizmlar: *muhoraba* (urush, jang), *javong'or* (qo'shinning so'l qanoti), *hirovul* (qo'shinning old tomoni), *barong'or* (qo'shinning muqaddima qismi orqasidan boruvchi maxsus harbiy qism), *chopovul* (qo'shinning o'ng qanoti), *qorovul* (qo'shinning oldida boruvchi piyoda askarlar bo'linmasi), *shiqovul* (shaqavul, jangovor qanotlarning so'l qismi), *sarkarda* (lashkarboshi), *suvoriy* (otliq askar), *sipoh* (qo'shinning piyoda askarlari), *cho'qmor* (qo'l jangida ishlatiladigan oddiy qurol), *qalqon* (jangchining tanasini tig'li qurollar zarbidan himoya qiluvchi moslama), *qamal* (qal'ani qo'qqisdan hujum qilib olib bo'lmagan taqdirda joyni to'rt atrofini o'rab olish) *dubulg'a* (jangchining temirdan yasalgan, himoyalovchi bosh kiyimi).

3. O'rin-joy ma'nosini ifodalovchi istorizmlar: *haram* (xon, amirga tegishli joy, yoki ayollar uchun ajratib qo'yilgan hovli), *o'rdi* (xon qarorgohi va harbiy ma'muriy tashilot joyi), *saroparda* (hukmdor chodiri).

4. Kiyim-kechak nomlari: *xotuno'dana* (matodan qilingan dubulg'anamo bosh kiyim), *burnus* (nozik hoshiyali cho'zinchoq bosh kiyim), *jubba* (jibba, mo'g'ulcha so'z bo'lib, 1) jangchini yoy o'qi va nayzadan saqlash uchun ingichka simdan to'qilgan maxsus urush kiyimi. 2) jubba - avra-astarning ichiga paxta solib qavilgan keng va uzun, choponlarga o'xshash kiyim).

5. Kasb-hunarni ifodalovchi istorizmlar: *mudarris* (madrassa o'qituvchisi), *mashshoq* (mashq qiluvchi, kuyni sozda ijro etuvchi), *baqqol* (mayda savdogar), *allof* (somonfurush, g'allafurush), *mubashshir* (sevinchli xabar keltiruvchi) va hk. (Atamalar izohi olingan kitoblar adabiyotlar ro'yxatida berildi).

Bundan tashqari asarda qo'llanilgan istorizmlarni yana ko'plab guruhlariga, masalan, ichimlik, taomlar va boshqalarni bildiruvchi istorizmlar guruhlariga bo'lish mumkin. Ammo asarda yuqorida keltirilgan ikki guruhga kiruvchi istorizmlar faol qo'llanilgan. Chunki asardagi asosiy voqealar jang tasviri bilan bog'liq bo'lganligi va aynan o'sha davrda qo'llanilgan harbiy terminlarning ko'pchiligi bugungi kunda iste'molda emasligi bois asarda ushbu vaziyat bilan bog'liq istorizmlar ko'p uchraydi. Asardan olingan quyidagi parchani ko'rib o'tamiz: "Amir Temur nazdida dunyoning biron-bir bo'sh joyi qolmaganday, puchmoq-puchmoqqacha askarga to'lib ketganday tuyuldi. Hov anovi so'lda *shiqovul*, o'ngda esa *chopovul* qo'shinlari alohida ajralib turibdi. Ulardan ham oldinda *hirovullarning* favjlari joylashgan. Lekin chunon tikilsa ham undan naridagi *qorovullarni* ilg'ab bo'lmasdi" [6]. Ushbu misolda Amir Temur qo'shinining jang oldi tayyorgarligi tasviri berilmoqda. Askarlarning bo'linmalarining nomlari turlicha bo'lib, ular asosan askarlar soni va joylashish tartibiga ko'ra shunday nomlangan. Hozirda esa bunday qo'shin turi mavjud emas.

Yana bir misol: "...sohibini yo'qotgan isfahoniy qilichlar, o'qlari sochilgan *sadoqlar*, yerlarga sanchilgan arabiy nayzalar, gurzilar, *cho'qmorlar* uyumi qoladi..." [6]. Bu misolda jang tugaganidan keyingi holat tasvirlanmoqda. Unda o'sha davrda foydalanilgan jang qurollari nomi keltirilmoqda.

Keyingi misolda o'sha tarixiy davrda iste'molda bo'lgan o'rin-joy nomlari keltiriladi: "Sohibqironning bemalol bir qasaba degulik muborak o'rdasi o'lanzor markazida o'rnashgan. Unda mahobatli *shohchodir*, hashamatli ko'shk, to'rtta so'lim *saroparda* ustunlari oltindan qilingan dabdabali shohona oq uylar qad ko'targan" [6].

Asardagi kiyim-kechak nomlari ham alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, ular orasida ayollarning o'ziga xos bosh kiyimi "xotuno'dana" o'ziga xos xususiyatlari bilan kishining diqqatini tortadi. Ularni quyidagi misollar orqali ko'rib o'tamiz: "...Mahdi ulyoning boshidagi qizil nafis matodan qilingan dubulg'anamo bosh kiyim *xotuno'dana* ham ajoyib edi: uning yelkaga tushib turgan turli qimmatbaho toshlar bilan ziynatlangan barlari to'liq o'rgan tim qora sochlarni yashirib turardi. Tepasidagi bir tirsakka teng jig'aga zarrin iplar bilan bog'langan durlar qadalgan rang-barang patlar malika yurganda epkinda har yoqqa par-par bo'lib taralib, jilvagar manzara kasb etardi. *Xotuno'danani* ikki tomondan ushlagan bir necha asilzoda oyimlar yonida baland bo'lyi shukrchi kattagina oq shohi soyabon ko'tarib olgandi" [6]. Ko'rinib turibdiki, "xotuno'dana" o'sha davrdagi aslzoda xonimlar kiyadigan shohona bosh kiyim bo'lib, hajmi biroz katta, unga ulangan "etak"lar ham uzun bo'lib, uni bir necha kishi ko'tarib yurishgan. Bu bosh kiyimni asosan to'ylarda, bazmlarda, bayramlarda kiyish urf bo'lgan. Nafaqat ayollarning, balki erkaklarning ham o'ziga xos bosh kiyimlari bo'lgan. Ulardan biri "burnus" deb ataluvchi bosh kiyimi bo'lib, uni ko'proq kundalik hayotda, salla ichidan kiyiladigan bosh kiyim sifatida ko'ramiz. O'z o'rnida "burnus"ning ham o'sha davrda turli xil ko'rinishlari bo'lganligini quyidagi misol orqali ko'rib o'tamiz: "*Burnus* degan nozik hoshiyali cho'zinchoq bosh kiyim ustidan yengil qora salla o'radi, zarif bir suratda Qasri Ablaqqa, Amir Temur huzuriga jo'nadi" [6]. Qolaversa, asarda bosh kiyimlardan tashqari, ustki kiyimlarning ham o'ziga xos nomlari va turlari uchraydi: "Egniga chiroyli chechakli baxmaldan bir *chakmannamo* uzun kiyim kiygan, ustidan yengi kalta oq *jubba* tashlagan" [6]. "Jubba" so'zini ikki xil ma'noda tushunish mumkin: 1) ingichka simdan to'qilgan bo'lib, askarlarning urush vaqtida kiyadigan, yengi keng, kalta himoya kiyimi, 2) o'rta asrlarda urf bo'lgan, xuddi shu andozada, avra-astarning orasiga paxta solib tikilgan qulay va issiq kiyimni ham jubba deb atashgan [3]. Ammo bu atama ko'proq jang kiyimini ifodalovchi so'z sifatida adabiyotlarda tilga olinadi [4].

Asarda uchraydigan kasb-hunar nomlari ham alohida ahamiyatga ega. Chunki, ular ham tarixiy davrni aks ettirishda, unda amal qilgan siyosiy tuzum va ijtimoiy hayot tarzini to'laqonli ochib berishda katta o'rin tutadi. Buni asardan olingan parchalar orqali ko'rib o'tamiz: "Sohibqiron Amir Temur *Ko'ragon* hazrati oliylari buyuradilar: qo'li qing'ir qassoblardan o'n kishi, *baqqollardan* to'qqiz kishi, *alloflardan* oltitasi, chitfurushlardan ikkitasi, ummolu muhassillardan yettitasi *cho'bi yasoqqa* yetkazilsun!" [6]. Parchada bir necha kasb-hunar nomlari sanab o'tilmoqda. Bu nomlar tarixiy davrga mosligi, ularning ayrimlari bugungi kunda, umuman, uchramasligi bilan ajralib turadi. Bunday nomlarni asar matnida juda ko'plab uchratish mumkin. Yana bir misol: "Shu palla favqulodda ikki yil avval Ko'ksaroyda Sohobqironning xos *munshiy* mavlono Haybatullohga qandaydir tuzukni daftarga tushirishni buyurayotgani yodiga tushdi" [6]. Bu misolda keltirilgan kasb nomi hozirgi kunda uchramaydi. Munshiylik hukmdorning xos kotiblari bo'lib, ular o'ta rasmiy va jiddiy ahamiyatga molik bo'lgan davlat hujjatlarini yozganlar. Bu saroyda katta nufuzga ega bo'lgan mansab hisoblangan. Bu lavozimda ishlagan munshiylik "munshiy" so'zini taxallus sifatida o'z nomlari ketidan qo'shib qo'yganlar. Yana bir shunday nomga e'tibor qaratamiz: "Amir Temur nomani *Mubashshir* bahodirga tutqizib, bir jamoat dono kishilarga bosh qilib Yildirim Boyazidga yuborar ekan, savdoyi vasvasalarga muhtalo Rum qaysari es-hushini o'nglab olishiga undan insof doirasida javob kelishiga asloshubha qilmasdi, axir uni sermulo hazakor, bosiq hukmdor deb eshitgan" [6]. Bu misolda "mubashshir" so'zini tahlil qiladigan bo'lsak, uning birinchi ma'nosi "xushxabar keltiruvchi" bo'lsa, ikkinchi ma'nosi "ish yurituvchi, ish boshqaruvchi" nomi yoki taxallusidir. Lekin, asarda bu so'z ko'pincha birinchi va ikkinchi ma'nolarida aralash holda kelganini ko'ramiz. Ammo, tahlillar shuni ko'rsatadiki, asarda so'zning ikkinchi ma'nosi ko'proq ishlatiladi. Bu so'z ham asar matniga tarixiy koloritni bera olgan deb aytish mumkin. Xuddi shunday nomlardan yana ba'zilarini tahlil qilamiz: "Yigirmaga yaqin qo'y, yaxshi *bakovul*, shuningdek bazmni gullatuvchi mashhur hofizu *mashshoqlarni* olib keldim..." [6]. Bu misoldagi *bakovul* so'zi qayd qilganimizdek, podsho huzurida xizmat qiluvchi, uning askarlariga ovqat tayyorlovchi ishchi hamda lashkarlarga maosh va ulufa, ya'ni oziq-ovqat taqsimlash ham ularning zimmasida bo'lgan. Ko'rinib turibdiki, bu ham saroydagi asosiy lavozimlardan biri sanalgan. Bu so'z ham asarning tarixiy davr bo'yoqlarini ochishda xizmat qilgan.

Ko‘rinadiki, o‘sha davrdagi jang qurollari, o‘rin joy nomlari, kiyim-kechak va boshqa turdagi buyumlar nomidan foydalanib, asarning tarixiy davrni aks ettirish qimmatini yanada oshirilgan.

Xulosa qilib aytganda, keltirilgan misollardagi istorizmlar asar matniga tarixiy bo‘yoqlarni bera olganligi bilan ahamiyatlidir. Yuqorida keltirilgan istorizmlar “Shohrux Mirzo” tarixiy romanida faol qo‘llanilgan bo‘lib, asar voqealari tasvirlangan davr va ijtimoiy hayotning haqqoniy ifodasini ko‘rsatishga xizmat qilgan. Yozuvchi o‘sha davrga xos so‘zlar ya‘ni istorizmlardan o‘z o‘rnida foydalanib, tarixiy davr hayot haqiqatini yorqin aks ettirishga erishgan.

Adabiyotlar:

1. Omonturdiyev A., Raimnazarova N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Termiz – 2010. 126 b.
2. Xudoyberdiyeva N. A. “Navoiy” romanida dialogning ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Toshkent – 2014. 59 b.
3. Choriyev Z. Tarix atamalarining qisqacha izohli lug‘ati. Toshkent: - “Sharq”, 1999. 142 b.
4. Dadaboyev H. Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati. Toshkent: - “Universitet”, 2008. 236 b.
5. Hasanov B. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at. 1-tom. Toshkent: - “Fan”, 1993. 374 b.
6. Muhammad Ali. Ulug‘ saltanat. Epopeya. To‘rtinchi kitob. “Shohrux Mirzo”. – T.: “Sharq”, 2014. 560 b.

UDK 809.433.2

XATIRCHI TUMANI TOPONIMLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI U.S.Turdimurodov

Samarqand davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada Xatirchi tumani toponimlari leksik-semantik jihatdan tahlil qilingan. Hududdagi toponimlar oykonimlar, gidronimlar, oronimlar, nekronimlar, agronimlar tizimiga keltirilib, alohida semantik guruhlariga ajratilgan. Har bir toponimning ma‘nosi uni vujudga keltirgan narsa-hodisaning real mazmuni bilan bog‘langan.

Kalit so‘zlar: toponim, oykonim, gidronim, oronim, nekronim, agronim.

Лексико-семантические особенности топонимов Хатирчинского района

Аннотация. В статье анализируются топонимы Хатирчинского района в лексико-семантическом отношении. Топонимы ойконимы, гидронимы, оронимы, некронимы, агронимы этого региона разделены на отдельные группы. Семантика каждого топонима связана с реальным содержанием понятия, которое его сформировало.

Ключевые слова: Топоним, ойконим, гидроним, ороним, некроним, агроним.

Lexico-semantic characteristics of toponyms of Khatirchi district

Annotation. In article toponyms in Khatirchi district are analyzed. Oiconyms, hydronyms, oronyms, necronyms, agronyms were brought into system and divided into separate semantic groups. The meaning of each toponym which has been created the real meaning of thing and event is connected.

Keywords: Toponym, oiconym, hydronym, oronym, necronym, agronym.

Kirish

Ma‘lumki, geografik obyektlarga atab qo‘yilgan nomlar o‘zida nafaqat muayyan joy tarixi haqida ma‘lumot tashiydi, balki shu bilan birga, lingvistik (onomastik) birlik sifatida xalqning tarixi, madaniyati va ma‘naviyati to‘g‘risida guvohlik berishga ham xizmat qiladi[5]. Shuning uchun ham Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning «Odamzod avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o‘zi tug‘ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi»[1], – degan fikrini ma‘naviy merosimiz va qadriyatlarimizning tarkibiy qismi bo‘lgan toponimik manbalarni o‘rganishda dasturilamal sifatida qabul qilamiz. Keyingi yillarda O‘zbek onomastikasining asosiy qismi hisoblangan toponimikaning nazariy masalalariga, geografik joy nomlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan doktorlik, nomzodlik dissertatsiyalari va alohida monografik tadqiqotlar vujudga kelmoqda[3].

Shu maqsadda biz ham o‘z tadqiqotlarimizni Navoiy viloyati Xatirchi tumani toponimlarini lingvistik jihatdan tadqiq etishga bag‘ishladik. Navoiy viloyati hududi toponimlarini lingvistik tahlil

etish O'zbekistonning qadimiy hamda zamonaviy tarixini o'rganish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada faqat O'.Oripovning nomzodlik dissertasiyasi yuzaga kelgan. Bu nomzodlik dissertasiyasida Nurota tumani makro- va mikrotoponimiyasi lingvistik tadqiq etilgan[4]. Jumladan, qadimiy hududlardan biri bo'lgan Xatirchi tumani dastlab Samarqand viloyati tarkibida edi, keyinchalik bu tuman Navoiy viloyati tarkibiga kiritilgan. Bu Xatirchi tumani toponimlarini leksik-semantik va etimologik jihatdan o'rganish ham ana shunday muammolar qatoriga kiradi. Tadqiqot ishimizning mavzusini dolzarbligidan dalolat beradi.

Tadqiqot ishining metod va materiallari.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning tarixiy qadriyatlarimizga bo'lgan chuqur hurmat va ehtiromi, milliy merosimizdan faxrlanish g'oyasi tadqiqot ishimiz uchun metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Ishning tadqiq metodlarini o'zbek toponimist olimlari T.Nafasov, Z.Do'simov, H.Hasanov, S.Qorayev, S.Karimov, A.Muhammadjonov, T.Rahmatov, N.Oxunov, B.O'rinboyev, T.Enazarov, A.Zokirov, A.Turobov, N.O'luqov, N.Begaliyev, O'.Oripov, S.Bo'riyevlarning ishlarida qo'llanilgan onomastik tahlil, jumladan, qiyosiy, tavsifiy, lug'aviy-ma'noviy tahlil usullari tashkil qiladi.

Tadqiq ishining materiali Xatirchi tumani toponimlar bo'lib, bunda tadqiqot ishi muallifining o'z kuzatishlari jarayonida to'plangan joy nomlari, shuningdek, ilmiy adabiyotlar va arxiv manbalaridan to'plangan toponimikaga doir faktik dalillardir.

Asosiy qism

Toponimlar o'zbek tili lug'at boyligining tarkibiy qismi sanalib, ularni mavjudligi va amalda bo'lishi ona tilimizning umumiy qonun-qoidalari doirasida bo'lsa ham uning o'ziga xos lingvistik xususiyatlari bor. Ularni o'zbek tilining fonetik, leksik-semantik va grammatik xususiyatlari misolida kuzatishimiz mumkin.

Joy nomlarining paydo bo'lishida shu geografik obyektning tashqi ko'rinishi, joylashish o'rni, tabiiy sharoiti, er boyligi, hayvonot va o'simlik dunyosi, mahalliy xalqning shug'ullanadigan kasb-kori, xo'jaligi yoki biror bir voqea-hodisa munosabati bilan ayrim shaxs yoki qabila, urug' nomiga va boshqa ko'plab sabablarga hamda belgi-xususiyatlarga binoan qo'yilishi mumkin. Bir joyning nomlanishi bilan bog'liq bir necha sabablar bo'lsa ham ularning eng xarakterlisi tanlab olinadi [2]. Toponimlarning leksik-semantik guruhlarini belgilash ularni ma'lum guruhlariga, tiplarga ajratib bo'lib olish va shu asosda tasniflash bu birliklarning ma'nolarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Toponimlarning leksik-semantik guruhlarini aniqlash orqali ularning etimologiyasiga boriladigan yo'l yaqin bo'lganligidan tadqiqotlarda lingvistik birliklarning ana shu xususiyatlariga ko'proq e'tibor qaratiladi [3].

Toponimlarni bir tizim va tartibga keltirish uchun ham ularni leksik-semantik ma'nolaridan kelib chiqqan holda ma'lum guruhlariga tasniflash maqsadga muvofiqdir. Xatirchi tumani toponimlarini leksik-semantik jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Qishloq nomlari:

- nomlanishiga urug' nomlari va ularning tarmoqlari tayanch bo'lgan nomlar, ya'ni etnooykonimlar: *Kelachi, Smetan, Jaloyir, Shirin, Olchin, Qatag'on, Arabtepa, Kenjayuz, Qiyot, Qirg'iz, Loppi qiyot, Arab, Saroy, Tamabahrin, Burqut, Qo'ng'iroq, Xo'ja, Eroni, Lochin, Yuz, Tortuvli, Nayman, Yuqori nayman, Mang'it, Urganji, Turkman, Qutchi, Uyshin, Xo'jaobod, Qang'li;*

- mustaqillikdan keyingi nomlar: *Daryoobod, Navro'z, Ziyoli, Oltinobod, Guliston, Do'stlik, Istiqlol, Tinchlik, Yangi qurilish;*

- nomlanishiga biror bir inshoot yoki maskan asos bo'lgan nomlar: *Qo'rg'oncha, Bozorjoy, Taxtako'prik, Oqrabot, Xonaqa, Koriz, Quduqcha;*

- aholining ijtimoiy ahvolini ko'rsatuvchi nomlar: *Mergan, Kulol, Charvador, Podachi, Tasmachi;*

- belgi xususiyat asos bo'lgan nomlar: *Kattaqishloq, Yangiqishloq;*

- antroponimlar asos bo'lgan nomlar: *Ulug'bek, Nasrobod, Xidirota, Navoiy, Boyqaro;*

- zoonimlar nomlariga asoslangan nomlar: *Bo'taloq, Qo'chqorchi;*

- tarixiy nomlar: *Chuvak, Murdosh, Navandak, Chag'atoy;*

- joylashgan o'rniga ishora qiluvchi nomlar: *Teva, O'rtaqishloq, O'rtabuloq;*

- tarkibida sanoq sonlar ishtirok etgan nomlar: *Uchtepa*;
- daraxt nomlari bilan bog‘liq nomlar: *Olmazor, Mingtut, Mingyong‘oq, Yong‘oqli, Chinor*;
- o‘simlik nomiga asoslangan nomlar: *Gulkent, Tariqpoya*;
- rangning nomiga asoslangan nomlar: *Qoracha, Qizilbuloq, Oqtepa, Qoraqishloq*;
- tosh bilan bog‘liq nomlar: *Sangijuman, Toshquloq, Toshbuloq*;
- diniy tushuncha bilan bog‘liq nomlar: *So‘fikabi*.

2. Mahalla nomlari:

- mustaqillikdan keyingi nomlar: *Bunyodkor, Madaniyat, Fidokor, Istiqlol, Dehqonobod, Guliston, Mustaqillik, Binokor, Navbahor, Do‘stlik*;
- antroponim asos bo‘lgan nomlar: *Mirzo Ulug‘bek, Xo‘jaqulobod, Alisher Navoiy*;
- urug‘ nomi bilan bog‘liq holda vujudga kelgan nomlar: *Jaloyir, Olchinobod, Nayman, Saroy*;
- boshqa geografik obyektlardan ko‘chgan nomlar: bu yerda hududdagi qishloq yoki boshqa toponimik obyekt nomidan olingan nomlar: *Oqoltin, Toshquloq (qishloq nomi), Tamabahrin (qishloq nomi), Avoqli, Kattasoy (soyning nomi), Damariq (ariq nomi), Zarafshon (daryoning nomi)*;
- o‘simlik va daraxt nomlari asosida yasalgan nomlar: *Olmazor, Qo‘shchinor*;
 - tarixiy nomlar: *Bog‘ishamol, Miyonqol, Paraxun*;
 - belgi xususiyat asos bo‘lgan nomlar: *Yangirabot, YAngi*;
 - mashhur joy nomlari bilan atalgan nomlar: *Samarqand*;
 - qimmatbaho toshlar bilan bog‘liq nomlar: *Oltinsoy* kabi.

3. Gidronimlar:

- urug‘, qabila, xalq nomlari bilan atalgan nomlar: *Smetanariq, Jaloyirariq, Mug‘ol*;
- antroponimlar asosida vujudga kelgan nomlar. Bunday gidronimlarning nomlanishiga sabab, ushbu obyektning qazishga bosh bo‘lgan shaxslarning nomlari bilan atalgan: *Ergashaliarig‘i, Mamarasulariq*;
- hayvon va jonivorlar nomlari asosida vujudga kelgan nomlar: *Qo‘yhovuz*;
- aholi yashaydigan joy nomlari (oykonimlar) bilan atalgan nomlar: *Kayishariq, Gumbazariq, Oqoltinarig‘i, Merganariq, Xuddon, Qoracha, Gulkent, Tasmachisoy, Murdoshsoy* kabi. Bunda asosan shu hudud aholisi bu gidronimlardan foydalanadi va bu gidronimlar shu hududdan oqib o‘tadi;
- suvning oqish xususiyatiga ko‘ra nomlangan nomlar: *Gumariq, Silburoz, Damariq, Tezoqarariq, Chappaariq*;
- obyektning shakliga ko‘ra nomlangan nomlar: *Chovli, Kattasoy, Kattazovur*;
- tarixiy nomlar: *Allohdo‘s (Qahramon), Qulva (arabcha kata ariq), Shavvot, Paraxunariq, Turkiston, Qurama*;
- obyektning joylashgan o‘rni va tuzilishiga ko‘ra nomlangan nomlar: *Ko‘tarma (nasos)*;
- suvning ta‘mini anglatuvchi nomlar: *Sho‘rzovur, Sho‘rbuloq*;
- joylashgan o‘rniga ishora qiluvchi nomlar: *O‘rtabuloq, Orqabuloq, Boshbuloq*;
- obyektning alohida xususiyatlarini ko‘rsatuvchi nomlar: *Qo‘turbuloq, Ko‘rbuloq*;
- o‘simlik va daraxt nomlari asosida yasalgan nomlar: *Anjirbuloq, To‘qaybuloq*;
- qush va parranda nomi bilan bog‘liq nomlar: *Laylakbuloq, Burgutsoy*;
- obyektning rang-tusiga ishora qiluvchi nomlar: *Qorabuloq*;
- suvning xususiyatini bildiruvchi nomlar: *Qaynarbuloq, Sovuqbuloq, Shaldiroqsoy*;
- afsonalar bilan bog‘liq nomlar: *Nog‘ara (ko‘l) singari*.

4. Oronimlar:

- antroponimlar bilan aloqador nomlar: *To‘qsonboytepa, Haydarotatepa, Umaramin, Yo‘ldoshtepa, Yarashbobotepa, Boburtepa, Esavoytepa, Elamontepa*;
- urug‘ nomi asos bo‘lgan nomlar: *Arabtepa, Jaloyirtepa, Qalmoqtepa, Qipchoqtepa, Qo‘ng‘irottepa*;
- boshqa geografik obyektlardan ko‘chgan nomlar: *Charxchitepa (qishloq nomi), Xojaqo‘rg‘on (qishloq nomi)*;
- hayvon nomi asos bo‘lgan nomlar: *Ottepa, Keyiktepa, Qoplontepa*;
- obyektning soni yoki ko‘pligiga, jamlanganlikka ishora qiluvchi nomlar: *Uchtepa; Yetimtog‘ (yakka bo‘lgani uchun), Uchqo‘rg‘on*;
- birgina toponimik aniqlagichning o‘zidan tashkil topgan nom: *Teva (tepa)*;

- qush va parranda nomlari bilan bog‘liq nomlar: *Qarg‘atepa*;
- obyektning tabiiy xususiyatiga ko‘ra nomlangan nomlar: *Boshtepa, Polvontepa* (hajmining kattaligiga nisbatan);
 - obyektning shakliga ishora qiluvchi nomlar: *Arratepa*;
 - obyektning rang-tusiga ishora qiluvchi nomlar: *Oqtov, Ko‘karra*;
 - hasharot nomi bilan bog‘liq nomlar: *Shapalaxona* kabi.

5. Nekronimlar:

- millat va urug‘lar nomlaridan kelib chiqqan nomlar: *Jaloyirtepa, Arabtepa, Qo‘ng‘irotota, Xo‘jaota, Mang‘iton*;
- kishilarning nomlari bilan atalgan nomlar: *Qurbon, To‘qsonboyota, Haydarota, Qizbuvi, G‘oyibota, Xo‘jaquleshon, Xo‘ja Xolmuhammad, Bibishirin, Xidirota, Badirota, Hasanota, Rajabaminbobo*;
- geografik obyektlarning nomlari bilan bog‘liq nomlar. Bunday nekronimlar shu hududdagi qishloq yoki boshqa geografik nomning nomi bilan atala boshlagan: *Qatag‘on, Kadan, Daryoobod, Novjabobo, So‘fi, Badag‘shon, Taxtako‘pir, Yangirabot, Murdosh, O‘rtabuloq, Uyshin xalq, Chag‘atoy xalq*;
- yerning tuproq qatlami tarkibiga asoslangan nomlar: *Qumota, Qumtepa*;
- hududidagi biror bir narsaga ishora qiluvchi nomlar: *Ko‘ktoshota* (bu qabristonning nomlanishiga uning hududida ko‘k tosh bo‘lib, bu toshga suv quyib shu suvni ichsa xalq tabobatidagi ko‘k yo‘tal kasalligiga da‘vo bo‘lgan. O‘sha ko‘k tosh qabristonning nomlanishiga asos bo‘lgan), *Oqtosh*;
- daraxt nomi bilan bog‘liq nomlar: *Qayrag‘ochota, Qo‘shshatut*;
- son bilan bog‘liq nomlar: *Qirqqiz, Chillaota*;
- rang-tus bilan bog‘liq nomlar: *Oqtunli, Oqjangal, Ko‘ktillibobo, Qorabobo*;
- nomlanishiga biror bir inshoot yoki maskan asos bo‘lgan nomlar: *Xonaqabobo, Allamachit, Oqmasjid*;
- tarixiy nom: *Shahribarbar, Mashmashota, Parmidonotakabi*.

6. Agronimlar:

- kishi nomlari bilan bog‘liq nomlar: *Hamza bobo, Jumaev yeri*. Bu agronimlarning bunday nomlanishiga sabab, shu shaxsga tegishlilikni anglatadi;
 - daraxt nomlariga ishora qiluvchi nomlar: *Olmachorbog‘, Uzumzor*;
 - o‘simlik nomlariga ishora qiluvchi nomlar: *Bedapoya*;
 - zoonimlar bilan bog‘liq nomlar: *Tovuqxona, Laylakuya*;
 - obyektning hajmi va shakliga ishora qiluvchi nomlar: *Yarimqo‘sh*;
 - biror bir inshootga ishora qiluvchi nomlar: *Masjidoldi* kabi.
- Hududdagi ko‘plab ekin maydonlarining nomlari maydonning o‘lchami bilan, ya‘ni necha gektar hududni qamraganligi bilan raqamlar orqali ham ifodalanadi. Masalan, *besht gektar, sakkiz gektar, o‘n gektar, o‘n to‘rt gektar, o‘n sakkiz gektar* kabi.

Xulosa

Demak, har bir toponimning ma‘nosi uni vujudga keltirgan narsa-hodisaning real mazmuni bilan bog‘liq. Yuqorida ko‘rganimizdek, bu hududdagi ko‘plab toponimlarning nomlanishida o‘zbek etnik birligi – urug‘ nomlarining o‘rni katta bo‘lgan. Shu sababdan hududda etnotoponimlar katta bir guruhni tashkil etadi. Ayrim toponimlarning nomlanishida antroponimlar ham muhim ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, toponimlarning nomlanishida nom ko‘chish hodisasi ham kuzatilgan, ya‘ni bir toponim boshqa bir toponimning yasashiga asos bo‘lgan. Bu tipdagi toponimlar hududda ko‘pchilikni tashkil qiladi. Hududdagi toponimlarni bunday leksik-semantik jihatdan tadqiq etish ularning etimologiyasini ochib berishga yordam beradi. Kelgusi tadqiqotlarda hudud toponimlarining etimologiyasini yoritishga harakat qilamiz.

Adabiyotlar

1. Каримов И.А. Биз келажегимизни ўз қўлимиз билан кураимиз, еттинчи жилд. - Тошкент: Ўзбекистон, 1999. Б-132.
2. Каримова Л. Ўзбек тилида топонимларнинг ўрганилиши. – Тошкент: Фан, 1992. 57-б.

- 3.Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимияси тараққиёт босқичида. – Тошкент: Фан, 2006. – 130 б.
- 4.Орипов Ў. Нурота тумани макро ва микротопонимларининг лисоний таҳлили: фил. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: 2003. – 22 б.
- 5.Ражабов Ў. Топонимик индикаторларнинг функционал-семантик хусусиятлари: фил. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент: 2009. Б-4.

UDK: 494.3:415.5

MORFEMALAR HAQIDAGI QARASHLARNING O'ZGARIB BORISHI HAQIDA

Hatamov Z.

Samarqand davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: O'zbek tilshunosligida morfemikaning mustaqil soha deb tan olinganiga ancha vaqt bo'lgan. Ammo keyinchalik mustaqillik arafasi va mustaqillik davriga kelib, bu soha tilshunoslikning boshqa bo'limlari kabi bir tomonlama va tor doirada o'rganilganligi ma'lum bo'ldi. Ushbu maqolada shu xususida mulohazalar yuritildi.

Kalit so'zlar: morfemika, morfemika va morfonologiya, morfosemasiologiya, morfomorfologiya, morfosintaksis.

Эволюция взглядов ученых о морфемах

Аннотация: В узбекском языкознании морфемика как самостоятельная отрасль науки формировалась давно. В годы независимости появились новые подходы изучения морфемной системы узбекского языка. В данной статье анализируются эти новые подходы.

Ключевые слова: морфемика, морфемика и морфонология, морфосемасиология, морфоморфология, морфосинтаксис.

About changing the outlook of morphemes

Annotation: It has passed long time since morphemics of Uzbek linguistics considered as an independent sphere of science. But it wasn't studied completely as other branches of linguistics during independence years. In this article these new approaches are discussed.

Keywords: morphemics, morphosemology, morphomorphology, morphosyntactics.

O'zbek tilshunosligida morfemika sohasiga doir dastlabki tadqiqotlarning yuzaga kelgani paydo bo'lganiga va uning alohida sath sifatida tan olinganiga 60-70 yilcha bo'lib qoldi. Jumladan, "O'zbek tilining akademik grammatikasi"da morfemika va uning birligi morfema haqida shunday ta'riflarni uchratamiz: "Morfemika bu – so'zning eng kichik ma'noli qismlari haqidagi ta'limotdir. Bu eng kichik qismlar morfemalardir" [1]. Shunday ta'rif bo'lishiga qaramay, ushbu kitobda morfemika alohida bo'lim sifatida berilmagan. Deyarli mustaqillik davriga qadar morfemikaga va morfemaga bunday qarash o'zgarmadi. Mustaqillik arafasida va undan keyingi davrga kelib A.Xojiyev, Y.Tojiyev, T.Mirzaqulov kabi olimlar bu soha yuzasidan o'zlarining yangicha qarashlarini e'lon qildilar. Umuman, tilshunoslikda til birliklarining maqomi va xususiyatlariga yondashuvlar tinimsiz o'zgarib turadi, tilning boshqa sathlari kabi morfem sathda ham bu hol o'z ifodasini topgan. Buning natijasida, morfemika mundariyasi va uning o'rganish birligiga berilgan ta'rif-tavsiflar, yondashuvlar ham o'zgarishlarga uchrab bordi. Avvalo, morfemaga bevosita nutq mahsuli bo'lmish so'zdagi hodisa emas, balki unga til birligi sifatida baho berila boshlandi. Tilshunos olim Y.Tojiyev an'anaviy yo'nalishda yozilgan bir asarida shunday ta'kidlaydi: "So'zlarni faqat morfemik qismlarga bo'lish mumkin bo'lgandagina morfema haqida gapirish mumkin" [2].

Mustaqilligimiz ilk davrlaridanoq bunday bir yoqlama qarashlar barham topa boshladi. Bu sohadagi yangicha qarashlar, ayniqsa, tilshunos T. Mirzaqulov tadqiqotlarida o'z aksini topdi. Xususan, olim morfemikani aslida ilgari tar'iflangandan ko'ra murakkab soha ekanligini ta'kidlagan holda shunday deydi: "Morfema til sistemasi birliklari pog'onasida eng kichik, minimal ma'noli birlik sifatida so'z hamda forma yasash modellari, shular asosida shakllanadigan leksema va so'zforma uchun qurilish material, semantik baza bo'lib xizmat qiladi" [3]. Bunda tilimizdagi morfemaning tutgan maxsus o'rni qayd etilgani holda, unga bajaradigan asl vazifasi, asl mohiyati jihatidan to'g'ri ta'rif berilmoqda. Yana yuqorida yordamchi morfemalarning ikki vazifasi: so'z yasash va uning shaklini hosil qilishi

ta'kidlanmoqda. Atoqli tilshunos A. Xojiyev ham xuddi shu jihatni e'tiborga olib morfemalarni "yasovchi til birliklari" [4] deb atagan edi. Morfema so'z yasashdan boshlab so'zning morfologik shakllaridan o'tib, shu shakllar orqali tilni sintaktik sathiga qadar qamrab oladi. Bundan tashqari, ayrim yordamchi morfemalar stilistik ahamiyatga va turli emotsional-ekspressiv ma'noga ega bo'ladi. Bunday xususiyat ba'zi so'z yasovchi va shakl yasovchi morfemalarda ham ma'no ottenkasi sifatida mavjud.

Demak, morfema agglyutinatativ til bo'lmish o'zbek tilining deyarli barcha tarkibiy komponentlarini qamrab oladi. Morfemaning tilda juda ko'plab vazifa va ma'noga ega ekanligi ularni chuqurroq tahlil qilganimizda yaqqol ko'rinadi. Yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki, "O'zbek tilining morfem lug'ati"ning kirish qismida ham morfemikaning eng muhim vazifasi so'zlarni morfemalarga to'g'ri ajratish ekanligiga e'tibor berilib, so'zlardagi morfemalar an'anaviy bir-biriga yondosh so'zlarda uchrashiga ko'ra ma'noli qismlarga ajratiladi. Bundan tashqari, an'anaviy qarashlar doirasida faqat qo'shimchalar bilan shakllangan sintetik so'z shakllari e'tibor markazida turadi. Bu holat ham o'sha davr an'anasiga ko'ra morfemikaga tor doirada qarash mahsulidir. Chunki, morfemika tilning so'z yasalishi va morfologiya satxlari bilan bevosita aloqada bo'ladi. Bu sathlarga oid birliklar morfemalar ishtirokida hosil qilinadi. Ushbu sathlarni o'rganmay turib, so'zlarni morfemik qismlarga to'g'ri bo'lib bo'lmaydi. Yuqoridagi morfemalarga bo'lish tamoyilni inkor etib bo'lmaydi, albatta. Lekin bu holat bir yoqlamadek tuyuladi. Umuman, so'z tarkibini belgilash so'z yasalishi, morfologiya sathlaridan ham kelib chiqib belgilanishi lozim. Bu bilan morfemikaning so'z yasalishi va morfologiyadan farqlamaslik kerak, demoqchi emasmiz. Shunchaki, yuqoridagi sathlar o'rtasidagi aloqadorlikning kuchliligi natijasida morfemika so'z yasalishi, morfologiyadagi mavjud tushuncha va tamoyillarga tayanmasa bo'lmaydi.

T. Mirzaqulov morfemikaning tadqiqot doirasidagi masalalar faqat so'z tarkibi, uning nechta morfemadan iborat ekanligi bilan cheklanib, tor doirada olib qaralganligiga alohida e'tibor qaratadi va so'zdagi boshqa morfem birliklar, affiksial morfemaga shaklan teng bo'lmagan, vazifaviy jihatdan teng bo'lgan birliklarning morfemikadan chetda qolganligini aytib o'tadi. Olim, shuningdek, so'zni markaziy va asosiy birlik deb tan oluvchi an'anaviy tilshunoslikdagi qarashlarni inkor etib, morfemani xuddi shu mavqega ko'taradi: "O'zbek tilshunosligida leksik ma'no ideallashtirilib, asosiy ma'no, grammatik ma'no esa shu asosiy ma'noga orttirilgan yo'ldosh ma'nodir, degan metafizik xulosa kelib chiqadi. Aslida leksik ma'no umumiylik, alohidalik, xususiylilik dialektikasida individual nominativ xarakterga ega bo'lgan hodisadir" [5]. Olim yana alohida ta'kidlaydi: "Morfemika tilda shunday markaziy va tayanch nuqtaki, til va nutqqa tegishli turli lingvognesiologik birliklarning semantik-funksional tarmoqlanishi xuddi ana shu nuqta, ana shu manbadan boshlanadi" [6].

Bunday qarashlar, ya'ni so'zni emas, morfemani tilning asosiy birligi deb tan olish tilshunosligimizga morfocentrik nazaryaning kirib kelishi bilan bog'liq va bu narsa boshqa tilshunos olimlar tomonidan ham e'tirof etilmoqda.

Morfemaning tilda keng qamrovli ekanligi, oldingi tasavvurlardan ko'ra murakkab hodisa ekanligi, ayniqsa agglutinativ tillarda alohida mavqega ega ekanligi isbotlanishi natijasida oldin kichikroq bo'lim hisoblangan morfemika hozirgi kungda tarmoqlanib ketdi. Hozirda uning morfologiya, morfomorfologiya, morfosemologiya, morfosintaksis kabi bo'limlari mavjud [7].

Tilshunos T. Mirzaqulov o'z tadqiqotlarida morfemika mundarijasini quyidagicha belgilashni taklif etadi: 1) morfemikada sintagmatik va paradigmatik munosabatlar; 2) morfemalar, ularning semantik – funksional, struktur klassifikatsiyasi; 3) morfosemologiya. Morfem ma'no va ularning tiplari; 4) morfologiya. Morfemada ifoda plani variatsiyasi. Morfologik jarayon va hodisalar. 5) morfosintaksis, uning morfemalar aranjirovkasi bilan munosabati. Morfemikaning o'rganish birliklariga kelganda olim ushbu birliklarni uning o'rganish doirasiga kiritish lozimligini yozadi: 1) o'zak va affiksial morfemalar; 2) affikslarning semantik-funksional ekvivalentlari (ko'makchilar, to'liqsiz fe'llar, affiks-yuklamalar, *eng, juda* so'zlari, *qil, et, bo'l* formalari) 3) nol morfemalar; 4) "xamelyon" morfemalar (choy-poy, meva-cheva tipidagi takrorlarda ikkinchi qism); 5) supersegment vositalar; 6) takror-reduplikativ forma qismlari (bora-bora, qip-qizil); 7) bog'lash, birlashtirish, ma'no va funksiyani kuchaytirish ideyasini tashuvchi asemantik elementlar- submorflar; 8) qoldiq material (amorf, rudement, nolegulyar formalari; o'simlik, borgudek so'zlaridagi *-im, -gu* elementlari [6].

Biz morfema mundarijasiga yuqoridagi kabi yondashadigan bolsak, u ko'p qatlamli murakkab soha sifatida namoyon bo'ladi. Uning birliklari soni ham ortadi va ayni paytda soz tarkibidagi uchrashi mumkin bolgan barcha birliklarni qamrab oladi. Bu holatlar tilga va til birliklariga yanada chuqur yondashish unn atroflicha va har taraflama izohlashga urinish sababdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tilshunosligimizda morfemikaga aloqali tadqiqotlar sifat va son nuqtai nazaridan oshdi. Uning ma'no-mundariyasi kengaydi. Mavzu oldin tor doirada o'rganilgan bo'lsa, endilikda asosiy tushuncha va tamoyillar go'yo qayta kashf etildi. Morfemaning murakkabligi, ko'pvazifaviyligi e'tiborga olinib, unga tilimizning tabiati nuqtai nazaridan qarash, so'z tarkibidagi morfem birliklarga yaxshiroq e'tibor berish natijasida morfemikaga oid izlanishlarda katta ijobiy o'zgarishlar bo'ldi.

Adabiyotlar

1. Ўзбек тилининг академик грамматикаси., Т.: “Академик нашр”. II қисм, 1970. 535 б.
2. Тожиёв Ё. Ўзбек тили морфемикаси., Т.: “Ўқитувчи” нашриёти 1992. 122 б.
3. Хожиева А., Ўзбек тили морфемикаси вас ўзгариш масалалари, Т.: “Фан” нашриёти, 2010. 165 б.
4. Гуломов А., Тихонов А., Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг морфем луғати. Т.: “Фан” нашриёти, 1977. 391 б.
5. Т. Мирзақулов, Морфемсемантика ва унинг ўзгариш хусусиятлари ҳақида, Ўзбек тили ва адабиёти журнали, // 1-сон, 1992., -Б 22-26.
6. Т. Мирзақулов, Ўзбек тили морфемикасининг объекти ва birlikлари ҳақида, Ўзбек тили ва адабиёти журнали, // 4-сон, 1989., -Б 35-40.
7. М. Dushaboyev, Morphem qurilishda asemantik birliklarning paydo bo'lish yo'llari haqida, O'zbek tili va adabiyoti журнали, / 6-son, 2002-y. –B 50-52.

UDK 372.217

ADABIY TALAFFUZGA O'RGATISH – ONA TILI TA'LIMINING BIRLAMCHI VAZIFASI

Hamroyev G' H.

Samarqand davlat universiteti

Annotasiya: Ushbu maqola ona tili darslarida adabiy talaffuzni shakllantirishga doir asosiy muammolar va ularning yechimiga bag'ishlangan. Xususan, umumta'lim maktablari va akademik litseylarda fonetika o'qitish orqali adabiy talaffuz, imloviy savodxonlik, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda so'z boyligini oshirishning samaraliroq usullari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: talaffuz, nutqiy malaka, talaffuzi qiyin unlilar, bo'g'iz undoshi ustida ishlash, davlat tili, adabiy til, ikkinchi til, imlo qoidalari, mashq, topshiriq.

Обучение литературному произношению - основная задача родного языка

Аннотация. Статья посвящена основным проблемам в обучении родного языка и их решений. В частности, в статье обсуждаются эффективные методы обогащения словарного запаса, развития навыков литературного произношения, орфографического знания, независимого мышления обучая фонетику в средних школах и академических лицеях.

Ключевые слова: литературного произношения, орфографического знания, словарного запаса, независимого мышления, фонетика, упражнения, задания.

Training literary pronunciation – primary task of native language

Abstract. The article is devoted to main problems in teaching the native language and their solution. In particular, there are discussed the effective methods for enriching the vocabulary, developing the skills of pronunciation, orthopedic knowledge, independent thinking through in secondary schools and academic lyceums.

Keywords: pronunciation, orthopedic knowledge, enriching the vocabulary, developing the skills of pronunciation, independent thinking, task,

Ona tili darslari o'quvchilarda, asosan, nutqiy malakalarni shakllantirishni ko'zda tutadi. Har bir til o'rganuvchi, avvalo, talaffuz me'yorlarini mukammal o'rganishi lozim. Bugungi globallashuv jarayonida til ta'limi masalasida ham jiddiy muammolar paydo bo'lmoqda.

Talaffuz masalasi umumta'lim maktablarida ham, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limida ham dolzarb masala bo'lib turibdi. Adabiy talaffuz – bu madaniyatlik belgisi ekanligini inobatga olsak, umumta'lim maktablarida 5-sinfidan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida birinchi bosqichdanoq jiddiy shug'ullanish zarur. Mavzuga doir o'quv materiallarini tahlil qilib ko'rganimizda o'quvchilarda adabiy talaffuz ko'nikmalarini shakllantiruvchi haqiqiy fonetik mashqlar yo'qligi ma'lum bo'ldi. Talaffuz borasidagi muammolarni yoshidan, kasbidan qat'i nazar ko'p sonli so'zlashuvchilarning nutqi isbotlab turibdi. Hatto ona tili o'qituvchilarining o'zlari ham mazkur masalada metodik yordamga muhtoj.

O'zbek tiling davlat tili, qolaversa, ikkinchi til sifatida o'qitilishi borasida ham qiyinchiliklarning bo'lishi tabiiy. Ammo ona tili sifatida o'rganilishi adabiy talaffuz nuqtai-nazaridan ilmiy tadqiqotlarga, metodik yordamlarga ehtiyoj sezadi. Umumta'lim maktablari ona tili darslarida adabiy talaffuzni shakllantirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy unsur – bu mahalliy til hisoblangan sheva elementlaridir. Respublikamizning birinchi prezidenti I. Karimov jumladan shunday degan edi: “Ayni vaqtda til o'qitish borasida ko'plab ishlar qilishimiz lozim, rasmiy muloqotlarda ham ayrim kishilarning ma'lum hudud doirasidagina ishlatiluvchi sheva elementlaridan hali-hanuz foydalanayotganligi bu borada hali juda ko'p ishlarni amalga oshirishimiz kerakligini ko'rsatadi”[1,54.]. Buni bartaraf qilishga qaratilgan juda ko'p amaliy ishlar mavjud bo'lsa-da, shevadan foydalanuvchilar miqdori kundan-kun ortib bormoqda. To'g'ri, lahjalar ham umumxalq so'zlashadigan til, ammo adabiy til davlatning rasmiy tili, xalqni birlashtiruvchi asosiy kuch ekanligini inobatga olsak, shevaning rasmiy vaziyatlarda muloqot vositasida keng qo'llanilayotgani adabiy til taraqqiyoti uchun jiddiy xavfdir. Har bir tilda bo'lgani kabi o'zbek tilida ham talaffuzi va imlosi qiyin tovushlar bor. Aynan ana shular to'g'ri talaffuzning shakllanishiga xalaqit beradi. Bu kabi tovushlarni o'zlashtirish uchun odatdagidan boshqacharoq yondashish, maxsus mashqlar tizimini ishlab chiqish kerak bo'ladi. Masalan: *o', i, e, h, x, q* tovushlari boshqa til vakillari kabi o'zbek o'quvchilari uchun ham muammo bo'lib turibdi. Mazkur tovushlar talaffuzini adabiy me'yor darajasiga keltirish uchun quyidagicha yondashishni tavsiya etamiz:

Dastlab *o'* unlisining ikki xil talaffuzini farqlab olish uchun shakldosh so'zlardan misollar keltiramiz va o'qituvchi ko'magida birma-bir talaffuz qilamiz.

(nonni) bo'l (odam) bo'l
o'n (fe'l) o'n (raqam, son)
so'l (chap) so'l (fe'l)
to'la (harakat) to'la (sifat)

1-topshiriq. Berilgan gaplardagi tagiga chizilgan so'zlarni ma'nosiga ko'ra to'g'ri o'qing va ma'nodoshlarini toping.

Mehmon uyning *to'rida* o'tiradi. Biz *to'rni* olib baliq tutgani yo'l oldik. Onasi qizining sochini *o'rib* qo'ydi. Niholni erta ekkan, hosilni erta *o'rar*.

O'rliqing o'zingga zarar keltirar. Oltin *o'tda* bilinar – odam mehnatda. *O'tgan* bulutdan yomg'ir kutma. *O'sma* qoshni *o'stiradi*. Tug'ilib, *o'sgan* yer Vatan deyiladi.

1-mashq. Berilgan she'riy matnni ifodali o'qishni mashq qiling.

Qiyosi yo'q aslo, mehri bir daryo,
O'xshasa o'ziga o'xshaydi o'zbek.
Bolalariga-ku bildirmas, ammo,
Dunyoda bolam, deb yashaydi o'zbek.

(M. Yusuf)

2-topshiriq. Undan o' unlisi ishtirok etgan so'zlarni talaffuz asosida ikki ustunga ajratib yozing. *i unlisini o'qitishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:*

-iunlisi o'zbekcha va arabcha so'zlarda juda qisqa talaffuz qilinadi. *Bilim, iliq, din, asir, amir va b.;*

-rus va tojik tilidan o'zlashgan so'zlarda aniqroq, cho'ziqroq talaffuz qilinadi. *Kino, bino, fizika, durbin.*

i va *u* unililari ayrim holatlarda *e* va *o* unililari bilan almashtirilib imlo va talaffuzda turli xatoliklarni keltirib chiqarmoqda. Uni bartaraf etish uchun darslikdagi ma'lumotlar kifoya qilmaydi.

Fikrimizcha, *i* unlisining qipchoq lahjasi vakillari nutqidagi talaffuzi boshqacharoq bo'lib, barcha o'rinlarda qisqa *e* tarzda talaffuz qilinadi. Bu muammoni bartaraf etish uchun darslikka ilova tarzda quyidagi fonetik mashqlarni berish zarur ko'rinadi.

2-mashq. To'g'ri talaffuz qilishni mashq qiling

it-yet is-yes in-yen iz-yez
il-yel ish-esh iqtisod - iqtidor
tish-tesh pish-pesh iflos -nafis

3-mashq. *i-u* ishtirokidagi so'z juftlarini o'qing va qaysi to'g'ri ekanligini ajrating.


qurish –qurush; tuzilish- tizilish; tuzum-tuzimturush-turish;
tug'ulish- tug'ilish; surush-surish; turmish-turmush; tiyish- tuyish

Endi *e* unlisining talaffuzi bilan bog'liq mashq va tavsiyalarga o'tamiz. *E* unlisi *i* unlisi bilan talaffuzda almashtirilganligi bois, ayrim o'quvchilar imloda ham xatolikka yo'l qo'yadi.

4-mashq. Berilgan so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling, bir-biridan farqlang. Har biriga ma'nodosh so'z toping va ulardan biri ishtirokida jumla tuzing.

esh-ish; el-il ; ez-iz; esi-isi;
es –is; evi- ivi; en-in; eni-ini;

5-mashq. *h-x* undoshlarini talaffuzda farqlash uchun har ikkala undoshning talaffuz holati aks etgan nutq apparati chizmasidan foydalanib to'g'ri talaffuz qilishni mashq qiling.



O'quvchida tasavvur hosil bo'lgach, maxsus talaffuz mashqlariga o'tish mumkin: a) har-hor-hur-ruh-hil-hal

xo'r- xush-xo'sh-xam- xum- xil
b) hat-xat hiyla-xiyla
ham-xam hamma-xamma
shoh-shox hili-xili
ruh-rux hatla-xatla

Mazkur tovushlarning talaffuzi va imlosi juda munozarali bo'lib, uning yechimi to'g'ri talaffuzni o'rganishdadir.

Ona tili o'qituvchilari tayyorlanadigan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tuzilgan o'quv qo'llanmalarda ham fonetikani o'qitishga doir ayrim topshiriq namunalari berilgan. Jumladan, B. To'xliyev va boshqalar tomonidan yaratilgan "O'zbek tili o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanmasida fonetikani o'rganish orqali o'quvchilar so'z boyligini oshirishga qaratilgan mustaqil ish namunalari keltirilgan [4,75-b.]. Ammo talaffuzni rivojlantirish masalasi e'tibordan chetda qolgan.

Xullas, har bir so'zlovchi yuqoridagi kabi ayrim tovushlarnigina talaffuz qilishga qiynaladi. Agar o'qituvchi o'z tarbiyalanuvchisining talaffuzdagi nuqsonini o'z vaqtida aniqlab, biror chora-tadbir qo'llay olsa, muammoning oldi olinadi. Aslida fonetika o'qitish jarayonida asosiy diqqatni talaffuzi qiyin tovushlar ustida ishga qaratish zarur.

O'quvchi maktabdan tasharida ko'proq oila davrasida bo'ladi. Bu paytda u yerdagi talaffuz muhiti o'quvchiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ayrim o'quvchilar balog'atga etganda ham ba'zi tovushlarni aytolmaydigan bo'lib qoladi. Bunga ko'proq ona tili o'qituvchisi mas'uldir. Olaylik bir o'quvchi faqat *o* tovushini to'g'ri aytolmaydi, boshqasi *h* ni risoladagidek talaffuz qila olmaydi. Bu kamchilik mazkur o'quvchiga bir umr xalaqit beradi. O'qituvchi o'z vaqtida bunday o'quvchilarga alohida

e'tibor berib, maxsus talaffuz mashqlari ustida muntazam ishlatganda muammoga o'rin qolmasdi. Maktab darsliklarida ham, akademik lisey darslik va qo'llanmalarida ham maxsus fonetik mashqlarga o'rin ajratilmagan. Bu borada ta'lim muassasalari uslubiy yordamga muhtoj ekanligi ko'rinib turibdi. Zero, Talaffuzga o'rgatishning yana bir ijobiy tomoni shundaki, o'quvchining imloviy savodxonligi ham o'z-o'zidan yaxshilanadi. Maxsus fonetik mashqlar o'zbek tilining davlat tili sifatida ham, ona tili sifatida o'qitilishini ham yanada samarali qiladi.

Adabiyotlar

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent. : Ma'naviyat, 2008, 54-b
2. Jalolov J.J. Chet tili o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1996, 4-b.
3. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. – T.: O'qituvchi, 1995, 17-b
4. To'xliyev B., Yusupova Sh., Ziyodova T., Oxunjonova O., Jumashev D. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun – Toshkent, 2012, 75- b.

UDK 811.512.133

O'ZBEK TILINING VAZIFAVIY USLUBLARI HAQIDA AYRIM FIKRLAR

Z.Abdullayeva

Samarqand davlat universiteti talabasi

E-mail: zilola9621@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tili vazifaviy uslublarining voqelanishi, ularda til vositalarining vazifaviy chegaralanishi va farqlanishlari, bu borada olib borilgan ba'zi ishlar xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: stilistika, til va uslub, lingvostilistik plan, so'zlashuv uslubi, rasmiy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub, badiiy uslub, dialektizmlar, erkin muomala.

О некоторых особенностях функциональных стилей узбекского языка

Аннотация. В данной статье исследуется функциональные стиль узбекского языка, значение функциональных стилей, функциональное разграничение языковых средств, в процессе коммуникации, а также анализируются научные изыскания, проведенные по этой теме.

Ключевые слова: язык и стиль, разговорный стиль, научный стиль, публицистический стиль, художественный стиль, диалектизмы, непринужденное общение.

On some features of functional styles of the Uzbek language

Annotation. This article explores the functional style of the Uzbek language, the significance of functional styles, the functional delimitation of linguistic means, in the process of communication, and also analyzes the scientific research conducted on this topic.

Keywords: language and style, conversational style, scientific style, journalistic style, artistic style, dialectic, informal communication.

Maqolada bayon etiladigan masalaning dolzarb tomoni shundaki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi PF-4797-son Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risidagi Farmonida belgilangan vazifalar sirasiga vazifaviy uslubshunoslik masalalari, o'zbek tilining me'yoriy va o'zbek nutqi madaniyati muammolari bilan jiddiy shug'ullanish lozimligi ta'kidlangan. Chunki bu boradagi masalalar hali oxiriga etgan emas. O'zbek tili vazifaviy uslublarini keng va atroflicha tadqiq etish orqali O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimovning orzularini ro'yobga chiqarish va tilimizning kommunikativ jarayondagi muhim qismini tadqiq qilishda ma'lum darajada hissa bo'lib qo'shiladi. Binobarin, o'zbek tili stilistikasi tilshunoslikning alohida sohasi sifatida e'tirof etilganiga yarim asrdan oshdi. Bu o'tgan vaqt oralig'ida sohaga oid yaratilgan katta-kichik hajmdagi tadqiqotlar, ularning natijasi o'laroq yuzaga kelgan nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari va boshqa monografik xarakterdagi kuzatishlar, o'quv qo'llanmalari va darsliklar o'zbek tilining kommunikativ va ekspressiv imkoniyatlari g'oyatda keng ekanligini isbotladi. Bugungi kunda tilimizning rang-barang emotsional-ekspressiv imkoniyatlarini ko'rsatib berish, muloqot jarayonida bu imkoniyatlardan samarali foydalanish, bir so'z bilan aytganda, uning madaniylik darajasini nutqda namoyish etish sirlarini tildan foydalanuvchilarning alohida guruhlari doirasida va keng omma o'rtasida targ'ib qilish dolzarb

vazifalardan biriga aylandi. Vaholanki, ona tilimizning stilistik xususiyatlarini o'rganish aynan ana shu vazifalarni hal etishga qaratilganligi bilan muhimdir[1].

O'zbek tilshunosligi zamonaviy fan sifatida shakllanganidan so'ng, aniqrog'i XX asrning 60-yillardan boshlab til va uslub masalalari bo'yicha muayyan tadqiqotlar yaratila boshlandi. O'zbek tilshunoslari jahon tilshunosligida, jumladan turkologiyada erishilgan yutuqlarga tayangan holda, stilistika fanining predmeti, uning maqsad va vazifalari nimalardan iborat ekanligini aniqlashga va shu bilan o'zbek tili stilistikasi fanining nazariy asoslarini yaratishga kirishdilar. Tilshunosligimizda uslubshunoslik va nutq madaniyati kabi mustaqil yo'nalishlar shakllandi. Badiiy asarlarning tili va uslubi, dialogik nutq, og'zaki-so'zlashuv nutqi, badiiy va publitsistik uslublar bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu kuzatishlarda til materiali lingvostilistik planda o'rganilgan, ishlar ijodkorlarning individual tili va uslubini tadqiq etishga bag'ishlangan. Bu asarlarda tilning aloqa vositasi sifatida muomala jarayonida turlicha soha vaziyatda qo'llanishi, bunda nutqni shakllantirish qonuniyatlari, til tizimidagi barcha vositalarning imkoniyatlarini, ma'no nozikliklarini aniqlash stilistikaning ob'ekti sifatida qaraldi.

O'zbek tilshunosligida XX asrning katta yutuqlardan biri bo'lgan „O'zbek tili stilistikasi“ (T., 1983) darsligida bu fanning predmeti, maqsad va vazifalari, til stillari va nutq stillari, funksional uslublar, sinonimiya kabi qator muammolarni birmuncha tartib bilan yoritilgan. Biroq ushbu darslik o'zbek tili stilistikasining to'g'ri yo'ldan rivojlanib borayotganligidan dalolat bersada, bu kitob bugungi kunda ilmiy jihatdan yangilanishga muhtoj. Chunki bu sohada o'tgan o'ttiz uch yildan buyon boshqa fundamental darslik yaratilgani yo'q. Ko'plab tadqiqotlar tarqoq holda olib borildi. Ushbu tadqiqotlar bugungi kunda yaxlitlashtirishga muhtoj. Umuman, o'zbek tili vazifaviy uslublarini chuqur o'rganish, bu uslublar bo'yicha yaratilgan ayrim tadqiqotlarni to'liq ilmiy tahlil qilish va zamonaviy tavsifini berish, bu borada jahon tilshunosligida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar bilan qiyoslash orqali turkona xususiyatlarini yoritish tilshunosligimizning bugungi kundagi muhim masalalaridan biridir.

O'zbek tilida bir qancha olimlarimiz tomonidan uslublar tadbiiq etilgan, o'rganilgan. M. Mukarramovning „Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili“, A. Shomaqsudovning „O'zbek adabiy stillari haqida“, R. Qo'ng'urov, S. Karimov, T. Qurbonovlarning „O'zbek tilining funksional stillari“, B. O'rinboevning „Funksional uslubiyat va uning mohiyati“, „O'zbek tili so'zlashuv nutqi sintaksisi masalalari“, B. Yo'ldoshevning „Tilning ijtimoiy mohiyati“ kabi darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalari chiqarilgan. Jumladan mustaqillik yillarida o'zbek tilining vazifaviy uslublari borasida yaratilgan muhim asar professor Suyun Karimovning „O'zbek tili funksional stilistikasi“ monografiyasidir[2]. Monografiyada o'zbek tili vazifaviy uslublarining fonetik, grammatik, leksikologik, leksikografik, frazeologik xususiyatlari aniqlashtirilgan. Vazifaviy uslublardagi mantiqiylik, izchillik, ifodalilik va ta'sirchanlikni ta'minlagan nutqiy vositalar atroflicha tadqiq etilgan. Monografiyada yana vazifaviy uslubshunoslikning o'zbek tilshunosligida alohida ilmiy soha sifatida shakllanish bosqichlari belgilangan. O'zbek tilining stilistik resurslarini tahlil qilish bilan birga, bu borada keyingi o'n yilliklarda erishilgan yutuqlarni umumlashtirilgan. Ularga mustaqillik davri talablaridan kelib chiqib baho berilgan. Vazifaviy uslubshunoslikning inson faoliyati u yoki bu aloqa doirasida amal qilish, ularni tanlash prinsiplari va ijtimoiy hayotning turli sohalarida amalga oshirilish vaziyati belgilangan. Ushbu tadqiqotlarda o'zbek tilida quyidagi nutq usublari farqlanadi: 1) so'zlashuv uslubi; 2) rasmiy uslub; 3) ilmiy uslub; 4) publitsistik uslub; 5) badiiy uslub.

Bu uslublarning har biriga xoslangan grammatik shakllar, so'z, so'z birikmasi, gap va intonatsion vositalar mavjudligi, ana shu xoslanish o'zbek adabiy tili uslubiy me'yorlarining asosi ekanligi ta'kidlangan. Ma'lumki, ayrim lug'aviy birliklar, grammatik vositalar, morfologik kategoriya va shakllar faqat ma'lum bir uslub uchun xos bo'lib, shu uslubga xos uslubiy bo'yoqqa ega bo'lsa, boshqa bir xillari ma'lum bir uslubda son jihatdan ko'p ishlatilganligi uchungina u uslubga xoslikni ko'rsatuvchi belgi hisoblanadi. Ularda maxsus uslubiy bo'yoq bo'lmaydi. Ular faqat shu uslubda ko'proq ishlatiladi, xolos. Ana shu jihatlari bilan uslublar bir-biridan o'zaro farqlanadi. Masalan, so'zlashuv uslubida kishilarning kundalik norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarining o'ziga xos amal qilishi kuzatilsa, rasmiy uslubda o'zbek tilining ma'muriy va yuridik ishlarda amal qiladigan turli ish qog'ozlari, jumladan, Qonunlar matnlari, farmonlar, buyruq va qo'llanmalar, shartnomalar, dalolatnomalar, har xil rasmiy hujjatlar, tashkilotlar o'rtasidagi yozishmalar, sudlardagi chiqishlar, yuridik xarakterdagi og'zaki axborotlar, ma'lumotnomalar tushuniladi va rasmiy ish qog'ozlari uslubida yoziladi va gapiriladi[3].

Ilmiy uslub fan, texnika va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan vazifaviy uslub hisoblanadi. Til birliklarining fan sohasida, ilmiy bayon jarayonida ishlatilishi mazkur uslubning shakllanishiga asos bo'ladi. Ilmiy tafakkur fikrlashning o'ziga xos usuli ekanligi, obyektiv borliqni idrok etishda faqatgina dalil va faktlarga tayanish, fikriy izchillik kabi ekstralingvistik omillar ham nutqning ushbu turining shakllanishida, binobarin, nutqiy me'yorning o'ziga xos turining yuzaga kelishida muhim omil sanaladi.

Publitsistik uslubda ommaviy axborot vositalarida (gazeta-jurnal, radio, televedenie) Oliy Majlis yig'inlarida, turli xil anjumanlarda qo'llaniladigan nutqlarni misol qilishimiz mumkin. Bu uslubdan globallashayotgan zamonamizda eng muhim dolzarb masalalarini o'quvchilarga, tinglovchilarga, tomoshabinlarga gazeta-jurnal, radio, televedeniya orqali etkazish, ommani jonlantirish, kishilarning ongiga atrofda sodir bo'layotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirishda foydalaniladi. Bu uslub nafaqat individual shaxs uchun, balki jamiyatdagi barcha insonlar uchun ahamiyatlidir. Chunki bugungi globallashuv jarayonini ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Badiiy asarlarning bayon qilish uslubi badiiy uslub hisoblanadi. Boshqa vazifaviy uslublar singari bu uslubning ham o'zining alohida lisoniy belgilariga egadir. Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha lug'aviy birliklarning hamda boshqa vazifaviy uslub unsurlarining ishtirok etaverishi va ularning muhim bir vazifaga - estetik vazifani bajarishga xizmat qilishini badiiy uslubning o'ziga xos xususiyati deb qarash kerak bo'ladi. Chunki ana shunday imkoniyat boshqa vazifaviy uslublarda chegaralangandir. Bu uslubda adabiy til bilan birga umumxalq tili boyliklarini ham to'liq qamrab oladi. Ya'ni, asarning janr va mavzu talabi bilan, yozuvchining individual uslubiga bog'liq holda badiiy nutqda umumxalq tilidagi barcha lug'aviy qatlamlar ishtirok etaveradi. Masalan, adabiy tilda dialektizmlar, jargonlar, varvarizmlar, dag'al so'zlar, eskirgan so'zlardan, oddiy so'zlashuv tili elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lmagani holda ularni badiiy nutqda fo'rni bilan qo'llash mumkin. Badiiy uslub borasida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan tilshunos S.Karimov quyidagilarni ta'kidlaydi: "til materiali doirasining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha leksik-grammatik birliklarning hamda o'rni bilan boshqa funksional uslublar unsurlarining ishtirok etishi va ularning muhim bir vazifaga, estetik funksiyani bajarishga xizmat qilishini badiiy uslubning bosh xususiyati, deb qarash lozim" [4].

So'zimiz xulosasida aytish mumkinki, til vositalarining vazifaviy chegaralanishi ularni nutq jarayonida ham farqlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Demak, nutqda yozish va so'zlash jarayonida masalaga nutq mavzusi va xususiyati nuqtayi nazaridan yondoshib, vazifaviy uslublarning amal qilish qonuniyatlari va talablarini e'tiborga olish lozim bo'ladi. Demak, o'zbek tili uslublarini chuqur o'rganish bizga turli jabhalarda vaziyatdan, bayonning mazmuni va maqsadidan, muloqotning ko'lami va shart-sharoitidan kelib chiqib tilning amal qilish qonuniyatlariga amal qilishni, tilning tasviriy vositalarini o'rinli qo'llashni o'rgatadi.

Adabiyotlar

1. Каримов С.А. Ўзбек тили функционал стилистикаси. Монография – Самарқанд: СамДУ нашри, 2010. -192 б.
2. Каримов С.А. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд, Зарафшон, 1994. - 113 б.
3. Қўнғуров Р., Каримов С. Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти. Библиографик кўрсаткич. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1984.
4. Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Я. Нутқ маданияти ва услубият асослари. - Тошкент: "Ўқитувчи" 1992. – 80 б.

UDK: 494.3:9

O'ZBEK TILINING GERMANIYADA O'RGANILISHI TARIXIGA DOIR

B.F.Xolmuxamedov

Samarqand davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Bu maqolada Germaniyada XX asr boshlaridan e'tiboran o'zbek tili, uning tarixi hamda shevalari, amalga oshirilgan tadqiqotlar bo'yicha ma'lumotlar bayon qilingan. Shuningdek, ba'zi tadqiqotlarning mazmun va mundarijasiga doir tahlillar amalga oshirilgan. Jumladan, Karl Brokelmann, Karl Menges, Annemariye fon Gaben, Ingeborg Baldauf, Anjelika Landmann kabi olimlarning tadqiqotlari tahlil qilingan.

Kalit soʻz: Germaniya, Oʻzbekiston, oʻzbek tili, turkologiya, turkiy tillar, nemis turkologiya maktabi.

История изучения узбекского языка в Германии

Аннотация. В данной статье приведены материалы по истории изучения и преподавания узбекского языка в Германии с начала XX века и до наших дней. А также, анализированы содержание и сущность научных трудов отдельных немецких ученых как Карл Брокелман, Карл Менгес, Аннемарие фон Габэн, Ингеборг Балдауф, Анжелика Ландман.

Ключевые слова: Германия, Узбекистан, узбекский язык, тюркология, тюркские языки, немецкая тюркологическая школа

History of Uzbek language studies in Germany

Abstract. This article contains materials on the history of studying and teaching the Uzbek language in Germany since the beginning of the 20th century to the present day. Also, the content and essence of the scientific works of individual German scientists as Karl Brokelmann, Karl Menges, Annemarie von Gabain, Ingeborg Baldauf, Angelika Landmann was analyzed.

Keywords: Germany, Uzbekistan, uzbek language, turkology, turkic languages, German Turkic school

Kirish.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi va XX asr boshida oʻlkada milliy ozodlik harakatining boshlanishi hamda maʼrifatparvarlik oqimi – jadidchilikning paydo boʻlishi Osiyoning qoq markazidagi qadimiy madaniyat va maʼrifat beshigiga yevropaliklarning diqqat- eʼtiborini jalb qildi. Jumladan, Germaniyada bir necha asrlik tarixga ega turkologiya fanining bir tarmogʻi sifatida oʻzbek tili, adabiyoti, folklori va madaniyatiga doir tadqiqotlar yuzaga kela boshladi.

Oʻzbeklar, ularning tili hamda madaniyati haqidagi tadqiqotlar Germaniyada keyingi yuz yillikda aka-uka Humboldtlar nomidagi Berlin universitetining institutlarida jumladan, Oʻrta Osiyo tadqiqotlari instituti, Markaziy Osiyo seminarida (Humboldt-Universitat zu Berlin Seminar fur Mittelasienswissenschaft; Humboldt-Universitat zu Berlin Zentral Asian Seminar), Bamberg, Berlin Frei, Frankfurt, Gyttingen, Gamburg, Maynz, Myunxen universitetlari qoshidagi turkologiya tadqiqotlari institutlarida olib borildi va olib borilmoqda. Bu zamon tizimi ichida Germaniya ikki jahon urushi, parchalanish va birlashish jarayonlarini boshdan kechirganiga qaramay, bu mamlakatdagi turkologiyaga doir tadqiqotlar, jumladan, oʻzbek tili va madaniyatiga doir ilmiy izlanishlar susaymadi, balki tadqiqotlarning ilmiy saviyasi va koʻlami oshib bordi[1].

Tadqiqotning material va metodlari.

Karl Brokelmann, Karl Menges, Annemariye fon Gaben, Ingeborg Baldauf, Anjelika Landmann kabi olimlarning turkologiya sohasida qilgan tadqiqotlari, qiyosiy-tarixiy metod asosida tahlil qilingan.

Asosiy qism.

Germaniyada oʻzbek tili tarixi va til yoyilgan geografiyaga doir lingvistik tadqiqotlarning boshlanishi mashhur turkolog Karl Brokelmanning (Carl Brockelmann (1868-1956) nomi bilan bogʻliq. Xususan, uning Mahmud Koshgʻariyning «Devonu lugʻatit turk» asari haqidagi tadqiqotlari oʻz davri uchun muhim ilmiy kuzatishlar edi va unda Koshgʻariyning bu asarida izohlangan soʻzlarning XI asrdagi barcha turkiy xalq va qabilalar uchun umumiy lugʻat boyligi ekanligi xususidagi xulosalar keyinchalik barcha turkologlar tarafidan qabul qilindi. Olimning «Mahmud Koshgʻariyning turkiy tillar soʻz boyligi haqidagi qarashlari» («Mahmud al-Kaschgaris Darstellung des turkischen Verbalbaus», KSz, XVIII, 1919, s. 29-49), «Mahmud Koshgʻariy XI asrdagi turkiy qabilalar va ularning tillari haqida» («Mahmud al-Kasghari uber die Sprachen und die Stamme der Turken im 11. Jahrhundert», KCsA, I, 1921, s. 26-40) kabi asarlari haligacha oʻz ilmiy qiymatini yoʻqotmadi.

Oʻz ilmiy hayotining boshida qadimgi uygʻur yodnomalarini oʻqish, transkripsiyalash va tarjima qilish bilan shugʻullangan va mashhur uygʻurshunos W.Bang bilan birgalikda 1929-1934-yillar davomida «Turkische Turfan-Texte» («Turfondan topilgan turkcha matnlar») seriyasida Turfon va boshqa uygʻur shaharlaridan topilgan buddaviylik matnlarini tadqiq etgan Annemariya fon Gaben (Annemaria von Gabain (1901-1993), Ikkinchi jahon urushi paytida oʻzbek tili masalalari bilan

shugʻullanadi, asirga tushgan oʻzbek askarlar bilan uchrashib, ularning ogʻzidan matnlar yozib oladi, bu matnlarni tahlil qiladi, izlanishlarning yakuni sifatida 1945-yilda nemis turkologlari orasidan birinchi boʻlib «Oʻzbek tili grammatikasi»ni yozib nashr ettiradi («Ozbekische Grammatik», Leipzig-Wien, 1945. Leiden, 1954, VIII, 429 s.) Bu asarning ikkinchi, toʻldirilgan nashri 1954-yilda Leydenda chop etilgan.

Annamariya fon Gabenning turkolog sifatida shakllanishi, oʻzbek tilini oʻrganishi va tilimizning ilmiy grammatikasini yozishi oʻzining qiziq tarixiga ega. Ikkinchi jahon urushidan oldin doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan, uygʻur matnlarining tadqiqotchisi sifatida hamda «Qadimigi turkiy tilning grammatikasi» mavzusidagi tayanch asari bilan mashhur boʻlgan, aslzoda oilaning farzandi Annamariya fon Gaben aynan urush yillarida oʻzbek tili bilan qiziqib qolishi va qisqa muddatda asir askarlardan bu tilni oʻrganib, uning grammatikasini yarata olishi uning naqadar gʻayratli va bilimdon olim ekanligidan darak beradi*. Ammo uning katta mehr va gʻayrat bilan yaratgan «Oʻzbek tili grammatikasi» asaridan faqat 20 donasini mualliflik nusxasi sifatida unga berdilar, xolos. 1945-yilda Germaniya poytaxtini egallagan shoʻro okkupatsion maʼmurlari bu kitobda «Sovet Ittifoqiga nisbatan dushmanona fikrlar mavjudligi» tufayli qolgan tirajni tarqatishni man qiladilar. 1945-46-yillarda och-yupun yashagan mashhur turkolog 1946-yilda Germaniya gʻarbga koʻchib oʻtadi, uzoq yillar davomida Hamburg universitetida ishlaydi, bu yerda turkologiya maktabini yaratishga ulguradi. 1993-yilda 92 yoshida olamdan oʻtgan zahmatkash olimaning butun hayoti boʻyicha uygʻur va oʻzbek tillariga boʻlgan muhabbati susaymadi va butun dunyodagi uygʻurshunos va oʻzbekshunos turkologlarning «Maryam opasi» boʻlib yashadi.[2]

A.fon Gabenning «Oʻzbek tili grammatikasi»da eng teran ishlangan boʻlimlardan biri «Fonetika» qismi ekanligini taʼkidlab oʻtish kerak. «Oʻzbek adabiy tilida, xuddi Turkiston shahri shevasida boʻlgani kabi 9 ta unli tovush mavjud, – deb yozadi olim va ularni quyidagicha taʼriflab beradi: **a, ə** (keng **a** unlisi), **e** (oʻrta keng, til oʻrta **e** unlisi), **i, ɨ** (til orqa **i** unlisi), **o, ø, u, y (ü)**». Shuningdek, u toʻqqiz unli tilda singarmonizm (lab va tanglay garmoniyasi) mavjud ekanligi haqida haqli xulosa chiqaradi.[3] Afsuski, 1934, 1940 va 1993, 1995-yilgi alfavit islohotlarida tilimizning ana shu xususiyati eʼtiborga olinmadi va natijada, oʻzbek tilidagi singarmonizm asta-sekin yoʻqolishga yuz tutmoqda.

Prof. Temur Kojaoʻgli (Temur Xoʻja) Annamariya fon Gabenning «Oʻzbek tili grammatikasi»da tilimizning fonetik tizimi uning tabiatiga mos ravishda taʼriflanganini qayd etib oʻtadi va buning asosida olim tayangan oʻzbekcha ilmiy manbalar, xususan, ulugʻ tilshunos-turkolog Abdurauf Fitratning «Oʻzbek tili qoidalari. Sarf» (Abdurauf Fitrat, «Sarf: Ozbek tili qaideleri toʻgʻrisida bir taʼcrib» (Birinci Kitap). Semerkand-Tashkent: Ozbekiston Davlat Nəşriyati, 1930 (6-inçı basma) asari va 1928-34-yillarda Oʻzbekistonda tilimizning singarmonistik tabiatini oʻzida aks ettirgan lotin-oʻzbek yozuvida nashr etilgan ilmiy va badiiy asarlar yotganini qayd etib oʻtadi.[4]

Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, dunyoning barcha yetakchi mamlakatlarida boʻlgani kabi Germaniyada ham oʻzbek tilini amaliy oʻrganish va oʻqitish harakatlari kuchaydi. Sovet blokiga kirgan Germaniya Demokratik Respublikasidagi turkologiyaning yirik vakili sifatida oʻzbek, qozoq, qirgʻiz adabiyotlari va madaniyatiga doir salmoqli asarlar yaratgan Zigrid Kleynmixel (1938-yilda tugʻilgan) 1995-yilda «Oʻzbek tilining amaliy kursi. Leksika va grammatika» (Kleinmichel, Sigrid. Übungsbuch Usbekisch: Lexik und Grammatik, Turkologie und Turkeikunde 3, Harrassowitz, Wiesbaden, 1995, 246 s. (A. Shumaniyazov bilan hammualliflikda) kitobini eʼlon qildi. Bu kitob bir qancha vaqt Germaniya universitetlarining asosiy darsligi vazifasini bajargani maʼlum.

2016-yilda Zigrid Klaynmixel faoliyat koʻrsatayotgan aka-uka Humboldtlar nomidagi Berlin universiteti Markaziy Osiyo seminari olimlari oʻzbek tilini oʻrganuvchilar uchun yana bir qulaylik yaratdilar – olim ham ishtirok etgan «Boshlovchilar uchun oʻzbek tili» (Uzbekisch für Anfänger. Online-Audiokurs) onlayn audio kursi yaratildi va internet tizimiga qoʻyildi.[5] Zigrid Klaynmixel, Ayfer Durdu, Barno Aripova, Nargiza Rasulova, Iftixor Shomurodov, Ingeborg Baldauflardan iborat mualliflar jamoasi yaratgan bu audiokurs oʻzbek tilining boshlangʻich kursini olayotgan talabalar yoki oʻzbek tilini mustaqil oʻrganayotgan kishilarga toʻgʻri yozish va toʻgʻri talaffuz qilish koʻnikmalarini shakllantirishda yordam beradi.

*Ikkinchi jahon urushi davrida nemislarga asir tushgan ziyoli oʻzbek askarlardan Moʻmin, Ravshan, Ah-jon (dotsent) va Turkiston Legionining yetakchisi Vali Qayumxon fon Gabenning til materiali toʻplagan shaxslari boʻlgan (Qarang: Gabain 1945; s. VI.)

Germaniyada va aka-uka Humboldtlar nomidagi Berlin universitetida o'zbek tili, adabiyoti, madaniyati bo'yicha ilmiy izlanishlar va o'zbek tilining o'qitilishida prof. Ingeborg Baldauf xonimning alohida o'rni bor. Ingeborg Baldauf 1956-yilda tug'ilgan. U 1974-1980-yillarda Vena universitetida turkologiya, islomshunoslik va arabshunoslik bo'yicha o'qigan. 1977-1978-yillar davomida Afg'onistonda, afg'on o'zbeklari xalq qo'shiqlarini yig'ib, 1980-yilda dissertatsiya himoya qilgan.

1991-1993-yillarda «Sovet turklari va musulmon Rusiyasida yozuvning o'zgarishi va yozuv islohoti (1850-1937), siyosiy-madaniy, tarixiy-g'oyaviy 17 taraqqiyotning simptomi» (Schriftreform und Schriftwechsel bei den muslimischen Russland-und Sowjettürken: (1850-1937); ein Symptom ideengeschichtlicher und kulturpolitischer Entwicklungen. Budapest, 1993, 782 pp.) mavzusidagi keng ko'lamli tadqiqotini amalga oshirgan. Bu kitobda Rossiya imperiyasi va sho'rolar ittifoqidagi turkiy xalqlar, shu jumladan, o'zbeklarning XX asr boshida amalga oshirgan yozuv islohotlarining fenomenini har taraflama tahlil qilgan.

1995-yilda aka-uka Humboldtlar nomidagi Berlin universitetida Markaziy Osiyo Seminari rahbari lavozimida ish boshlaydi va 2012-yilda bu lavozimdan iste'fo etguniga qadar o'zbek tilining o'rganilishi va o'qitilishi sohasida juda katta ishlarni amalga oshiradi. Jumladan, o'zbek xalq og'zaki ijodi, O'rta Osiyoda jadidchilik harakati, Eron madaniyati, Markaziy Osiyoni madaniy sovetlashtirish, usmonli turk adabiyoti, ma'rifatparvarlik davri o'zbek adabiyoti, qadimshunoslik, musulmonlar dunyosidagi islohotchilik va modernizm, Shimoliy Afg'onistonda ziyoratchilik, tolibonlar davrida Afg'oniston o'zbeklari, qadimgi qo'lyozmalarning izohli lug'at-glossariysi kabi mavzularda ilmiy faoliyat olib bordi [6].

Professor Baldaufning ilmiy izlanishlari nafaqat o'zbekistonlik o'zbeklar, balki shimoliy Afg'oniston va Markaziy Osiyoning barcha millat va elatlarining adabiyoti, tili, tarixi va urf-odatlarini to'g'risidadir. U «Shimoliy Afg'onistonning o'zbek xalq qo'shiqlari» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. Professor Ingeborg Baldauf boshchiligida Osiyo tillari va madaniyati mavzusida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlarni olib bormoqda. Jumladan, «Shimoliy Afg'oniston maqollari» (Sprichwörter aus Nordafghanistan), «Mahmudxo'ja Behbudiy va O'rta Osiyoda islom dini» (Mahmud Xudja Behbudi und die islamische Aufklärung in Mittelasien), «O'zbek tili» (Die uzbekische Sprache), «Turkiy xalqlarning xalq topishmoqlari», «XX asr boshida o'zbek adabiyoti» (Uzbekische Literatur des frühen 20. Jahrhunderts) va boshqa tadqiqot loyihalari mavjud. Universitetda Ingeborg Baldauf xonim boshchiligida quyidagi yo'nalishlarda «Markaziy Osiyo seminari» (Zentralasien-Seminar) nomli seminar tashkil etilgan: bakalavriyat, magistratura va doktorantura ta'limi (Bachelor, Master-und Promotionsstudien) fors, mo'g'ul, pushtu, tojik, tibit va o'zbek tillarida til o'rganish kurslari (Sprachkurse für Dari-Persisch, Mongolisch, Paschto, Tadschikisch, Tibetisch und Uzbekisch-teils auch als Intensivkurse).

Bundan tashqari universitetda quyidagi yo'nalishlarda o'zbek tili va adabiyotini o'rganish imkoniyati mavjud: Bachelor «Regionalstudien Asien-Afrika» (Schwerpunkt Zentralasien) Masterstudiengang «Zentralasien-Studien-Central Asian Studies» Regionalwissenschaftliches Master-Studium «Mittelasien-Kaukasien» Promotion in «Zentralasien-Studien». Quyidagi yo'nalishlarda esa «Zentralasien-Seminar» doirasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda: madaniyat tarixi va ijtimoiy siyosat mavzusida (über kulturgeschichtliche und gesellschaftspolitische Themen) til va adabiyot mavzusida (über Sprachen und Literaturen) etnografiya va diniy fanlar sohasida (über Themen aus Ethnologie und Religionswissenschaft) Markaziy Osiyoning yangi tarixi (über die neuere Geschichte Zentralasiens) va boshqalar. 20 ta kichik nashrlardan iborat «Anor» seriyasi Markaziy Osiyoda islom dini, tarixi va madaniyatiga oid nemis tilidagi asosiy manbalardan biridir. Hozirga qadar «Anor» seriyasida 19 ta kitob nashr etilgan.[7]

Prof. Baldauf xonimning 2002, 2003, 2007, 2008, 2010-yillarda butun Germaniyadan o'zbekcha o'rganishga ishtiyoqli universitet talabalarini to'plab, Germaniya akademik hamkorlik agentligining (DAAD) moddiy yordami bilan O'zbekistonga, Samarqandga olib kelgani va bu yerda Samarqand davlat universiteti va Samarqand davlat chet tillar institutidagi o'zbek tili mutaxassislari bilan «O'zbek tili yoz kurslari» tashkil etgani, bu kurslar uchun maxsus materiallar tayyorlagani ma'lum. Intensiv o'zbekcha o'rganayotganlar uchun yordam sifatida bu qo'llanma ham internetdagi ma'lum saytlarda e'lon qilingan[8].

Xulosa.

Germaniyada o'zbek tilining o'rganilishi va o'qitilishining qariyb 100 yillik tarixi bor. Ammo tilimizni keng miqyosda o'qitish va o'rganish Vatanimiz mustaqillikka erishganidan keyin yuz berdi. Bugungi kunda o'zbek tili Germaniya Federativ Respublikasining 10 dan ziyod universitetlarida o'qitiladi. Aka-uka Humboldlar nomidagi universitet, Berlin Frei va Mainz universitetlari mamlakatdagi yetakchi o'zbek tili va madaniyatini o'rganuvchi markazlardandir. Professorlar Ingeborg Baldauf, Zigrid Kleynmixel, Anjelika Landman o'zbek tilini o'rganish va o'qitishda jonbozlik ko'rsatmoqdalar. Ularning xizmatlari natijasi o'laroq Germaniyada bir nechta o'zbek tilini o'rganish ilmiy maktablari yaratilgan.

Adabiyotlar

1. Gül, Bulent. Almanyada Turkoloji Calıřmaları (Tarihi Geliřim, Turkologlar, Dergiler) // *Turkbilig*, 2006/11: 56-117 ><http://www.turkbilig.com/pdf/200611-262.pdf> (February, 2017)
2. Ölmez, Mehmet (1993). «*Annemarie von Gabain*». *Türk Dilleri Arařtırmaları*: 289-292
3. Annemarie von Gabain, *Ozbekische Grammatik. Mit bibliographie, Lesestücken und Worterverzeichnis*. 1945: Otto Harrassowitz, 1945, s. 20.
4. Kocaođlu, Timur. *Turkbilim (Turkoloji) de Özbekçenin ünlü sesleri ile büyük ünlü uyumu sorunu üzerine //Zeynep Korkmaz Armađanı/Türk Dil Kurumu yayınları*, 2017 (e'lon qilinmoqda)
5. *Uzbekisch für Anfänger*. Online-Audiokurs <http://www.twirpx.com/file/1996342/> (Febriaru, 2017)
6. Berdialiev Bahodir. O'zbek xalq rivoyatlarini nemis tiliga tarjima qilishning lingvostilistik muammolari >library.ziyonet.uz/ru/book/download/32949 (February, 2017)
7. Bachelor «Regionalstudien Asien-Afrika» <https://www.2.huberlin.de/zentralasien=anor>(February, 2017)
8. Ingeborg Baldauf. www.twirpx.com/files/languages/uzbek/(February, 2017)

UDK 891.709**XVI ASR FORS-TOJIK DOSTONCHILIGIDA ALISHER NAVOIY AN'ANALARI****Tohirov S.Q., Xo'rozov E.***Samarqand davlat universiteti*

Annotatsiya: Mazkur maqola Alisher Navoiy ijodiy mahoratining XVI asr fors-tojik adabiyotiga ta'siri muammosiga bag'ishlangan. Unda Abdulloh Hotifiy, Badriddin Hiloliy, Abdibek Sheroziy, Vahshiy Bafqiy kabi dostonnavis va xamsanavis shoirlar ijodida Navoiy an'analarning ta'siri masalasi adabiy matnlar tahlili asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: ma'naviy, xamsanavislik, an'ana va o'ziga xoslik, badiiy mahorat.

Традиции Алишера Навои в персидско-таджикской поэме XVI века

Аннотация. Данная статья посвящена проблеме влияния творческого мастерства Алишера Навои в персидско таджикскую литературу XVI века. В ней на основе литературных материалов изучается влияние традиций Навои в творчестве таких поэтов как Хатифи, Хилали, Абди и Вахши Бафки.

Ключевые слова: месневи, «хамса»-произведение из пяти поем, традиция и новаторство, поэтическое мастерство.

Alisher Navoi's traditions in Persian-Tajik poems of XVI century

Abstract. This article is dedicated to problem of influence creative skill of Alisher Navoi to persian-tajik literature of XVI century on basis literary materials is studied influence of traditions of Navoi in creativity such poets as Khatifi, Khilali, Abdi, Vakhshi Bafki.

Keywords: mesnevi, the "xamsa"-product from five poems, tradition and innovation, poetical skill.

Alisher Navoiy turkiy va fors-tojik she'riyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan "So'z mulkining sohibqironi" (Husayniy) bo'lish barobarida, musulmon sharqi adabiyotida masnaviy-doston janri va xamsanavislik an'anasini ham takomilga etkazgan benazir siymodir. Uning "Xamsa"si tarkibidagi dostonlari hamda "Lison ut-tayr"i shu mavzularda yaratilgan mukammal asarlar bo'libgina

qolmay, masnaviy-doston janrining ham tom ma'nodagi klassik namunalaridir. Alisher Navoiy dostonlarining keyingi davr adabiyotiga ta'siri, Sharq epik she'riyati taraqqiyotiga qo'shgan hisssasi, Navoiy ijodining boshqa xalqlar adabiyotiga ta'siri haqida adabiyotshunoslikda turli hajm va mazmundagi tadqiqotlar yaratilgan. Quyida ushbu muammoning muhim va hozirga qadar etarlicha yoritilmagan jihati, ya'ni Alisher Navoiy an'alarining XVI asr fors-tojik adabiyotiga ta'siri masalasiga doir ayrim kuzatishlar va xulosalar bayon etiladi.

XVI asr fors-tojik adabiyotining ko'zga ko'ringan namoyandasi Badriddin Hiloliy Sharq masnaviychiligi, dostonnavisligi tarixida o'ziga xos o'ringa ega. Uning "Shohu gado", "Sifot ul-oshiqin" va "Layli va Majnun" dostonlarida fors-tojik mumtoz adabiyotining masnaviy ustalari qatorida Alisher Navoiy dostonlarining ham muayyan darajada ta'sirini kuzatish mumkin. Xususan, shoirning "Layli va Majnun" dostonidagi Layli timsoli aynan Alisher Navoiy yaratgan obrazga yaqin turishi Hiloliy ijodini monografik planda tadqiq etgan K.Ayniy ishlarida ham qayd etiladi. Olimning ta'kidlashicha, salaflar ijodidagi talqindan farqli o'laroq, Hiloliy talqinida Layli o'z muhabbatini shunchalik qattiq himoya qiladiki, unga uylanmoqchi bo'lgan yigit niyatidan voz kechishga majbur bo'ladi. Ushbu epizodni qiyosiy tahlil etish asnosida olim quyidagicha xulosa chiqargan[1]: "Etot obraz sravnitelno blizok tolko k Layli Navoi, u kotorogo ona gotova zakolot sebya kinjalom, lish by ne dostatsya Ibn-Salamu. Geroin Navoi i Xilali sblijaet reshimost idti na podvig radi vernosti v lyubvi k svoemu drugu» (Butimsol faqat Navoiyning Laylisigagina nisbatan yaqindir. Zero u (Navoiy yaratgan Layli timsoli) Ibn Salomga nasib etmaslik uchun o'ziga xanjar urishga ham tayyor. Navoiy va Hiloliy qahramonlarini yaqinlashtiradigan xususiyat o'z yoriga bo'lgan ishq va sadoqati yo'lida qahramonlik ko'rsatishga tayyor ekanligidir). Demak, Badriddin Hiloliyning "Layli va Majnun" dostoni muqaddimasida shu mavzuda qalam tebratgan ijodkorlar qatorida Alisher Navoiy va uning dostoni alohida tilga olinmagan bo'lsa-da, Layli obrazining xarakter chizgilarini yaratishda muallif aynan Alisher Navoiy yaratgan obraz va uning tabiatidan ijodiy ta'sirlanganligini qayd etish mumkin.

XVI asr fors-tojik adabiyotida xamsanavislik an'anasining taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan ijodkorlardan biri safaviylar sulolasi vakili Shoh Tahmasp davrida yashab, Abdiy va Navidiy taxalluslari bilan ijod etgan forsiy zabosh shoir Abdibek Sheroziydir. O'z ijodiy faoliyati davomida uchta "Xamsa", aniqrog'i, uchta beshlik yaratgan shoir Abdiyning dastlabki "Xamsa"si Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy asos solgan adabiy an'ana qonuniyatlariga muvofiq ijod etilgan bo'lib, buni shoirning o'zi ham e'tirof etadi:

Firistamso'yi Ganjanazmijonbaxsh,
SHavam az vay Nizomiyroravonbaxsh.

BaDehli z-in hadisichobukinav,
SHavaminsogir az ruhi Xusrav.

Xurosonrokigulzorima'onist,
ZiSheroz in navoinarmug'onist. [2]

Ganjaga jonbaxsh she'r (nazm) jo'natdim, bu bilan go'yo Nizomiyning qayta tiriltirdim. Bunday jozibador va yangicha so'zlar bilan Dehlida Xusrav (Dehlaviy) maqtoviga sazovor bo'lsam (ajab emas). Bu (asarlar) ma'nolar gulzori bo'lgan Xurosonga ham tuhfidir.

Shoirning deyarli barcha dostonlarida Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, ba'zi asarlarida Abdulloh Hotifiy kabi xamsanavis shoirlarga yuksak ehtirom ko'rsatiladi. Shu bilan birga, uning asarlarida Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodiga ham murojaat etilganligi e'tiborga loyiq holatdir.

Abdiyning «Mazhar ul-asror» («Sirlarning namoyon bo'lishi») dostoni o'n beshinchi maqoloti ilm va johillik haqida bo'lib, unga Shayboniyxonning Xurosonni qo'lga kiritganligi haqidagi hikoyat ilova qilinadi.

Hikoyatda aytilishicha, Muhammad Shayboniyxon Xuroson va Hirotni qo'lga kiritib, Sulton Husayn taxtiga o'tirgach, Hirotning eng mohir hunar egalari, olimlari, shoirlari asarlarini olib kelishni buyurdi. Xattotlar sultoni Sulton Ali Mashhadiyning kitobatlarini, Kamoliddin Behzodning suratlarini hamda Alisher Navoiyning asarlarini unga olib kelishadi. Biroq u dunyo madaniyatining durdona asarlariga qalam tekkizish, isloh qilishga kirishadi:

She'ri Navoiy chu rasidi ba go'sh,
Xosti az ta'nazijonashxuro'sh.

Kardaashisloh dar on anjuman,
Soxtaashchunsuxanixeshtan.

Navoiyning she'rlari qulog'iga yetgach, ta'nadan joniga iztirob soldi. U anjumanda, majlisda (Navoiy she'rlarini) isloh qilishga kirishdi. Bu bilan u (Navoiy she'rlarini) o'z zinatiga o'xshatib qo'ydi. Hikoyatda Alisher Navoiyning turkiy she'riyatda tengsiz ijodkor ekanligi e'tirof etiladi. Bu borada, ayniqsa, shoirning xulosasi e'tiborga molik:

Zog' chu dar bog'baroradxuro'sh,
Nag'maibulbulnatavon kard go'sh. [3]

Zog' bog'da qichqirishni boshlasa, bulbul navosini eshita olmaydi.

Navoiy she'riyatining bulbul navosiga qiyoslanishi bejiz emas, albatta. Mazkur e'tirof ikki jihatdan ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, bumisralar Alisher Navoiy iste'dodi, ijodiy mahorati nafaqat turkiy zamon, balki fors-turkiy zamon xalqlar orasida ham XVI asrdayoq katta shuhrat taratganligiga yana bir dalil. Ikkinchidan, Abdibek SHeroziy Alisher Navoiy ijodi bilan yaxshi tanish bo'lib, o'z «Xamsa»sini yaratishda Nizomiy, Amir Xusrav, Jomiy, Hotifiy asarlari singari Alisher Navoiy «Xamsa»sidan ham ma'lum darajada ilhomlangan.

Ma'lumki, xamsanavislik an'anasining tarkibiy qismlaridan biri Xusrav, Shirin va Farhod o'rtasidagi mojarolarga bag'ishlangan mavzudir. Mazkur mavzu Nizomiy Ganjaviyning «Xusrav va SHirin» dostonidan boshlab alohida asar doirasida talqin etila boshladi va Alisher Navoiyga qadar aynan «Xusrav va Shirin» hamda «Shirin va Xusrav» nomlari bilan (Orif Ardabiliyning «Farhodnoma» dostoni bundan mustasno) ijod etildi. Biroq Alisher Navoiy ushbu masalaga tanqidiy munosabat bildirib, o'z asarida Xusravni emas, Farhodni asosiy qahramon qilib oldi:

Meni mahzung'akim ishq etti bedod,
Solib g'am tog'ida andoqki Farhod.

Munosibdur agar tortib navoni,
Desam Farhodi mahzun dostoni. [4]

Tarixiy mavzuning bu kabi navoiyona yangicha talqini nafaqat turkiy xalqlar adabiyoti, balki fors-tojik dostonnavisligi taraqqiyotiga ham sezilarli ta'sir o'tkazdi.

XVI asrda yashab ijod etgan shoir Vahshiy Bafqiy (1532-1588) fors-tojik tilida «Farhod va Shirin» nomli doston yaratgan bo'lib, bu asar 1588 yilda shoirning dunyodan ko'z yumishi sababli tugallanmay qolgan. Doston Shirin va Farhodning suhbatiga kelib tugab qolgan. Mazkur munozara mazmuni va g'oyaviy maqsadiga ko'ra shu mavzudagi asarlar tarkibida mavjud bo'lgan Xusrav va Farhod munozarasiga juda monand.

Turkman adabiyotshunosi G.Begdelining ma'lumot berishicha, Vahshiyning asari 2140 misradan iborat bo'lib, shundan 1242 misrasi hamd, munojot, na't, me'roj kabi kirish boblaridan iborat. Bu boblarda shoir dostonni yozishdan ko'zlagan asosiy maqsadini shunday izohlaydi:

Maro z-in guftgo'yi ishq bunyod,
Ki doradnisbat az SHirinu Farhod,

G'araz ishq astu sharhi nisbati ishq,
Bayoni ranji ishq, mehnati ishq.

Chi Farhodu, chi Shirin in baho nest,
G'arazishqastudigarhofasonest. [5]

Mening Farhod va Shirin vositasi bilan bayon etilgan ishqiy doston niyozishdan maqsadim ishq va uni sharhlash, uning azob-uqubatlari, mashaqqatlarini bayon qilishdir. Farhod va Shirin – bubirbahona, vositadir. Maqsadishq, boshqanarsalaresaoddiyafsona, e'tiborsizdir.

Dostongabundaymunosabatdabo'lishnibiz Alisher Navoiyijodidahamko'ramiz. Xususan, uning «LaylivaMajnun» dostonida:

YOzmoqta bu ishq jovidona,
Maqsudum emas edi fasona.
Mazmunig'a bo'ldi ruh mayli,

Afsona edi aning tufayli.

Lekin chu raqamg'a keldi mazmun,
Afsona anga libosi mavzun. [6]

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy dostonlari nafaqat o'zbek adabiyoti, yoxud turkiyzabon xalqlar adabiyoti, balki fors-tojik masnaviychiligi taraqqiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Uning turkiy va for-tojik tillaridagi epik she'riyat taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi XVI asr fors-tojik dostonchiligida ham yaqqol namoyon bo'ladi. E'tiborli tomoni, bunday adabiy izdoshlik va ijodiy ta'sirlanish turli suratlarda namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Ayni K. BadriddinXiloli. – Stalinabad:Tadjikgosizdat, 1957, str. 138.
2. Ragimov A. Jizn i tvorchestva Abdi-beka SHirazi // Abdi-bek SHirazi. Madjnun i Layli. – M.: Nauka, 1966. S.4.
3. Abdi-bek SHirazi. Mazxar al-asrar (Sostavlenie teksta i predislovie A.G.Ragimova). – M.: Nauka, 1986. C. 141.
4. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 8-tom. – T.: Fan, 1991. 47-bet.
5. Begdeli G. SHarq adabiyotida “Xusrav va SHirin” mavzusi. –Baku: Ilm, 1970. 202-bet
6. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 9-tom. – T.: Fan, 1992. 310-bet.

УДК 398.5

СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЛИРИКИ УЗБЕКСКИХ ПОЭТОВ С РАННЕЙ ПОЭЗИЕЙ СЕРГЕЯ ЕСЕНИНА

Вохидова Н.А

Академический лицей при Самаркандском институте экономики и сервиса

Аннотация. В статье проведен сопоставительный анализ творчества узбекских поэтов Мухаммада Юсуфа и Эркина Вахидова с творчеством русского поэта Сергея Есенина. Выявлена взаимосвязь в использовании художественных средств языка для передачи и изображения пейзажной, патриотической, философской, любовной лирики поэтов.

О'zbek shoirlari lirik asarlarining rus shoiri Sergey Yesenin ilk ijodi bilan qiyosiy tahlili

Аннотация. Мақоллада о'zbek shoirlari Muhammad Yusuf va Erkin Vohidov lirik asarlari rus shoiri Sergey Yesenin ilk ijodi bilan qiyosiy tahlil qilingan. O'zbek va rus shoirlarining vatanparvarlik, falsafiy lirikani ifodalashda qo'llanilgan badiiy vositalarning o'zaro bog'liqligi ochib berilgan.

A comparative analysis of Uzbek poets with the early poetry of Esenin

Abstract. In the article it is compared the works of Uzbek poets Muhammad Yusuf and Erkin Vakhidov with the works of the Russian poet Sergei Yesenin. The interrelation in use of art means of language for transfer patriotic, philosophical, love lyrics of poets is revealed.

Творчество талантливого узбекского поэта Мухаммада Юсуфа расцвело именно в дни становления независимости страны. И это - символично, так как он выражал важнейшие события эпохи простым, доступным языком. Его поэзия имеет особенное свойство. Поэт пишет кратко, лаконично, немногословно, но как раз его стихи находят самый краткий путь к сердцам тех, кто хоть раз приблизился к его лирике, или хотя бы услышал песни, сложенные на его стихи. Он пишет только то, что сам выстрадал и сам пережил.

Поэт ушёл в самом расцвете своих творческих сил. Такая же простота и искренность языка была присуща русскому поэту, так же рано ушедшему из жизни, Сергею Есенину. Наиболее часто использует Есенин художественные средства языка, метафоры, эпитеты: «дымящаяся земля», «туманные берега», «алые зори». У Мухаммада Юсуфа мы читаем: «знакомые тополя», «мутная вода», «родная вода».

В ранних стихотворениях С.Есенина выражается любовь ко всему живому, к жизни, к родине; он небезразличен к красотам русской, в особенности, деревенской природы. А

Мухаммад Юсуф воспевал неповторимую красоту узбекской природы. Для него нет ничего лучше того клочка земли, где он родился, где прошли его детские годы, юность:

*Склонились ветки уличных ив...
Давно не бывал я здесь...
Тихо откроется деревянная дверь...
Я очень сдержанный, но
Могу разрыдаться сейчас –
Давно не бывал я здесь... [1]*

С. Есенин пишет:

*До сегодня мне ещё снится
Наше поле, луга и лес,
Принакрытые сереньким ситцем
Этих северных бедных небес... [2]*

С. Есенин говорил: «Моя лирика жива одной большой любовью, любовью к родине. Чувство родины — основное в моём творчестве» [2]. Есенин не просто любит, он поклоняется своей родине, испытывает неподдельную тоску в дни разлуки с ней:

*Спит ковыль. Равнина дорогая,
И свинцовой свежести полынь.
Никакая родина другая
Не вольёт мне в грудь мою теплынь. [2]*

А как выражает свою любовь к родине Мухаммад Юсуф? Он решительно не хочет менять узбекский тандыр даже на самые лучшие парижские рестораны.

*Проведенные дни с тобой для меня праздник,
Если расстанусь с тобой, то скучаю о тебе.
Преклоняюсь пред теми, кто знает тебя.
Жалею всех тех, кто не знает тебя [1].*

Выходец из простой дехканской семьи, Мухаммад был близок к народу, жил его болью, его радостью... В его стихах народ обладает непобедимой силой, а родина для поэта не пустое слово, а нечто одушевлённое, прекрасное, самое близкое для каждого человека.

В поэтическом мире раннего Есенина Русь многолика: «задумчивая и нежная», смиренная и буйственная, нищая и весёлая, справляющая «праздники победные». В стихотворении «Не в моего ты бога верила...» поэт зовёт Русь — «царевну сонную», находящуюся «на туманном берегу», к «весёлой вере», которой теперь привержен он сам. Он словно бы предсказывает революцию — «преображение» России через «муки и крест», и гражданскую войну.

В восприятии Мухаммада Юсуфа Узбекистан именуется «единственной обителью», «роскошным замком», «троном Соломона», «величайшим из великих...» Об Узбекистане он писал всегда: и в начале своего пути, и в более поздний период творчества. Хотя о Родине пишет каждый поэт, но так искренне и неповторимо писал только он. При этом стихи Мухаммада Юсуфа, посвященные родному краю, отличаются непосредственностью, свежестью, самобытностью, проникновенностью.

Еще одним поэтом, настоящим сыном своего Отечества, является узбекский лирик Эркин Вахидов. Тема патриотизма, любви к Родине, ее бескрайним просторам, вера в светлое будущее родного края является важной в его творчестве.

*За что человек землю любит и чтит,
За что ее все называют священной?
Она неказиста на цвет и на вид,
И чем славен прах этот, бурый и тленный?
Но вложены в землю терпенье и труд,
И щедро политы поля ее потом,
И землю родную, где всходы цветут,
За это и славят с великим почетом [3].*

Эркин Вахидов – поэт-философ, сумевший поднять богатые традиции национальной классической литературы на новый уровень. В его произведениях показаны взаимоотношения человека и общества. Поэт на первый план выдвигает идею о главном предназначении человека – служении своему народу. В своем стихотворении «Секунды» он пишет:

*Живем легко, секунд не замечая.
Смеемся у беспечности в плену.
А маятник – он головой качает,
Беспечность эту ставя нам в вину.
Он словно говорит нам: «Будет поздно.
Спешите за секундою любой.
Всему свой срок. И не пришлось бы после
Жалеть о них, качая головой [3].*

Сергей Есенин, в своей философской лирике, ставит много вопросов, обращенных, в первую очередь, к себе: чем я жил, что я успел, для чего пришел в этот мир? Его лирический герой понимает, что жизнь не вечна, что смерть может прийти за ним в любой момент, и от этой мысли ему становится жутко и тоскливо, ведь жизнь так прекрасна.

*Знаю я, что не цветут там чащи,
Не звенит лебяжьей шеей рожь.
Оттого пред сонмом уходящих
Я всегда испытываю дрожь [2].*

Как ни странно, являясь представителями двух разных культур, два поэта, узбекский и русский, воспринимали смерть как неотъемлемую часть жизни каждого человека, но относились к этому символически, по-философски. Философская лирика Есенина, так же как и лирика Вахидова, жизнеутверждающая. Он считает, что, пока есть время, нужно дорожить тем, что ты живешь, любить людей, восхищаться природой, жить в гармонии с собой и окружающим миром. Он утверждает: «Как прекрасна Земля и на ней человек!»⁹

Э.Вахидов ценит такие качества в людях, как преданность, верность в дружбе. В стихотворении «Письмо к друзьям» поэт описывает осенний сад, в котором листопад – символ ушедшей юности, веселой и беззаботной жизни. Он сожалеет о пройденном пути, но, вместе с тем, он понимает, что жизнь продолжается в новом поколении:

*Мой сад другим стал. За ночь пожелтел он.
Кружись, листва осенняя, кружись.
Как незаметно лето пролетело!
Как незаметно пролетела жизнь!
Еще вчера веселою ватагой
Мы в поле выходили на страду.
Мы жадно жили. Дней нам не хватало.
А нынче листья падают в саду [3].*

Для Есенина осень – грустная пора, но он ни о чем не сожалеет:

*Стою один среди равнины голой,
А журавлей относит ветром вдаль,
Я полон дум о юности веселой,
Но ничего в прошедшем мне не жаль [2].*

Листья, роняемые деревом в саду, он сравнивает с грустными словами, которые произносит:

*Не обгорят рябиновые кисти,
От желтизны не пропадет трава,
Как дерево роняет тихо листья,
Так я роняю грустные слова [2].*

Тема любви в лирике Есенина занимает значительное место. Его душа не может не любить, не пылать страстью. В его творчестве нашли свое отражение переживания поэта – радость встречи

с любимой, тоска в разлуке, грусть, отчаяние. Ранние стихотворения Есенина похожи на народные лирические песни:

*Ты пошла коней из горстей в поводу,
Отражаясь, березы ломались в пруду.
Я смотрел из окошка на синий платок,
Кудри черные змейно трепал ветерок [2].*

Поэт обращается к истокам. Здесь присутствуют мотивы русских народных песен о неразделенной любви и смерти, об утраченной юности. Любовь лирического героя заканчивается трагически, в духе народных сюжетов:

*В пряже солнечных дней время выткало нить:
Мимо окон тебя понесли хоронить.
И под плач панихид, под кадильный канон,
Все мне чудился тихий
Раскованный звон [2].*

Обращается к национальным истокам и Эркин Вахидов. Рассматривая любовную лирику узбекского поэта, можно с уверенностью назвать его продолжателем традиций классического жанра газели. Так, в стихотворениях «Всю ночь проплакал соловей», «Бутон» присутствуют традиционные атрибуты газели – образы соловья и розы, обязательное упоминание имени автора в последних строках:

*Да прорастает Эркина кровь,
Цветком в саду любви твоей [3].*

В представлении узбекского поэта, любовь – это самое светлое чувство, которой достойны избранные. В стихотворении «Родник» Вахидов рисует образ девушки, сидящей у родника в ожидании любви. Этот образ символизирует чистую, как родниковая вода, ничем не омраченную любовь.

*Играя россытью волос, сидит она
у родника.
В ней отражается родник, как в нем
– заря и облака.
Он, как из сердца доброта, затем
исходит из земли,
Чтоб петь о ней,
Пока над ним
Ее прозрачная рука... [3]*

Любовь к противоположному полу в творчестве С.Есенина особенная, – она связана с темой любви к Родине, к природе родного края. Береза-девушка, черемуха душистая, рябина горячая, осина, смотрящая в розовую воду, рожь с лебединой шеей – удивительные метафоры, созданные замечательным поэтом, уносят читателя в свой прекрасный мир.

Находясь вдали от Родины, Есенин вспоминает «девушку на севере»:

*Там на севере девушка тоже,
На тебя она страшно похожа,
Может, думает обо мне... [2]*

ровно так же как и «рязанские раздолья»:

*Потому, что я с севера, что ли,
Что луна там огромней в сто раз,
Как бы ни был красив Шираз,
Он не лучше рязанских раздолий... [2]*

А как же относился Эркин Вахидов к творчеству самого Есенина?

Всем любителям творчества Есенина известно, что многие его произведения были переведены именно Эркином Вахидовым. Он был настоящим мастером перевода. На узбекском языке прозвучали «Персидские мотивы», что стало большим событием в литературной жизни Узбекистана.

Лирику Сергея Есенина поэт называл другом молодости, питая к ней особенную симпатию. Благодаря именно этой духовной близости так же мелодично звучат на узбекском языке «Свет

вечерний шафранного края», «В Хорасане есть такие двери...», «Шаганэ, ты моя, Шаганэ!» и другие стихотворения.

Если учесть то, что Эркин Вахидов брался за перевод какого-то стихотворения только в том случае, когда оно действительно трогало его за душу, то можно судить, насколько близким было ему творчество Есенина.

Таким образом, в творчестве замечательных поэтов, представителей разных культур, обладателей различных языков, можно найти сходства в тонком восприятии и созерцании мира, в видении красоты в самых обычных предметах, в любви к просторам родной земли, в выражении чувств и эмоций.

Литература

1. Сочинения. Сборник сочинений М.Юсуфа. Ташкент, 2001 г.
2. Есенин С.А. Полное собрание сочинений: М.: Наука, 1995-2002 гг. Т.1.
3. Вахидов Э. Стихотворения. Ташкент, 1992 г.

UDK: 812

TASAVVUR NOMLARI – SEGMENT QURILMA SIFATIDA

Umurzoqova M. E.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek
tili va adabiyoti universiteti

e-mail: umarhabo78@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikda tasavvur nomlarining o‘rganilishi tahlil qilingan. O‘zbek tilida tasavvur nomlarining qo‘llanilishi, so‘ziga xos xususiyatlari, matndagi o‘rni va ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: tasavvur nomlari, ekspressivlik, korrelyat, ta’kid, predmet nomi, sintaktik sath.

Имена Воображения Как Сегментные Конструкции

Аннотация. В этой статье анализируется изучение имена воображений в языковедение. Говорится об имен воображений в Узбекском языке, своеобразии, местоположению

Ключевые слова: имена воображения, экспрессивность, коррелят, утверждение, имя предмета, синтаксическая поверхность.

Names Of Views As Segmentic Constructions

Abstract. In this article analyzed learning of the names of views in linguistics. Usage of the names of view in Uzbek language, peculiarity of the words, place in the text and in portance

Keywords: the names of views, expresionly, correliat, separative links, linkative emphasis, the name of the subject, sintactive surface.

Segment qurilmalarga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlardan biri segment qismning bosh kelishikda ifodalanishidir. Bunday qurilmalar ko‘pdan tadqiqotchilar nazariga tushgan bo‘lib, ular turlicha nomlar bilan ataladi. Tilshunoslikda “baho ifoda qiluvchi gaplar”, “tasavvur nomlari” deb atalib kelinayotgan tushunchalar ham segment qurilmalarning bir turi sanaladi. Tasavvur nomlari (imenitelnye predstavlenie) deb atalgan tushuncha tilshunoslikda keng tarqalgan bo‘lib, segment qurilmalar shakl jihatidan o‘xshash bo‘lgan atov gaplar va tasavvur nomlari bilan aloqadorlikda o‘rganilgan.

Tasavvur nomlari og‘zaki nutqning kuchsiz elementi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu hodisani tadqiq qilgan A.M.Peshkovskiy, A.S.Popov, YU.M.Skrebnev bunday qurilmalarning yozma adabiyotda qo‘llanilishini og‘zaki nutqqa yaqinlashtiruvchi uslubiy vosita sifatida baholaydilar. A.M.Peshkovskiy ajratilgan predmet diqqatni tortish uchun keltirilishini, so‘ng u bilan bog‘liq asosiy fikr aytilishini, bu ko‘p hollarda so‘zlovchining maqsadiga muvofiq yuzaga kelishini ta’kidlaydi (1.405). YU.M.Skrebnev bunday hodisalarni tilning sintaktik sathida ekspressivlikni ta’minlovchi ekstralingvistik omillar sifatida baholaydi. (2.146)

XX asrning 60-yillarida A.S.Popov segment qurilmalar bilan jiddiy shug‘ullanib, ularni keng va tor aspektda o‘rganadi. “Segmentatsiya-keng ma’noda fikrning ajratilgan (sintaktik, intonatsion)

bo'lagi, segmenti. Bu holda segment qurilmalarga ajratilgan bo'laklar tegishlidir (so'z, so'z birikmasi). Segmentatsiya toroq va maxsus tushuncha sifatida bu- tasavvur nomlarining mujassamlashgan, takomillashgan ko'rinishga kelgan yozma adabiy tildagi ekspressiv sintaksisning usulidir." (3. 302) A.S.Popov tilda ikki xil ma'noga ega bo'lgan sintaktik birliklar borligini, bu birliklar segment qurilmalar bo'lib, rus tilshunosligida «tasavvur nomlari» (именительный предствленiya) termini bilan atalishini ta'kidlaydi. "Tasavvur nomlari bu-bosh kelishikdagi ot va shu shakldagi so'z birikmasi (ba'zan ot xarakteridagi son) bo'lib, atalayotgan predmet keyingi gapdan ajralib, ta'kidlab ko'rsatilish uchun o'ziga xos intonatsiyaga ega bo'ladi" (4.256)

A.S.Popov tasavvur nomlari avval bir predmet haqida tushuncha berilishini, keyingi o'rinda esa uning korrelyati sifatida uchinchi shaxsdagi kishilik olmoshi kelishini, ot va uning o'rnida kelgan olmosh kelishikda muvofiq kelmasligi ham mumkinligini ta'kidlaydi. Tasavvur nomlari o'zidan keyin kelgan gapdagi olmosh bilan zich aloqada bo'lib, predmet atayotgan so'zning ma'nosi keyingi gapda oydinlashadi. Tasavvur nomidan keyingi gapda olmoshning kelishi va ajratilgan predmet nomining mustaqil qo'llana olmasligi tasavvur nomlarini nominativ gaplardan ajratib turishini ta'kidlagan olim segment qurilmalar bilan nominativ gaplarning uch asosiy farqi borligini ko'rsatib o'tadi: 1. Gapda ot bilan muvofiq keluvchi yoki o'z holicha qo'llanilgan olmosh ishtirok etadi. Ular ot bilan bir kelishikda bo'lishi va boshqa kelishikda ham bo'lishi mumkin. 2. Gapda aynan o'sha so'z yoki uning sinonimi olmoshsiz qo'llanilishi mumkin. 3. Gapda tasavvur nomi sifatida kelayotgan predmetga xos bo'lgan umumiy tushunchalar olmosh ishtirokisiz ham ifodalanishi mumkin (4.260-261)

O'zbek tilida bir sostavli gaplarni tadqiq qilgan I.Rasulov tasavvur nomlarning kesimsiz gaplarning bir turi sifatida keltirar ekan, ammo bu ko'rinishdagi gaplarni ayrim tilshunoslar gap sirasiga kiritmasligini ta'kidlaydi hamda bu tipdagi gaplarga quyidagicha ta'rif beradi: "Bu tip gaplar orqali so'zlovchi predmet, voqea-hodisalarning mavjudligini tasdiqlash yo'li bilan emas, kishi ongida bular haqidagi tasavvurning mavjudligini ifoda qilib, tinglovchi ongida bu haqda analogik tasavvur uyg'otadi" (5.256)

Kesimsiz gaplarning bir turi sifatida baholangan bu turdagi gaplar haqida ma'lumot berar ekan, I.Rasulov bu turdagi gaplarda predmet, voqea-hodisa eslatilishini, tasavvur etilishini, lekin tasavvur predmet, voqea-hodisaning real mavjudligiga asoslanishini, ammo uning asosida hukm predmetiga aylanmagan tushuncha yotishini ta'kidlaydi. (5.256)

O'zbek xalq topishmoqlarining semantikasi sintaksisini tadqiq qilgan M.Saparniyazova tasavvur nomlarining xalq topishmoqlarida ifodalanishining o'ziga xosligini ta'kidlar ekan, ularning asosan yoyiq holda bo'lishini, o'rin holi bilan kengayishi ko'p kuzatilishini, tasavvur nomidan keyin ikki sostavli gap qo'llanmasligini, bunday gaplar yolg'iz, ketma-ket yoki takroriy shakllarda qo'llanishi mumkinligini misollar asosida yoritadi. (6.63)

Tasavvur nomlari shaklan undalmali gaplarga ham o'xshab ketadi. Undalmali gaplar ham bosh kelishikdagi so'zlar bilan ifodalanib, so'zlovchi tinglovchiga diqqatni qaratadi. Undalmali gaplarda tasavvur nomlaridan farqli ravishda keyingi gapda ikkinchi shaxs kishilik olmoshi bilan almashadi. Tasavvur nomlari uchun ahamiyatli jihat uning keyingi gap bilan zich aloqadorligidir. Bunday qurilmalarning mazmuni nafaqat keyingi gap, balki oldingi gap bilan aloqador ekanligida hamdir. Tilshunoslar tasavvur nomlarining shu jihatlarini hisobga olib ularni atov gaplardan farqlaydilar. Ta'kidlash kerakki, bu xususiyatlar atov gapga ham xos bo'lib, ular ham o'zidan keyingi gaplar bilan aloqador bo'ladi. *Dahshat! Dunyodagi hech narsadan hayratlanmay qo'yish dahshat! Agar sen sig'inib, e'tiqod qo'yib kelgan narsang bir kuni puch va soxta narsa bo'lib chiqsa, bu-dahshat* (N.Eshonqul). *Dahshat* so'zi bu o'rinda uch marta takrorlanib, kitobxonning diqqatini qaratishga, kuchli emotsionallik ifodalashga xizmat qilgan. Keyingi gapda segment birlikning o'rnida korrelyat sifatida olmosh emas, shu so'zning o'zi kelishi, ajratilgan so'zdan keyin undov belgisining qo'yilishi emotsionallikning kuchli ifodalanishiga xizmat qilgan. A.S.Popov segment qurilmalarning atov (nominativ) gapdan asosiy farqi ularda predikativlik kategoriyalari: modallik, zamon, shaxs ma'nosining ifodalanmasligida deb ko'rsatadi. Tasavvur nomlari o'ziga xos intonatsiyaga, aniqrog'i frazaga ega. Tasavvur nomlari ajratib ko'rsatish, emotsionallik ifodalash vazifasini bajaradi. Tasavvur nomlari o'zidan keyin keladigan gaplarga nisbatan yo'ldoshlik vazifasini bajaradi, shuning uchun tuziladi. Shunday sintaktik qurilmalar sirasiga undalmali gaplar ham kiritiladi, qaysiki, avval chaqirish vazifasini bajarib, mustaqil intonatsiyaga ega bo'ladi (4. 263-264)

Segment qurilmalar gapni so'zlovchining kommunikativ maqsadiga ko'ra qayta tuzish orqali shakllanadi. Avval aytib o'tilganidek, segment qurilmali gaplarda ekspressivlik kuchli bo'ladi.

Tasavvur nomlar va mavzu ifodalovchi gaplarga xos umumiy hamda farqli jihatlarni tahlil qilgan L.Y.Mayorova bu ikki hodisa funksional jihatdan farq qilishini, tasavvur nomlarida ekspressivlik, badiiylik va psixologizm kuchliligi, mavzu ifodalovchi gaplarda esa axborotni etkazishda tinglovchining diqqatini ma'lum bir jihatga qaratish asosiy xususiyat ekanligini ta'kidlaydi (7.84)

Segmentlash natijasi sifatida shakllangan tasavvur nomlari so'zlovchi tinglovchining diqqat markaziga qo'yayotgan tushunchani boshqalardan ajratib ko'rsatish vazifasini bajaradi. Ba'zan bir tasavvur nomi bir necha marotaba takror qo'llanilishi mumkin.

Lolaxon! U o'sha beton ustunlari qo'qqaygan ayvonda allanechuk bezovtalanib turibdi. Egalari har kuni bir mahal donlashga o'rgatgan ola tovuqday u yon-bu yon olazarak-olazarak ko'z tashlaydi. (Luqmon Bo'rixon) Yozuvchi asar qahramonining ruhiy holatini – bu o'rinda kuchli hayajonini ta'kidlash maqsadida *Lolaxon* nomini bir sahifaning o'zida uch marta takror qo'llagan.

Tinglovchi yoki kitobxon so'zlovchining tasavvur nomi sifatida ajratgan segment bo'lagi qay maqsadda ajratilganligini predmet nomining o'zidan anglab ololmaydi. U nima maqsadda ajratilganligi uni izohlab kelayotgan keyingi gapdagi segment bo'lakning korellyati sifatida kelgan ko'rsatish olmoshi ifodalangan gapda oydinlashadi.

Lolaxon! U uch kun mening velosipedim mung'ayganicha suyanib turgan beton ustunni qo'llari bilan silab-siypalab qo'ygandek bo'ldi. (Luqmon Bo'rixon) So'zlovchining predmet nomi sifatida ajratilgan nomga munosabati keyingi gapda qo'llanilgan leksemalardan anglashiladi. Ushbu gapda *mung'ayganicha* leksemasi so'zlovchining qahramonga achinish hisini ifodalagan bo'lsa, keyingi qo'llanganda unga nisbatan ishonchsizlik, nafrat tuyg'ulari *hurkak olatovuqday* o'xshatishini qo'llash natijasida ifodalangan.

Lolaxon! U o'sha mato qoplangan ish stoli yonida hurkak olatovuqday qo'qqayib, negadir qadam tovushlari kelayotgan yo'lakkamas, parcha-parcha osmon ko'rinib turgan derazaga termilib turar edi. (Luqmon Bo'rixon)

Tasavvur nomlari matnda kitobxonning diqqatini ma'lum bir predmetga qaratish, uni boshqalaridan ta'kidlab, ajratib ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Bunday hollarda segmentlanmagan gapga nisbatan segmentlashga uchragan gapda ekspressivlik kuchli bo'ladi. *Adabiyot... Men unda o'zimni qafasdan bo'shalib, nigoh etmas ufqlarga o'zini urgan qush misol sezaman.* (Ulug'bek Hamdam) Gapni segmentlanmagan holda quyidagicha qayta tuzish mumkin: *Adabiyotda men o'zimni qafasdan bo'shalib, nigoh etmas ufqlarga o'zini urgan qush misol sezaman.*

Ta'kidlash kerakki, segment bo'lak gap tarkibidagi eng asosiy e'tibor talab qiladigan qismdir. Undan keyingi gaplar bevosita alohida olingan predmet nomining ma'nosini oydinlashtirishga, uni to'ldirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. Государственное учебно-педагогическое издательство. Москва.1956.
2. Скребнев Ю.М. Введение в коллоквиалистику. Издательство Саратовского университета. 1985
3. Попов А.С.Сегментация высказывания. Русский язык и советское общество. Морфология и синтаксис современного русского языка. Москва. Наука.1968.
4. Попов А.С.Именительные темы и другие сегментированные конструкции в современном русском языке. Развития грамматики и лексики современного русского языка. Москва. Наука. 1964.
5. Расулов И. Танланган асарлар. 1-жилд. Тошкент. “Мумтоз сўз”. 2015.
6. Сапарниязова М.Ўзбек халқ топишмоқларининг семантикаси ва синтаксиси. Тошкент. 2007.
7. Майорова Л.Е. Именительный представления и именительный темы. Русский язык в школе. Ленинград. 1984. №3.

UDK 37.032

SHAXSDA QOBILYATLAR RIVOJINING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK ASOSLARI**Rahmatova F.G., Qo'chqorova O.O.**
*SamDTI assistenti***Annotatsiya**

Ushbu maqolada bolaning qobiliyatini aniqlashning pedagogik va psixologik asoslari ko'rsatilgan. Iqtidorning shakllanishida oila va muhitning muhim ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'z: qobiliyat, istedad, oila, muhit, rivojlanish, yo'nalganlik.

Психологические и педагогические основы развития способностей личности

Аннотация. В статье показаны педагогические и психологические основы определения способностей ребёнка. Так же отмечается, что семья и среда играют особую роль в формировании одарённости ребёнка.

Ключевые слова: способность, талант, семья, среда, развитие, направленность.

Psychological and pedagogical bases of development of personal abilities

Annotation. The article covers pedagogical and psychological foundations of determining the abilities of a child. It is also noted that the family and the environment play an important role in shaping the giftedness of the child.

Keywords: ability, talent, family, environment, development, direction.


Tabiiyki, har bir holatda iqtidorni payqamaslikni sabablari turlidir. Potensial qobiliyat haqiqatdan ham ma'lum bir vaqtgacha namoyon bo'lmagandir. Balki ota-onalar, pedagoglar vakattalar tomonidan bola qalbini nozik harakatlariga o'zgarishlariga yetarlicha ahamiyat berilmagandir. Intuitiv holda buni payqamagandirlar yoki bilimlari yetmagandir. Yoki aksincha, bu narsalarni tushunmaganliklari sababli boladagi buyuk potensial imkoniyatlarni sezmaganlar, va hattoki, bu ijodkorlikni, intellectual tashabbusini negative xususiyat sifatida qabul qilganlar. Qobiliyatlar sifatida ro'yobga chiqadigan psixik xislatlar majmuasining tuzilishi yaqqol va alohida faoliyat talabi bilan belgilanganligi tufayli har qaysi turdagi faoliyatlar uchun o'ziga xoz tarzda qo'yilishi turgan gap buning uchun ayrim misollarni tahlil qilib o'tamiz:

1) matematik qobiliyat; matematik materiyallarini umumlashtirish, mulohaza yuritish, jarayonini qisqartirish, matematik ish- amallarini kamaytirish, masalani idrok qilish bilan natijasi o'rtasida aloqa o'rnatish, to'g'ri va teskari fikr yuritishdan o'tishlik, masala yechishda fikr yuritishning ephilligi kabilar;

2) adabiy qobiliyat; Nafosat hislarining yuksak taraqqiyot darajasi, xotiradayorqin kurgazmali obrazlarning jonliligi, <<til zehni>>, behisob xayoliyot, ruhiyatga qiziquvchanlik, o'zi ifodalashga intiluvchanlik va boshqalar. Ajratib ko'rsatilgan qobiliyatlar tarkibidan ko'rinib turibdiki, matematik va adabiy qobiliyatlar o'zaro bir-biriga o'xshamagan talablari bilan tafovutga egadir. Bundan shunday hulosa chiqarish mumkinki pedagogik, musiqaviy, tyexnik, konstruktorlik, tibbiy qobiliyatlar va shunga o'xshash qo'bilyatlar tuzilishi maxsus xususiyatga ega bo'lib, kasbiy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Psixologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha birorta ham qobiliyatning yo'qligi yoki kerakli taraqqiy etmaganligi iste'dot sifatlarining murakkab turiga kiruvchi boshqa qobiliyatlarining jadal taraqqiyoti yo'li bilan muvaffaqiyqli ravishda orni bosib boriladi.

Har qanday layoqat qobiliyat darajasiga ko'tarilishi uchun eng murakkab yo'lni bosib o'tishi kerak bo'ladi. Qobiliyatlar ilk davrlardanoq rivojlana boshlab bir necha bosqichda amalga oshadi.



Qobiliyatlarning rivojlanishi va shakllanishi birinchidan, ma'lum bir faoliyatga moyillik yoki intilish borligiga va faoliyatlar natijalarining sharoitiga qarab tegishli tabiiy zehn, nishonalarini aniqlash yo'li bilan, ikkinchidan mutaxassis (muzikant, artist, rassom va hakoza) tizimli faoliyatga jalb etish orqali shaxsning tabiiy hususiyatlarini chiniqtirish va rivojlantirish yo'li bilan, uchinchidan, umumlashgan aqliy operatsiyalarni shakllantirish yo'li bilan borish kerakki, bu operatsiyalar umumiy va maxsus axborotni yegil va samarali o'zlashtirishni tanlagan faoliyat bo'yicha ko'nikma va malakalarni hosil qilishni taminlasin. To'rtinchidan o'quvchining maxsus qobiliyatini kamol toptirishni jadallashtirishni ta'minlovchi shaxsni har tomonlama rivojlantirish yo'li bilan. Beshinchidan shaxsning faollik alomatlarini tarbiyalash yo'li bilan borish kerakki bu alomatlari dastavval mehnatsevarlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, puxtalik qat'iyatlik, sichkovlik tanqidiylikdan iborat, Bularsiz individning potentsial imkoniyatlari va qobiliyati faoliyatida maksimal ravishda rivojlana olmaydi. Oltinchidan maktab o'quvchilariga nisbatan individual munosabatda bo'lishni umumiy talablar bilan to'g'ri qo'shib olib borishdir. Qobiliyatning muayyan izchillikda namoyon bo'lishi va rivojlanishini hayot tajribasida ko'rsatib turibdi. Qobiliyat turli rivojlanish darajasiga ega bulishi mumkin. Ilmiy abstraksiyalash qobiliyatining ikki darajasini farqlash imkonini beradi: reproduktiv va ijodiy aks ettirish darajalari, o'z qobiliyatini rivojlantirishning birinchi darajasidagi kishi bilimlarni juda mohirlik bilan o'zlashtiradi. Faoliyatni o'rganib oladi va uni biror namuna orqali amalga oshiradi. Ikkinchi daraja turgan kishi esa yangilik yaratishga qodirdir. Bu darajalarni tekshirishga metafizik munosabatda bo'lish yaramaydi albatta, birinchidan har qanday reproduktiv aks ettirish, faoliyati ijodiy faoliyat elementlarini ijodiy aks ettirish, faoliyat esa reproduktiv faoliyat elementlarini, larinehi'a qamrab oladi, busiz ularni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ikkinchidan, yuqorida aytilgan darajalarni ham qandaydir o'zgarma va qotib qolgan narsalar emas. Kishi bilimlarni o'zlashtirib, ko'nikma hosil qilish jarayonida faoliyat bur darajadan ikkinchi darajaga o'tib turadi. Qobiliyatning tabiiy manbai ham mavjud bo'lib va u tabiiy zehn deb yuritiladi.

Boshqa, xususiyatlarni esa qadrliroq deb hisoblanganlar, ya'ni hammamizga shaxsiy tajribamizdan ma'lumki tirishqoqlik, itoatkorlik, saramjomsarishtalik kabi xislatlarni fikrlar originalligi, dadillik, harakatlardagi va mulohaza yuritishdagi mustaqillikdan ustun quyadigan otanonalar, o'qituvchilar, oliy o'quv yurtlari professor o'qituvchilar, rahbarlar uchraydi. Amerikalik olimlar tomonidan 400 ga yaqin taniqli odamlarining tarjimai holi o'rganib chiqilganda ulardan 60 foizi maktab ta'limi davrida jiddiy muammolarga duch kelganligi aniqlanadi. Aktual va potentsial qobiliyatlar tushunchasining mavjudligi rivojlanishni oldindan prognoz qilish muammosini muhim deb hisoblaydi.

Shaxsning qanday sifatlari va xarakter xususiyatlari, fe'l-atvoridagi va faoliyadagi fazilatlarini kattalarga kelakda bolaning buyuk olim, rassom yoki davlat arbobi bo'lishi mumkinligini aniqlashda yordam beradi. Bu savolga javob topish bir muncha mushkuldir. Psixologlar bolaning kelajagini

“bashorat” qilish imkonini beradigan qator qonuniyatlarini belgilab berganlar, lekin asoslangan prognozlar berishga hali erishilgani yo‘q. Shu bilan birga jahon pedagogik va psixologiyasi sohasidagi tajriba shuni ko‘rsatadiki, bolaning imkoniyatlariga ishonchning pedogoglar va ota-onalarning mahoratiga yo‘g‘ringanligi mo‘jizalar sodir etishga qodir. Ba‘zi hollarda hayotda insonga tabiat tomonidan berilgan qobiliyatdan ham ko‘ra u ana shu xususiyatni qanday rivojlantira olgani muhimdir.

Ulg‘aygan sari bolalarda aqliy salohiyatini o‘shib borishini kuzatish mumkin. Hayotining birinchi 10 yiligidagi bolalar aqliy faoliyatining eng qiyin davri, ko‘plab yangiliklarni o‘zlashtirish his-hayajonga to‘la davr bo‘ladi. Bundan tashqari bolalar yoshligi tufayli nerv sistemasi sezgir buladi. Hatto oddiy hisoblangan holatlarimiz ham ularning tez qabul qilishiga jiddiy tasir ko‘rsatish mumkin. Bolalarni iqtidori turli yoshlarda namoyon buladi. Agar bolaning konkret rivojlanish vaqti o‘tkazib yuborilsa, bu kelajakda uning iqtidorini rivojigac tusqinlik qiladi.

Bola iqtidorini sezgan ota-ona va o‘qiyuvchilar, bunday bolani e‘tiborsiz qoldirmasliklari kerak, chunki kelajakda u o‘zini qandaydir iqtidorini ko‘rsatish mumkin.

O‘z tengdoshlaridan ilgarilab ketgan o‘qituvchilar qiyinchalik ko‘rmaydi, degan xayol notug‘ri, bunday bolalarni uyda va maktabda ko‘p qiyinchiliklar kutadi. Ko‘pincha bolalar ularni aqliy faollashuvi ota-onalarning qo‘rquvi va bezovtalanishiga sabab bo‘ladi, asosiysi balalarga buni bildirmaslik kerak.

Boshqa oilalarda bolalariga berilgan iqtidor ularni yaxshi kelajagini ta‘minlaydi. Bolalarni rag‘batlashtirishadi va ular bilan g‘ururlanishadi. Bunday bolalarda o‘ziga yuqori baho quyish va mensimaslik holati yuzaga kelishi mumkin. Iqtidorli bolalarni o‘qitishda ehtiyot bo‘lish zarur. Ular atrofidagilarni qo‘llashi va tanqidiga juda sezgir buladi. Oila sharoitida ham iqtidorli “g‘alatiroq” hisoblashlari mumkin.

Shunday qilib iqtidorli bolalar aqliy salohiyatining boshlang‘ich davridayoq muammolarga duch kelishadi. Ularni nafaqat uyda balki maktabda ham tushunmasliklari mumkin. Maktabda ularni boshqa bolalar bilan birga o‘qitilishi zeriktiradi. 1-sinf dan ular o‘qitish yozish va hisobni biladilar, boshqa o‘qituvchilar alifbe va hisob-kitobni o‘rgangunga qadar iqtidorli bolalar bekorchi bo‘lib qoladilar. Albatta hammasi pedagog mahoratiga bog‘liq, lekin qanchalik pedagog alohida yondashuv bilan butun sinfga dars o‘tmasin, u kuchli o‘quvchilargagina diqqat – e‘tiborini qaratishi qiyin. Aqlli va faol o‘quvchi o‘qituvchilardan kamroq dars so‘ralishi kuzatiladi, faolliigi kerak emasligini ko‘rgan o‘quvchi boshqa predmetlarga chalg‘ishi bilan o‘qituvchining mamnuniyatsizligini keltirib chiqaradi. Bora bora o‘qitishni sevuvchi faol bola maktabda o‘zini ortiqcha sezadi va maktab unga kerakmasdek bo‘lib qoladi. Muammoning sababi, iqtidorli bola bilimga chanqoqligi tufayli ko‘proq ma‘lumot olishni va ko‘proq dars o‘zlashtirishni xohlaydi, o‘rta ta‘lim maktabi dasturi esa u xohlagan bilimni berishga qodir emas [1].

Iqtidorli bolalarga alohida yondashilmasa oxir oqibat o‘rta maktab talabiga javob beradigan bo‘lib qoladi. Natijada uning mustaqil fikrlashi, bilimga chanqoqligi va real imkoniyatlari e‘tibordan chetda, talabsiz qoladi.

Iqtidorli bolalarni o‘qitishni birgina yo‘li iqtidorli sinflar yoki maktablarni tashkil qilinishidadir. Shundagina iqtidorli bolalar maktabni tezroq tamomlab, tezroq o‘zlari xohlagan oliygohlariga kirishlari mumkin. Bu ularga oldilariga qo‘ygan maqsadlariga tezroq erishishlariga sabab buladi. Iqtidorli bolalar o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga erishishi, Vatanimiz kelajagi va ravnaqi uchun salmoqli hissa bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, bola tarbiyasi kattalarni tarbiya muammolariga e‘tiborga emas, balki bolalarga berayotgan e‘tiboriga bog‘liqdir.

“Istedod” va “qobiliyat” o‘ziga xos tushunchalarga ega, ulardagi inson hususiyatlari har qanday amaliy faoliyat taqdim etayotgan talablar nuqtai nazarida kuriladi. Shuning uchun istedod haqida ham umuman gaprish mumkin. Iste‘dod shaxsning faqatgina nimagadir qandaydir faoliyatiga nisbatangina qo‘llaniladi. Aynan “iqtidorlik” tushunchasining ichida zaruriy shart sifatida muayyan amaliy faoliyatdan iborat bo‘lgan o‘zaro bog‘liqlik ushbu tushunchaning tarixiy xarakterini belgilab beradi. “Istedod” tushunchasi biologic xususiyat deb qaralganda o‘z mazmunini yo‘qotadi. Iste‘dod – bu har qanday u yoki boshqa faoliyat turlariga kiritilishi va shubxasiz har bir muayyan faoliyatning muvafaqqiyatli bajarilishiga jiddiy ravishda bog‘liqdir.

Shunday qilib istedot tushunchasi aniq, tarixiy rivojkanayotgan ijtimoiy mexnat amalyoti uslubi bilan uzoro bog‘lanmasa xech qanday ahmiyatga ega emas.

Psixologik ma'lumotlarni umumlashtirilgan holda ikki xil xususiyatli fikrni alohida mehnat amaliyoti uslubi bilan o'zaro bog'lanmasa hech qanday ahamiyatga ega emas.

1) iste'dod – bu shaxs psixik xislatlarining shunday murakkab birikmasidir, uni a) alohida, yagona maxsus qobiliyat bilan, b) xotiraning yuksak mahsuldorligi orqali; d) hatto noyob (kamyob, nodir) sifat tariqasida o'lchab bulmaydi:

2) shaxsda u yoki bu qobiliyatining mavjud emasligi hamda yetarli darajada raraqiy etmaganligi talantning murakkab tarkibiga "kiruvchi boshqa qobiliyatlarining jadal takomillashuvi orqali ularning o'rni bosib yuborishi (kompensatsiya qilishi) mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. A. Yuksak bilimli va intellectual rivojlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti // «Ma'rifat» gazetasi 2012 yil.

2. G'oziyev E. Umumiy psixologiya – T.: Universitet. 2002 - B 32.

3. Xeller K.A., Perlet K., Siervad V., tarjima «Iqtidorli bolalar», 1991 yil. «Qobiliyat psixologiyasi» fanidan ma'ruza matni. T.;-2005. -486 b.

UDK: 378:372.854

**KIMYO FANINI O'QITISHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV VA
TEKNOLOGIYALARNING MOHIYATI HAMD MUHIMLIGI****Shayzakova D.A.***Toshkent davlat agrar universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada kimyo fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va texnologiyalarning mohiyati va muhimligi, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish modeli, shaxsga yo'naltirilgan darsni ishlab chiqishda pedagog vazifalarini amalga oshirish bosqichlari, ta'lim muassasalarida insonparvar shaxsga yo'naltirilgan o'qitish va tarbiya tizimini tashkil etish uchun muhim sharoitlarni yaratish kabilar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: didaktika, bilim ko'nikma, malaka, insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, individual, kompetensiya.

Значение и важность технологии направленности к личности в обучении химии

Аннотация. В данной статье речь идёт о необходимости и сущности личностно ориентированного подхода и технологии в обучении химии, моделях личностно ориентированного обучения, этапах реализации задачи педагога при разработке личностно ориентированного урока, созданиях важных условий в организации структуры гуманно-личностно ориентированного обучения и воспитание в учебных заведениях.

Ключевые слова: дидактика, знания, навыки, умения, гуманизация, демократизация, индивидуал, компетенция.

Meaning and importance of personal oriented education and technology in teaching chemistry

Abstract. In the given article it is said about the necessity and importance of individually-aimed approach and the technologies in teaching Chemistry, models of individually-aimed teaching, levels of realization of pedagogue's tasks while working out the individually-aimed lesson, creating important conditions in the organization of human-personally aimed teaching and upbringing in the educational institutions.

Keywords: didactics, knowledge, skills ability, humanization, democratization, individual, competence.

Bugungi kunda mustaqilligimizning yangi bosqichga kirishi, jahon hamjamiyatidan joy olishi har tomonlama rivojlangan, individual qobiliyatlarga ega bo'lgan ijodkor shaxslarni tayyorlashni taqozo etmoqda. Kasbiy amaliyot faqat mustahkam bilim va kompetensiyaga ega bo'lgan mutaxassislarni emas, balki ularni muntazam yangilab boruvchi mustaqil, kerakli axborotlarni izlab topish mahoratiga ega bo'lgan, shakllangan mutaxassislarni talab qilmoqda.

Bunday talablarni amalga oshirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda mazkur yondashuv, ta'lim jarayoni ishtirokchilari oldiga prinsipial yangi maqsadlarni qo'yimoqda. O'qitishda shaxsning to'liq rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ta'lim jarayoni subyektlari shaxslararo muloqat asosiy bo'lib qolmoqda.

Shuning uchun ham, hozirda respublikamizda ta'lim oluvchining subyektivligini namoyon etishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish muammolarini yechish, ularning o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatlari hamda ro'yobga chiqarish vazifalariga alohida e'tiborni qaratish lozim. Lekin, bu borada olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari deyarli kam. Buning uchun quyidagi yo'nalishdagi ishlarni kuchaytirishimiz lozim:

- ta'limning shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy modelini ishlab chiqish. Bu model o'quvchining individual-shaxsiy fazilatlarini ochish va rivojlantirish uchun kerakli sharoitlar (ijtimoiy, pedagogik)ni yaratishga yo'naltirilishi lozim. Bu modelda o'quvchi tajribasi, shaxsiy rivojlanish trayektoriyasi, bilishni tanlash xususiyati bazaviy tushunchalar hisoblanadi. Mazkur o'qitish modelini shartli ravishda 3 turga bo'lish mumkin: ijtimoiy-pedagogik, didaktik-predmetli, psixologik;

- ta'lim oluvchilarning shaxsiy funksiyalarini rivojlantirish xususiyatlarini aniqlash;

- ta'lim mazmunining shaxsiy va funksional-kognitiv komponent-larini takomillashtirish.

Ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning nazariy, tashkiliy va texnologik

asoslariga tegishli ilmiy ishlanmalarning zarurligini ta'kidlab, shaxs rivojlanishi uchun imkoniyatlarni beruvchi, mazkur muammolarni hal qilishga yordam beruvchi modulli, muammoli va loyihalashtirish kabi o'qitish metodlarga alohida e'tiborni qaratish lozim.

An'anaviy o'qitishga muqobil yo'l sifatida paydo bo'lgan modulli o'qitish texnologiyasi pedagogik nazariyotda va amaliyotda to'planib kelingan barcha progressiv vositalarni o'zida qamrab olgan. Modulli o'qitishning mohiyati o'quvchining batamom mustaqil yoki qisman o'qituvchi yordamida modul bilan ishlash orqali o'qitish maqsadiga erishishidan iborat. Modul - o'quv mazmuni va bilim egallash texnologiyasini birlashtirib turadigan maqsadli funksional tuzilmadan iborat. Modul texnologiyasining mazmuni o'rganilayotgan mavzuni tugallangan mustaqil komplekslar (informasion bloklar)ga bo'lib o'qitishdan iborat. Uning didaktik maqsadi o'quvchi uchun belgilanadi va unda o'zlashtirish lozim bo'lgan bilimlar hajmi bilan bir qatorda o'zlashtirilish darajasi ham ko'rsatiladi.

Modulli o'qitish eng avval o'quvchining o'quv faoliyatini faol tashkil etishga qaratilgan bo'lib, uning yordamida o'quvchi shaxsining namoyon bo'lishi va rivojlanishi, o'quv materiallarini tez va chuqur mustaqil o'zlashtirib olishi, o'z-o'zini nazorat qilib borishi uchun keng imkoniyat yaratib beriladi. Modul texnologiyasi o'quv topshiriqlarini o'quvchining yakka o'zi yoki kichik guruhda jamoa bo'lib, modulda keltirilgan tavsiyalar asosida bajarishi, savollarga fikrlab javob topishi, o'z bilimini munozara orqali mustahkamlashi va yanada kengaytirishga mo'ljallangan.

Modullo'qitish texnologiyasida o'quvchilarning mustaqil ravishda o'quv maqsadlariga erishadi. Modul- o'quv mazmuni va uni egallash texnologiyasini o'z ichiga olgan maqsadli funksional tarkib hisoblanadi.

Muammoli o'qitish deyilganda, o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o'quvchilarning faol mustaqil faoliyatini ta'kidlab, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan o'quv mashg'uloti jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi.

Muammoli o'qitish texnologiyasidan o'quv mashg'uloti jarayonida foydalanish yaxshi natijalar beradi. Bunda o'qituvchi avvalo, muammoli vaziyat yaratadi, savollar qo'yadi, masalalarni, topshiriqlarni taklif qiladi, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtiradi, xulosalarining to'g'riligini tasdiqlaydi. O'quvchilar o'z bilim va tajribalariga asoslanib muammoli vaziyatni hal qilish yo'llarini o'zlarida takliflarini ayta oladigan oldin olgan bilimlarini umumlashtiradi, muammoli vaziyatni yechishning o'qilgan variantini tanlaydi. U o'quvchilarning bilimga qiziqishlarini oshirish bilan birga, ularda fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Loyihalashtirish faoliyati o'quvchilarning bilimlashni tashkillashtirishning muhim shakllaridan biridir. Loyihalashtirish metodi - o'qitishni tashkillashtirish bo'lib, o'quvchilar rejalashtirish jarayoni va amaliy vazifalarni bajarishlari orqali loyiha ko'rishda bilim oladi. Loyihalashtirish metodini o'qitish natijasida loyiha ko'rishidagi bilim o'zlashtiriladi. Loyihalashtirish o'quv jarayonining texnologik darajasini to'liq fodalaydi, amaldoriyatini oshiradi va o'qituvchini yuqori malakali mutaxassisga aylantiradi, o'quvchining esa nufuzini birmuncha oshiradi va ijodiy faoliyatni rivojlantirishning yangi qirralarini ochadi.

Didaktika o'qitishga ikkita asosan yondashuv borligini ko'rsatadi. Uning negizida o'qitishda o'quvchi va o'qituvchining bir-birini tushunishi va hamkorligi yotadi. Avtoritar didaktikada o'qituvchining faoliyatida asosiy e'tibor o'quvchilarga tizimli bilimlarni berishga qaratiladi. Shaxsga yo'naltirilgan didaktika esa aksincha, birinchi o'ringa o'quvchining faolligini, uning rivojlanishini hamda o'rganish, o'zlashtirish usullarini qo'yadi.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish asosida - filofosiya, psixologiya va pedagogikadagi gumanistik yo'nalishdagi prinsiplar yotadi (u amerikalik psixolog K.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan), ular quyidagilar:

- muntazam o'zgarib turuvchi dunyo markazida individ turadi: har biri uchun o'z atrofidagi muhitni haqiqiy qabul qilish ahamiyatli, ichki dunyo tashqaridan hech kim tomondan oxirigacha bilib olinmagan;

- kishi atrofidagi haqiqiy muhitni shaxsiy munosabat va tushunish orqali qabul qiladi;

- individ o'z-o'zini bilish va amalga oshirishga intiladi;

- rivojlanish uchun zarur bo'lgan hamjihatlikni faqat o'zaro munosabat natijasida amalga oshirish mumkin;

- o'z-o'zini rivojlantirish muhit va kishilar bilan o'zaro harakat asosida amalga oshiriladi.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitishni - shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalardan

foydalanish va o'qituvchining kasbiy pozitsiyasini qayta anglash asosida amalga oshirish mumkin. Mazkur texnologiyalar diqqat markazida - o'zining imkoniyatlarini to'liq amalga oshirishga intiluvchi, turli hayotiy vaziyatlarda javobgarlikni his etuvchi kishining shaxsi yotadi. Bu texnologiyalarning kalit so'zlari quyidagilar: rivojlanish, shaxs, individuallik, erkinlik, mustaqillik, ijodkorlik.

Shaxsga yo'naltirilgan darsni ishlab chiqishda o'qituvchi quyidagi bosqichlarni inobatga olishi lozim:

- subyekt tajribasi asosida. Shaxsga yo'naltirilgan darsning asosiy mazmuni shundan iboratki, bunda o'quvchining individual tajribasini ochib berish lozim. Mazkur jarayonda o'qituvchining professional pozitsiyasi shundan iborat bo'lish kerakki, bunda u muhokama qilinuvchi mavzu mazmuni bo'yicha o'quvchining har qanday o'z taxminiy fikrini bildirishiga hurmat bilan qarashi lozim. O'qituvchi, ular bilan teng huquqli dialogda bo'lishi kerak, qattiqqo'llik qilmasligi lozim. U bu taxminiy fikrlarni qanday umumlashtirish, ilmiy mazmunga egaligi, dars mavzusi hamda maqsad va vazifalarga mosligini ajrata olishi kerak;

- psixofizik xususiyatlarni bilish. Shaxsga yo'naltirilgan dars uchun didaktik materiallarni tanlash, o'qituvchidan har bir o'quvchining bu materiallar bilan ishlashida individual bilimlarini hisobga olishi lozim. U dastur talablarida belgilangan, o'quvchining erkin ishlashiga imkon beruvchi didaktik kartochkalar to'plamiga ega bo'lishi lozim. Materialning turi va shakli ko'pincha ushbu materialning mazmuni bilan aniqlanadi. O'quvchiga o'quv materiali bilan ishlashda individual ijodkorligini ko'rsatish uchun imkoniyat berish kerak. Bunday materiallar to'plamidan dars jarayonida uddaburonlik bilan foydalanish lozim. Aks holda u shaxsga yo'naltirilgan hisoblanmaydi;

- o'qituvchi va o'quvchi teng huquqli sherik rolida ishtirok etishadi. O'quvchi uchun juda qiziqarli bo'lgan mazmunli topshiriqlarni tanlash, turi va shakli, o'zini faol ko'rsatishi uchun darsda o'quv munosabatini qanday tuzish kerak degan savol tug'iladi. Buning uchun o'qituvchi darsda frontal metodlardan faqat axborot beradigan (o'rnatilgan, mazmunli-yo'llanmali)-larga e'tiborni qaratishi lozim. Individualga - guruhli va mustaqil ishlarning barcha shakllari kiradi.

Shaxsga yo'naltirilgan dars an'anaviy darsdan birinchi navbatda shu bilan farq qiladiki, unda "o'qituvchi-o'quvchi" turi hamkorligi turadi. O'qituvchi o'quvchining prosessual faoliyatiga yo'naltirilgan holda komanda stilidan hamkorlikka o'tadi. Bunda o'quvchi pozitsiyasi, tirishqoqlikdan faol ijodkorlikka o'zgaradi. Uning fikrlashi boshqacha bo'ladi, ya'ni natijaga qaratilgan bo'ladi. Shu bilan birga, darsda munosabat xarakteri o'zgaradi. Eng keragi, o'qituvchi faqat bilim berish emas, balki o'quvchi shaxsining rivojlanishi uchun optimal sharoit yaratishi ham kerak.

Shuni ta'kidlash lozimki, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish zamonaviy maktabda ma'lum bir sabablarga ko'ra qiyinchiliklarni ham tug'diradi. Ular:

- o'quvchilar guruhini to'ldirish: sinfda 25 o'quvchi bo'lsa, o'qituvchi har bir o'quvchining individual xususiyatlarni ko'ra olmasligi mumkin;

- o'qitish jarayonini o'rtacha o'quvchiga oriyentasiya qilish;

- alohida olingan predmetdar bo'yicha o'quvchilarning individual belgilari, qobiliyatlarini amalga oshiruvchi tashkiliy sharoitlarning yetishmasligi;

- barcha o'quv predmetlariga bab-baravar e'tibor berilishi zaruriyati, hamda o'quvchi uchun muhim va qiziqarsiz bo'lgan predmetlar;

- bilim, ko'nikma va malakalarni baholashning muhimligi, o'quvchining ta'lim mazmunini egallashida majburlamaslik.

Umuman olganda, shaxsga yo'naltirilgan o'qitishni zamonaviy maktabda amalga oshirish murakkab jarayon. Bunda o'qituvchining kasbiy mahorati muhim. Mazkur o'qitishni faqat ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining o'z funksiyalarini qayta ko'rib chiqishlari hamda barcha kerakli shartlarga amal qilishlari orqali amaliyotga joriy etish mumkin.

Zamonaviy maktab bugungi kunda o'qituvchi va o'quvchi munosabatni insonparvarlashtirishga, maktab jamiyati hayotini demokratlashtirishga juda muhtoj. Shuning uchun shaxsga yo'naltirilgan o'qitish asosida o'quvchi-ning o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini qurish, uning takrorlanmas individual rivojlanishini ta'minlash lozim.

Ta'lim muassasalarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim - bu o'quvchi shaxsini chuqur hurmat qilish asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonni, uning individual rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish, unga ta'lim jarayonining teng huquqli va javobgar ishtirokchisi sifatida qarash, takrorlanmas tajribalarni inobatga olish asosida tashkil etishdir [1].

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi, yaxlit rivojlanishga yordamlashuvchi, erkin, o'z

obro'si va boshqalarnikini hurmat qiluvchi tarbiyalanuvchilarning individual xususiyatlarini inobatga oluvchi - individual yondashuv prinsipiga asoslangan [2].

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish va tarbiyalashni ta'lim muassasalari amaliyotiga joriy etish, o'quvchilar anglashini takomillashtirish, axloqiy harakatlari, mazmuni izlash tajribasiga ega bo'lish, hayotiy-amaliy vazifalarni shaxsan yechishga stimuly beruvchi, "Men" pozitsiyasiga ega bo'lish uchun sharoitlarni yaratishni ko'zlaydi [3].

Ta'lim muassasalarida insonparvar shaxsga yo'naltirilgan o'qitish va tarbiya tizimini tashkil etish uchun quyidagi muhim sharoitlarni yaratish lozim:

- shaxs shakllanishi uchun muhitni takomillashtirish yo'llarini izlash;
- ta'lim fazosi va vaqtini optimal tashkil etish;
- sosium va ta'lim muassasalari birligini ta'minlash;
- o'quv-tarbiyaviy jarayonda shaxsga yo'naltirilgan texnologiya, metod va shakllarni qo'llash.

Bu jarayonda asosiy rolni guruhlarining rahbarlari o'ynaydi. Ular o'quvchilarning o'quv va undan tashqari faoliyatini tashkil etuvchilari hisoblanadi. Turli muammolarni hal etishda ularning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- ta'lim muassasalarida kommunikatsiya va ijtimoiy sohalarida amaliy mahorat, ijtimoiy malakalarni o'zlashtirish, yangi sharoitlarda muhim shakllanish orqali yengillashtirishga yordam beruvchi insonparvar shaxsga yo'naltirilgan muhitni tashkil etish [4];

- yengillashtirilgan, imkon beruvchi, stimullashgan, o'quvchilar faolligini rivojlantiruvchi o'qitishni tashkil etish. Bu o'z navbatida erkinlik berish, javobgarlikni his etish, o'quv muassasasida o'zaro shaxsiy muloqat bilan jambarchas bog'liq [5].

- umumbashariy axloq normalari bilan tanishtirish [6];

- o'quvchilarni insonparvarlik dunyoqarash va hayotiy boylikka, hayot faoliyatida o'z o'rnini maqsadli hamda o'z-o'zini anglashga yo'naltirish [7].

Shunday qilib, kimyo fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va texnologiyalarning mohiyatini anglash, shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning zamonaviy modelini yaratish, shaxsga yo'naltirilgan dars mashg'ulotlari pedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqish, ta'lim muassasalarida shaxsga yo'naltirilgan o'qitish va tarbiya tizimini tashkil etishda zaruriy shart-sharoitlarni yaratish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda, mustaqilligini, erkinligini rivojlantirishda muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Якиманская И. С. Технология личностно-ориентированного образования. - М.: Сентябрь, 2000.
2. Бондаревская Е. В. Теория и практика личностно-ориентированного образования. Личностно-ориентированное образование. - М.: Современный Гуманитарный Университет, 2005.
3. Сериков В.В. Образование и личность: Теория и практика проектирования педагогических систем. - М.: Логос, 1999.
4. Малиева З.К. Организационно-педагогические условия пропедевтики и снятия морально отчуждения студентов // Вестник Воронежского государственного университета. Серия «Проблемы высшего образования». - 2012. - №1. - С. 95-99.
5. Роджерс К. Взгляд на психотерапию. Становление человека. М.: Прогресс, 1994.
6. Тахохов Б.А., Магомедов А.А. Воспитательная работа в современном вузе. Монография. - Владикавказ: Изд-во СОГУ, 2009. - 232 с.
7. Пособие для кураторов академических групп младших курсов / Сост. О.С. Сысоева, А.А. Домницкий, Ю.Н. Попков/ - Новочеркасск: ЮРГТУ, 2008.

UDK: 371.3

DIDAKTIK O'YINLARNING TOPSHIRIQLARINI TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI

Muradova F. R.

Annotatsiya. Kasb-hunar kollejlarda "Informatika" fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish maqsadida didaktik o'yinlardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlangan hamda didaktik o'yinlar optimal sinflarga ajratilib, ularni dars jarayonida qo'llash metodikasi ishlab chiqilgan.

Kalit soʻzlar: didaktik, metodika, pedagogik.

Технология подготовки заданий дидактических игр

Аннотация. Обоснованы возможность и необходимость использования дидактических игр в процессе обучения учеников информатике; выявлены педагогические условия применения дидактических игр на уроках информатики с целью развития познавательной активности учеников, разработана методика использования дидактических игр при обучении информатике в профессиональных колледжах.

Ключевые слова: дидактический, методика, педагогический.

Technology of task preparation of didactic games quiz

Abstract. The possibility and the need for didactic games in teaching students computer science identified pedagogical conditions of didactic games on science lessons to develop the cognitive activity of students, developed the technique of using didactic games for teaching science in professional colleges.

Keywords: didactic, methods, pedagogical.

Didaktik oʻyinlarni tanlashda oʻquvchilarning ruhiy holati, bilish qobiliyatlari, nutqi, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot tajribasining har tomonlama rivojiga koʻmaklashishi, oʻquv mashgʻulotlariga qiziqish uygʻotishi, oʻquv faoliyati bilim va malakalarini shakllantirishi, natijalarni tahlil qilish, taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirishni oʻrganishda oʻquvchiga yordam berishiga eʼtibor qaratish lozim. Oʻyinlarni oʻtkazish jarayonida oʻquvchining aqliy faoliyati fanlarga nisbatan uning harakatlari bilan bogʻliq boʻlishi kerak. Informatika darslarida didaktik oʻyinlardan foydalanish mobaynida koʻrib chiqilayotgan predmet xususiyatini inobatga oladigan didaktik oʻyinlarni tanlash tamoyillarini sanab oʻtish lozim.

Kasb-hunar kollej oʻquvchilari oʻquv faoliyatini faollashtirishga koʻmaklashuvchi va qoʻllanilishi maqsadga muvofiq boʻlgan oʻyin quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

1. Har bir oʻyin ishtirokchisining faolligi.
2. Har bir oʻquvchi uchun didaktik oʻyinning ochiqqligi.
3. Muammolilik.
4. Oʻyinning qiziqarli va hissiy rang - barang boʻlishi.
5. Oʻyinning yakkama - yakkaligi va jamoaviyligi.
6. Bahs va musobaqaviyligi.
7. Har bir ishtirokchi uchun oʻyinning natijaviy boʻlishi.

Yuqorida sanab oʻtilgan tamoyillarning har birida qisqacha toʻxtalib oʻtaylik.

Istalgan didaktik oʻyinning tamoyillaridan biri har bir ishtirokchining faollik darajasi hisoblanadi. U oʻyinga tayyorgarlik koʻrishda aks etishi lozim, oʻyin davomida kuchayishi va choʻqqisiga yetishi, shuningdek, natijalarni muhokama qilish jarayonida ham shunday yuqori darajani saqlab turishi lozim.

Oʻyinning ochiqqligi - barcha ishtirokchilar tomonidan oʻyin qoidalarining tushunarli boʻlishi va uning istalgan bosqichida oʻquvchilarga mos boʻlgan vazifalarning mavjudligidir.

Didaktik oʻyinning muammoliligi shunda ifodalanaidiki, istalgan oʻyinda muammoli vaziyatlar va ularni yechish uchun sharoit yaratiladi. Bunda har bir oʻquvchi raqobat sharoitida muayyan maqsadga erishishga intilib, musobaqa davomida paydo boʻladigan turli muammoli vaziyatlarni yechish yoʻllarini oʻzi bilmagan holda rejalashtiradi.

Didaktik oʻyinning qiziqarliligi va hissiy rang - barangligi barcha bosqichlarda oʻquvchilar bilish faolligini, shu bilan birga oʻyin tayyorgarligi va keyingi tahlilini ham kuchaytirishga yoʻnaltirilgan. Bundan tashqari, bu tamoyil har bir oʻyin ishtirokchisining bilish faolligini rivojlantirishga koʻmaklashadi.

Didaktik oʻyinning yakkama-yakkaligi shuni nazarda tutadiki, har bir oʻquvchi uchun oʻyinda muayyan rol topilishi lozim, bu rol uning shaxsiy xususiyatlarini maksimal tarzda amalga oshirishga, oʻquvchiga oʻzini ifodalashga imkoniyat berishi kerak.

Individuallik tamoyili har bir oʻyin qatnashuvchisiga oʻzining keyingi rivoji uchun ishlashga imkon beradi, ayni paytda oʻquvchi muayyan faoliyatda oʻzidagi ustun xususiyatlarni ochish

imkoniyatiga ega bo'ladi. Didaktik o'yinning jamoaviyligi esa har bir ishtirokchining individualligiga barham bermasdan, muammoli vaziyatlarni yechish bo'yicha jamoa, juftlik, guruhlarda o'zaro faoliyatni amalga oshiradi.

Jamoaviylik tamoyili birgalikda harakatlanish va fikrlash kabi muhim malakalarning rivojiga olib keladi. Individual, ko'p hollarda qarama-qarshi xarakter, dunyoqarashga ega bo'lgan o'quvchilarning jamoaviy ishi do'stona munosabatlarni rivojlantirishda yordamlashadi.

Bahs va musobaqaviylik ko'p hollarda didaktik o'yindagi asosiy harakatlantiruvchi kuch bo'lib hisoblanadi va bu kuch o'yinchilarning aqliy imkoniyatlarini katta miqdorda safarbar etadi.

Natijaviylik tamoyili didaktik o'yinning asosiy tamoyili bo'lib, uni har bir ishtirokchi va butun jamoaning faol ijodiy faoliyati sifatida ko'rsatadi. Barcha jamoaviy musabaqalar kabi jamoa faoliyati natijasi bevosita har bir o'yinchi hissasiga bog'liq. Ko'rib chiqilayotgan tamoyil har bir o'quvchi va butun jamoa natijasining mos kelishi hamda o'yinchi va uning raqibi uchun yagona bo'lishini taqozo etadi.

Yuqorida sanab o'tilgan tamoyillarni hisobga olib, didaktik o'yinlar qatoridan informatika darslarida o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtirish uchun foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladigan o'yinlarni tanlash mumkin.

Didaktik o'yinlarning ko'pgina afzalliklariga qaramasdan, ularni tayyorlash va o'tkazish o'qituvchi uchun murakkab vazifa bo'lib hisoblanadi va ko'p vaqtni talab qiladi.

Ko'rib chiqilgan tahlil o'qituvchiga informatika darslarida didaktik o'yinlarni asosli tarzda qo'llash imkonini beradi.

Bizning fikrimizga binoan "Informatika" fanidan didaktik o'yinlarni tayyorlash va o'tkazishda quyidagi bosqichlarni inobatga olish lozim: g'oya, tashkil etish, o'tkazish va tahlil qilish.

Didaktik o'yinning g'oyasi. Didaktik o'yinning birinchi, mushkul va eng mas'uliyatli bosqichi hisoblanadi. G'oyaning tarkibiy qismlariga:

- guruhni tanlash;
- darsning mavzusini tanlash;
- darsning turini tanlash;
- vaqt chegaralarini aniqlash;
- o'yinning turi va shaklini tanlash jarayonlari kiradi.

a) Guruhni tanlash. Didaktik o'yinlar o'tkaziladigan guruhni ba'zi xususiyatlarini (yo'nalishi, o'qitilish darajasi, ishga layoqatligi, tashkilotchiligi) inobatga olgan holda tanlanadi. Bunda o'quvchilarning nafaqat fanga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, balki o'qitish va tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish zarurligini inobatga olish lozim. Didaktik o'yin informatika fanini o'qitish bo'yicha chuqurlashtirilgan yo'nalishdagi guruhlarda o'tkazilishi mumkin. Bunda o'yin topshiriqlari va shaklini guruhning o'qitish darajasi va o'zlashtirish ko'rsatkichiga qarab ajratish kerak bo'ladi.

b) Dars mavzusini tanlash. O'qituvchi o'yinni o'tkazish uchun ixtiyoriy mavzuni tanlash huquqiga ega. Bu yangi mavzuni tushuntirish uchun yoki o'tilgan mavzularni mustahkamlash uchun ham qo'llanilishi mumkin, lekin, bunda o'qituvchi mavzuni tushuntirish uchun o'yinni tashkil etish va o'tkazish uchun ko'p vaqt va kuchni sarflash zaruratini inobatga olishi kerak.

v) Dars turini tanlash. Didaktik o'yinlar darsning barcha turida qo'llanilishi mumkin. Didaktik o'yinlarning muvaffaqiyatli o'tkazilishi, o'qituvchining didaktik o'yin turlari bilan ishlay olish malakasiga bog'liq. Didaktik o'yinlar o'tilgan mavzularni takrorlash va olgan nazariy bilimlari va malakalarini mustahkamlash va o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilishda qo'llanilishi mumkin.

g) Vaqt chegaralarini aniqlash. Vaqtni belgilash bosqichi deb, didaktik o'yinlarni o'tkazish va ularni tayyorlash jarayoniga sarflangan vaqtni tushunish kerak. O'yin to'liq dars davomida yoki darsning bir qismida, yoki bir necha dars davomida o'tkazilishi mumkin. O'yinni tayyorlash jarayoni bir necha kun yoki hatto bir necha hafta ham bo'lishi mumkin. Bu o'yin ko'rinishi, o'yin maqsadi hamda o'qituvchi va o'quvchi orasida taqsimlangan vazifa-larning bajarilishiga bog'liq bo'ladi.

d) Didaktik o'yinning turi va shaklini tanlash. Didaktik o'yinlarning turi va shaklini aniqlash bir necha omillarga bog'liq: guruhning xususiyatlari (jumladan, mazkur guruhni o'qitishda, dars jarayonida qanday o'qitish shakli qo'llanilganligi); o'quvchilarning yoshi, dars mavzusining xususiyati.

Shuni ta'kidlash lozimki, didaktik o'yinlarni tashkil etish va o'tkazishda o'qituvchining roli juda muhim. O'yinning muvaffaqiyatli o'tishi nafaqat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga, balki

o'qituvchining kasbiy pedagogik tayyorgarligiga, uning o'quvchi bilish faoliyatiga ta'sir etuvchi muqobil faoliyat turiga ham bog'liq.

Adabiyotlar

1. Бондаренко А. К. Воспитание детей в игре. - М.: Просвещение, 1983 - 137 с.
2. Борисова О. В. Конструирование деловых игр // Новые методы и средства обучения. Вып. 2, - М., 1989. - С.54 - 78.
3. Венгер Л. А. Сюжетно-ролевая игра и психологическое развитие ребенка // Игра и ее роль в развитии ребенка дошкольного возраста. - М., 1978. - С. 32-36.
4. Зарецкая Г., Аксенова Ю. Деловые игры для деловой молодежи // школьный экономический журнал. - 1996. - №2. - С. 29-37.

UDK 166.19

NAZARIY BILIMLAR TIZIMIDA BASHORATNING O'RNI

Mamayusupov U.Q.

Toshkent davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Maqolada nazariy bilimlar odamlar amaliy faoliyatining negizi bo'lib, ular tabiiy va ijtimoiy hodisalarni bashorat qilishda yo'l ko'rsatishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: bashorat, nazariya, gipoteza, empirik bilimlar.

Роль прогнозирования в системе теоретических знаний

Аннотация. В данной статье речь идет о том, что теоретические знания, являясь основой практической деятельности людей, показывают путь при предвидении природных и общественных явлений.

Ключевые слова: прогнозирование, теория, гипотеза, эмпирические знания.

Role of prognosis in theoretical knowledge system

Abstract. In the article basis of theoretical knowledge and practical work they are about to display its estimates of natural and social phenomena.

Keywords: prevision, theory, gipotezia, empiricheskij knowledge.

Nazariy bilimlar tizimi o'ziga xos ilmiy ijodiy jarayon bo'lib, unda davrning, ijtimoiy voqeliklar va realliklarning xarakteri namoyon bo'ladi. Zero, M.Abdulaeva fikricha, "Ijod bugungi madaniyatni ertangi kun madaniyati bilan bog'lovchi xalqa rolini o'ynaydi. Ijodiy dialog tabiatan ijtimoiydir, u faqatgina insonning shaxsiy ishi bo'lib qolmay, balki inson madaniyatining rivojlanish shakli hamdir. Ijodiy tafakkurga ega insonning sub'ektiv idrok qilishi tadqiq etilayotgan obektning yangi qirralarini ochib beradi" [1]. Obektiv bilimlar doirasida nazariy bilimlarning gnoseologik – epistemologik tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy bilim deganda, avvalo, empirik bilimdan farqli ravishda abstrakt tafakkurga asoslangan ideal tasavvur, bilimlar bilan bog'liq bilim shakliga aytiladi. Nazariy bilim shakllariga ilmiy muammo, gipoteza, ilmiy bashorat, nazariya, tamoyilar, qonunlar, kategoriyalar, paradigmalari kiradi.

Tadqiqot doirasida to'plangan ilmiy dalillar nazariyaga nisbatan quyidagi vazifalarni bajaradi: mavjud nazariyaga nisbatan ilmiy dalil yo uni mustahkamlaydi, (verifikatsiya qiladi), yo u bilan to'qnashadi va uning asossizligini ko'rsatadi (falsafikatsiya qiladi). Biroq, boshqa tomondan, nazariya empirik tadqiqot darajasida olingan ilmiy dalillar yig'indisini shunchaki umumlashtirishgina emas. Uning o'ziga yangi ilmiy dalillar olish manbaiga aylanadi. Shunday qilib, empirik va nazariy bilim yaxlit hodisa - ilmiy bilim ikki tomonining birligi hisoblanadi. Bu tomonlarning muayyan ilmiy bilish jarayonidagi o'zaro nisbati nazariy bilimga xos bo'lgan shakllarning izchil qatori yuzaga kelishini belgilab beradi[2].

Ilmiy bilish jarayoni va amaliy faoliyatdagi inson bilishi imkoniyati va chegarasi doirasi ilmiy oldindan ko'rishni zaruriyatga aylantiradi. Mana shu inson tafakkurining chegarasi yangi bilim va tajribani qo'lga kiritishga zamin bo'ladi. Bunda biz inson tafakkurining nisbiy chegaralangan holati va ko'rinishida eskilik zaminida yangilikni, murakkablik zaminida oddiylikni qidirishga tomon

yoʻnalganligini koʻramiz. Bilimning rivojlanib borish jarayoni, albatta, oddiydan murakkabga tomon yoʻnalganlik xarakteriga ega, bu esa uning obyektiv mazmunini chuqurlashtiradi.

Ilmiy bilish jarayonida kishilarning ilmiy nazariyalar bilan qurollanganligi unga ilmiy oldindan koʻrish-ilmiy bashorat qilish imkoniyatini beradi. Bu esa oʻz navbatida, yangi qonuniyat va yangi nazariyalarning shakllanishiga olib keladi [3].

Ilmiy bashoratning bunday talqini nazariy va empirik-tajriba maʼlumotlarini umumlashtirish, hodisalar qonuniyatlari aloqasini xisobga olish asosidagi muhim bogʻliqlik va aloqadorlikni tadqiq etishni dolzarblashtiradi.

Inson dunyoni bilish jarayonida birdaniga xaqiqatga erisha olmaydi, balki dastlab unga tegishli faktlarga ega boʻladi va oʻsha faktlarni izohlaydi. Faktlarni izohlash orqali esa obektiv borliqdagi narsa va hodisalarning qonuniyatlarni ochib tashlaydi. Narsalarning mohiyatini bilish esa ancha-muncha murakkabir. Shuning uchun ham inson xodisalarning sababini bilishda gipotezalar qiladi va har xil taxminlarni ishlatadi.(4)

Narsa va xodisalarning mohiyatini bilishda nazariy bilim shakllari va unga bashoratning nazariy va amaliy qimmatini aniqlashtirish muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Zero, nazariy bilimlar tizimi ham narsa va hodisalar kabi ancha-muncha murakkab. Shuning uchun ham inson xodisalarning sababini bilishda, avvalo, nazariy bilim shakllari va unda bashoratning rolini aniqlashtirish ilmiy fan qimmatini oshirishga xizmat qiladi.

Nemis faylasufi Immanuel Kant taʼkidlaganidek, madomiki fanlarning hammasi aqlga tayanishi kerak ekan, ularda qandaydir aprior bilish boʻlishi kerak, shuning uchun ham aqliy bilish oʻz holida asosan ikki turli boʻladi: bir predmetni tushunish va aniqlash, keyin esa uni haqiqiy bilimga aylantirish. Bularidan birinchisi nazariy, ikkinchisi amaliy aqliy bilishdir [5]. Mana shunday bilimlar tahlili inson aqliga tayangan boy abstraksiyalash va bashoratlash shaklida namoyon boʻladi. Bu esa bilimlarning obʼektiv mazun mohiyatini oʻz navbatida boyitib, yanada chuququrlashtirishga xizmat qiladi.

Inson tomonidan obyektiv olamning mohiyatini bilishga intilish insondagi muayyan bilim, tajriba va oldindan koʻra olish qobiliyatini shakllantirdi. Fan tarixida ilmiy muomolarning nazariy va amaliy jihatdan hal qilinishi voqelik qonunlarini kashf etilishiga olib keladi [6]. Bu esa oʻz navbatida fan taraqqiyotini jadallashtirgan, tabiat va jamiyatning har qanday qonuniy malum bir shart-sharoitlarda namoyon boʻlar ekan, u ilmiy bilish jarayonida va amaliy faoliyatda muhim, zaruriy, umumiy va nisbiy barqaror aloqalar malum bir natijalarga olib kelishi mumkinligini yaxshi bilishga imkon tugʻdiradi.

Mazkur oʻrinda falsafaning bosh va asosiy vazifalaridan biri tabiat va inson haqidagi fanlar taraqqiyotini bosh magistrallarni yorishtirish hisoblanadi. “Chuvallangan kalava ipi” ning oʻziga xosligini ochishda falsafa nafaqat bilimning chinligini, balki, oldindan bilish va uning asosiy natijalarini asoslashda bashoratlashning vazifasini belgilaydi. [7]

Shu jihatdan olib qaraganda har bir predmet va hodisa maʼlum qonun va qonuniyat asosida yuzaga chiqadi. Olamda sababsiz hodisalar yoʻq. Har bir narsa maʼlum sabab ostida vujudga keladi. Tabiat va jamiyatda moʻjizalar yoʻq, boʻlishi ham mumkin emas. Ilmiy bashorat qilish uchun tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonunlarini bilish, dunyoviy bilimlarning asoslarini oʻrganish talab qilinadi. Bu esa moddiy olamning taraqqiyoti qonunlari ilmiy bashoratlarning obyektiv mazmunini ochishga yoʻnaltirilganligini koʻrsatadi.

Bashorat qilish “murakkab narsani oddiy narsaga aylantirish”ning oliy darajasini tashkil etadi. Ilmiy bilim taraqqiyoti ilmiy bashorat kuchining oʻsishi va mazkur hodisa chegaralarining kengayishi bilan bogʻliq. Bashorat qilish jarayonlarni nazorat qilish va boshqarish imkonini beradi. Iliy bilish nafaqat kelajakni bashorat qilish, balki bu kelajakni ongli ravishda shakllantirish uchun imkoniyat yaratadi. Har qanday fanning hayot mazmunini shunday tavsiflash mumkin: bashorat qilish uchun bilish, ish koʻrish uchun bashorat qilish kerak. Masalan, D.I. Mendeleev yuz yil keyin kashf etilgan kimyoviy elementlarning mavjudligini bashorat qilgan edi.

Bu oʻrinda bashorat qilishning obektiv mazmun mohiyati ilmiy muammo, gipoteza, nazariya, tamoyillar, qonunlar, kategoriyalar, paradigmalarni doirasida keng qamrovli oʻrni namoyon boʻladi. Har qanday ilmiy bashorat aslida ilmiy muammo, gipoteza, nazariya, tamoyillar, qonunlar, kategoriyalar, paradigmalarni oʻzgartirgan formasi sifatida takrorlanishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib aytganimizda, birinchidan, ilmiy nazariy bilimlar tizimi ilmiy bashorat shakllanishidagi ustuvorligi muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi; ikkinchidan, nazariy bilimlar tizimi oʻzaro aloqadorlik kasb etadi va unga ilmiy bashorat muhim determinat rolni

bajaradi; uchinchidan, iliy bashorat va nazariy bilimlarning boyib borishidagi o'zni muhim; to'rtinchidan, ilmiy bashoratlarning qo'yilishi o'z navbatida nazariya va paradigmalarning ham o'zgarib borishini ko'rsatadi, ya'ni har qanday yangi ilmiy bashorat yangi nazariya va paradigma uchun asos rolini bajaradi; beshinchidan, ijtimoiy o'zgarishlar jarayonida ilmiy bashoratlar jamiyat qonunlari va ularning ijtimoiy reallikni qamrab olishida kuchliroq namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Qarang: Milliy g'oya va fanning metodologik muammolari. –T., 2009. 20-bet.
2. Qarang: shermuhammedova N.A. Gnoseologiya bilish nazariyasi. –T. 2010.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6- tom. – T., “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – B. 242.
4. Rahimov I. Mantiq. Oliy o'quv yurtlari studentlari uchun darslik. – T., Universitet, 1994. 181-bet.
5. Kant I. Kritika chistogo razuma. – M., Eksmo, 2008.- S.19.
6. Qarang: Bolshoy ensiklopedicheskiy slovar: V 2t.-M., 1991. T. 2. S. 11
7. Lukyanov A.V. Istoriko-kriticheskoe vvedenie v filosofiyu estestvoznaniya: Monografiya. – Ekaterinburg: Izd-e Uralsk. Gos. Un-ta, 2003.- S.199.

UDK 81.1761

INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING INNOVATSION FAOLIYATIDA FRAZEOLOGIK FE'LLARNI O'RGANISH

Azizova G. G.

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti
E-mail: noza1484@inbox.uz

Annotasiya. Maqolada ingliz tili o'qituvchilarining innovatsion faoliyatida frazeologik fe'llarni o'rganish masalalari, innovatsion faoliyatni tashkil etish tamoyillari, uning tashkiliy va texnologik asoslarini modernizatsiyalash, kelajakda rivojlanish tendensiyalarini ishlab chiqish, bunda innovatsion faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanishi hamda uning natijasi jamiyat manfaatlarini bilan bog'liqligi, yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo'llashi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishga mo'ljallanganligi to'g'risida fikr bayon etilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, faoliyat, ingliz tili o'qituvchisi, frazeologik fe'llar, texnologiya, rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, baholash, barkamol shaxs, kafolatlangan natija.

Изучение фразеологических глаголов в инновационной деятельности преподавателей английского языка

Аннотация: Статья освещает вопросы организации инновационной деятельности учителей английского языка. Также в статье раскрывается сущность планомерной работы по формированию и развитию профессиональных качеств, планирования, организации, мониторинга и оценки деятельности учителей.

Ключевые слова: инновация, деятельность, учитель английского языка, технология, планирование, организация, мониторинг, оценивание, гармонически развитая личность, конечный результат.

Study of phrasal verbs in innovative activity of English teachers

Abstract. the Article covers issues of organization innovation of future English teachers. In article the essence progressive work on the formation and development of professional skills, planning, organization, monitoring and evaluation of future teachers.

Keywords: innovation, English teachers, phrasal verb, technology, planning, organization, monitoring, evaluation, harmoniously developed personality, the end result

Bizning mustaqil diyorimizda chet tillarini o'rganishga barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ayniqsa, ingliz tilini o'rganish borasida mamlaktimizda bir qator hukumatimiz tomonidan me'yoriy-xuquqiy hujjatlar qabul qilindiki, bularning barchasi yoshlarga til o'rganishga katta imkoniyat yaratib

berdi. Mustaqilligimiz inoyatlaridan biri – til o‘rganishga oid chora-tadbirlar yoshlarning iqtidorini yanada yorqinroq namoyish qilishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim sohasida pedagogik amaliyotning turli tomonlarini qamrab olayotgan kuchli innovatsion impuls harakati davom etmoqda: ta‘lim sifatini oshirish, natijalarini oldindan belgilash, innovatsion, axborot va kommunikasion texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga tatbiq etish, interfaol o‘qitish, ta‘lim menejmentiga qaratilgan yondashuvlar vujudga kelmoqda. Bugungi kunda ta‘lim ishtirokchilarining har biri chet tillarni mukammal egallashlari lozim, chunki til bilgan inson barcha joyda e‘zozlanadi, turli adabiyotlarni turli tilda o‘qish va o‘rganishga imkoniyati kengayadi, shu asnoda uning dunyoqarashi rivojlanadi, katta hajmdagi axborot egallashga sharoit yaratiladi. Sir emaski, bugungi kunda texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq holda o‘rganilayotgan adabiyotlarning aksariyati ingliz tilida chop etilgan, bundan tashqari ingliz tili dunyoda keng o‘rganilayotgan, insonlar o‘rtasidagi aloqa vositasi bo‘lib xizmat qilayotgan tillar sirasiga kiradi. Shu o‘rinda ingliz tilini o‘rganishda frazeologik fe‘llarning o‘rni beqiyosdir.

2012 - yil 10 - dekabrda “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-17-85 Qarorining amalga jadal kiritilishi natijasida ingliz tilini o‘rganish, bunda frazeologik fe‘llarning mohiyatini aniqlash uchun yangi davlat ta‘lim standartiga asosan yaratilgan darsliklardagi mavzularni AKTdan foydalanib o‘qitish masalalari katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ingliz tilini o‘rganishda innovatsiya, pedagogik texnologiya, interaktiv metodlar, kommunikasiya kabi so‘z va so‘z birikmalari ta‘limning deyarli barcha yo‘nalishlariga to‘la kirib borganligi e‘tibordir. Bulardan ko‘zlangan maqsad zamon bilan hamqadamlik va yangiliklarni, ilmiy-nazariy ma‘lumotlarni ta‘sirchan, tez va oson yetkazish muammolarini hal etishdir. Ta‘lim-tarbiya ta‘sirchanligi taraqqiyotning talabigina bo‘lib qolmay, balki ingliz tilini mukammal o‘rganish, bilim olish, intellektual salohiyatni oshirish, o‘zlashtirish darajasining yuksalishi bilan ham belgilanadi. Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim shartidir.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mamlakatimizda malakali kadrlar tayyorlashning yangi, bugungi kun talablariga to‘la javob beradigan samarali milliy modelini yaratishda muhim omil bo‘ldi. Ushbu tizim ta‘lim sohasini tubdan isloh qilish, ta‘limni yagona o‘quv-ilmiy ishlab chiqarish majmuasi sifatida kompleks rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

J. Bo‘ronov, V. Asatova, K. Zaynitdinova, Sh. Gorina va bir qator boshqa olimlar ingliz tilini o‘rganish muammolarini tadqiq qilishgan. Biroq, ingliz tili o‘qituvchisining innovatsion faoliyatida frazeologik fe‘llarni o‘rganish alohida tadqiqot doirasida o‘rganish masalalari o‘z yechimini kutayotgan muammolar sirasiga kiradi. Bugungi rivojlanayotgan demokratik davlatimizda xorij tillarini o‘rganish va shu asosda jahon hamjamiyati bilan chambarchas aloqani o‘rnatishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Ingliz tili darslarida tahsil oluvchi faolligi didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri sifatida qaraladi. O‘quvchining faolligi, maqsadli yo‘naltirilgan boshqaruvchi pedagogik ta‘sirlar va pedagogik muhitning tashkil etilishi natijasidir. Ingliz tili darslarida o‘quvchilarning faolligini ta‘minlovchi, o‘qitish texnologiyalaridan biri - pedagogik ishbilarmonlik o‘yini hisoblanadi. O‘yin faoliyatiga qiziqish, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini ifoda etish, ro‘yobga chiqarish kabi ehtiyojlarini qondiruvchi, musobaqalashish elementlari orqali ta‘minlanadi.

Ingliz tilidagi **frazeologik fe‘llar** mavjud bo‘lib, ular hech qaysi qoidalarga rioya etmaydi. O‘quvchilar ularni faqat yod olish orqali o‘zlashtirish mumkin. Frazeologik fe‘llar semantik til vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bunda fe‘l+ predlog (Verb+Preposition) va fe‘l+ ravish (Verb+ Adverb) ,fe‘l+ predlog+ravish (Verb+ Preposition +Adverb) sifatida o‘rganiladi. Shu sababli o‘quvchilarni ingliz tilida ravon so‘zlashlari uchun imkoniyat yaratish, ularning til boyligini oshirishda ingliz tilidagi frazeologik fe‘llarning o‘rni beqiyosdir.

Frazeologik fe‘llar o‘zini tashkil etuvchi oddiy fe‘ldan farqlanadi. Rasmiy tilga nisbatan frazeologik fe‘llar ingliz tilida og‘zaki nutqda keng ishlatiladi. Frazeologik fe‘llarni nutqda ishlatilishi ingliz tilini mukammal bilishda qo‘l keladi va ularni o‘quvchilarga o‘rgatishning o‘rni muhimdir. Ular orqali o‘quvchilar nutqi jozibali va sof ingliz tilida gapirish imkonini beradi.

Ba‘zi hollarda frazeologik fe‘llar o‘zbek tilidagi fe‘llarga yaqin turadi. Masalan, walk (yurish), walk in (kirish) dry(qurish) – dry up (qurib qolmoq) cut (qirqish) – cut off (qirqib olish) give (bermoq) – give away (tarqatmoq).

Frazeologik fe'llar **o'timli va o'timsiz fe'llarga** bo'linadi. Bunda ular oddiy fe'llar sifatida to'ldiruvchini talab etadi.

Ko'p hollarda fe'llar predlog bilan qo'llanilganda yangi ma'no kasb etadi. Take(olmoq) – take off (uchmoq) turn(aylantirmoq) – turn down (inkor etmoq) catch(tutmoq) – catch up (qo'lga kiritmoq).

O'timsiz fe'llar (Intransitive)

Break down – sinish, tanazzulga uchrash

You will break down if you work too hard – Agar sen ko'p ishlasang, sog'ligingni yuqotasan

O'timli fe'llar (Transitive)

Shut down – o'chirish, to'xtatish

Fred shut down his business – Fred o'z biznesini to'xtatdi

Turn down – inkor etmoq

They turned down my plan – Ular mening rejamni inkor etishdi

Yoki

Turn down – kamaytirmoq, kichraytirmoq, pasaytirmoq

I asked her to turn down the volume on the radio – Men undan radio tovushini pasaytirishni so'radim.

Yosh avlodga ta'lim berayotgan ingliz tili o'qituvchilari bugungi kunda o'zlari zamonaviy ta'lim – tarbiya sirlaridan voqif bo'lishlari, innovatsion texnologiyalarni egallagan, axborot-kommunikatsiya vositalaridan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari talab etiladi. Shu jihatdan olganda, quyidagi holatlar innovatsion texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish, ingliz tili o'qituvchisi faoliyatining mazmuni va maqsadini yangicha qurishga talab kuchayganligini bildiradi:

-birinchidan, mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan buyuk ma'naviyatimizni tiklash, chet tillarni o'rganish barcha fuqarolarga, eng avvalo, yoshlarga singdirish davlatimiz siyosatida ustuvor yo'nalish qilib belgilanishi, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalaridagi singari uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarni zamon talablari va jahon andozalari asosida tayyorlash, ularning malakasini oshirish, ular tarbiyalayotgan yoshlarda yuksak ma'naviy madaniyat, axloq va ma'rifat fazilatlarini shakllantirish va singdirish muammolarining yechimini davr taqozo etishi;

-ikkinchidan, Davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri- ma'naviy jihatdan barkamol, jismoniy va ruhiy jihatdan sog'lom, chet tillarni mukammal egallagan fidoyi insonni tarbiyalashga ijtimoiy zarurat tug'ilishi;

-uchinchidan, milliy ma'naviyatimizni tiklash borasida olib borilgan, davom etayotgan ishlar, xalq ta'limining tubdan isloh qilinayotgani jamiyatimizda har tomonlama barkamol, sog'lom avlod tarbiyasiga keng e'tibor qaratilishi tendensiyasining kuchayishi;

-to'rtinchidan, universal texnologiyalar bilan bog'liq globallashuv jarayonida uzluksiz ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar asosida talqin qilinishiga ijtimoiy zarurat tug'ilishi.

Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish – pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarning paydo bo'lishi natijasida o'qituvchining pedagogik faoliyatida ham yangi yo'nalish - **“o'qituvchining innovatsion faoliyati”** tushunchasi paydo bo'ldi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati – uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishdan iborat, muayyan vaqt davomida shakllanib, takomillashib boradigan jarayon. Ingliz tili o'qituvchisining innovatsion faoliyati quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- ijodiy faoliyat falsafasini ingliz tili darslarida zamonaviy konsepsiyalar bilan uyg'unlashtirish;

- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o'zidan boshqa tadqiqotchi - pedagoglar tajribalarini qo'llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni ingliz tili darslariga tatbiq etish, ularni o'z sharoitiga moslashtira olish.

Rossiyalik olimlar - I.Shumpater, N.Kondratyev, V. A. Slasteninlar «innovatsiya» tushunchasining mohiyatini, kelib chiqish sabablarini o'rgangan bo'lsalar, o'zbek olimlari - J.G'. Yo'ldoshev, M. Ochilov, N. Azizxodjayevlar o'z tadqiqotlarida innovatsion faoliyat pedagogik faoliyatning alohida shakli ekanligini isbotladilar. "Innovatsion faoliyat-pedagogning o'z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi",-deb yozadi J. Yo'ldoshev.

Innovatsion faoliyat tushunchasi innovatsiya, innovatsion jarayon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli bu tushunchalar mazmunini izohlamasdan turib, innovatsion faoliyat mazmunini anglash mumkin emas.

Innovatsiya – ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir. Demak, innovatsion texnologiyalarning asosiy negizi – bu o'qituvchi va tahsil oluvchilarning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun oldindan ta'lim jarayonini loyihalashtirishdir.

Ingliz tili o'qituvchisi innovatsion faoliyati mobaynida o'quvchilarga frazeologik fe'llarni o'rgatar ekan, pedagogik o'yinlardan foydalanish samarali natijalarni beradi. Bunda o'qitishning aniq qo'yilgan maqsadi va unga tegishli pedagogik natija muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tili darslarida pedagogik o'yinlar o'yin uslubiga ko'ra quyidagicha tavsiflanadi: syujetli, ishbilarmonlik, imitatsion, dramalashtirilgan o'yinlar Chunki ular, odatda ma'lum o'quv fani doirasida ishlab chiqiladi: rollar va syujetlar mavjud bo'ladi, turli vaziyatlar imitatsiya qilinadi.

O'quv jarayonida ishbilarmonlar o'yinlarni turli xil shakllari ishlatiladi: imitatsion, operatsion, rolli o'yinlar, ishchi teatr, psixo va sotsiodramalar.

Ishbilarmonlik o'yini (IO') o'zida mutaxassisning kelajakdagi kasbiy faoliyatining predmeti va ijtimoiy mazmunini tiklash shaklini mujassamlashtiradi, faoliyat yaxlitligini belgilovchi shunday munosabatlar tizimini modellashtiradi.

Belgili vositalar (til, nutq, grafiklar, jadvallar, hujjatlar) yordamida, ishbilarmonlik o'yinida asosiy muhim belgilariga ko'ra haqiqiy vaziyatga o'xshash kasbiy vaziyat vujudga keltiriladi. Shu bilan birga ishbilarmonlik o'yinida, qisqa vaqt ichida faqat turdosh umumiy vaziyatlar qayta tiklanadi.

Ingliz tilidagi ishbilarmonlik o'yinida tahsil oluvchi o'zida o'quv va kasbiy elementlarni uyg'unlashtirgan o'xshash kasbiy faoliyat bajaradi. Bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirilishi abstrakt darajada emas, balki kasbiy mehnat kontekstida (ma'nosida) amalga oshadi. Kontekstli o'qitishda bilimlar kelajak uchun bekorga emas, balki o'quvchining real o'yin jarayonidagi harakatini ta'minlaydi. Bir vaqtning o'zida, o'quvchi kasbiy bilimlar bir bir qatorda maxsus xislatga ega odamlar bilan muloqotda bo'lish va boshqarish, jamoaviy qarorlar qabul qilish malakalari, rahbarlik qilish va bo'ysunish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Ya'ni, ishbilarmonlik o'yini shaxsiy sifatlarni tarbiyalaydi, ijtimoiylashuv jarayonini jadallashtiradi.

Qo'shma faoliyat qoidalari va me'yorlari, o'xshatish tili va aloqalar oldindan qabul qilinadi yoki o'yin jarayonida ishlab chiqiladi. Ishbilarmonlik o'yini munozarali muloqot maromida o'tkaziladi, u qo'shrejali faoliyat hisoblanadi, chunki unda ikkita maqsadga erishiladi: o'yinli va pedagogik. Pedagogik faoliyat ustuvor bo'lsa ham, o'yinni poymol etmasligi kerak.

Ingliz tili darslarida o'yin jarayonida quyidagilar o'zlashtiriladi:

- til normalariga rioya qilish;
- gapirish, yozish, eshitish ko'nikmalarini shakllantirish;
- ijtimoiy harakatlar me'yorlari – ishlab chiqarish jamoasidagi munosabatlar.

Bunda o'yinning har bir ishtirokchisi frazeologik fe'llardan foydalangan holda sheriklari bilan o'zaro munosabatga kirishadi.

Taqilidiy o'yinlar – turli vaziyatlarni ingliz tilida taqlid qilinadi. Immitasiono'yinlarssenariyasi, hodisasyujetidantashqari, taqlid qilinadiganjarayonvaobyektlartarkibivaahamiyatihaqidagi tafsilotlarnio'z ichiga oladi.

Amaliyo'yinlar – tegishli ish jarayoni, ularni bajarish shart-sharoitini modellashtiradilar. Ular ma'lum bir o'ziga xos amallarni: - masalalar yechish, ma'lum bir usulni o'zlashtirishga yordam beradi.

Rolli o'yinlar – ingliz tilida ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatlari, xatti – harakati ishlanadi, roller majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi.

Ingliz tili darslarida o'yinni tayyorlash bosqichi ikki qismdan iborat: o'yinni ishlab chiqish, o'yinga kirishish. O'yinni ishlab chiqish - o'yin ssenariysini ishlab chiqish, yo'riqnomalar tuzish va moddiy ta'minotni ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Ingliz tili darslarida ishbilarmonlik o'yini: o'quv maqsadi; o'yin vazifasi, o'rganiladigan muammo tafsiloti; vaziyatning tafsiloti va ishtirok etuvchilarning tavsifidan iborat. Ingliz tilida o'yinga kirishish quyidagilarni anglatadi:

- guruhni ingliz tilida muloqotga tayyorlash;
- mashg'ulotlarning bosh maqsadini ifodalash;
- ingliz tilida muammo va vaziyatni vujudga keltirish;
- rollarni taqsimlash,
- o'yin reglamentini o'rnatish va boshqalar.

Ingliz tili darslarida o'yin jarayonida boshlovchi zaruriyat tug'ilganida, o'yin ishtirokchilari harakatlariga tuzatishlar kiritishi mumkin.

Shunday qilib, ingliz tili o'qituvchisi innovatsion faoliyatini tashkil qilar ekan, darslarda turli o'yinlardan foydalanish natijasida o'quvchilarda til o'rganishga ishtiyoq oshiradi, frazeologik fe'llar yordamida o'quvchilarda ijobiy fazilatlar shakllanadi, zukkoligini oshirishga imkoniyat yaratiladi va eng asosiysi, o'quvchilar o'zga til orqali o'zga mamlakat madaniyati bilan tanishadilar. O'qituvchining samarali pedagogik yo'naltirishi asosida esa o'quvchi o'zi uchun ijobiy fazilatlarini egallab, aqliy-intellektual jihatdan rivojlanishi va tillarni chuqur bilishiga zamin yaratiladi. O'quv jarayonida fikrlar almashinuvi, ishtirokchilarning o'z qarorlari va xulosalarini himoya qilishlari yuksaladi.

Bugun ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash ma'qullanmoqda:

- faoliyat yo'nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi).
- kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan).
- o'zgarishlar ko'lamiga ko'ra (lokal, modulli, tizimli).
- kelib chiqish manbaiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Innovatsiyaning maqsadi – sarflangan mablag' yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman o'z-o'zidan paydo bo'ladigan yangiliklardan farqli o'laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mexanizmini tashkil etadi.

Demak, ingliz tili o'qituvchisining innovatsion faoliyati uning kasbiy, metodik mahoratini sifatli qayta qurish demakdir.

Ingliz tili o'qituvchilarining innovatsion faoliyatga tayyorgarligi uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Yangilikni pedagogik faoliyatda qo'llashdan oldingi davrdagi o'qituvchi faoliyatini tahlil qilish.

2. Innovatsion faoliyatning faol shakllanish davrini tahlil qilish.

3. Pedagogik jarayonga yangilik kiritilib bo'lgandan keyingi davrdagi faoliyatni tahlil qilish.

Ma'lumki, shaxsning xislat va fazilatlarini faoliyat ko'rsatish jarayonida shakllanadi va faoliyatning natijasi hisoblanadi. Shu sababli o'qituvchilarda yangilikka intiluvchanlik va mustaqil mutolaa qilishga doimo zaruriyat sezish psixologiyasini singdirish lozim. Chunki yangilik – insonga ulug'vorlikdan ko'ra ko'proq zavq bag'ishlaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi"da "Ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirish ta'minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi", – deb ta'kidlab o'tilgan. Raqobatga asoslangan mehnat muhitini vujudga keltirishning asosiy omillaridan biri - o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish va bu faoliyatga tayyorlash orqali ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiiq etish, o'quvchi-talabalarga bilim berishni kafolatlash hamda ta'lim samaradorligiga erishishdan iborat.

Ingliz tili o'qituvchisining innovatsion faoliyatida frazeologik fe'llarni o'rganish ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, muomala madaniyatida namoyon bo'ladi. Innovatsion faoliyatning darajalari: **reproduktiv, evristik, kreativ** bo'lishi kuzatiladi.

Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, tom ma'noda ta'lim jarayoniga singib boradi. Shu sababli ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonga kiritish bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

- mavjud pedagogik muammoni tahlil qilish;
- mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash;
- pedagogik jarayondagi o'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish, ularni tashkil qilish va nazoratini olib borish.

Innovatsion faoliyat – bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratishdir. Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo'lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi-loyihaga, loyihani-texnologiyaga aylantirishga yo'naltirilgan faoliyatdir.

Bugungi kunda o'qituvchining innovatsion faoliyatini tashkil qilishga turli xil yondashuvlar mavjud. Masalan, N. Azizxodjayeving fikricha, faoliyatni yangilash bir necha bosqichda, ya'ni **tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish** bosqichlarida amalga oshiriladi.

Ingliz tilini o'rganish jarayonida frazeologik fe'llarni kompyuterlashtirilgan texnologiyalar asosida talqin qilish – bu kompyuterdan foydalanishga asoslangan o'qitishdir. O'qitishning kompyuter texnologiyasi yangi axborot texnologiyalarning bir turidir. Axborot texnologiyalarda bundan tashqari boshqa axborot vositalari (televideoniye, video vaboshqalar) ishlatilishi mumkin. O'quvchilarga kompyuter texnologiyalari asosida dars o'tish ularni dasturlashtirilgan o'qitish g'oyalari rivojlantiradi, zamonaviy kompyuterlar va telekommunikasiyalarning yirik imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lgan o'qitishning mutlaqo yangi hali tadqiq qilinmagan texnologik variantlarini ochib beradi. Telekommunikasion tizimlar, shu jumladan kompyuterlar hozirgi zamon ilmiy-texnik taraqqiyotning mahsuli hisoblanadi. Ilmiy-texnik taraqqiyot ilmiy-texnik axborotning shiddatli o'sishi bilan belgilanadi. Tahsiloluvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olib, imkoni boricha eng ko'p xajmda axborotni o'zlashtirish, faqat kompyuterlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Bu o'qitishning kompyuter texnologiyasi asosida o'quv jarayonini jadallashtirish va samaradorligini maksimal darajada oshirishga erishish mumkin.

Ingliz tilini o'rganish jarayonida frazeologik fe'llarni kompyuterlashtirilgan texnologiyalar asosida talqin o'quvchilarning individual qobiliyatlarini inobatga olib, o'qitish jarayonini maqbul darajada tezkor boshqarish imkoniyatini ruyobga chiqarishga zamin hozirlaydi. Buo'qitish turining universal muloqoti ko'rinishida ekanligi, psixologik qulayliklari, axborot hajmida o'zlashtirilishi cheklanmaganligi bilan ajralib turadi.

Ijodkor o'qituvchi kreativ, keng qamrovli qiziqish egasi bo'lishi zarur. Bunda ingliz tili o'qituvchisining innovatsion faoliyati uning shaxsiy kompetentligida ham o'z ifodasini topadi.

Ingliz tilidagi frazeologik fe'llar orqali nutqni o'stirishda nazariy ma'lumot bilan amaliy mashg'ulotlarni uyg'unlikda olib borish maqsadga muvofiq. Xitoy faylasufi Konfusiyning ushbu mulohazalari beixtiyor yodga keladi. "Eshitsam unutam, ko'rsam yodda saqlayman, bajarsam tushunaman." Amalda bajarish orqali inson uquvli va professional bo'lib boradi. Chunki, ma'lumotni o'zlashtirish va uni amalda qo'llash har kimda har xil tarzda kechadi. Ingliz tilidagi frazeologik fe'llar orqali har bir o'quvchi o'z nutqi ustida ishlashi, uni nazorat qilishi uchun o'zini kuzatishi, so'zini tinglashi zarur. Bu esa so'zi, o'zi va yuzidagi ifodalarni ko'rishi, xatti-harakat va holatlarning ularga muvofiqligini anglabgina qolmay, balki uni nazorat qilishi ham muhimligini bildiradi. Bunda audio va video vositalaridan foydalangan holda ish tutish maqsadga muvofiqdir. Muayyan matnni ifodali o'qish va uni qayta ijodiy hikoyalash mahoratini kuzatish, baholash orqali nutq texnikasi tekshiriladi. Ingliz tili normalariga amal qilgan holda talaffuz qoidalariga amal qilinishi nazorat qilinadi. Har bir o'quvchi o'zi ko'rgan, eshitgan va bilgan narsasini aytib berish jarayonida bir qator qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy. Bu usulda uning nutqidan tashqari fikrlash qobiliyati va mantiqiy mushohada yurita olish iste'dodi ham nazardan o'tkaziladi. Nutq va fikr pechak guldek bir-biriga chirmashib keladi. Bu esa o'ylov va so'ylovning uyg'unligini anglatadi.

Ingliz tilidagi frazeologik fe'llar orqali nutqni o'stirishda audiovizual vositalar o'rnatilgan bo'lishi zarur. Nutqning aniqligiga, talaffuzning tiniqligiga erishish, yutuq va kamchiliklarni anglash, ularni tuzatish uchun tinimsiz mashqiy jarayonni amalga oshirish kerak. Dastavval, har bitta o'quvchiga berilgan matnni qanday o'qishi tekshiriladi. O'quvchilarda har bir ingliz tilidagi matnga, hattoki, so'zga munosabatni, unga tanqidiy va tahliliy qarashni shakllantirish yo'llarini izlash kerak.

Buning uchun axborot texnologiyalaridan, internetdan foydalana olish ko'nikmasini hosil qilishga erishish lozim. Mavzuga daxldor ma'lumotlarni olish va ularni "Power point" dasturiga, ayni paytda matn, tasvir, musiqa bilan birgalikda audio hamda videolavhalarni joylashtirish, kerakli o'rinda qo'llashni bilish ham ahamiyatlidir.

Ingliz tilida ravon gapirish uchun frazeologik fe'llarni qo'llash quyidagi qulaylik va imkoniyatlarni beradi.

- Ko'rish va eshitish organlari orqali ma'lumot mohiyatini bilish, anglash va idrok etish;
- Matnning ta'sirchanligi va mazmuni jihatdan amaradorligiga erishish;
- Keng va katta hajmli informatsiyani qisqa va ixcham shaklda akslantirish;
- Ma'lumotni turli chizmalar, matn, tasvir, ovoz va videolavhalar orqali tomoshabin ko'z o'ngida jonlantirish;
- O'qituvchi, o'quvchi o'z-o'zini kuzatishi, to'g'rilashi, nazorat qilishi uchun imkoniyatlarning mavjudligi;

O'qitishdagi innovatsiyalar ta'limning tizimliliigi, o'quv jarayonining istiqbolli va natijali bo'lishiga zamin hozirlaydi. Ingliz tilini o'rganishda multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi bilan o'qituvchilar hamkorligini kuchaytirish foydadan xoli emas. Tajribali o'qituvchi, uquvli trener va moderatorlarning mahoratidan foydalanish kerak. Ular ishtirokidagi audioqo'llanma va videodarslarni yozib olish va ko'paytirish zarur. Bu esa dars mashg'ulotlari jarayonida o'qituvchilarga asqatishi tabiiy. Ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi o'rtasida axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini keng istifoda etish, "FSMU", "BBB", "Venn diagrammasi", "Zinama zina", "Klaster", "Sinkveyn" kabi turli o'yin va interfaol uslublardan foydalanish, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirish yo'sinida mustaqil ijodiy faoliyatni ta'minlash har qachongidan ham muhim va dolzarb masalalardandir.

O'quvchilarga ingliz tilini o'rganish jarayonida frazeologik fe'llarni ishlatish uchun muammoli vaziyatda tilni qo'llash va shunga o'xshash topshiriqlar zamonaviy darsliklarga kiritilgan. Darsliklarda frazeologik fe'llarning mohiyatini grammatik bilim va qoidalarni yodlash, matnlarni yozma tarjima qilishga urg'u berilgan va shu bilan birga ularda kommunikativ muloqotga kirishishga alohida e'tibor qaratilgan. Yangi darsliklarning uch kitobdan va multimedia vositasidan iboratligi e'tiborga molik. Birinchisi – dars jarayonida foydalaniladigan "O'quvchi kitobi" (Pupil's book) dir. Ikkinchisi – "Ishchi kitob" (Workbook) o'quvchi o'z ustida ishlashi uchun mo'ljallangan bo'lib, uni sinf va uyda bajariladigan mashq daftari deb atasa ham bo'ladi. O'quvchining eshitish qobiliyatini yanada rivojlantirishni hisobga olgan holda, unda audio materiallar ham jamlangan. Uchinchisi – metodik tavsiya sifatida yozilgan "O'qituvchi kitobi" (Teacher's book). Shuningdek, qo'llanmaga frazeologik fe'llar ustida mustaqil ishlashga o'rgatadigan topshiriqlar jamlanmasi ilova qilingan. Bunda o'quvchiga mustaqil ishlashi uchun qo'shimcha topshiriqlar, kichik guruhlarda bir necha turdagi taqdimotlar o'tkazish kabi imkoniyatlar beriladi.

Shunday qilib, ingliz tili o'qituvchisi innovatsion faoliyatida ilg'or, sermahsul ijodiy shaxs, keng qamrovli qiziqish, ichki dunyosi boy, pedagogik yangilikka o'ch shaxs sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchining innovatsion faoliyati voqyelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usullarini yechishni aniqlashga qaratilgandir. Demak, o'qituvchi va tahsil oluvchi o'rtasidagi "subyekt-subyekt" munosabatlari yangi muloqot namunasi sifatida o'zgarishi innovatsion faoliyat shartlaridan biridir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi. – Toshkent: Sharq. NMK. 1999, 50-52 bet.
1. Abdullayeva Sh. A. Pedagogika.-Toshkent: Fan va axborot texnologiyalari, 2015.-288 bet.
2. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. Четвёртое изд. - Москва: Педагогика, 2005.- 186 с.
3. Yo'ldoshev J. Yangi pedagogik texnologiya: Yo'nalishlari, muammolari, yechimlari. J.: XalqTa'limi, 20013 yil, 4-son, 4-11 betlar.
4. Семенова З.В. Новые инновационные технологии в образовании: состояние и проблемы. Internetyangiliklariaxborotnomasi. -Toshkent, 2012 yil, №2, B.51-54 .

UDK 378.147:004

AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDA ELEKTRON MEDIATA'LIM JARAYONIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI**Eshmamatov I.A.***O'zbekiston milliy universiteti*E-mail: eismoil@mail.ru.

Annotatsiya. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari talabalarning intellektual salohiyatini oshirish bilan bir qatorda, ulardan ta'lim sohasida qanchalik samarali foydalana olsak, mediata'lim shunchalik takomillashadi, albatta. Bu esa o'z o'rnida pedagogning kasbiy kompetentligini oshiradi.

Tayanch so'zlar: multiplikatsiya, informatsion texnologiya, innovatsion, kommunikatsiya, axborot vositalari, adabiyotlar fondi, elektron kutubxona, multimedia, vosita.

Перспективы использования электронного медиаобучения в информационных технологиях

Аннотация. Эффективное использование ИКТ в образовательном процессе влияет на развитие интеллектуальных способностей студентов, а также усовершенствование медиаобразования. Это в свою очередь поднимает уровень профессиональной компетентности педагогов.

Ключевые слова: мультипликация, информационная технология, инновация, коммуникация, информационные средства, литературный фонд, электронная библиотека, мультимедиа, средства.

Perspectives of application of electronic media education in information communication technology

Abstract. Effective use of ICT in educational process influences on students' intelligences development and enhancement of media education as well. This in turn raises the level of professional competence of teachers.

Keywords: animation, distance learning, information technology, innovation, communication, informative facilities, literary fund, electronic library, multimedia, facilities.

Axborot asrida fan-texnika taraqqiyoti naqadar yuksak bosqichga chiqdi. Shunga monand barcha sohalar jadal rivojlanmoqda. Bugun biror soha faoliyatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Jumladan, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda ham u muhim omillardan biriga aylanmoqda. Elektron aloqa vositalari, internet, aynan ommaviy axborot vositalarining misli ko'rilmagan sur'atlar bilan rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Gazetalar, jurnallar, radio, televidenie, axborot agentliklari, internet son jihatdan beqiyos o'sdi, sifat jihatdan sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Kompyuter, faks, uyali telefon, parabolik antenna, elektron pochta kabi texnik mo'jizalar ommaviy axborot vositalari rivojiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda zamon talabiga mos yuksak intellektual salohiyatli, zamonaviy bilim va malakaga ega, ma'naviy imuniteti kuchli, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli mutaxassislar tayyorlash uchun beqiyos imkoniyatlar yaratilmoqda.

Ta'lim jarayonida masofali, ya'ni internet, televidenie, radio, kino, video, telefon va boshqa aloqa vositalari o'z samarasini ko'rsatmoqda. Mutaxassislar fikricha, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari talabalarni diqqatini jamlashga, qiziqtirishga, mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini yanada rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Ta'lim jarayonida elektron darsliklar qanchalik mukammal bo'lsa, u yosh avlodning dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanishiga xizmat qiladi. Demak, bugun elektron multimedia sirlarini nazariy jihatdan puxta o'rganib, amaliyotda yetarli darajada qo'llash maqsadga muvofiqdir. Axborot kommunikatsiyaning globallashuvi sharoitida ta'lim jarayonida o'ziga xos talablar paydo bo'lmoqda. Bu talablar bevosita elektron ta'lim bilan chambarchas bog'liqdir.

Elektron ta'lim barcha ta'lim sohasini sifat jihatdan yanada yuqoriroq pag'ona ko'tarishga, axborot madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. YA'ni, o'quvchiga o'quv jarayonida nazariy bilim berish bilan materiallarni yuqori darajadagi zamonaviy texnika vositasida namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu yangilik va ta'bir joiz bo'lsa, ilg'or usul talabalarda qiziqish uyg'otadi. Ular dars jarayonida o'sha mavzularni puxta o'zlashtirishlariga xizmat qiladi.

Dars jarayonida a'yon bo'lishicha, elektron ta'lim o'qitishning mazmuni, usullari va tashkiliy shakllarini sifat jihatdan o'zgartirmoqda. Bu talabalarning individual qobiliyatlarini, ularning shaxs xususiyatlarini rivojlantirishga, ilmiy dunyoqarashini va tafakkurini boyitishga, bilimlarini oshirishga yordam bermoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalari talabalarni qiziqtirishga, faolligini oshirish va hayratlantirishga imkoniyati cheksizdir. Ta'limning barcha bosqichlariga oid jumladan oliy ta'lim muassaslarida talabalarni mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, fanga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish va faolligini oshirishdan iborat. Elektron ta'lim resurslari yordamida ular u yoki bu materialni tezroq o'zlashtiradilar, o'quv jarayoniga faol ishtirokchilar sifatida jalb qilinadilar.

Buning uchun talabalarga ta'lim-tarbiya berayotgan professor-o'qituvchilar uning asl mohiyatini teran anglab olishlari maqsadga muvofiqdir.

Bu borada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari hisoblanmish – elektron multimediali ta'lim jarayonida foydalanishning istiqbolli yo'nalishlaridan keng foydalanish yo'lga qo'yilmoqda:

Multimedia - (ko'p axborotli) elementlari, ya'ni ma'lumot ikki-uch o'lchamli grafik ko'rinishda, ovozi, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklda ifodalangan darslik, (elektron darslikning III toifasi) hisoblanadi. Multimedia, animatsiya va videoroliklar, virtual laboratoriya ishlari va fizik jarayonlarni modellashtirish imkoniyati – elektron darsliklarning xarakterli xususiyatlaridan eng muhimlari bo'lib, ularda harakatning mavjudligidir. Harakat (animatsiya) esa multimedia, multiplikatsiya usullaridan foydalanib amalga oshiriladi. Ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan jarayonlarni, masalan, fizikadan ichki yonuv dvigateli tsilindridagi porshening harakati, elektr sxemalarini yig'ish jarayoni, kimyoviy moddani boshqa moddalar bilan reaksiyaga kirishish jarayonida molekularning dinamikasini kuzatish, informatikada blok sxemalari yordamida yaratilayotgan dastur orqali har bir buyruqni animatsiya ko'rinishda tasvirlash imkoniyati, astronomiyadan kunning tunga aylanishi yoki chizmachilikdan proektsiyalash usullari, kesim va qirqimlar, tasvirlarni almashtirishga oid mavzularni ko'rish imkoniyatlari elektron darslikning kuchli pedagogik vositasi sifatida foydalanish imkoniyatini beradi.

Multiplikatsiya – bu harakatni sekin-asta ayrim-ayrim qismlarga ajratib, kerak bo'lsa kadrlarni to'xtatib hodisa va jarayonlar namoyish qilinadigan uslub bo'lib, uning afzallik tomoni shundaki, biror jarayonning mohiyatini so'z bilan ifoda etib bo'lmaydigan hollarda, ya'ni abstrakt tushunchalarni o'quvchilar tomonidan osonroq tushunib olishlari bilan izohlanadi.

O'quv axborotlarni izlab topish erkinligi bilan (matnni o'qish, uning ustida ishlash, axborotlarning boshqa manbalariga chiqishi va h.k.) elektron darslik an'anaviy darsliklardan farq qiladi. Shu boisdan elektron darslikning yuqorida ko'rsatib o'tilgan xususiyatlariga qarab unga ta'limning interfaol vositasi sifatida qaraladi.

Elektron multimedia an'anaviy darslikka qaraganda o'quv materiallarini namoyish qilish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Elektron multimediali ta'lim tinglovchilarning ko'proq mustaqil ishlashlari uchun mo'ljallangan didaktik funksiyalarni bajarish bilan bir qatorda, o'quv jarayoniga qo'yilgan barcha talablarga javob beradi.

Elektron ta'limning bosh maqsadi – asosiy qonunlarni tushunishga yordam beradi, oddiy yo'nalishlardagi media axborot tilini o'rganish, o'quvchining badiiy o'sishi, rivojlanishiga hissa qo'shish, gegasmatnlarni qabul qilish, o'rganish va malakali tahlil etish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat. Axborot sohasidagi globallashtirish yangicha dunyoqarash shakllanishiga zamin yaratmoqda. Zamonaviy bilimlar takomillashgan sari axborotlardan to'g'ri va samarali foydalanish muammosi paydo bo'lmoqda. Hozirgi kunda axborotlarning mazmunini ham, ularni ommaviy axborot tarmoqlari orqali tarqatish usullari va yo'llarini ham nazorat qilishning deyarli imkoni qolmayapti. Demak, bu masalada qandaydir chalkashliklarga, xatoliklarga yo'l qo'yimaslik uchun mukammal tizim zarur bo'ladi. Bu tizim – o'sha axborot tarqatuvchi hamda uning iste'molchisi qay darajada bilimli, saviyasi yuksak va ularning bir-birlarini to'g'ri anglashi bilan bog'liq bo'ladi. endilikda ayrim mutaxassislar o'quvchi ongida axborotni to'g'ri shakllantirish, ta'bir joiz bo'lsa, uni tizimli ravishda tartibga solish yo'llari izlamoqdalar. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar ta'lim amaliyotida bu sohada izlanishlar o'tgan asrning 70-yillarida boshlangan. Bu pedagogika fanida o'ziga xos yo'nalish – media ta'lim paydo bo'lishiga zamin yaratgan.


Pedagog olimlar, mediata'lim – talabalarga beriladigan dars, bilim, ma'lumotning tez, tushunarli va yodda qolarli bo'lishini ta'mirlovchi ta'lim usuli ekanini e'tirof etganlar. Talaba

o'qituvchining og'zaki ma'ruzasidan ko'ra, ko'rgazmali vositalardan foydalanib tushuntirishidan ko'proq ta'sirlanar ekan. Ana shunda ular etkazilayotgan mavzuni ko'proq yodida saqlab qoladi. Talabalarda bunday darslarga nisbatan qiziqish yuqori darajada bo'ladi. Demak, deyarli barcha fanlarni o'qitishda bunday ilg'or usuldan foydalanish foydadan holi bo'lmaydi.

Media-ta'lim (ing. media education) — pedagogikadagi yo'nalish, ommaviy axborot vositalari (matbuot, televidenie, radio, kino, video va h.k.) qonuniyatni o'rganadi.

Media-ta'lim o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida yangicha usullardan foydalanishni talab etadi. Innovatsion pedagogika – yangi pedagogik texnologiya hisoblanadi, u ommaviy axborot vositalari yordamida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, tarbiyalashga imkon beradi. Innovatsion pedagogika resurslariga internetdagi ma'lumotlar, televideniya, radio lavhalari, kino, video, audio materiallari kiradi.

Davrimiz taraqqiyotiga hamohang ravishda ilm xazinasini yanada boyib, yoshlarning intellektual salohiyati ortib bormoqda. Axborotlashtirish jarayonida chinakam axborot jamiyati vujudga kelganini izohlashga hojat qolmagan. Shunga yarasha texnologiyalar soni o'sib bormoqda. Bunda tasvir, ovoz va matn tom ma'noda uyg'unlashib, audiovizual madaniyati o'ziga xos ravishda takomillashib bormoqda. Endi undan ta'lim sohasida ham keng foydalanish davr taqozosiga aylandi. Ko'pchilik talabalar gohida noan'anaviy usulda o'tiladigan darslarni qiziqish bilan tinglaydilar. Axborot texnologiyalari yordamida o'tiladigan darslar jarayonida ana shunday usullardan foydalanishga imkon yaratiladi. Bu ta'lim tizimini ham yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. YA'ni, globallashtirish davri hamda unga monand axborotlashgan jamiyatda yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash, hayotga tayyorlash, turli axborotlarni qabul qilish, yaxshi va yomonni, oq bilan qorani farqlay olishga o'rganishdir. Mutaxassislar fikricha, ta'lim axborotlashtirishi davlat ta'lim dasturini hayotga tatbiq etishning asosiy vositasi deb e'tirof etish mumkin. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarni boshqarishda ta'lim vositasi misolida axbrotni o'zaro ta'sirni qaraylik:



Ta'limning informatsion va kommunikatsion texnologiyalar bazasidagi vosita, talaba va o'qituvchi o'rtasida informatsion o'zaro ta'sir.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, ta'lim jarayonidagi informatsion o'zaro ta'sir strukturasi o'zgarib bormoqda. Talaba va o'qituvchi uchun o'zaro "Suhbatdosh" paydo bo'lyapti. Talaba va o'qituvchi roli o'zgarib bormoqda, biz bu rollarni qanday o'zgarishini ko'rib chiqamiz.

O'qituvchi. O'quv mashg'ulotining yagona manbai hisoblangan o'qituvchining roli o'zgaradi va u yangi qiyofa oladi bunda pedagog o'quv ma'lumotlarni uzatish uchun, o'quv materiallarni qaytadan aytib berish uchun ortiqcha vaqt sarf qilmaydi. Buning o'rniga ijodiy va boshqaruv masalalarni hal etishga vaqt topadi. Ammo doimiy izlanishda bo'ladi. O'ziga xos va mustaqil fikrga ega, original g'oyalar tashabbuskori. Bilim olish va ta'lim berishda axborotning zamonaviy kommunikatsiyalaridan keng foydalaniladi. Shu jumladan elektron ta'lim imkoniyatlarini qo'llaydi. Jahon ilm-fani yutuqlari haqida axborotga ega analitik tafakkurli shaxs hamdir.

Talaba. O'quv ma'lumotlarning "Istemolchisi" hisoblangan talaba roli ham o'zgaradi. Talaba qidiruvni tanlashi, uni tahlil qilishi va uzatishiga nisbatan murakkabroq qismiga o'tadi. Mustaqil qo'lga kiritilgan o'quv informatsiyasini hayotga tatbiq qilish natijasida ta'lim jarayoniga, ma'lumotni passiv iste'mol qilish darjasidan ma'lumotni faol o'zgartirish darjasiga o'tadi. Boshqacha qilib aytganda, o'quv masalalari mustaqil holda ko'rib chiqiladi, ularni hal qilish taxminlari ishlab chiqiladi, ularning to'g'riligi tekshirilib ko'riladi, xulosa va umumlashtirishlar shakllantiriladi.

Takidlash joizki yangi shariotlarda o'qituvchining vazifasi haqiqatdan o'zgarishga qaramasdan pedagog ikkinchi pl'anga o'tib qolmaydi, baribir uning roli dars olib boruchi rovida qoladi. Kompyuter bir olam funksiyalarini bajarish mumkin biroq o'qituvchi tomonidan barcha o'quv guruhini ham, aniq ta'lim oluvchini ham, ta'lim berish va tarbiyalashini boshqarish vazifasini saqlab qoladi. Ma'lumki pedagogning funktsiyasi o'rganilayotgan predmetga va konkret o'quv mashg'ulotini o'tkazish metodikasiga bog'liq.

So'nggi yillarda yangi axborot texnologiyalarining rivojlanishi va tarmoq aloqasidan foydalanishning ko'payishi bilan bilimlarni tarqatishda internet tizimi fundamental rol kasb etmoqda. Tarmoq orqali o'qitishga mo'ljallangan masofali o'qitish kurslari bugungi kunda keng tarqalmoqda, ular hozir oddiy o'quvchini o'qitishdan diplomli mutaxassisni tayyorlash darajasigacha qo'llanilmoqda. Zero, internet tizimi ta'lim jarayoniga juda katta ta'sir ko'rsata oladigan omil hisoblanmoqda. U o'rganish va tadqiqotlar olib borish uchun ulkan ma'lumotlar omboriga ega bo'lib, ta'lim oluvchi uchun turli mazmundagi ma'lumotlarni yetkazib berishi mumkin. Uning yordamida o'quvchilar bir-biri va o'qituvchilar bilan muloqot qilishlari hamda ma'lumotlardan hamkorlikda foydalanishlari mumkin. Shu o'rinda bir ijodkor sifatida aytishim joizki, axborot bazasini yaratishda eng muhimi ham, mas'uliyatli, ta'bir joiz bo'lsa, mushkul jihati ham shu: axborot yozishda savodli bo'lish!

Elektron o'quv materialini tayyorlash uchun multimediali vositalardan foydalaniladi. Multimediali vositalar deganda esa, bir vaqtning o'zida harakatlanadigan tasvir, videofilm, animatsiyali grafik obrazlar, matn va tovushlar ustida amal bajarishga imkon beradigan interfaol vositalar tushuniladi. Multimediali o'quv materialini bosma material, tovushli, videoli va animatsion elementlarni o'zida mujassamlashtirgan o'quv materialidan iborat bo'lib, tabiiyki, bu atama kompyuter xotirasidagi yoki disklardagi ma'lumotlarga nisbatan ishlatiladi.

Har bir mashq o'rganilayotgan mavzu mazmunini oydinlashtirish bilan birgalikda o'quvchini yangi bilim va undagi ichki mantiqiy bog'lanishlar bilan tanishtiradi, fan bo'yicha olgan nazariy bilimlarini tizimlashtirib, mustahkamlaydi va o'z mazmunini hayot voqealari bilan bog'lab tushunishga qiziqtiradi.

O'quvchining bilim va malakalarni qanchalik darajada o'zlashtirishi o'quv materialini bayon qilishda foydalaniladigan ko'rgazma vositalarga ham bog'liq. Zero, Ya.A.Komenskiy ko'rgazmalilikni «o'qitishning oltin qoidasi» deb bejiz aytmagan.

Ko'rgazma vositalar o'qituvchi uchun o'quvchining bilish faoliyatini boshqarish quroli, o'quvchi uchun bilim manbai, tasavvur, tushuncha, qonuniyat va nazariyani o'zlashtirishga yordam beradigan vosita vazifasini bajaradi. O'quv jarayonida qo'llaniladigan pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan talablarga ko'ra bu tasvirlanadigan umumiy axborot hajmining 40-90 % igacha oshirilishi lozim.

Illyustratsiyadan foydalanish, ya'ni rasm, fotosurat va videotasvirlardan foydalanish kompyuterda obyektini o'rganish jarayonini jonlantirib, ta'limning boshqa usullaridan ustunligini ko'rsatadi. Pedagogik dasturiy vositaning namoyish qilish qismi o'quv materialining ma'lum qismlarini ko'rgazmali yetkazib berishga, yangi tushunchalarni tasvirlab tushuntirishga, kuzatish qiyin bo'lgan hodisa va jarayonlarni ko'rsatishga qaratilgan. Namoyish jarayonidagi teskari aloqa o'zlashtirishni osonlashtiradi va o'quvchilar faolligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchilarning o'rgatiladigan material mazmunini tanlashda axborot kommunikatsiya texnologiyalar mazmunidagi bilimlar bilan cheklanilmasligi, fan mutaxassislari uchun umumiy bo'lgan invariant qism hamda alohida o'quv fanlaridagi imkoniyat va ehtiyojlardan kelib chiqadigan variantli qismdan iborat bo'lishi lozim. Bugungi kunda mamlakatimizda ko'plab gazeta, jurnal, axborotnoma-byulleten, radio, televideniye, axborot agentliklari, internetda veb-saytlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan ta'lim sohasida qanchalik samarali foydalana olsak, mediata'lim shunchalik takomillashadi, albatta.

Adabiyotlar

1. Информационные и коммуникационные технологии в образовании: учебно-методическое пособие / I. V. Robert, A. YU. Kravtsova; — M.: Drofa, 2008 g.
2. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2007.
3. Abduqodirov A., Pardaev A. Masofali o'qitish nazariyasi va maliyoti. Monografiya. – T.: Fan, 2009.

UDK: 316. 61:398

**MILLIY G'URUR SHAKLLANISHIDA FOLKLOR ROLINI TADQIQ QILISHNING
NAZARIY-METODOLOGIK MASALALARI****Arapbayeva D.K.***Navoiy davlat konchilik Instituti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada folklor san'atining milliy g'ururni shakllantirish imkoniyatlaridan foydalanish eng samarador usuli ekanligi ko'rsatiladi. Shu borada folklor san'atining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyati nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: shaxs, ong, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur, folklor san'ati, obyektiv omil, subyektiv omil

**Теоретико-методологические основы исследования роли фольклора в формировании
национальной гордости**

Аннотация. Использование изделий народного творчества в формировании национальной команды отображается, что он является наиболее эффективным методом. В связи с этим, развитие ресурсов народное искусство общества и значение теоретического и методологического анализа теоретических

Ключевые слова: личность, ум и понимание местного загрязнения, этнических групп, народного искусства, объективные факторы, субъективные факторы

**Theoretical-methodological aspects of investigation of the role of folklore on formation of
national proud**

Abstract. Using folk art products in the formation of the national team shows that it is the most effective method. Due to these mc, development resources folk art society and the importance of theoretically analysis of theoretical and methodological

Keywords: people, mind and understanding of the local pollution ethnic groups, folk art, objective factors, subjective factors

Hozirgi davrda milliy o'zlikni anglash, milliy g'ururni shakllantirish jamiyat taraqqiyotida muhim omilga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, umuman barcha ijtimoiy ong shakllarining, jumladan, folklor san'atining milliy g'ururni shakllantirish imkoniyatlaridan foydalanish eng samarador usulligini ko'rsatmoqda. Shunga ko'ra folklor san'atining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyatini nazariy-metodologik tahlil qilish bu sohada amaliy ishlar natijasini belgilab berishi bilan muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda kechayotgan ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning demokratik xarakteri va gumanistik mazmuni, eng avvalo, shaxsga, uning ijtimoiy "sifati" – g'ururini shakllantirishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Bu esa, shaxs ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirib, jamiyat hayotining barcha sohalaridagi islohotlar samaradorligini ta'minlashda muhim subyektiv omil hisoblanadi. Zero, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishda fuqarolarning faol ishtiroki motivi bo'lgan vatanparvarlik tuyg'usi, uning milliy g'ururi rivojlanishiga bog'liq.

Ayniqsa, mustaqillikka erishgan davlatlarning yangi jamiyat qurish mamlakat fuqarosida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning asoslarini yaratish zarurligini ko'rsatmoqda.

Har qanday mamlakatning fuqarosida Vatanga muhabbat, millatparvarlik [3.184] tuyg'usi: **birinchidan**, shaxs ongi va hayot tarziga ijtimoiy ong

shakllari va san'at turlarining kompleks-sistemali ta'siri natijasida shakllanadi. **Ikkinchidan**, bu ta'sirning qo'llayotgan usullari va vositalar tarkibida xalq san'ati – folklor alohida ahamiyatga ega. **Uchinchidan**, millatning ma'naviy yuksalishi va uni turli tahdidlardan muhofaza qilishda tarixiy qadriyatlaridan foydalanish masalasi davlatning mafkuraviy siyosati samaradorligini ta'minlaydi. **To'rtinchidan**, milliy g'ururni shakllantirishda, ularning obyektlariga differensial yondoshish usullar va vositalar adekvatligini taqozo qiladi. **Beshinchidan**, shaxs milliy g'ururining umuminsoniy axloqiy normalarga, demokratik tamoyillarga asoslanishi uni barqaror ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot subyektiv omil maqomini namoyon qiladi.

Folklor san'ati rivojlanishi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, har qanday jamiyatda shaxs milliy g'ururini shakllantirish ehtiyojlari, manfaatlari, uning tarixiy shakllangan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish imkoniyati darajasiga va davlatning ma'naviyatni yuksaltirish siyosati demokratik xarakterga

mos kelishini ko'ramiz. Lekin, hozirgi davrda millatlararo ma'naviy munosabatlarning integrasiyalashuv, globallashuv va universallashtirish jarayonlari intensivlashayotgan sharoitda inson omili mutlaqo yangi xarakter kasb etmoqda. Ya'ni, insonning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalaridagi faoliyatlarida yangi "integrativ sifat" – bipolyar dunyo (turli darajada rivojlangan davlatlar va mintaqalar) madaniyatida an'anaviylik va zamonaviylikning uyg'unlashuvi natijasidir. Shuning uchun jahon ilmiy jamoatchiligida Sharqona ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni G'arbning rasionalizmga, pragmatizmga asoslangan hayot tarzi bilan uyg'unlashtirish ideal jamiyat andozasi (standarti) bo'lishi mumkin, degan fikrlarning bildirilishi tasodifiy emas [5.37].

Lekin, shuni alohida ta'kidlash kerakki, klassik sharqona va zamonaviy g'arbona ma'naviy-axloqiy qadriyatlar integrasiyasi stixiyali, avtomatik tarzda turli millatlar g'urur fenomeni unifikatsiyasiga olib kelmaydi. Chunki hamma vaqt milliy identifikatsiya belgilari tarkibida g'urur fenomeni nisbatan turg'un bo'lgan. Ya'ni, tarixiy davr – obyektiv shart-sharoitning shaxs ijtimoiy sifatlarini o'zgartirishi (g'urning ifodasi bo'lgan) milliy o'zlikni anglash masalasida shartli va nisbiy xarakterga ega. Boshqacha aytganda, "milliy o'zlikni anglash shunday omilki, uni yuksak darajaga ko'tarish yo'li bilangina millatni har qanday ta'sirlardan (xususan, g'ururini so'ndirishdan. –A.D.) himoya qilish mumkin. Chunki u millatdagi manfaat, iftixor, g'urur, sha'n, or-nomus, e'tiqod va mas'uliyat kabi qadrlarni abadiylashtiruvchi yuksak darajadagi ma'naviy qadriyat hisoblanadi" [4.113].

Masala biz tadqiq qilayotgan mavzu doirasida olib qaralsa, shaxs milliy g'ururini shakllantirishning muqobil usullaridan biri bo'lgan folklor san'ati yagona determinlashtiruvchi subyektiv omil emas, balki uning imkoniyati hisoblanadi. Lekin ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida inson (subyektiv omil) rolining ustuvorlashish qonuniyatini nazarda tutadigan bo'lsak, A.Ochilidzevning "tarixan millatlarning shakllanishi tabiiy stixiyali tarzda obyektiv: iqtisodiy, insoniy, ma'naviy aloqalar zahirida yuzaga kelgan. Ammo hozirgi davrda ichki milliy munosabatlarni kuchaytirish, mustahkamlashda onglilik, aniq maqsadni ko'zlab harakat qilish... kuchayib bormoqda" [2.57] degan xulosasi o'rinli bo'lsa ham, shaxs milliy g'ururini shakllantiruvchi subyektiv omillar samaradorligini obyektiv shart-sharoitlardan ajralgan holda tasavvur qilish mumkin emas.

Agar jamiyatda shaxs milliy g'ururini shakllantirish va rivojlantirishdan manfaatdorlik, aniq maqsad bo'lmasa, uning usullari va vositalarini takomillashtirish haqidagi fikrlar ham, turli ilmiy nazariyalar ham, deklarativ xarakterga ega bo'lib qolaveradi. Aniqroq qilib aytganda, muayyan tarixiy davrlarda ayrim millatlar g'ururi sustligi sabablarini, faqat obyektiv shart-sharoitlarga yoki subyektiv omillarga bog'lab qo'yish g'aliz xulosalarga olib keladi.

Shaxs milliy g'ururini umuminsoniy ma'naviy-axloqiy mezonlar bilan baholashda, uning ijtimoiylashish va siyosiyashish xususiyatlarini ham e'tiborga olish kerak. Chunki, har qanday jamiyatda milliy g'urning siyosiyashuvi manfaatlar differentsiyalashuviga mos keladi hamda jamiyat ijtimoiy-siyosiy munosabatlarining universal demokratik mezonlar va talablarga asoslanishi, uning umuminsoniy xarakterini namoyon qiladi. Shunga ko'ra, mustaqillikka erishgan davlatlarning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish davri milliy xususiyatlari va imkoniyatlariga globallashayotgan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar milliy g'urni anglashga muayyan o'zgarishlarni kiritmoqda.

Boshqacha qilib aytganda, globallashayotgan va universallashtirayotgan mezonlar umuminsoniyat maqsadlari, manfaatlari umumiylikni ifodalaydi. Shu jumladan respublikamiz barqaror rivojlanishi, shaxs darajasida: milliy axloqiy qadriyatlarni, yuksak ma'naviy sifatlarini, milliy g'oyaga ishonch va e'tiqodni, Vatanga fidoyilikni va sadoqatni shakllantirish asosi bo'lgan g'ururini anglashni taqozo qiladi. Zero, shaxs milliy g'ururini shakllantirish, funksional ahamiyatiga ko'ra, inson omili rolini kuchaytirish bilan bevosita bog'liqdir.

Har qanday jamiyatda shaxs va millat g'ururini uyg'unlashtirishning pedagogik-didaktik texnologiyasini, kommunikatsiya infrastrukturasi takomillashtirishni taqozo qiladi. Bu muammolar tadqiq qilinayotgan mavzu doirasida alohida ahamiyatga ega, chunki folklor san'atining shaxs g'ururini shakllantirish nazariyasi ham, uni keng xalq ommasiga transformatsiya qilish usul-vositalari ham, xalq ruhiyatiga ta'sir texnologiyasi – amaliyoti ham, xalqchilligi va ommaviyligi bilan xarakterlanadi. Lekin, ularning funksional yaxlitligi va samaradorligi subyektiv omil yetukligi bilan bog'liqligini e'tiborga oladigan bo'lsak, har bir yo'nalishda inson omilining rolini o'rganish uchun fundamental tadqiqotlar olib borish kerak. Chunki bu yo'nalishlarning maqsad va tamoyillarini aniqlash, shaxs milliy g'ururini shakllantirish imkoniyatlari tarkibida folklor san'atining rolini o'rganishga metodologik asos bo'ladi va boshqa ijtimoiy muammolar yechimining oqilona usullari va vositalarini topishda amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.- T.: "Ma'naviyat", 2008. 176 b.
2. Achilidiyev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar.-T.: O'zbekiston, 2004. – 57 b.
3. Otamuratov S. Milliy rivojlanish falsafasi.-T.: "Akademiya", 2005 y. – 184 b.
4. Otamurotov S. Globallushuv va millat (siyosiy-falsafiy talqin). -T.: Yangi asr avlodi, 2008 y. – 160 b.
5. Soifnazarov I. Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat.-T.: Sharq, 2001. - 37 b.
6. Tog'ayev Sh.X. O'zbek xalqi milliy g'ururining shakllanishida madaniy merosning o'rni. – T.: 2002.

UDK 372.881.1**НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ АНАЛИЗА ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО
ФАКУЛЬТЕТА САМГУ
Уразова Р., Османова Т.***Самаркандский государственный университет*

Аннотация. Целью данной статьи было определить ряд причин, влияющих на выбор профессии в Высшем учебном заведении. Для этого была создана анкета, с помощью которой был проведен опрос: где проживали студенты до поступления на факультет; откуда они узнали про Вуз; как они оценивают уровень своей подготовки и как это влияет на учебу, а также основные факторы выбора профессии.

Ключевые слова: анкета, опрос, профессия.

Annotatsiya. Maqolaning mazmuni – o'quv jarayonining natija va xususiyatlari sabablarini aniqlashdan iborat. Buning uchun anketa tuzildi. Ushbu anketada quyidagi savollar berildi: fakultetda o'qishdan oldin talabalar qaysi joyda yashayotganligi; fakultet haqida qayerdan ma'lum bo'ldi; o'zlarining tayyorgarlik darajasini qanday qilib belgilay oladilar va qanday qilib o'qish vaqtida yordam sifatida, hamda kasbni tanlash faktorlarini aniqlashda o'rin egalladi.

Kalit so'zlar: anketa, savolnoma, kasb.

Some aspects of the student analysis of students of the pedagogical faculty of SamSU

Abstract. Purpose of the article is to find some reasons, which influence upon quality of education. There was designed a special blank for that. There were some questions: where were students from; from what source had they heard about faculty before entered in the faculty; how do they judge their quality of preparation and how it can influence upon education process; and there were also advised to judge some factors, which affected to choose a profession in other ways.

Keywords: questionnaire, interview, profession.

«Строя новое общество и его культуру, не нужно отказываться от опыта, накопленного человечеством, наоборот, важно использовать этот опыт, все ценное, отбрасывая то, что неприемлемо для строительства нового общества».[1]

Без знания того, как развивалась теория и практика воспитания и обучения подрастающих поколений в прошлом, невозможно научное решение вопросов воспитания и обучения в новом развитии общества.

За период «2014-2016 учебные года, был проведен опрос студентов первого и второго курсов, обучающихся на педагогическом факультете, на основе которого был проведен анализ проблемы, влияющих на качество обучения. Цель исследования – выявление причин, которые влияют на качество обучения. Для этого была разработана специальная анкета. В ней были заданы следующие вопросы: в какой местности проживали студенты до поступления на факультет, из каких источников они узнали о факультете, как они оценивают качество своей подготовки и как она влияет на процесс обучения в вузе, а также предлагалось оценить по степени значимости факторы, которые повлияли на выбор специальности.

В анкете затрагивались вопросы, какой стратегии в обучении в течение семестра, обучающиеся отдают предпочтение, какие дисциплины являются наиболее сложными для изучения. Студентам было предложено указать трудности, возникающие в процессе освоения программы вуза в полном объеме, и выводы, которые они делают после окончания сессии, а

также предложен вопрос о желании участвовать в научных конференциях ,встать в ряды молодежных организаций - «иктидорли талабалар» , «камолот».

На основании проведенного опроса и анализа анкет были получены определенные результаты, которые и приведены в этой статье.

Большинство из опрошенных до поступления на педагогический факультет СамГУ, проживали за пределами г. Самарканда . 35% студентов проживали в городе, 60% - жители сельской местности, 5% студентов - из других вилоятов

Европейские группы:

75% -проживали в городе, 22% - в сельской местности, 3% - жители других вилоятов.

Относительно источников информации, из которых студенты узнали о педагогическом факультете, были получены следующие ответы (опрашиваемые могли выбрать несколько вариантов ответов): узнали от друзей и знакомых – 59% ; то родителей и родственников – 30%; от выпускников факультета – 11%

Качество подготовки студенты оценивают следующим образом: испытывают значительные трудности в освоении дисциплин – 5% ; испытывают незначительные трудности в освоении дисциплин, самостоятельно могут восполнить пробелы в образовании – 45%; качество подготовки позволяет освоить программу вуза без затруднений - 50% студентов.

Относительно выбора стратегии, которой придерживаются студента в течение семестра, были получены следующие ответы: постоянно работают на занятиях в течение семестра, своевременно сдают самостоятельные работы – 90%; не прилагают больших усилий к учебе в течение семестра и сдачу работ оставляют на конец семестра – 10%.

После окончания сессии, оценивая собственные результаты студенты делают для себя следующие выводы: считают, что необходимо больше внимания уделять учебе в течение семестра – 55%,считают, что необходима помощь репетиторов – 5%, необходима посещать консультации преподавателей в течение семестра – 17%; прилагать больше усилий для самостоятельного освоения дисциплин – 20%; можно не прилагать больших усилий в освоении программы в течение семестра, а сдавать все долги в конце семестра – 3% обучающихся.

Проблеме формирования интереса уделял внимание Я.А. Коменский. В «Великой дидактике» он советует «всеми возможными способами воспламенить в детях горячее стремление к знанию»[3]. В том, что главное в студенческой жизни – учеба, а не участие в различных мероприятиях уверены 21% обучающихся; студенческая жизнь должна запомниться различными мероприятиями – 79% студентов. В студенческих научных конференциях желают участвовать – 60%; не желают участвовать – 20%; затруднились ответить – 20%.Знают о существовании на факультете молодежной организации «иктидорли талаба», « Камолот» - 100%. Молодежная организация «Камолот» дает стимул для хорошей учебы студентам, прошедших военную службу, оплатой их учебы в СамГУ.

На вопрос о том, в каких мероприятиях хотели бы участвовать студентами были даны следующие ответы: участие в творческих музыкальных мероприятиях -15%, в КВН – 40%, в спартакиадах -15%, не желают участвовать – 30% (невесты)

Оценка значимости причин, влияющих на процесс обучения

Причина	Не важно	Скорее не важно	Скорее важно	Важно	Очень важно
Недостаточная подготовка	24%	14%	30%	21%	11%
Низкая способность преподавателя доходчиво объяснять материал	9%	28%	31%	23%	9%
Участие в различных мероприятиях, проводимых вузом	12%	17%	49%	6%	16%

Если говорить о факторах, которые влияют на выбор обучения в университете, то на первом месте стоит следующее: возможность получения специальности, которая обеспечит материальное благополучие в дальнейшей жизни – 40%; желание освоить выбранную специальность 26%; желание получить высшее образование – 34%;

Оценка важности факторов, которые оказали влияние на выбор обучения на педагогическом факультете

Факторы	Не важно	Скорее не важно	Скорее важно	Важно	Очень важно
Возможность получить высшее образование	4%	8%	24%	30%	34%
Желание освоить выбранную специальность	1,5%	4,5%	21%	29%	44%
Возможность получения специальности, которая обеспечит материальное благополучие в дальнейшей жизни	2%	6%	12%	30%	50%

Рассматривая варианты ответов, которых придерживаются в обучении студенты, можно сделать вывод: студенты, которые успевали в колледжах, лицеях и в университете, являются лидирующими студентами, с высокой мотивацией к получению знаний. Нужно отметить, что мотивация к овладению знаниям и стремление получать высокие оценки закладываются у учащихся еще в средне – специальном образовании, изменить ее в период обучения в вузе достаточно сложно. С возрастом происходит развитие взаимодействующих потребностей и мотивов, изменение ведущих доминирующих потребностей и их иерархизации. «...Мотивация учения складывается из ряда постоянно изменяющихся и вступающих в новые отношения друг с другом побуждений (потребности и смысл учения для учащихся, их мотивы, цели, эмоции, интересы). Поэтому становление мотивации есть не простое возрастание положительного или усугубление отрицательного отношения к учению, а стоящее за ним усложнение структуры мотивационной сферы, входящих в нее побуждений, появление новых, более зрелых, иногда противоречивых отношении между ними».[4] Обычно мотивация к получению знаний у студентов, повышается на старших курсах, когда они начинают изучать дисциплины по специальности. Приходит осознание, необходимости знаний для освоения будущей профессии – педагога.

На факультете со стороны руководства, а также молодежных организаций «иктидорли талаба», «камолот» ведутся работы по развитию познавательного интереса у учащихся и привлечению студентов к мероприятиям, связанных с воспитательной работой вуза и развитию познавательного интереса у учащихся. Сущность познавательного интереса и его роль в воспитании личности рассматривает Г.И. Щукина. Она пишет, что «познавательный интерес, прежде всего, можно охарактеризовать как сложное отношение человека и явлениям окружающей действительности, в котором выражено его стремление к всестороннему, глубокому изучению, познанию их существенных свойств».[5]

Главное условие процветания нашего государства и народа – укрепление в сознании каждого человека, особенно молодого, только вступающего в жизнь, что он является той личностью, от устремленности, полной самоотдачи и безграничного трудолюбия которой зависит достижение поставленных целей. «...В центре устремлений каждого из нас стоит мечта вырастить наших детей физически и духовно здоровыми, ни в чем и никому не уступающими, увидеть их счастье и благополучное будущее»[2] И.А Каримов

Студенческая жизнь должна запомниться интересными событиями – проведение различных конкурсов, спартакиад и других мероприятий благотворно влияющих на психологический климат студенческих групп, которые делают студентов более сплоченными, что особенно необходимо на первых курсах обучения.

Литература

1. Ислам Каримов. «Гармонично развитое поколение – основа прогресса Узбекистана». Речь на 9-ой сессии Олий Мажлиса Республики Узбекистан. // Мечта о совершенном поколении.- Ташкент, 1998.-С.-66.
2. Ислам Каримов. «Гармонично развитое поколение – основа прогресса Узбекистана». Речь на 9-ой сессии Олий Мажлиса Республики Узбекистан. // Мечта о совершенном поколении.- Ташкент, 1998.-С.-89.

3. Коменский Я.А. Великая дидактика. Педагогическое наследие. Переиздание, М.: Педагогика, 1998 г. -18 с.
4. Маркова А.К. Формирование мотивации учения в школьном возрасте.- М., Просвещение, 1990.- 192 с.
5. Щукина, Г.И, Активация познавательной деятельности учащихся в учебном процессе [Текст] / Г.И. Щукина. — М.: Просвещение, 1979. – 97с.

UDK: 377.12:62

KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA MAXSUS FANLARNI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARDA QURUVCHILIK KASBINI SHAKLLANTIRISH

Murtazayev E.M.

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

E-mail:murtazaev_70@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh avlodning qanday tarbiya topishi, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishi, ularning hayotda nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishi haqidagi g'oyalari asosida, kasb-hunar ta'limi tizimida ta'lim olayotgan kichik mutaxassis shaxsini shakllantirish tavsifnomasi ishlab chiqilgan.

Kalitso'zlar: kasb-hunar ta'limi, bilim, ko'nikma, malaka, o'quv faoliyati, kasbiy fanlar, shaxs, uslub, tizimlilik, mustaqil ishlash, uslub, ijodiy faollik, mustaqil fikrlash, tahlil etish, intilish, o'quv jarayoni, ishlab chiqarish, integratsiy.

Формирование строительных профессий у учеников при обучении специальных предметов в профессиональных колледжах

В данной статье отражено разработку рекомендаций формирования личности молодого специалиста в системе средне-специального образования на основе воспитания морально духовных достоинств молодого поколения, их активно участие в реальной жизни и стремление к высоким целям.

Ключевые слова: профессиональное образование, навика, квалификация, учебной деятельности и специальные предметы, творчества, актив, мышления, интеграция, инновация.

Forming of construction trade on pupils in teaching special subjects at vocational colleges

Abstract. In this article, recommendation is produced about forming of specialist's face who is studying in professional education system. Bringing up of young generation, growing of being have spiritual values, they are on active terms in life, about servicing to high aims on the basis of conceptions.

Keywords: vocational education, knowledge, skills, qualifications, training activities, and professional subjects, creative, active, independent thinking, integration, innovation.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" maqsad va vazifalari, mashg'ulotlarni o'tkazishga bo'lgan davlat ta'lim standartlari ta'limining didaktik vositalari va ulardan o'quv jarayonida unumli foydalanish usullari, ta'limni tashkil qilishga doir tashkiliy-pedagogik masalalarni quruvchilik kasbi texnikasining xavfsizlik talablari amalga oshirish kasb-hunar kollejlarning asosiy vazifalari hisoblanadi. Ayniqsa quruvchilik yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarga quruvchilik kasbi xususiyatlari haqida mashg'ulotlar o'tkazish. uning faoliyatni to'g'ri tashkil etish va uni egallash, ularda ishlatiladigan materiallar, asbob-uskunalar haqida ma'lumot berish o'quvchilarning bilimlarni rivojlantiriladi. Quruvchilik faoliyatida ishlatiladigan atamalar va buyumlar, ularning turli xususiyatlari va sifatlar ustoz-shogirdlik an'analari haqida mashg'ulotlar tashkil etish o'quvchilarda maxsus fanlarni chuqur o'rganish negizini tashkil etadi.

O'quvchilarga quruvchilik kasblarining urni va ahamiyatiga oid bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Ularda quruvchi ustalarining ayrim ish usullari, materiallar turlari, asbob-uskunalar va atamalar bilan tanishtiriladi. Bunda qurulish bo'yicha maxsus fanlarni o'qitish bo'yicha mashg'ulotlar mazmunini o'quvchilar ongiga yetkaziladi. Kasb-hunar kollejlarda maxsus fanlarni o'qitish mazmuni

va usullari asosida qurilish pardoqlash ishlari texnologiyasi va asbob-uskunalarini ishlatish usullari, mashina, mexanizm, stanok va moslamalarning tuzilishiga oid mashg'ulotlar amalga oshirildi.

Qurilish kasbida qullaniladigan asbob va jixozlarning tuzilishi, ishlashi haqida dastlabki bilimlar shakllantiriladi. O'quvchilarni uy-joylarni ta'mirlash ishlari usullari bilan tanishtiriladi.

Ushbu bosqichda umumqurilish ishlariga alohida ahamiyat beriladi. O'quvchilarga umumqurilish texnologiyalari asosida O'zbekistonda qurilayotgan va ta'mirlanalanayotgan uy-joy tarmoklariga oid dastlabki texnik, texnologik va iqtisodiy ma'lumotlar beriladi. Hozirgi zamon uy-joy qurilishining fan-texnika taraqqiyoti asosida rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bilan o'quvchilarni tanishtirish usullari va vositalari amalga oshiriladi.

O'quvchilarni kasb-hunar kollejlarda egalaeyotgan quruvchilik ko'nikmalari, qiziqish va moyilliklarini o'rganish asosida ularni kasb tanlashga yunaltirish ishlarini olib borish mazmuni, vositalari va usullari ishlab chiqiladi. Kasb-hunar kollejlardagi o'quvchilarning quruvchilikka oid qiziqish va qobiliyatlari aniqlanadi. O'quvchilarning quruvchilik ta'limini olish va kasbga yo'naltirish ishlari olib boriladi.

O'quvchilarga quruvchilik jarayoniga tegishli hisob-kitoblarni olib borishning ahamiyati va asosiy usullari o'rgatiladi. Kasb-hunar kollejlarda bozor munosabatlari bilan uygulashtirgan holda quruvchi tadbirkorning hukukiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va ekologik asoslari va shartlari ishlab chiqiladi.

Quruvchi tadbirkorlik faoliyatini yo'lga kuyish va ularni amalga oshirish usullari va vositalari va o'quvchilarga tushuntiriladi.

Iqtisodiyotning asosiy qonunlarini hisobga olgan holda quruvchi tadbirkor faoliyatini rivojlantirish yuzasidan talablar va tegishli hujjatlar bilan ishlash qoidalari haqida tushunchalar beriladi. O'quvchilarga kompyuter texnikasi yordamida quruvchilik kasbi bo'yicha amalga oshiriladigan vazifalar haqida umumiy ma'lumotlar bilan tanishtiriladi. Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ekologik ahamiyati, mehnat unumdorligini oshirishda kompyuter imkoniyatlari usullari, mavjud dasturlari va ularning tuzilishi, mazmuni va boshqa xususiyatlari haqida amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Ushbu bosqichda o'quvchilar bilan o'tkazilgan nazariy va amaliy mashg'ulotlarda binolarni qurish turlari quriladigan uy-joylarda asbob-uskunalarining ishlatish usullari bilan bog'liq texnologik asoslarini urgatish yuzasidan ma'lumotlar amalga oshiriladi. Shuningdek o'quvchilarga umumqurilish asoslari ya'ni uy-joy qurilishida ko'p ishlatiladigan asosiy texnika vositalari haqidagi ma'lumotlarni tanlash va o'rgatish usullari amalga oshiriladi. Qurilishdagi uzatmalar, boshqarish qismlari elektr asbob va jihozlar qurilish mashinalari kabilarning tuzilishi, ishlashi haqida dastlabki bilimlar o'rgatiladi. O'quvchilarning quruvchilik kasbga qiziqishlari va ijodkorligi shakllantiriladi. Qurilishdagi ta'mirlash ishlari o'rgatiladi. Kompyuterlar vositalarida qurilishning zamonaviy usullari bilan tanishtiriladi. Ayrim qurilishlarga oid ishlar bajariladi. Umumqurilish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkaziladi. O'quvchilarga umumqurilish texnologiya asoslariga doir bilimlar shakllantiriladi.

O'quvchilarning kasb-hunar kollejlarda egallagan quruvchilik kasbi haqidagi ko'nikmalari, qiziqish va moyilliklarini o'rganish asosida ularni kasb tanlashga yunaltirish ishlarini olib borish mazmuni, vositalari va usullariga oid masalalariga e'tibor beriladi.

O'quvchilarda kasb tanlashning ijtimoiy usullari, mehnat huquqlari, kasb ta'limini olish va uni davom ettirishda maxsus fanlarni o'qitishning ahamiyati va ularni amalga oshirish usullari ishlab chiqildi.

Ushbu bosqichda iqtisodiyot va tadbirkorlik asoslarini o'rgatishga ahamiyat beriladi. O'quvchilarga qurilish jarayoniga tegishli hisob-kitoblarni olib borishning ahamiyati bozor munosabatlari bilan uygulashtirgan holda tashkil etishning huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik asoslari va shartlari o'rgatiladi.

Kasb-hunar kollejlarda quruvchi tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish va unda o'quvchilarning ishtirokini amalga oshirish usullari va vositalari amalga oshiriladi. Xalq ustalari faoliyatidagi tadbirkorlik jihatlarini o'rganish bo'yicha o'quvchilar bilan tushuntirish ishlari olib boriladi.

Iqtisodiyotning asosiy qonunlarini hisobga olgan holda quruvchilik faoliyatini rivojlantirish yuzasidan dastlabki ma'lumotlarni o'rganish. Tadbirkorlik faoliyatini olib boruvchilar uchu talablar va tegishli hujjatlar bilan ishlash qoidalari haqida tushunchalar beriladi.

Shuningdek ushbu bosqichda kompyuter texnikasidan foydalanish yordamida amalga oshiriladigan vazifalar va ularning qurilish soxalarida foydalanishning ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ekologik ahamiyati imkoniyatlari. Usullarga oid dasturlar ishlab chiqiladi.

Ushbu bosqichda qurilish ishlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarning turlari va ularni tashkil qilish asoslariga e'tibor qaratiladi. Amaliy mashg'ulotda o'quvchilarning o'zlashtirishlarni hisobga olish usta –shogird an'analarini tashkil qilish shakllari va usullari bo'yicha ko'nikmalar, tanlovlar, uchrashuvlar, kechalar va boshqa tadbirlar o'tkaziladi. Kasb-hunar kollejlari ochiq darslar kuzatish va tashkil qilish hujjatlarning yuritishini o'rganish, o'zaro tajribalarini almashish yuzasidan munozara, bahs, ishchanlik o'yinlari, o'zaro tajribalarini almashtirish bo'yicha mashg'ulotlar tashkil qilinadi. Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarning talab va ehtiyojlarini o'rgatish bo'yicha kirish va chiqish test sinovlari o'tkaziladi. Bunda ularning bilim va malakalaridagi kamchiliklar qurilish haqidagi bilim va malakalarida yuz bergan o'zgarishlar aniqlanadi.

Kasb-hunar kollejlari maxsus fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarda quruvchilik kasbini shakllantirishning e'tibor qaratiladi.

Shu jihatdan 3-kurs bo'yicha "Qurilish pardoqlash ishlari mutaxassisligi"gi yo'nalishi o'quvchilariga "Qurilish ashyolarining klassifikatsiyasi va asosiy xossalari" mavzusi bo'yicha dars ishlanmasini tayyorladik.

Darsning ta'limiy maqsadi: Qurilish materiallarini ularning kelib chiqishi, asosiy xossalari va ishlatilishi, texnik xossalari, temperatura yoki suv ta'sirida qayta ishlanish xususiyatiga ega bo'lgan materiallar (gil, bitum, mis, qo'rg'oshin va boshqalar) haqida ma'lumot berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Qurilish pardoqlash ishlarida rang tanlash ish qobiliyatiga, diqqatiga, qon bosimiga va boshqa ko'p narsalarga ta'sir qilishi xususiyatlarining tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Qurilish materiallariga qo'yiladigan talablar, ularning xillari va ishlatilishi, bino va inshootlar vazifasiga oid o'quvchilarning bilimlarni shakllantirish.

Darsning jihozlanishi: Har xil rang namunalari, rang tayyorlash materallari, lak-buyoq ashyolari, diafilm va kinofilmlar.

Dars turi: Noan'anaviy shakl.

Darsni uslibi: Interfaol, kichik guruhlarda ishlash, zinama-zina, yumaloq qor usullari.

Dars jarayonida hal etiladigan vazifalar.

1. Tabiiy landshaftlarning yo'l, aeroport, bog' va suv inshootlarining qurilishidagi ahamiyati
2. Xududlarning tekislanishi, jarlarning to'ldirilish, relyef, o'simlik va tirik mavjudotda o'zgarishlarning yuz berishi.

3. Qurilish obyektlarini loyihalash jarayonida atrof muhitni sinchkovlik bilan o'rganish, maksimal darajada unga zarar yetmaydigan yechimlar qabul qilish kabi vazifalar hal etiladi.

4. Ushbu mashg'ulotda zinama-zina usuli yordamida yangi mavzu bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlanadi;

O'quvchilarga binolarni ayniqsa fasad qismini pardoqlashda mashg'ulot jarayonida ulardagi ranglarning atrof muhit bilan mujassamligini ta'minlash bo'yicha nazorat varag'i bilan ishlash qoidalari borasida tushunchalar beriladi. O'quvchilarning bilimlari umumiy tarzda baholanadi.

O'quvchilarning "Qurilish materiallari-bino va inshootlarni qurish hamda ta'mirlashda foydalaniladigan tabiiy va sun'iy materiallar hamda buyumlar" mavzuni o'zlashtirganlik darajasini quyidagi savollar bilan aniqlanadi.

1. Bino fasadida suvoq ishlarni bajarish uchun qaysi aralashmalar qo'llaniladi?

2. Qurilish ashyolari texnik xossalari ko'ra qanday guruhlariga bo'linadi?

3. Ashyolarning fizik xossalari tushuntirib bering?

4. Bino va inshootlar qurishda ishlatiladigan qurilish materiallarining xossalari misollar asosida ayting?

O'quvchilar savol –javoblar natijasida olingan bilimlar bo'yicha "nazorat varag'i"ning birinchi bosqichiga balllar qo'yiladi. O'quvchilarni 4-5 kichik guruhlariga bo'lib yangi mavzuni "Zinama-zina" usulidan foydalanib bilim berish davom ettiriladi. O'quvchilarga mashg'ulotni o'tkazish usuli tushuntiriladi. Shundan so'ng har bir guruhga chap tomondan kichik mavzular yozilgan varaqlar tarqatiladi. Guruh a'zolari yozilgan mavzu haqida bilimlarni flomaster bilan ma'lumotlar bo'lagining bo'sh joyiga yozishadi.

Masalan: guruhlar suvoq ishlarini bajarish uchun qaysi aralashmalar turlari haqida o'zlari to'plagan ma'lumotlarni berishlari kerak.

Tarqatma materiallar to'ldirilgach, guruh a'zolaridan bir o'quvchi taqdimot qiladi. Guruhlar tomonidan ma'lumotlar, albatta, doskada mantiqan tagma-tag, zina shaklida yoziladi. Guruhlarning javoblari muhokama qilinadi va umumiy baho beriladi. O'quvchilar umumiy baholarga asoslanib "Nazorat varag'i"ning ikkinchi bosqichiga ball qo'yishadi.

Darsga qiziqishni oshirish uchun savol javob tarzidagi suhbat uyushtiriladi. Suhbatda o'quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

-Bino va inshootlar qurishda ishlatiladigan qurilish materiallarining xossalarini tushuntirib bering ?

-Qurilish qorishmalari deganda nimani tushunasiz?

-Gipsakarton qoplamalarning qanday turlari bor?

-Gipsakarton qoplamalar qayerlarda qo'llaniladi?

-Mineral bog'lovchilarning ishlatilishiga va xossalariga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi?

-Ohakni olish va ohak toshni pishirish jarayonlarni tushuntiring?

O'qituvchi suhbat yakunida barcha savollar uchun javoblarni to'ldiradi va o'quvchilarning suhbatdagi ishtiroklarga qarab "Nazorat varaqasi"ning uchinchi bosqichiga ball qo'yishlari kerak bo'ladi.

Yangi mavzuni "Yumaloq qor" usuli yordamida mustahkamlash uchun o'qituvchi guruhlariga turli bino va inshootlar qurishdan topshiriq yozilgan kartochkali vazifa beradi. Bunda birinchi guruhga havoda qotadigan bog'lovchi ashyolar, ikkinchi guruhga gidravlik bog'lovchilar, uchinchi guruhga kislotalarga chidamli bog'lovchilar haqidagi savollar berib, qaysi guruh qo'llaridagi savollarga to'g'ri va tez ma'lumot bersa, shu guruh g'olib bo'lishini aytiladi.

Topshiriq kartochkalarida quyidagi savollar o'z aksini topgan bo'lishi mumkin.

1. Guruh kartochkasida

a) Havoda qotadigan bog'lovchi ashyolarga nimalar kiradi?

b) Ohakni olish va ohaktoshni pishirish jarayoni qanday amalga oshiriladi?

c) Ohakning xususiyatlari nimalardan iborat?

2. Guruh kartochkasida

a) Gidravlik bog'lovchilar ashyolarga nimalar kiradi?

b) Gidravlik bog'lovchilar qotish xususiyati nimalarga bog'liq?

c) Portlandsement, gidravlik ohak tarkibiga nimalar mavjud?

3. Guruh kartochkasida

a) Kislotalarga chidamli bog'lovchilarga nimalar kiradi?

b) Bino va inshootlarni qurishda nimalar ishlatiladi?

c) Mineral asosda tayyorlangan bo'yoqlar-ishqorga chidamli bo'ladimi?

O'quvchilar topshiriqlarni bajarishda qurilishda buyum xossalarini o'zgartirish va bog'lovchi materiallarni tejash haqidagi ma'lumotlarini ko'proq yoritishlari kerak bo'ladi. Topshiriq kartochkalari javoblarini har bir guruh a'zolaridan bir o'quvchi taqdimot qiladi. Chalg'ituvchi va boshqa noto'g'ri javoblarni o'qituvchi izohlab to'g'rilaydi. Dars yakunida tarqatma materiallar yig'ishtirilib olinadi va uyga vazifa mavzu bo'yicha "Klaster" chizib kelish topshiriladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, maxsus fanlar o'qitish jarayonida o'quvchilarning qurilish pardoqlash ishlarida zamonaviy qurilish materiallari va texnologiyalarini qo'llanilishi, soha uchun mutaxassislar tayyorlashda o'ziga xos talablar va yangi vazifalarni o'zlashtirishni talab etadi.

Kasb-hunar kollejlari maxsus fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarning quruvchilik kasbiga oid qobiliyati va iqtidori tegishli bilim va ko'nikmalarini kasbiy mahoratlarini oshirishga keng imkoniyatlar yaratish, mehnatlarini munosib taqdirlash korxonasi va tashkilotlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida Qashqadaryo viloyatidagi qurilish yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlarning "Qurilish pardoqlash" ishlari ustasi kasbi bo'yicha tahsil olayotgan o'quvchilar o'rtasida tanlov tashkil etildi.

Mazkur tanlov maqsadi:


- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi "Qurilish-pardoqlash ishlari" kasbining "Quruq usulda qurilish-pardoqlash ishlari" ixtisosligini keng targ'ib qilish;

- o'quvchilarning o'zlari tanlagan kasb bo'yicha kasbiy ko'nikma va malakalarni egallashga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish;

- o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish;

- o'quvchilarning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini oshirish, ularni tanlagan kasbi va ixtisosligi bo'yicha mehnat faoliyatiga tayyorgarlik salohiyatini yanada kuchaytirish, kasbiy mahoratlarini oshirishga keng imkoniyatlar yaratish;

- bitiruvchi o'quvchilarning "Qurilish-pardozlash ishlari" kasbining "Quruq usulda qurilish-pardozlash ishlari" ixtisosligi bo'yicha tayyorgarlik sifatini holisona baholash; ta'lim muassasalari bilan tashkilot va ishlab chiqarish korxonalarida o'rtasidagi "Qurilish-pardozlash ishlari" kasbining "Quruq usulda qurilish-pardozlash ishlari" ixtisosligi bo'yicha o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirishda iborat bo'ldi. Bunda bo'lajak quruvchilarga qo'yidagi uyning umumiy kurinishi qurilishi va pardozlash ishlarini amalga oshirish vazifalari topshirildi. Bunda o'quvchilar uyning qirgimi va xona devorlarining o'lchamlari ularga ishlatiladigan xom - ashyolar pardozlash asboblari kabilar bilan ishlash ko'nikmaga ega bo'ladi.



O'quvchilarning uy xonalarning hajmini o'lchash bilan birga dahliz, umumiy xona, yotoqxona (otaxonalar), yotoqxona (bolalar), oshxona, qozonxona, qo'l yuvish xonasi, yuvinish xonasi, hojatxona, yo'laklar, ayvonlarning vazifalari va pollar uchun ishlatiladigan materiallar, hamda ularni bir-biridan farq qiladigan ohak, lak-bo'yoq kabilarini tanlash va ishlatishga oid bilimlarni egallashdilar.

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida beton qorish ishlari texnologiyasi, bino va inshootlar konstruksiyasi, qurilish materiallari, qurilish mashinalari, temir beton konstruksiyalarini yig'ish texnologiyasi yo'nalishlariga oid bilimlarini rivojlantiradi uarda O'zbekistonda qurilayotgan uy-joylar manzarasini tasavvur etish, quruvchilik loyihalarini o'rganish bilim saviyasini rivojlantirish, topshiriqlarni bajarish tadbirkorlik ishlarini amalga oshirishga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiriladi Ularda umumqurilish mutaxassisligi kasbini egallash madaniyatini rivojlantirishda mutaxassis quruvchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish muhim o'rin tutadi.

Kasb-hunar kollejlari maxsus fanlarni o'qitishda o'qituvchilar O'zbekiston Respublikasining ta'lim hamda quruvchilik faoliyatiga doir qonun va normativ hujjatlarga, yuqori turuvchi organlar ta'lim muassasi ma'muriyatining qarorlariga amal qilishi, o'zining kasbiy salohiyati hamda qobiliyati bilan quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari muhim hisoblanadi. Bular:

-bo'lajak quruvchilarning faoliyati monitoringini olib borish maxsus fanlarni o'qitishning ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash:

-o'quvchilarning quruvchi kasbi haqidagi savodxonligini oshirishga oid tavsiyalar, texnologiyalarni rivojlantirish usullari va uslublarini ishlab chiqish, o'quv-tarbiya jarayoniga moslashtirish va joriy etish;

-quruvchilik kasbiga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirish hamda o'quvchilarning qobiliyatini rivojlantirish;

-o'quvchilarda uy-joy qurilishi bo'yicha loyiha ishlarida ishtirok etish quruvchilik kasbi faoliyatini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish kabilar muhim hisoblanadi. Ushbu jarayonlar bo'lajak quruvchilarning mutaxassisligini rivojlantirish, mustahkamlash va shakllantirishda yetakchi

tamoyillar hisoblanadi. Quruvchilik kasbini egallashda maxsus fanlarni o'qitishning nazariy va uslubiy mexanizimini ishlab chiqish uy-joy qurilishi texnologiyalarini amalga oshirishda quruvchilik kasbini egallashda yetakchi urin egalaydi. albatta bunda o'quvchilarda quruvchilik kasbiga bo'lgan qiziqishni shakllantirish o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'ladi. Bunda o'qituvchi ular faoliyatini diagnostika qilish, kasbni chuqur o'rganish, individual xususiyatlarini, kasbiy bilimlarini psixologik-pedagogik muhitdan chuqur o'rganadi.

Bunda kasb-hunar kollejlardagi ta'lim dasturlari va konsepsiyalari, ta'lim berish texnologiyalari quruvchi kasbini shakllantirish omillari muhim urin tutadi. Ushbu jarayonda ota-onalar va o'qituvchilar seminar va ma'ruzalarni tashkil etish, o'quvchilarning quruvchilik kasbi haqidagi bilimlari hamda jihatlarini pedagogik tahlil qilish kabilar ularning o'z mutaxassisligiga bo'lgan qiziqishni yanada rivojlantiradi.

Quruvchilik kasb-hunar kollejlarda maxsus fanlarni o'qitish jarayonida o'qituvchilar faoliyatini tahlil qilish ilg'or tajribalarni to'plash, umumlashtirish va ommalashtirish kasbiy, tashkilotchilik, muloqatga kirishuvchanlik, o'quvchilar jamosiga rahbarlik, boshqaruvchilik, ish yurita olish, ijodiy faoliyatni tashkil eta olish, voqelikni to'g'ri baholay olish, tadqiqotchilik sifatlariga ega bo'lish, o'quvchilarni ishga joylashtirish ishlari tashkil etish davlat va nodavlat tashkilotlari, ilmiy va jamoat vakillari bilan o'zaro hamkorlik harakatlarini amalga oshirish bo'lajak quruvchilarni tayyorlashda o'z samarasini ko'rsatadi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. - T.: "O'zbekiston", 2001.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'grisida"gi Qonuni. T. 1997.
3. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". -Toshkent, 1997
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.- 174 b.
5. Olimov Q.T., Sayidaxmedova M.S., Jalolova D.F., Bozorova M.Q., Boltayeva M.L., Alimov A.A.. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. T.,-2012.-300 b.
6. Q.T.Olimov, L.P.Uzoqova va boshqalar. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. -Toshkent: Fan, 2004. - 119 b.
7. Rashidov X. va boshqalar. «Kasbiy pedagogika» blokini o'qitish metodikasi. Toshkent: O'MKHTTKMO va UQTI, 2007. 200 b.
8. Olimov Q.T. va boshqalar. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. -Toshkent, «Fan» - 2009. 172 b.
9. Olimov Q.T. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyati. - Toshkent., "Moliya-iqtisod", 2006. - 165 b.
10. Batishev S.Y. Professionalnaya pedagogika. "Professionalnaya obrazovaniye". M.: 1997
11. Mavlyanova S. «Pedagogika» - Uchebnik, T. Ukituvchi. 2002
12. Bordovskaya N.V. i dr. «Pedagogika» - Uchebnik, M., 2000
13. N Samigov, M.S.Samigova "Qurilish materiallari" 2004 y, -Toshkent sh. Kasb-hunar kollejlari uchun qo'llanma
14. Popov L.N. "Qurilish materiallari". -M.; "Oliy maktab" 1989.

UDK: 37; 378; 394

TALABALARDA MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM SHAKLLARI

Shirmatov S. T.

O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo'mitasi Oliy harbiy bojxona instituti

E-mail: s.sirojiddin1980@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, laboratoriya mashg'uloti, musobaqa, trening, o'yinlar, o'quv tomoshalari kabi ta'lim shakllarining talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishda samarali ekanligi ko'rsatilgan. Alohida e'tibor ta'limning ushbu shakllarining talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: talabalar, muloqot madaniyati, rivojlantirish, ta'lim shakllari, ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, laboratoriya mashg'uloti, musobaqa, trening, o'yinlar, o'quv tomoshalari.

Формы обучения, направленные на развитие у студентов культуры общения

Аннотация. Данная статья посвящена эффективному совершенствованию культуры общения студентов с помощью следующих форм обучения, таких как: лекция, практическое занятие, семинар, лабораторное занятие, конкурс, мастер-класс и учебная игра. Особое внимание уделяется формам и методам раскрытия способностей культуры речи студентов.

Ключевые слова: студент, культура общения, совершенствование, формы обучения, лекция, практическое занятие, семинар, лабораторное занятие, конкурс, тренинг.

Forms of learning aimed at the development of students culture communication

Abstract. This article is devoted to effective improvement of culture communication of the students with the help of the following forms of training such as lecture, practical class, seminar, laboratory exercise, a contest, a master class and educational game. Special attention is paid to the forms and methods of description the abilities of speech students.

Keywords: student, culture of communication, improvement, forms of learning, lectures, practical lesson, seminar, laboratory classes, competition, training.

Ta'lim shakllari talabalarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishda muhim ahamiyatga ega. Xuddi ta'lim metodlari, vositalari hamda texnologiyalari kabi o'quv jarayonining tashkiliy shakllari ham o'qituvchi va talabalar faoliyatini nazariy hamda amaliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishini, tartibli kechishini ta'minlaydi. Qolaversa, ta'lim shakllarining o'quv materialining mazmuni, xarakteri, hajmi, talabalarining tayyorgarlik darajasi hamda o'qituvchining mavjud ish tajribasi, mahorati va kasbiy kompetentlik sifatlariga egaligini inobatga olgan holda to'g'ri tanlanishi o'qitish sifatini yaxshilash, ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ta'lim shakllarini to'g'ri tanlashning yana bir xarakterli jihati talabalarda o'quv materiallarini o'zlashtirishga nisbatan qiziqish va rag'batni uyg'ota olishi bilan belgilanadi. Shu sababli talabalarining ingliz tilga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirish jarayonida ta'lim shakllarining to'g'ri, oqilona tanlanishiga alohida e'tibor qaratildi.

Nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, anketa va ijtimoiy so'rov, fan o'qituvchilari hamda talabalar bilan olib borilgan suhbat, savol-javob hamda hujjatlarni o'rganish metodlariga asoslangan izlanish natijalari talabalarda ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirishda ma'ruza mashg'uloti, amaliy mashg'ulot, seminar mashg'uloti, laboratoriya mashg'uloti, musobaqa, trening, o'yinlar, o'quv tomoshalari kabilarning samarali ekanligi aniqlandi. Ayni o'rinda ushbu ta'lim shakllarining talabalarda ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirishdagididaktik imkoniyatlari va amaliy ahamiyatga egaligi xususida so'z yuritiladi.

1. Ma'ruza. O'zining didaktik mohiyatiga ko'ra ma'ruza "o'quvchilarning mustaqil ishlari uchun taxminiy asos sifatida katta hajmdagi tizimlashtirilgan axborotlarni berishning asosiy shakli" [1, 87] sanaladi. Xuddi shu jihatiga ko'ra ma'ruza talabalarining muloqot madaniyatini rivojlantirish jarayonida ham etakchi o'rin tutadi. Ta'limning mazkur shakli talabalarni ingliz tiliga asoslangan muloqot mohiyati, uni samarali tashkil etish shartlari, tartibi, muloqot jarayonida ishtirokchilarida namoyon bo'lishi zarur bo'lgan sifatlar, shaxs muloqot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga qo'yiladigan talablar, ana shu maqsadga yo'naltirilgan o'qitishning o'ziga xos jihatlari kabilarda to'g'risida ma'lumotlar bilan yaqindan tanishtirishga xizmat qiladi. O'qituvchi ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarni ingliz tiliga asoslangan muloqot jarayonining nazariy asoslari bilan tanishtirar ekan, ularning imkoniyatlari – ingliz tilini bilish darajasi, erkin muloqotga kirisha olishi, juftlik hamda kichik guruhlarda ishlay olish ko'nikmalariga egaligi, sherigi va guruhdoshlari bilan o'zaro hamkorlikka asoslangan holda muloqotni tashkil eta olish layoqati va boshqa omillarni inobatga olishi kutilgan natijaga erishish uchun zarur sharoitni yaratadi.

2. Amaliy mashg'ulot. Ta'limning ham talabalarining ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda amaliy mashg'ulot "o'qituvchi rahbarligi ostida olgan o'quv axborotlari (ma'ruza va mustaqil ishlari)ni chuqurlashtirish, tahlil qilish, kengaytirish, qo'llash va ularning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini nazorat qilish" [1, 87] imkoniyatini yaratadi. Amaliy mashg'ulot jarayonida talabalarga ingliz tilida muloqotni to'g'ri, samarali, faol tashkil etishga oid topshiriqlar beriladi va ularning bajarilishi o'qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi.

Mashg'ulot uchun mo'ljallangan topshiriqlar ingliz tilidagi muloqot, uni samarali tashkil etish, suhbatdoshga ta'sir ko'rsatishga doir nazariy bilimlarga tayangan holda amalda muloqot madaniyatiga ega ekanlikni namoyon qilishga yo'naltiriladi. Topshiriqlar talabalarining tayyorgarlik darajasidan kelib chiqqan holda juftlik yoki kichik guruhlarda bajariladi. Binobarin, muloqot o'zining asl mohiyatiga ko'ra ham shaxslararo tashkil etiladigan dialogga asoslanadi. Bu jarayonda o'qituvchi tomonidan juftlik va kichik guruhlarining to'g'ri shakllantirilishi nihoyatda muhim. O'qituvchi sinchkovlik bilan har bir juftlik yoki kichik guruhlarda ingliz tiliga asoslangan muloqotni tashkil etishga doir nazariy bilimlar, qoidalarni puxta o'zlashtirgan talaba (juftlikda) va talabalarining (kichik guruhlarda) bo'lishiga e'tibor qaratishi zarur. Aynan shu talabalarining faolliklari tufayli muloqot jarayoni qiziqarli, jonli va samarali kechadi.

Amaliy mashg'ulotlarda audio va video materiallardan foydalanish, ayniqsa, Amerika va Buyuk Britaniya lahjalarida faol tashkil etilgan dialoglardan iborat kinofilmlarni tomosha qilish, audio yozuvlar, xususan, she'r, qo'shiq va deklamatsiyalarni tinglash talabalarda ingliz tilida to'g'ri, faol, samarali muloqotni tashkil etish ko'nikmalarini hosil qiladi, ularning malakalarga aylanishlarini ta'minlaydi. OTMning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda talalar bilan tele yoki on-line muloqot asosida amerikalik, angliyalik yoki avstraliyalik yoshlar o'rtasida suhbatning tashkil etilishi ikki tomonlama, birinchidan, xorijlik tengdoshlarning qarashlari, hayotiy yondashuvlari, qiziqishlari, mutaxassis sifatida kamol topish yo'lida olib borayotgan amaliy harakatlaridan xabardor bo'lish, ular mansub bo'lgan xalqning turmush tarzi, madaniyati bilan yaqindan tanishish, ikkinchidan, tabiiy til muhitida muloqotni to'g'ri tashkil etish imkoniyatining yaratilishiga ko'ra foydali bo'lgan bo'lardi.

3. Seminar. Ta'limning bu shakli o'quvchilarning mustaqil ishlarini yanada rivojlantirish, ayrim mavzular yuzasidan keng va chuqur ma'lumot bera oladigan manbalar ustida ishlay olishlari hamda shu asosda kelajak faoliyatlarida zarur adabiyotlardan foydalana olish ko'nikma va malakalariga ega qilish [2, 118] uchun yo'naltiriladi. Seminar mashg'ulotining talabalarga ingliz tilida muloqot qilish yo'lida o'z bilimlarini boyitish, o'z ustida ishlash imkoniyatini yarata olishi bilan ham ahamiyatli sanaladi. Talabalar adabiyotlar bilan qo'shimcha ravishda shug'ullanar ekan, tabiiy ravishda ingliz tilida muloqotni tashkil etishga doir yana ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ladi. Qolaversa, seminar jarayonida talabalar o'qituvchi rahbarligida tengdoshlari bilan ingliz tilida samarali muloqot qilish shartlari, qoidalari hamda tartibi, o'ziga xos jihatlari muhokama qiladilar, bu esa mavjud nazariy bilimlarni yanada boyitish, uning negizida amaliy ko'nikma, malakalarni rivojlantirish uchun qulay sharoitni yuzaga keltiradi.

O'qitish amaliyotida ta'limning tashkiliy shakllaridan biri sifatida maxsus seminar ham tashkil etiladi. "Maxsus seminarlar ma'ruza mavzulariga aloqador bo'lmaydi va biror fanning dasturi mazmuniga kirmaydi. Odatda fanning xususiy masalalarini chuqur o'rganish maqsadini ko'zlaydi" [3, 70]. Talabalarining ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirishda maxsus seminarni tashkil etish sohaning etakchi mutaxassislari tomonidan zarur nazariy va amaliy ma'lumotlarni berish imkoniyatini ta'minlaydi. Maxsus seminarning "Ingliz tiliga asoslangan muloqotning o'ziga xos jihatlari", "Ingliz tilida og'zaki muloqotni to'g'ri tashkil etish qoidalari", "Ingliz tilida og'zaki muloqotni to'g'ri tashkil etish shartlari va ularning inobatga olinishi", "Ingliz tilida rasmiy nutq so'zlashga uslubiy yondashish", "Ingliz tilidagi norasmiy nutqning auditoriya holatiga bog'liqligi" kabi mavzularda tashkil etilishi talabalar tomonidan, birinchidan, ingliz tilining puxta o'zlashtirilishiga yordam bersa, ikkinchidan, ularning ingliz tiliga asoslangan muloqotni to'g'ri tashkil etish ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlari uchun sharoit yaratadi.

4. Laboratoriya mashg'uloti. Aynan laboratoriya mashg'ulotlari talabalar tomonidan rasmiy, norasmiy, og'zaki va yozma nutqda muloqot me'yorlarini ta'minlashga doir o'quv topshiriqlari bilan ishlash imkoniyatini yaratadi. Zero, laboratoriya mashg'ulotlarida talabalar bevosita ingliz tilida to'g'ri, samarali muloqot qilishga oid "amaliy masalalarni echish faoliyatini tashkil etadi" [2, 127]. Laboratoriya mashg'ulotlari uchun "Tanishuv" (o'zini, sherigini, jamoadoshlarni, mehmonlarni va mezbonlarni tanishtirish, salomga alik olish, o'z qiziqishlari haqida hikoya qilish, suhbatni yakunlash, xayrlashish), "Sayohatda" (yo'lovchilar, transport haydovchilari, mehmonxona xodimlari, gid, yo'l nazoratchilari va b.dan yo'lni so'rash), "Qiziqarli mavzular" (kinofilm, teatr tomoshasi, konsert dasturi, tanlov, festival, form va sport musobaqasi bo'yicha taassurotlar bilan o'rtoqlashish), "Mehmondo'stlik" (mehmonni shaharning diqqatga sazovor joylari bilan tanishtirish, nonushta, tushlik yoki kechki ovqatga taklif qilish, taklifni xushmuomalalik bilan qabul qilish yoki inkor etish), "Muzey (kutubxona)da" (zarur adabiyot, eksponat, adabiyot yoki tasviriy san'at asarining muallifi,

ijodi haqida soʻrash), “Dam olishda” (shaharda va shahar tashqarisi (tabiat bagʻrida, togʻda, dengiz boʻyicha dam olish, qadimiy shaharlarga tashrif buyurish), “Sayohatda” (xorij sayohati, vizani rasmiylashtirish, biletga buyurtma berish, mehmonxonani tanlash, mehmonxona xizmatlari uchun toʻlovni amalga oshirish, xorijiy sayohatidan qaytish, sayohat taassurotlari bilan oʻrtoqlashish), “Angliya (Amerika)ga sayohat” (London (Nyu-York) shahri, London (Nyu-York) shaharlari haqidagi ilk taassurot, shaharning tarixi, shaharning diqqatga sazovor joylarini taʼriflash, shaharda joylashgan mashhur hiyobon, muzey, kinoteatr, sport kompleksi, shahar transporti (avtobus, metro, taksi), sayohat davrida eng yoʻqtirilgan diqqatga sazovor joy,), “Sport” (amerikalik, angliyalik va oʻzbeklarning sportga munosabati, sportning muayyan turi bilan jiddiy shugʻullanish, badantarbiya mashqlarini bajarish), “Doʻkonda” (savdo-sotiqni tashkil etish, mahsulot haqida maʼlumotlarni bilishga qiziqish, mahsulot uchun pul toʻlash va minnatdorchilik bildirish) kabi qiziqarli mavzularning tanlanishi talabalarning ingliz tilini oʻrganishga boʻlgan intilishlarini kuchaytirish bilan birga muloqot qoidalarini puxta oʻzlashtirish malakalarini ham rivojlantiradi.

5. Musobaqa. Taʼlimning mazkur shakli ham talabalarning ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Binobarin, musobaqa “shaxslarda maʼnaviy-axloqiy (shu jumladan, irodaviy), jismoniy, estetik sifatlarni shakllantirish, uning dunyoqarashini boyitish maqsadida tashkil etiladigan, kim oʻzish yoki yaxshiroq natijaga erisha olish xarakteridagi bellashuv” [4, 88] sifatida talabalarning taʼlim jarayoniga boʻlgan qiziqishlarini orttiradi, oʻquv faolliklarini kuchaytiradi. Xususiyatiga koʻra musobaqalar ikki va undan ortiq guruhlar ishtirokida tashkil etiladi. Baʼzi holatlarda musobaqalar talabalar oʻrtasida individual xarakterda ham uyushtirilishi mumkin. Musobaqa shaklida tashkil etilayotgan taʼlim jarayonida oʻqituvchi guruhlar yoki individual ravishda talabalarga bir xil topshiriq beradi. Topshiriqning guruhlar (har bir talaba) tomonidan bajarilish holati gʻoloblarning aniqlanishini taʼminlaydi. Murakkabligiga koʻra bir mashgʻulot chogʻida talabalar tomonidan bitta yoki undan ortiq topshiriqlar bajarilishi mumkin. Barcha holatda boʻlgani kabi talabalarning ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirish maqsadida tashkil etilayotgan musobaqalar ham oʻzining qatʼiy belgilangan tartibi, topshiriqlarning bajarilish sifatlarini aniqlovchi mezon va koʻrsatkichlariga asoslanadi.

Mashgʻulotlar jarayonida talabalarning juftlik, kichik guruh yoki ikkita (uchta, toʻrtta) katta guruh asosida ingliz tilida turli mavzularda ogʻzaki va yozma nutqni bayon etish shartlari boʻyicha musobaqalashish (bellashish)lari taʼlim jarayonini faollashtirish bilan birga talabalarda ingliz tilini oʻrganishga boʻlgan ijobiy munosabatni nafaqat shakllantiradi, balki uni kuchaytirishga yordam beradi. Oʻqituvchilar mashgʻulotlarni musobaqa (bellashuv)shaklida tashkil etishda talabalarning qiziqish, xohish-istak va ehtiyojlarini inobatga olsalar, taʼlim natijasining samarali boʻlishiga erishiladi.

Odatda musobaqa (bellashuv) muayyan shart (topshiriqlar) asosida tashkil etiladi. Topshiriq (shart)lar mohiyati, murakkabligi, ishtirokchilar soni va boshqa omillar asosida juftlik, kichik guruh yoki katta guruhlar uchun alohida yoki bir mazmuna boʻlishi mumkin.

6. Trening. Taʼlimning mazkur shakli talabalarning ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Oʻqitish tizimida noanʼanaviy taʼlim shakli sifatida qoʻllanilayotgan treninglar “taʼlim oluvchilarda muayyan bilimlarni puxta oʻzlashtirish, ularni amaliyotda samarali qoʻllay olishga doir koʻnikma-malakalarni shakllantirishga, bu jarayonda ularning mavjud imkoniyatlarini toʻla roʻyobga chiqarishga yordam beradi” [4, 122]. Talabalarning ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirish maqsadida tashkil etilayotgan treninglarda: 1) fan oʻqituvchisi; 2) taklif etilgan mutaxassis; 3) faol talabalar trener vazifasini bajarishi mumkin. Asosiy eʼtibor talabalar tomonidan muloqotning ingliz tilida samarali tashkil etilishi, yoʻl qoʻyiladigan xato va kamchiliklarning tezkorlik bilan aniqlanishi va bartaraf etilishiga qaratiladi. Treninglarda imkon qadar talabalarda ingliz tilidagi muloqotni faol, joʻshqin tashkil eta olish malakalari shakllantiriladi. Talabalar jamoasi va kichik guruhlarning imkoniyatlari bevosita har bir talabada ingliz tilida muloqot qilish koʻnikma, malakalarini rivojlantirishga yoʻnaltiriladi. Oliy taʼlim muassasalaridatalabalarning ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan treninglar puxta asoslangan ish rejasiga koʻra tashkil etiladi.

7. Oʻyinlar. Taʼlimning ushbu shakli ham talabalarning ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Oʻyinlar ham oʻz mohiyatiga koʻra musobaqa va treninglar kabi talabalarni taʼlim jarayoniga qiziqitirish, ularda oʻquv faolligini oshirishga xizmat qiladi. Ulardan farqli ravishda oʻyinlar jarayonida talabalar nisbatan erkin boʻladi. Biroq, talabalarning ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirishga doir oʻyinlar ham muayyan qoidalariga

muvofiq uyushtiriladi. Binobarin, “kishilik faoliyatining muhim turi, ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiya (ko‘chirish, taqlid qilish) asosida o‘zlashtirish shakli” [2, 240] sifatida o‘yinlar talabalarni xorijiy mamlakatlarning fuqarolari bilan bo‘ladigan suhbat, dialog jarayoniga samarali tayyorlaydi. Oliy o‘quv yurtlarida talabalar ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirishda bevosita o‘ynaladigan o‘yinlar bilan birga o‘rgatuvchi dasturlar ko‘rinishidagi multimediyaga o‘yinlaridan ham o‘rinli foydalanish mumkin. Bu kabi o‘yinlar orqali talabalar xorijiy mamlakatlarning fuqarolari bilan tashkil etiladigan muloqot jarayonini imitatsiyalashga muvaffaq bo‘ladi.

Ingliz tiliga asoslangan muloqotni tashkil etishga doir o‘yinlar ham har qanday o‘yin kabi muayyan ssenariy (qoidalar, o‘yin tartibi) asosida tashkil etilishi zarur. Mashg‘ulotning o‘yin asosida uyushtirilishi o‘qituvchining ssenariy (qoida, o‘yin tartibi)ning puxta asoslanishiga e‘tibor qaratishi talab etiladi. Eng muhimi, ta‘lim shakli sifatida tanlanayotgan o‘yin akademik guruhdagi barcha talabalarni qamrab olishi lozim. Zero, shundagina guruh talabalarining barchasi ingliz tilida muloqotni to‘g‘ri, faol va samarali tashkil etishni o‘zlashtiradi.

8. O‘quv tomoshalari (yoki teatrlashtirilgan o‘quv tomoshalari). Ta‘limning bu shakli ham talabalar ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Talabalar ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirish maqsadida teatrlashtirilgan o‘quv tomoshalaridan foydalanish ularni shaxslararo munosabatlar jarayonida “o‘zini tutishga, ovozni, gvardani, qo‘l va oyoq harakatlarini boshqarishga” [5, 111] o‘rgatadi. Zero, bu kabi holatlar muloqot jarayonida suhbatdoshga samarali ta‘sir ko‘rsatishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli o‘qituvchilarni talabalar ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirish maqsadida teatrlashtirilgan o‘quv tomoshalari ssenariylarini tayyorlash va ulardan ta‘lim jarayonida samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ingliz tiliga asoslangan muloqotni tashkil etishga doir o‘quv tomoshasi ham auditoriyada, ham auditoriyadan tashqari sharoitda uyushtirilishi mumkin. Auditoriyadan tashqari sharoitda ingliz tiliga asoslangan muloqotni tashkil etishga doir o‘quv tomoshasining uyushtirilishi nafaqat bir akademik guruh uchun emas, balki boshqa guruhlarning talabalar uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, ta‘lim shakllari talabalarni nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishda muhim ahamiyatga ega. Ta‘lim shakllarining o‘quv materialining mazmuni, xarakteri, hajmi, talabalar tayyorgarlik darajasi, o‘qituvchining mavjud ish tajribasi, mahorati va kasbiy kompetentlik sifatlariga egaligini inobatga olgan holda to‘g‘ri tanlanishi o‘qitish sifatini yaxshilash, ta‘lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, anketa va ijtimoiy so‘rov, fan o‘qituvchilari hamda talabalar bilan olib borilgan suhbat, savol-javob hamda hujjatlarni o‘rganish metodlariga asoslangan izlanish natijalari talabalarda ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirishda ma‘ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, musobaqa, trening, o‘yinlar, o‘quv tomoshalari kabilarning samarali ekanligini aniqladi. O‘quv mashg‘ulotlarining bu kabi shakllarda tashkil etilishi talabalarda ingliz tilini o‘rganishga nisbatan ehtiyoj, qiziqish va rag‘batni yuzaga keltiradi. Qolaversa, talabalar ular yordamida ingliz tiliga asoslangan muloqotni to‘g‘ri, faol va samarali tashkil etishni muvaffaqiyatli o‘zlashtiradi.

Adabiyotlar

1. Pedagogika nazariyasi / Oliy ta‘lim muassasalari uchun darslik. Muall.: M.X.Toxtaxodjaeva va b. Prof. M.X. Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: Moliya-iqtisod, 2010. – 380 bet.
2. Pedagogika / Nopedagogik oliy ta‘lim muassasalari uchun mo‘ljallangan darslik. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, D.I.Ro‘zieva, M.H.Usmonboeva. – Toshkent: Fan, 2012. – 205-bet.
3. Pedagogika. Psixologiya / O‘quv qo‘ll. V.M.Karimova va b. – T.: TDPU, 2007. – 70-b.
4. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob/ Metodik qo‘llanma. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Inog‘omova. – T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012. – 127-b.
5. Rahimova F.N. Teatr pedagogikasining didaktik imkoniyatlari / Xalq ta‘limining dolzarb muammolari. Ilmiy maqolalar to‘plami. II tom. – T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI, 2015. – 111-b.

UDK 378.1

PEDAGOG SHAXSIGA QO‘YILADIGAN TALABLARGA YONDASHUVLAR**Abdullayeva Sh.X.***O‘zbekiston Milliy universiteti*

Annotatsiya. Maqolada pedagog shaxsiga qo‘ yiladigan talablarga turlicha yondashuvlar talqin qilingan. Ta’lim tizimida faoliyat yurituvchi pedagog kadrlarga qo‘ yiladigan talablar, pedagog shaxsi va kasbiy xususiyatlarini o‘rganish bo‘ yicha mamlakatimiz va xorij olimlari tadqiqotlari muhokama etilgan. Pedagogik faoliyatda talab etiladigan pedagogik kompetentlik komponentlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: pedagog, shaxs, pedagogik faoliyat, kasbiy bilimlar, pedagogik qobiliyatlar, kasbiy muhim sifatlar, yondashuvlar.

Подходы к требованиям, предъявляемым к личности педагога

Аннотация. В статье приводятся различные подходы к требованиям, предъявляемым к личности педагога. Обсуждаются исследования отечественных и зарубежных ученых по изучению требований, предъявляемых к педагогам в системе образования, особенностей личности и профессиональной деятельности педагога. Проанализированы компоненты педагогической компетентности, которые востребованы в педагогической деятельности.

Ключевые слова: педагог, личность, педагогическая деятельность, профессиональные знания, педагогические способности, профессионально важные качества, подходы.

Approaches to the requirements of the individual teacher

Abstract. The article presents different approaches to the requirements of the individual teacher. Discussed the study of domestic and foreign scientists to study the requirements for teachers in the education system, the characteristics of the person and professional work of the teacher. Analyzed components of pedagogical competencies that are in demand in the educational activities.

Keywords: teacher, personality, educational activities, professional knowledge, teaching skills, professional qualities, approaches.

So‘ nggi yillarda mamlakatimizda ta’limni rivojlantirish umummilliy dasturi doirasida o‘ quv yurtlarini zamon talabiga mos ravishda modernizatsiya qilish, ta’limning mazmun-mohiyatini o‘ zgartirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Ma’lumki, oldingi ta’lim ko‘ proq akademik bilimlar berishga qaratilgan bo‘ lsa, hozir unib-o‘ sib kelayotgan yoshlarning chuqur nazariy bilimlarga ega bo‘ lishi bilan birgalikda, ularda amaliy ko‘ nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Ta’limning takomillashuv jarayoni shahdam odimlamoqda. Ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning bilim saviyasi, malakasi hamda islohotlarni amalga oshirishga tayyorgarlik darajasiga ham bevosita bog‘liq. Shu bois barcha ta’lim muassasalari pedagog xodimlari doimiy ravishda o‘ z bilim, ko‘ nikma va malakalarini yangilab borishlari uchun bugun keng imkoniyatlar yaratilgan.

Pedagogik faoliyat pedagogning ta’lim oluvchiga tarbiyalash va ta’lim berishdan iborat ta’sir ko‘ rsatishi bo‘ lib, uning shaxslilik, intellektual va faoliyatli rivojlanishiga yo‘ naltirilgan hamda bir vaqtning o‘ zida uning o‘ zini o‘ zi rivojlantirish va o‘ zini o‘ zi takomillashtirish asosi hamdir. Mazkur faoliyat sivilizatsiya tarixida madaniyatning yuzaga kelishi bilan, ya’ni ishlab chiqarish malakalari va ijtimoiy xulq-atvor normalarini yaratish, saqlash va avlodlarga yetkazish vazifasi bilan birga paydo bo‘ ldi. Dj. Bruner fikricha, insoniyat yosh avlodni o‘ qitishning faqat uchta asosiy usulini biladi: oliy primatlarda o‘ yin jarayonida ko‘ nikma komponentlari tarkibini ishlab chiqish, tuzem xalqlarda kontekstda o‘ qitish va bevosita amaliyotdan ajratilgan maktab metodi. Asta-sekin jamiyat rivojlanishi bilan birinchi sinflar, maktablar, gimnaziya ochila boshladi. Turli mamlakatlarda turli bosqichlarda o‘ qitish mazmuni, maqsadlarida juda muhim o‘zgarishlar yuz berishiga qaramasdan, maktab ijtimoiy institut sifatida qoldi, uning asosiy vazifasi – ijtimoiy-madaniy tajribani o‘ qituvchilar va pedagoglar pedagogik faoliyati vositasida avloddan-avlodga yetkazishdir. Biz boshdan kechirayotgan bugungi o‘ zgarishlar davri aynan iste’dodli va iqtidorli, zexni o‘ tkir, muloxazali, yangidan yangi kashfiyotlarga qodir insonlari tarbiyalashni talab qilmoqda va ikkinchi tomondan mustaqillikni o‘ zi tub ma’noda ana shunday barkamol avlodni tarbiyalash uchun shart-sharoitlarni yaratib berdi.

So'nggi yillarda pedagog shaxsiga qo'yiladigan talablar uning kasb malakasi, kasbiy mahorati, kasbiy tayyorgarligi, o'z kasbining barcha jihatlarini har tomonlama to'liq va puxta egallagan ustasiga xos sifatleri darajasini oshirib borishni taqozo etadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, kasb malakasi, kasbiy mahorat, kasbiy tayyorgarlik darajasi, kasb ustasi kabi tushunchalarning xar biriga psixologik ta'rif va izoh keltirilgan. Mazkur tushunchalarning mazmun-mohiyati bir-biriga juda yaqin va umumiy o'z zakkaga ega ekanligini hisobga olgan holda ularni umumlashtirib ifodalovchi tushuncha sifatida professionalizm deb nomlash maqsadga muvofiqligi juda ko'p mualliflar tomonidan e'tirof etiladi. Pedagog professionalizmi darajasi ko'rsatkichlari uning kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalari darajasi bilan belgilanadi. Ulardan har biri quyidagicha tarkibiy tuzilishga ega:

O'qituvchining kasbiy bilimlari: ixtisoslik fani nazariyasi, ixtisoslik fanini o'qitish metodologiyasi, pedagogik va psixologik texnologiyalar, pedagogik psixologiya, axborot-kommunikasion texnologiyalar, milliy g'oya va ma'naviyat asoslari, o'quvchilarni milliy mustaqillik g'oyalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metodologiyasi, me'yoriy xuquqiy hujjatlar, iqtisodiy, huquqiy va moliyaviy masalalar va x.k. Pedagogning kasbiy ko'nikmalariga o'qitish va tarbiyalash maxorati, o'quv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni ta'minlaydigan shaxsiy sifatleri, ta'lim olayotganlarning bilimlarini xolisona nazorat qilish hamda baholash mahorati va boshqalar kiradi. Pedagog kasbiy malakalari qatoriga bir qator mualliflar o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va takomillashtirish, kabinetlarni jihozlash, o'qitishning zamonaviy, interfaol usullarini qo'llash va x.k.larni kiritadilar.

Sharqning buyuk allomasi Abu Rayhon Beruniy yoshlarni o'qitish uchun o'qituvchi tanlashni birinchi va asosiy o'ringa qo'yadi. Uning fikricha, pedagog xushmuomala, rostgo'y, o'z fanini yaxshi biladigan pokiza, toza, ozoda yuradigan va hammaga namuna bo'ladigan bo'lishi kerak. Bu adolatli va to'g'ri talabdir. Beruniy ta'lim-tarbiyaga o'quvchilarning diqqatini jalb qilish, mashg'ulotlar davomida talabalar zerikib qolmasliklari uchun ta'lim olishning turli yo'llari, shakl va metodlari ustida to'xtalib o'tgan. Uning ta'kidlashicha "bizning maqsadimiz o'quvchini toliq qilib qo'yishdir, xadeb bir narsani takrorlash zerikarli bo'ladi, materialga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi. Agar o'quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib ketse, u xuddi turli-tuman bog'rog'larda sayr qilib yurgandek bo'ladi. Kishi ularning hammasini ko'rgan va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa kishiga rohat bag'ishlaydi, deb bejiz aytilmagan". Beruniy bilimlar ustozlar tomonidan o'rgatiladi, deb biladi. U nazariy bilimlarni talabalarga singdirish usullari haqida to'xtalib, muallim o'z ishiga asosan qiziqarli suhbat usuli bilan yondashib, shogirdning fanga, kasbga, o'rganilayotgan ilmga havasini uyg'ota olishini, ta'limning asosiy vazifalaridan biri deb biladi.

Abu Ali ibn Sino bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etar ekan, ta'limda quyidagi tomonlarga rioya qilish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, talabaga bilim berish o'qituvchining mas'uliyatli vazifasidir. Uning fikricha, o'qituvchi muomalada bosiq va jiddiy, talaba xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati va shaxs sifatidagi xususiyatlarini bilishi, fanga qiziqitira olishi zarur, asab-ruhiy tizimi beqaror inson uning fikricha, o'qituvchi bo'la olmaydi.

Shuningdek, Sharq mutafakkirlaridan Alisher Navoiy, imom G'azzoliy, Umar Xayyom, Abduholik G'ijduvoni, Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, pedagogik faoliyatga yuqori baho berib, ta'lim va tarbiya beruvchi inson shaxsiga qo'yiladigan talablar haqida o'z fikr-mulohazalarini ilgari surganlar.

O'zbekistonlik olimlardan E.G'.G'oziyev, M.G.Davletshin, V.M.Karimova, G'.B.Shoumarov, A.Jabborov, N.F.Haydarov, A.I.Rasulov va boshqalar ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi pedagog kadrlarga qo'yiladigan talablar, pedagog shaxsi va kasbiy xususiyatlari haqida o'z tadqiqotlarini olib borganlar va ilmiy xulosalarini bayon keltirganlar. Pedagog shaxsi va kasbga oid nazariy va metodologik masalalarni ishlab chiqishda rossiyalik mualliflar P.F.Kapterov, F.N.Gonobolin, E.A.Karandashev, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A.Slasyonin, S.V. Kondratyeva, V.A.Kruteskiy, Yu.N.Kulyutkin, A.I. Ilyerbakov, A.K.Markova, L.M.Mitina ishlarini aytib o'tish mumkin.

F.Haydarov, N.X.Xalilova o'qituvchining eng muhim shaxsiy sifatleri ichida quyidagilarni e'tirof etadilar: ijtimoiy javobgarlikni his etish, oliyjanoblik, aql-farosat, ma'naviy poklik va ma'rifat bo'yicha yuksak maqsadlarga mos kelishi, sabr-toqatlilik, matonatlilik, o'zini o'zi doimiy rivojlantirish va takomillashtirish va h.k.[10].

V.A.Kan-Kalik fikricha, o'qituvchining individual sifatleri bir vaqtning o'zida ikki darajali talablarga javob berishi kerak. Birinchi darajadagi talablarga o'qituvchiga kasb egasi sifatidagi talablar qo'yilishi kiradi. Ular ijtimoiy formasiyalar, o'quv muassasalari, o'quv predmetiga bog'liq

emas. Mazkur talablarga har qanday o'qituvchi, u qanday o'quv muassasasida, qaysi fandan mehnat qilmasin javob bera olishi kerak.

N.V.Kuzmina, A.I.Шyerbakovlarning ta'kidlashlaricha, o'qituvchida o'zini o'zi baholash adekvatligi, xavotirlanishning ma'lum optimumi bo'lishi zarur va ular pedagogning intellektual faolligi, maqsadga yo'nalganligi, tirishqoqligi, mehnatsevarligi, kamtarinligini ta'minlaydi. Ayniqsa pedagogdagi o'quvchilar psixik holatlarini tushuna olish, empatiya, ijtimoiy o'zaro ta'sirga bo'lgan ehtiyojning mavjud bo'lishi juda muhimdir. Tadqiqotchilar tomonidan pedagogik takt masalasiga alohida o'rin beriladi. Unda pedagogning umumiy madaniyati va yuqori professionalizmi namoyon bo'lishi ta'kidlanadi[7].

F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlar strukturasi kiruvchi quyidagi jabhalarni keltiradi: o'quv materialini hamma uchun tushunarli qila olish, o'quvchilarga pedagogik-irodaviy ta'sir ko'rsatish, o'quvchilar jamoasini tashkil eta olish, talabalarga nisbatan mehrli bo'lish, pedagogik takt, nutq mazmunligi va yorqinligi, o'quv predmetini hayot bilan bog'lay olish qobiliyati, kuzatuvchanlik, pedagogik talabchanlik va x.k. Pedagogik qobiliyat - bu qobiliyat turlaridan biri kishning pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini aniqlab beradi. Didaktik qobiliyatlar - bu bolalarga o'quv materiallarni aniq va ravshan tushuntirib, oson-qilib yetkazib berish, bolalarda fanga qiziqish uyg'otib, ularda mustaqil fikrlashni uyg'ota oladigan qobiliyatlardir[4].

Didaktik qobiliyatlarga ega bo'lgan o'qituvchi zarurat tug'ilganda qiyin o'quv materiallarni osonroq, murakkabrog'ini soddaroq, tushunishi qiyin bo'lganini tushunarliroq qilib o'quvchilarga moslashtirib bera oladi. Perseptiv qobiliyatlar - bu talabaning ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o'quvchi shaxsining vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog'liq nozik tomonlarini tushuna bilishdan iborat qobiliyatdir. Ikkinchi darajadagi talablar o'qituvchidan pedagogik faoliyat uchun shaxs sifatida tayyor bo'lishni talab etadi. Tayyorgarlik deganda keng va professional tizimli kompetentlik, qat'iyatlilik, ijtimoiy-ahamiyatli yo'nalganlik, shuningdek kommunikativ va didaktik ehtiyojlar, muomalaga ehtiyoj, tajriba almashishga bo'lgan ehtiyojlar mavjudligi taqozo etiladi.

A.K.Markova[8] kasbiy kompetentlikka asos qilib pedagog mehnati psixologiyasini qabul qilishni taklif etadi. A.K.Markova tomonidan ilgari surilgan kasbiy faoliyat modeli o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- mehnat jarayoni va natijasi;
- samaradorligi va samarasizligi, turli sharoitlarda o'ziga xosligi;

Kasbiy kompetentlik deganda pedagogning shunday kasbiy faoliyati nazarda tutiladiki, bunda yetarlicha yuqori darajada pedagogik faoliyat, pedagogik muomala amalga oshiriladi, o'quvchilarning ta'lim olishi va tarbiyalanishi borasida yaxshi natijalarga erishishda aks etuvchi pedagog shaxsi yuzaga chiqadi. Bunda pedagogning kompetentligi haqqoniy mehnatda bir tomondan uning kasbiy bilim va malakalari, boshqa bir tomondan kasbiy pozitsiyasi va psixologik sifatlari mutanosibli bilan aniqlanadi. E.G'.G'oziyev fikricha ideal pedagogda takt boshqani tushuna olish malakasi xushmuomalalik, muloqotmandlik kasbiy sifatlardan ham ko'ra ko'proq ahamiyatga egadir. Dunyoqarashning kengligi, har tomonlama bilimga ega bo'lish va yondosh fanlardan yaxshi xabardor bo'lish, mashg'ulotlarni o'tkaza olish malakasi oliy quv yurti o'qituvchisining eng muxim kasbiy sifatlardan biridir. Kasbiy mahorat, talabalar bilan individual ish olib borish malakasi, qo'rqitish va baqirish bilan emas, mantiq bilan ishontira olish ham muhim xislatlardandir[9].

Shunday qilib, o'qituvchi kasbiga qo'yiladigan talablar borasida olib borilgan tadqiqotlar, bildirilgan fikrlar va ilgari surilgan g'oyalar doirasi juda xilma-xil bo'lib, zamon talabi o'zgarishi bilan o'zgarib boradi.

Adabiyotlar

1. Бируни, Абу Рейхан. Определение границ расстояний между населенными пунктами (Геодезия) / Исслед., пер. с араб. и примеч. П. Г. Булгакова // Избр. Произведения. Т. III. Ташкент: Фан, 1996. 362 с.
2. Бодалев А.А Личность и общение. – М., 1995. – 328с.
3. Вачков И.В. Психологические условия развития профессионального самосознания учителя (на материале специальных тренингов групп). Автореф. дисс...канд.психол.наук. – М., 1995. – 19с.
4. Гоноболин Ф.Н. Книга об учителе. – М., 2005. – 260с.

5. Зеер Э.Ф. Психология профессии. – Екатеринбург: Изд-во Урал. Гос. Проф - пед. ун-та, 2000. – Б.87.
6. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. – Ростов-на-Дону: Учитель, 1996. – Б. 121.
7. Кузьмина Н.В. Способность, одаренность, талант учителя. – Л., 1985. – 32с
8. Маркова А.К. Психология труда учителя. – М., 1993. – 192с.
9. G‘oziyev E.G‘. Oliy maktab psixologiyasi. -T. 2006. – B.56
10. Haydarov F.I., Xalilova N.N. Psixologiya o‘ qitish metodikasi. -T. 2006., -S. 18-19.

UDK 502.1:811.111

МЕТОДЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ ПРИ ИЗУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Обидова Г.К.

Ферганский филиал Ташкентского университета информационных технологий

Аннотация. В статье изложены методы экологического образования при изучении английского языка в современной педагогической науке, а также имеется корректировка учебного процесса с необходимой последовательной ориентацией на четко поставленные цели.

Ключевые слова: моделирование, конструирование, коммуникативные технологии, модульное обучение, стимулирование, мотивация, индукция, дедукция, эксперимент, дискуссия

Ingliz tilini o‘rganishda ekologik talim metodlari

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy pedagogikada chet tilini o‘rganishda ekologik ta‘lim usullaridan foydalanish, shuningdek ta‘lim jarayoniga moslashish yo‘lida muhim bo‘lgan izchil yo‘nalishdagi aniq maqsadlarni qo‘yishni belgilab beradi.

Kalit so‘zlar: modellashtirish, dizayn, aloqa texnologiyasi, modulli o‘qitish, rag‘bat, kirish, xulosa, tajriba, muhokama

Methods of environmental education in the study of the English language

Abstract. The article presents the methods of ecological education in learning foreign languages in the teaching of modern science, and there is adjustment of the educational process with the necessary consistent focus on clear goals.

Keywords: modeling, engineering, communication technology, modular training, incentive, motivation, induction, deduction, experimental, discussion

При необходимой реализации различных идей экологизации образования в высшей школе особое внимание необходимо уделять и педагогическим технологиям с конструированием систем обучения и профессиональной подготовки студентов. Специфика педагогической технологии должна состоять в том, что в обучении имеется корректировка учебного процесса с необходимой последовательной ориентацией на четко поставленные цели.

В экологическом образовании могут реализовываться определенные педагогические технологии, а именно:

- проблемное обучение;
- коммуникативные технологии обучения;
- модульное обучение.

При всем этом, процесс обучения иностранному языку в высшей школе, в процессе которого могут использоваться различные методики по формированию не только навыков овладения иностранными языками, но и основы получения и закрепления природоохранных знаний, - тоже может рассматриваться как одна из инновационных педагогических технологий. Кроме того, в процессе учебных занятий по иностранному языку можно применение специальных методик построения экологически ориентированных учебных практикумов.

В экологическом образовании с целью формирования экологической культуры студентов одну из важнейших ролей могут играть современные компьютерные технологии. При этом обучающие компьютерные программы должны содержать в себе следующие цели:

- научить студентов умению грамотно применять все возможные эффективные меры по устранению либо минимизации ущерба в случаях экологических катастроф;
 - научить студентов оценивать степень возникшей экологической опасности;
 - убеждать студентов в выгоде дисциплины и следования правилам в процессе практических занятий.

Стоит отметить, что выбор педагогической технологии учитывает также и то, что она является универсальным средством достижения цели и задач экологического образования, а именно формирование экологической культуры, которая по своей сути предполагает взаимосвязь как теоретических, так и практических видов деятельности.

Рассматривая экологизацию образования, необходимо также помнить о том, что успех обучения должен зависеть не только от правильного определения его целей, задач и содержания использования разнообразных педагогических технологий, но также и от многочисленных методов обучения. Как известно, методы обучения определяются как универсальная система последовательных и взаимосвязанных действий между преподавателем и студентами, которые обеспечивают усвоение содержания образования. Для удобства классификации, мы определяем специальные методы (Схема 1) экологического образования, учитывая их функции в учебно-воспитательном процессе при изучении иностранного языка

Схема 1. Методы экологического образования при изучении иностранного языка

Изложение (рассказ,	Беседа	Дискуссия	Работа с
Практич.	Эксперимент	Моделирова-	Конструи-

Представленные методы экологического образования особенно характерны для современной педагогической науки и практики.

В нашем исследовании мы придерживаемся той классификацию, которая, на наш взгляд, особенно концентрирует в себе наиболее востребованные подходы, которые исходят из методологии целостного подхода к образовательной деятельности. Данный подход позволяет выделить нам 3 большие группы методов обучения, а именно:


- 1) методы современной организации и осуществления учебно-воспитательной деятельности;
- 2) методы актуального стимулирования и мотивации учебно-познавательной деятельности;
- 3) методы контроля и самоконтроля учебной деятельности.

Все они отличаются по характеру познавательной деятельности, которая осуществляется студентами при усвоении содержательных материалов экологического образования, а также по характеру деятельности преподавателя, организующего разнообразную учебную деятельность (Схема 2.)

Стоит отметить, что входящие в каждую из групп методы могут составлять важный арсенал способов учебной деятельности в образовательном процессе. Кроме того, методы обучения будет лучше всего реализовывать при обоюдном возможном сочетании.

Рассматривая различные средства, формы и методы экологизации образования при изучении иностранного языка, следует также отметить, что среди них не менее важное место занимают многие современные педагогические средства обучения: кинофильмы, наглядные пособия и слайды. Они способны открывать значительные возможности для совершенствования имеющихся форм и методов учебной деятельности со студентами, рационализации труда самого преподавателя, при этом обеспечивая условия для наиболее широкого раскрытия экологизированного учебного содержания.

Схема 2. Группы методов, необходимые для организации целостного педагогического процесса



Успешное достижение целей экологизации изучения иностранного языка в ракурсе глобального образования и качества усвоения студентами учебного материала в большей степени зависит от форм и методов организации совместной учебной деятельности преподавателя и студента. Все это в конечном итоге способно регламентировать дальнейшее их взаимодействие в установленном режиме, определяя соотношение индивидуального и коллективного обучения.

Литература

1. Азизходжаева Н.Н. Вопросы подготовки учителя в системе непрерывного педагогического образования. - Ташкент: ТГПИ, 1995. - 64 с.
2. Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения: общедидактический процесс. - М.: Просвещение, 1982. - 192 с.
3. Зиямухамедов Б., Зиямухамедова С. Новая педагогическая технология. - Ташкент: Изд-во медицинской литературы имени «Абу Али ибн Сино», 2002. - 120 с.
4. Клубов С.В. Геоэкология: русско-английский понятийно-терминологический словарь / С.В.Клубов, Л.Л. Прозоров. - М.: Научный мир, 2002. - 160 с.
6. Ушинский К.Д. Педагогические сочинения. В 6 т. / Т 4. - М.: Педагогика, 1988. - 528 с.

UDK 378.147

СУЩНОСТЬ И СТРУКТУРА ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА СТУДЕНТОВ КАК НЕОТЪЕМЛЕМОЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЯВЛЕНИЕ

Кадилова М.Р.

Ферганский филиал Ташкентской медицинской академии
E-mail: abdumalikk@umail.uz , abdumalikk_1985@inbox.uz

Аннотация. В данной статье даётся определение творческому потенциалу личности, сущности и содержания понятия творческому потенциалу, даются сведения об основных показателях, характеризующих особенностей развития творческого потенциала студентов: ценности, креативности и способности к активной творческой деятельности.

Ключевые слова: самоактуализация, потенциал, креативность, творческие способности, нестереотипность, оригинальность, интегративное личностное свойство, самореализация, самоопределение личности.

The essence and structure of the creative potential of students as an injection pedagogical event

Abstract. In this article the definition of creativity personality, essence and content of the concept of creativity, gives information on the main indicators characterizing features of the

development of the creative potential of students: the values of creativity and capacity for creative activity.

Keywords: self-actualization, potential, creativity, creativity, non-stereotypical, originality, integrative personal property, self-realization, self-determination of the individual.

Talabalar ijodiy salohiyatining mazmun va mohiyati zaruriy pedagogic holat sifatida

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxsning ijodiy salohiyatining yo'nalishlari, ijodiy salohiyatning mazmun va mohiyati, asosiy ko'rsatkichlari, talabalarning ijodiy qobiliyatini xarakterlovchi ko'rsatkichlari haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib: qimmatli, kreativlik va qobiliyatlikning faol ijodiy faolligi ko'rsatib berilgan.

Аннотация. В данной статье излагается значение указа “Об учреждении фонда развития детского спорта в Узбекистане”, стремление молодого поколения здоровому образу жизни, разработанные предложения по привлечению физическим упражнениям, развитию массового спорта, обоснованные критерии развития спорта.

Ключевые слова: указ, занятие, физическое качество, результаты, массовый, привлечение, спортивное упражнение, детский спорт.

Sport developing fund's role in attracting of pupils to sport exercise process

Abstract. In this article together with arranging the preposition concerning the significance of the Decree about “Organization of fund of the development of children’s of Uzbekistan”, striving of young generation for healthy, developing a mass sport and the ways of appealing them for physical exercises, factors which develop this preposition is based.

Keywords: resolution, training, physical, quality, mass, draw, sport exercise, children’s, sport.

Respublikamizda mustaqillik qo‘lga kiritilgandan so‘ng jismoniy madaniyat va sportga barcha jarayonlar kabi davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligi ta’kidlandi va bu sohani rivojlantirish huquqiy kafolatlash nuqtai nazaridan mustaqillikni ilk kunlaridanoq «14 yanvar» (1992 y.), «Jismoniy madaniyat va sport to‘g‘risida» qonun qabul qilindi. 2000 yilda bu qonun qayta tahrirdan o‘tdi va bu qonun 2015 yil 6 avgustda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlandi.

O‘zbekistonda «Jismoniy tarbiya v sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (1997 y.) qaror futbol (1995 y.), kurash (1999 y.), 2008-2012 yillarda O‘zbekistonda bolalar suv sportini rivojlantirishning moddiy texnika bazasini mustahkamlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida (2008 y.) O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining qarori, sport turlarini yanada rivojlantirish to'g'risidagi qarorlar va shu sohaga taalluqli hujjatlarning qabul qilinishi ularning bosqichma-bosqich hayotga tadbiq etilganligi hamda O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» to'g'risidagi qonunlarda, jismoniy madaniyat va sportga alohida e'tibor berilishi yuqorida qayd etilgan so'zlarni ifodasidir.

Keyingi yillarda O'zbekistonda jismoniy madaniyat ayniqsa sportda yoshlarimiz nufuzli o'rinlarni egallab o'z natijalari bilan jahon arenalarida mamlakatimiz bayrog'ini baland ko'tarib madhiyamizni yangratayotganligiga, mamlakatimiz shuhratini jahonga tanitib kelayotganligi, minglab xalqaro standartlarga sport inshootlari, majmualari qurilib ishga tushirilayotganligi va bu inshootlarda millionlab yoshlarimiz shug'ullanib kamolga etayotganligi, qabul qilingan farmon, qarorlar, meyyoriy hujjatlar amaliyotda o'z aksini topayotganligi va hujjatlarni amalga oshirish, etakchi sportchilarni, yosh iqtidorli zahiralarni tayyorlash kundan-kunga ko'payotganligi qabul qilingan farmon, qarorlarni amaliy mahsuli ekanligini hayot, qolaversa xorijiy mamlakatlar vakillari o'z chiqishlarida tasdiqlayotganliklari mamlakatimizda jismoniy madaniyat va sportga berilayotgan e'tibor - yuqori darajada ekanligini isbotlab turibdi [2].

Jismoniy tarbiya va sport nafaqat sportchilar tayyorlash uchun, balki genofondni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Amalga oshirilgan sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar samarasida aholining o'rtacha yoshi 1990 yildagi 67 yoshdan 73,5 yoshga ayyollar o'rtasida, erkaklar 75,8 yoshga etdi. Ayni paytda yurtimizda 225 ming nafardan ziyod 80 yoshda, 44 ming nafardan ortiq 90 yoshdan, qarib 9 ming nafarga yaqin 100 yoshdan oshgan piru-badavlat insonlar yashayotganini alohida e'tirof etish lozim [3].

Demak, ommaviy sport, ayniqsa o'quvchilarni sport mashqi jarayonlariga jalb qilish yo'llarini rivojlantirish, uni ilmiy asosda uslublarini, tashkiliy asoslarini yaratish jismoniy tarbiyaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti ko'rsatmalari asosida qabul qilingan «O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida»gi farmon [1] Respublikamiz, xususan o'zbek sporti tarixida e'tirof etilgan va o'z vaqtida qabul qilingan farmonlardan biridir, bu farmonda o'sib kelayotgan yosh avlodning yana bir karra jismoniy va ma'naviy salomatligini shakllantirish, sog'lom turmush tarziga intilish va sportga mehr-muhabbatini singdirishning g'oyat muhim sharti sifatida ommaviy sportni rivojlantirishni yo'l-yo'riqlari ko'rsatildi va qonuniy kafolatlandi. Shuningdek, bolalar sporti bo'yicha ustozlar va pedagog kadrlarni mamlakatning etakchi ilmiy hamda ta'limiy makrazlarida va chet ellarda tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish borasida respublika Milliy Olimpiya qo'mitasi, sport federatsiyalari, klub va tashkilotlarni o'zaro faol hamkorlik qilishlari ta'kidlandi. Ayniqsa ommaviy sportni rivojlantirish, istiqomat joylarida texnikaviy jismoniy tarbiya vositalari bilan jihozlangan, zamonaviy bolalar sport komplekslarini barpo etish ahamiyatini keng targ'ib qilishni tashkil etish va amalga oshirish, bu vazifalarni ro'yobga chiqarishga jamoatchilikni, fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish tashkilotlarini faol jalb etish farmonida ta'kidlandi.

Mazkur farmon bolalar sportini rivojlantirish suratini tezlashtirdi, ayniqsa Respublikamizni chekka qishloqlarida o'quvchi yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga ommaviy jalb qilish va ularni muntazam shug'ullanishlariga sharoit yaratildi, istiqbolli rejalar ishlab chiqildi, bu rejalarini amalga oshirish kabi dolzarb masalalarni, Davlat umum milliy dasturiga asosan samarali hal qilish imkoniyatlarini ochib berdi.

Ma'lumki, bolalar sportini rivojlantirish nafaqat moddiy-texnik jihatlar bilan, balki yosh avlodni jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish, mashg'ulotlarni ilmiy asosda shakllantirish va sport mahoratining poydevori mustahkam negizi hisoblangan jismoniy tayyorgarlikni samarali shakllantirish muhimligiga e'tibor qaratadi.

Ilmiy manbalarda ta'kidlanganidek, mamlakatimizda 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan o'quvchilardan aynan «O'zbekiston Respublikasida bolalar sportini jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi (2002 y.) farmondan so'ng jamg'arma tomonidan hududlarni iqlim sharoiti, aholisi hisobga olingan holda, maxsus loyiha asosida 10 yil mobaynida 5 turdagi jami 1204 ta sport inshooti hamda maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 3690 ta mavjud sport zallari kapital ta'mirlanib va yangidan qurilib foydalanishga topshirildi. Ushbu inshootlar 120 turdagi jahon andozalariga mos keladigan sport va anjomlar bilan jihozlandi. Hozirgi vaqtda sport jihozlari 116tasi mamlakatimizda ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimizda yoshlarni ommaviy ravishda jismoniy tarbiya va sport harakatiga jalb qilishga qaratilgan sport musobaqalarini o'z ichiga olgan («Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada») uch bo'g'inli yagona tizim joriy etildi. O'quvchilar o'rtasida sport bilan shug'ullanuvchilar 2008 yil 29,2 foizdan, 2011 yilda 34,9 foizgacha, 2015 yilga kelib esa 62 foizga oshdi. Yurtimizda birgina 2005-2011 yillarda mutlaq sog'lom bolalar 52,7 foizdan 62,9 foizgacha o'sdi, surunkali kasallikka chalingan bolalar soni keskin kamaydi. Ana shu yillarda o'quvchi-yoshlarimiz xalqaro musobaqalarda 4025ta, shundan 1279tasi oltin, 1164tasi kumush va 1589tasi bronza medallarini qo'lga kiritishdi.

O'zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini qabul qilinishi va bu yo'nalishdagi ilmiy ishlar va maqola, adabiyotlarni tahlil etish jarayonida quyidagi fikr va takliflarga kelindi:

1. Ushbu farmon qabul qilingandan so'ng mamlakatimizda o'quvchilarni sport mashqi jarayoniga jalb qilishda bolalar sporti jamg'armasini o'rni beqiyos, jahon arenalarida egalayotgan muvaffaqiyatlar fikrimizni isbotlab turibdi.

2. Jismoniy madaniyat va sport davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi va soha huquqiy kafolatlandi.

3. Aynan ushbu farmon talablari asosida ilmiy, o'quv-uslubiy ishlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish yo'lga qo'yildi, erishgan natijalar tahlil etilmoqda, respublika, xalqaro ilmiy anjumanlarini o'tkazib, tavsiyalar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilmoqda.

4. Bundan buyon sport inshootlarining uzluksiz ishlash faoliyati, mashg'ulotlarni reja asosida muntazam o'tkazish, sifati va samaradorligini ilmiy asoslash va amalga oshirish lozim.

5. Sport mashqini odam salomatligiga foydasi haqida targ'ibot ishlarida muvaffaqiyatga erishgan sport jamoalari haqida matbuot, radio yoki televidenie orqali kino-video ko'rsatuvlarini ko'paytirish maqsadga muvofiq.

6. O'quvchilar ongida jismoniy tarbiya va sport orqali istiqloq, vatan tuyg'usi, mehr-muhabbat ruhini shakllantirish lozim.

7. Sport to'garaklarini shunchaki xo'ja ko'rsinga emas, balki o'quvchilar orasida iqtidorli, iste'dodli sportga layoqatli o'quvchilarni aniqlab to'garakka jalb qilish kerak.

Adabiyotlar

1. "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida"gi 3154-sonli Prezident Farmoni. 2002 yil 24 - oktyabr.
2. Achilov A.I., Akramov J.A., Goncharova O.V. Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash. -Toshkent, «Literpress» nashriyoti, 2009 yil. 21-22 betlar.
3. Riskiev T., Axmatov M. Uzluksiz sport harakati umumo'zbek tizimi. Dasturiy majmua, 2003 yil 15-16 betlar.

UDK:372.851

BOSHLANG'ICH MATEMATIKA TA'LIMIDA KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI KASBLAR OLAMI BILAN TANISHTIRISH IMKONIYATLARI

Shodiyev N., Narziyeva D.

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich matematika ta'limi jaaryonida I-IV sinflar o'quvchilarini kasblar olami bilan tanishtirish masalalari qaraladi. Bunda matematika darsliklarida bayon qilingan masalalar kasb, kasb ish joyi, mehnat jarayoni mehnat qurollari nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kasb, kasbga qiziqish, uzoq xotira, kasbga boshlang'ich yo'naltirish, ish joyi, mehnat jarayoni, mehnat qurollari.

Возможности ознакомления школьников с миром профессии в процессе изучения элементарной математики

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы, связанные с ознакомлением учащихся I-IV классов с миром профессии при изучении математики.

Осуществлен анализ содержания математических задач, включенных в учебники математики I-IV классов с точки зрения отражения в них профессии, интереса к профессии, рабочего места профессии, трудового процесса, орудия труда.

Ключевые слова: профессия, профинтерес, рабочего места, орудия труда, долговременная память.

Possibilities of introducing with vocational world the pupils in scolding age in elementary education

Abstract. The issues of intraducing with vocational educftion pupils fin 1-4th form in the elementary Matematik education process is given in the article The tasks in mathematic lesson, profession, job places, labour process, labour fakultities were analyzed.

Keywords: profession, interest to the profession, direction to the profession. Job places, labour process, labour facilities, lifelong memory.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni tobora chuqurlashib borishi, xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlariga zamonaviy texnika va texnologiyalarni jadal sur‘atlar bilan joriy etilishi, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatayotgan qo‘shma korxonalar, kompaniyalarning respublikamiz taraqqiyotida salmoqli o‘rin egallayotganlari, sanoatni qishloq hududlariga kirib kelishi hamda erkin ijtimoiy zonalarini tashkil etilishi maktab o‘quvchilarini ongli kasb tanlash ishini tashkil etish muammosini tobora dolzarb qilib qo‘ymoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (37-modda) [1], O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (3-modda) [2], “O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da [3] yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kasb tanlashini tashkil etish va amalga oshirish bo‘yicha o‘rta ta’lim maktabi oldiga qo‘ygan ijtimoiy buyurtmasini ro‘yobga chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida mamlakatimiz xalq ta’limi vazirligi tomonidan to‘rt bosqichli dastur ishlab chiqilgan [4].

Mazkur dasturning ikkinchi bosqichida kichik maktab 6-9 (7-10) yoshidan boshlab o‘quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirishga alohida e‘tibor berilib, unda ularni birinchi galda otalarning, boshqa oila a‘zolarining, qavmu-qarindoshlarning hamda mazkur hududda mehnat qilayotgan insonlarning kasblari bilan tanishtirish orqali ularda turli kasblarga bo‘lgan qiziqishlarni shakllantirish ko‘zda tutilgan.

Biroq, o‘tkazilgan tahlillarni ko‘rsatishicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasbga boshlang‘ich yo‘naltirish bo‘yicha ushbu muhim vazifani faqat “Kasb-hunarga yo‘naltirish” darslari va “Mehnat ta’limi” mashg‘ulotlarida etarlicha hal qilib bo‘lmaydi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda kasblarga bo‘lgan qiziqishlarni shakllantirishda boshlang‘ich ta’lim o‘quv rejasidagi barcha fanlarning mazkur sohadagi imkoniyatlaridan foydalanish kutilgan natijaga erishishda asqotadi.

Shu bois, I-IV sinflar “Ona tili”, “O‘qish”, “Jismoniy tarbiya”, “Matematika” va h.k. fanlari namunaviy o‘quv dastur va darsliklarning mazkur sohadagi imkoniyatlarini namoyon qilishga ehtiyoj katta.

Boshlang‘ich ona tili, jismoniy tarbiyaning amaldagi dastur va darsliklarining o‘quvchilarni ilk kasbga yo‘naltirish bo‘yicha imkoniyatlari [5,6] ishlarimizda atroflicha bayon qilingan.

Ushbu ishda matematika fanining o‘quv dastur va darsliklarida bayon qilingan ta’lim mazmunini bolalarning kichik maktab yoshi davrida turli kasblar haqida ma’lumotlarni qabul qila olish darajasiga mos ravishda tahlil qilindi.

Jumladan, tarkibida 1120 ta masalani o‘z ichiga olgan 3-sinf matematika o‘quv darsligi mazmunida nomlari tilga olingan bog‘bon, dehqon, yozuvchi, muqovachi, operator, rassom, sotuvchi, sportchi, sut sotuvchi, tikuvchi, chavandoz, shifokor, shofyor, o‘qituvchi kabi kasblar soni 20 ga yaqin bo‘lib, ularning ayrimlari masalalar matni (mazmuni)da ko‘p marta takrorlangan. Ular jumlasiga, masalalar mazmunida 4 marta takrorlangan. “To‘quvchi”, “Sotuvchi”, “Duradgor”, 3 marta takrorlangan “Sportchi” kasbini kiritish mumkin [6].

O‘tkazilgan tahlillarimiz 4-sinf matematika darsligida ham nomlari tilga olingan kasblarni miqdori yuqorida ko‘rsatilgan darslikda bayon qilinganlarga yaqinligini ko‘rsatmoqda [7]. Mazkur holat, shubhasiz, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni so‘z (lug‘at) boyligini oshirishga, kasblarni

qisqa muddatli eslab qolishlarini uzoq muddatli xotiraga o'tkazishga yordam berishini alohida ta'kidlash joiz [8].

Ayni paytda ushbu darsliklar mazmunida chegaralangan miqdordagi kasblarning nomi tilgan olinganligi o'quvchilarni ta'limning kelgusi bosqichlarida erkin kasb tanlashlariga ma'lum darajada to'sqinlik qilishi mumkin. SHu bois kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni "Kasblar olami" bilan tanishtirish ko'lamini yanada kengaytirish maqsadida I-IV sinflarda matematika fanlari o'quv darsliklarida bayon qilingan ta'lim mazmunining potensial (yashirin) imkoniyatlaridan foydalanish asqotadi. Shu bois I-IV sinflar matematika darsliklarida bayon qilingan masalalar mazmunini u yoki bu kasbning ish joyi, mehnat qurollari, mehnat jarayoni, tayyorlagan mahsuloti va h.k. bo'yicha sinchkovlik bilan o'rganib, tahlil qilish joiz.

Quyida 3-sinf matematika darsligi mazmunida turli kasblarning ish joylarini ifodalovchi masalalardan ayrim na'munalar keltiramiz. Jumladan, 3-sinf darsligida masalalar mazmunida 30 dan ortiq ish joylarining nomlari bayon qilingan bo'lib, ular orasida tikuvchilik fabrikasi, ustaxonasi, sexi nomlari bilan 16 marta; do'kon nomi bilan 15 marta masala matni; oshxona nomi bilan 6 marta; kassa nomi bilan 2 marta; avtomobil zavodi nomi bilan 1 marta; aeroport nomi bilan 1046 masala matni; parrandachilik fermasi nomi bilan 1169-masala matni; dorixona nomi bilan 863 masala matni; hayvonot bog'i nomi bilan 521 masala matni keltirilgan.

Ma'lumki, mamlakatimiz xalq xo'jaligida band bo'lgan har bir ishchi, xizmatchi ma'lum ish joyida o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajaradi.

Shu nuqtai nazardan mazkur darslikdagi masalalarda ko'p marta takrorlangan, masalan to'quvchilik fabrikasi, ustaxonasi, sexi bilan bog'liq masalalarni echish jarayonida o'qituvchi tikuvchilik fabrikasi, yoki ustaxonasi, yoki sexi qaysi kasb egasining ish joyi, uning mehnat mazmuni, tayyorlangan mahsulotlari kabi savollarni qo'yishdan, unga to'g'ri "tikuvchi" kasbi degan javob olmaguncha davom ettirishdan to'xtamasligi lozim. Dorixona nomi bilan bog'liq 863-masalani echishda o'qituvchi bolalarni bu maskan aptekachi, dorishunosning ish joyi deb aytishiga qadar dorixona faoliyati bilan bog'liq savollarni qo'yishdan to'xtamasligi lozim.

Darslikning qishloq maktablari o'quvchilariga juda yaxshi tanish bo'lgan "O'tloqda hammasi bo'lib 80 ta qo'y va echki boqilmoqda. Qo'ylar 46 ta. Echkilari soni qancha?" degan darslikning 120-masalani echish jarayonida o'qituvchi o'tloqda qo'y va echkilarni qaysi kasb egasi boqadi degan savol bilan murojaat qilishi, bolalarni "Cho'pon" boqadi degan javobini aytishiga da'vat etishi asqotadi.

Mazmunida ish joyi bayon qilingan masalalarni o'rganish jarayonida o'qituvchi kichik yoshdagi o'quvchilar diqqat-e'tiborini muntazam ravishda ish joyi va unda mehnat qilayotgan u yoki bu kasbni bir-biridan ajratib bo'lmasligiga qaratishi lozim.

Demak, masalalar (183, 245, 391, 613) mazmunida oshxona bayon qilingan bo'lsa – bu oshpazining (ish joyi); masalalar (43, 162, 172, 674, 768, va h.k.) mazmunida bog', tajriba maydoni ifodalangan bo'lsa – bu bog'bon, agronom, seleksionerning, parrandachilik fermasi – bu parrandaboqar operatorning; sirk - bu dorboz, akrobat, janglyor; asalari uyasi – bu asalarichining, poezd – bu teplovoz mashinisti, teplovoz mashinisti yordamchisining; vagon – bu konduktor, vagonni kuzatuvchi va ta'mirllovchining ish joyi hisoblanadi.

Shu tariqa, o'quvchilar mazmunida u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish, sotish, xizmat ko'rsatish va hokozolar bilan bog'liq ish joylari ifodalangan masalalarni echish orqali o'qituvchi ularda mehnat qilayotgan shaxslarning kasblarini bilib olishlari, xotirasidan o'chgan ayrim kasblarni takrorlashlari, shubhasiz ularning kasblarga doir so'z boyligini boyitish barobarida kichik maktab yoshidagi o'smirlarning uzoq xotirasidan joy olishini yoddan chiqarmasligimiz lozim.

Kichik yoshdagi o'quvchilarni boshlang'ich kasbga yo'naltirish bo'yicha ishlarning ko'lamini kengaytirishda ularning diqqat-e'tiborini mazmunida u yoki bu mehnat jarayoni bayon qilingan masalalarning keng potensial imkoniyatlaridan foydalanish asqotadi. Ular darslikda bayon qilingan masalalarning katta qismini tashkil etadi.

Quyida mazmunida mehnat jarayoni bayon qilingan masalalarni o'rganish orqali o'quvchilarni turli kasblar bilan tanishtirish bo'yicha ayrim namunalar keltiramiz (qavs ichidagi sonlar darslikdan olingan masalalarning tartib raqami): kartoshka, piyoz, sabzi terib olindi (53, 1161) – sabzavotchi; to'g'ri to'rtburchak, shakl, kvadrat, kesma va h.k. shakllarni chizing (125, 144, 212, 214, 246, 298, 804, 893) – chizmakash; g'isht terdi (860) – g'isht teruvchi; to'g'ri to'rt burchak bo'limlarini turli ranglar bilan bo'yash (40) – bo'yoqchi; no'xat, makkajo'xori, qulupnay ekish (162, 172) – dexqon;

detal tayyorlash (461) – tokar; traktor, avtomobil, motorni ta'mirlash (359, 364) – sozlovchi slesar; terak, qayin ko'chati o'tkazildi (558) – o'rmonchi; traktor yoqilg'i sarfi (198) – traktorchi mashinist, zapravkachi; velosiped yasash (419, 954) – yig'uvchi slesar; ko'chat o'tqazish (8, 228, 274) – bog'bon; uzumdan mayiz olindi (14) – uzumchi usta; qovun, tarvuz ekildi (283) – polizchi usta; qo'y junini qirgish (87) – jun qirquvchi usta; ko'ylak, choyshab tikish (197, 414, 734, 810, 894) – tikuvchi-motorist; gimnastika mashqlari (263) – trener; murabbo qaynatdi (432) – qaynatuvchi; sharbat tayyorladi (446) – sharbat agregati apparatchisi; kompyuterda matn terish (113) – operator; qishda qo'yga silos berdi (830) – omuxta em sexlari ustasi; xiyobonga atirgul o'tkazildi (895) – gulchi; xonadonda g'oz va o'rdak bor (1111) – parrandaboqar; uzum, olxo'ri sharbatlari bankalarga solindi (1126) – sharbat agregati apparatchisi.

3-sinf darsligida u yoki bu mehnat qurollari bayon qilingan masalalarni o'rganish jarayonida ham o'qituvchi kichik yoshdagi o'quvchilarning diqqat e'tiborini mazkur qurollar qaysi kasb sohibiga tegishli ekanligiga va ularga to'g'ri javob topishlariga da'vat qilishni unutmazligi lozim.

Quyida ana shunday masalalarni yechish orqali o'quvchilarni kasblar bilan tanishtirish bo'yicha namunalarni keltiramiz:

Chizgich (2) – chizmakash; dastarra, randa (7) – duradgor; avtomat dastgoh (177) – stanokchi tokar; avtomat stanok (922) – avtomat stanogi tokari; stanok (554) – tokar; traktor, kombayn, avtomobil (167) – traktorchi mashinist, kombaynchi, shofer; suv chiqaruvchi nasos (828) – motorchi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rinadiki, darslikda bayon qilingan masalalarni kasbning ish joyi, u qo'llaydigan mehnat qurollari hamda amalga oshiradigan mehnat jarayonini o'quvchilarni boshlang'ich kasbga yo'naltirish nuqtai nazaridan tahlil qilish, ularning kasblar olami bilan tanishtirish ko'lamini keskin kengaytirish imkonini beradi. Bu esa kelgusida o'quvchilarga erkin kasb tanlash huquqidan foydalanish uchun qulay sharoit yaratadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish ko'lamini yanada kengaytirishda yuqorida ko'rsatilgan fan dasturlarini politexnik ta'lim prinsipi asosida tahlil qilish asqotadi. Jumladan, 3-sinf dasturida ko'zda tutilgan "Geometrik shakllar": "Aylana", "Uchburchak", "To'rtburchak", "Uzunlik o'lchov birliklari" kabi geometrik tushunchalarni o'rganish jarayonida ularni kundalik ishlab chiqarishda, texnikada, tabiatda va boshqa sohalarida qo'llaniladigan o'y-ro'zg'or buyumlari, mehnat qurollari, yo'l-harakat belgilari, qurilish materiallarining va h.k. ilmiy asosini tashkil etishini bolalarga ko'rsatish orqali bolalarning kasblar olami to'g'risidagi tushunchalarini kengaytirishga erishish mumkin (1-jadval).

t/r	Geometrik shakllar	Kasb tanlash mazmuni	kasblar
1	Aylana	Bolalarga turmushda, texnikada va tabiatda asosi aylanadan iborat bo'lgan shakllar, buyumlar, xarakatlarni ko'p uchratish mumkinligini ko'rsatish. Uy-ro'zg'or buyumlari (chelak, choynak, piyola)ning asosi aylana shaklida tayyorlanadi. Ishlab chiqarishda foydalaniladigan yumaloq egov, aylana sirtiga ega bo'lgan sim, turli-tuman mashinalar, mexanizmlarning g'ildiraklari aylana shaklida bo'ladi, ular aylana shaklida harakat qiladilar. Yo'l belgilaridan buyuruvchi va ko'rsatuvchi belgilar, svetafor chiroqlari aylana shaklida bo'ladi. Soat ko'rsatkichlari aylana shaklda harakat qiladi Qozonning ustki qismi aylana shaklda qo'yiladi Uzuk, bilakuzuk, sirg'a aylana shaklida tayyorlanadi	Novvoy slesar Avtomobil shofyor Davlat avtomobil nazorati xodimi Soatsoz Degrizchi Zargar
2	Uchburchak	Arralarning tishlari uchburchak shaklida bo'ladi yo'l belgilaridan ogohlantiruvchi belgilar teng tomonli uchburchak shaklida bo'ladi. Mebel, stulning oyoqlari uchburchak shaklida bo'ladi	Duradgor Davlat avto nazorat xodimi mebelchi
4	To'rtburchak	Tunuka, yassi kvadrat, romb shaklida egov ishlatiladi; Faner, g'isht, kafel kabi materiallar to'rtburchak shaklida	Slesar

	tayyorlanadi Eshik, darvoza, sandiq asosi, sandal ham to'rtburchak shaklida tayyorlanadi Randa, bolg'aning qismlari to'rtburchak shaklida bo'ladi. Bolalar va kattalar kiyib yurgan do'ppilarning to'rt tomoni bor. Yo'l belgilari, tablechkalar ham to'rtburchak shaklida bo'ladi.	Quruvchi Duradgor Do'ppido'z Davlat avto nazorat xodimi
--	---	--

Shunday qilib yuqorida bayon qilinganlar boshlang'ich matematika ti'limi jarayonida o'quv dastur va darsliklarning mazmunini kasb, kasbning ish joyi, kasbning mehnat jarayoni, kasb qo'llaydigan mehnat qurollari, mehnat mahsuloti hamda politexnik ta'lim prinsipi nuqtai nazaridan tahlil qilish o'qituvchiga o'quvchilarni kasblar olami bilan muntazam ravishda tanishtirib borish, ularning kasblarga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 1992.-42 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni\ Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: SHarq, 1997. B. 20-29.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"// Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: SHarq, 1997.B. 32-61.
4. O'zbekiston Respublikasining umumta'lim maktablarida kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining dasturi\ "Maktab va hayot" jurnali. 2007, №1 (45). B. 3-6.
5. Shodiyev N. Boshlang'ich ona tili ta'limida o'quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish omillari\ "Ma'rifat nuri", 2016-yil, 24-noyabr.
6. Shodiyev N., Musinova R. Boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish. O'quv-uslubiy qo'llanma. -Samarqand, 2017.-112 b.
7. Bikbayeva N.U. va boshqalar. Matematika 3-sinf. Darslik. -T.: O'qituvchi, 2014. B. 255.
8. Bikbayeva N.U. va boshqalar. Matematika 4-sinf. Darslik. -T.: O'qituvchi, 2014. B.254.
9. Ivanov P.I., Zufarov M.E. Umumiy psixologiya. Darslik-T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014.-479 b.

UDK: 371,3

KASB-HUNAR KOLLEJLARI TALABALARIGA BASKETBOL SPORT TURI ELEMENTLARINI O'RGATISHDA HARAKATLI O'YINLARDAN FOYDALANISH YO'LLARI

Z.B.Boltayev, B.S.Muzropov

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqola talabalarga basketbol sport turini o'rgatishda kasb-hunar kollejlari jismoniy tarbiya darslari jarayonida harakatli o'yinlardan foydalanish bilan bog'liq masalalarni ilmiy-pedagogik jihatdan asoslab berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: basketbol, harakatli o'yinlar, ilmiy, muammolar, tadqiqot, kasb-hunar kolleji, jismoniy sifatlar.

Методы обучения студентов профессиональных колледжей играм в баскетбол с применением элементов подвижных игр

Аннотация. Данная статья предназначена с целью обучения студентов игре в баскетбол с применением элементов подвижных игр решения связанных с этим задач с научно-педагогической стороны.

Ключевые слова: Баскетбол, подвижные игры, научный, проблемы, исследование, профессиональный колледж, физические качества.

Methods of teaching students the professional game college basketball with the elements of mobile games

Annotation. This article is intended for the purpose of training students basketball game with elements of mobile games, solving problems related to the scientific and educational side.

Keywords: basketball, rolling, plays, scientific, troubles, research, professional college, physical qualities.

O'zbek xalqining ming yillar davomida yaratgan, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ijod boyliklarini to'plash, o'rganish, bu boy xazinalar asosida yosh avlodni ma'naviy boy, axloqiy pok, jismoniy barkamol qilib tarbiyalash bugungi kunnig dolzarb masalalaridan biridir. Bu esa yosh avlodni sog'lom va barkamol qilib tarbiyalovchi jismoniy madaniyat oldiga katta ma'suliyatli vazifalar qo'yadi. Yosh avlodni jismoniy baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirishiga qaratilgan jismoniy madaniyatini milliyashtirishiga, bunda xalqimizning unitilib borayotgan milliy o'yinlarini to'plash, hayotga kasb-hunar kollejlarga tadbqiq etish, rivojlantirish yo'llari va usullarini qayta ko'rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi.[1]

Talabalarga basketbol sport turini o'rgatish bo'yicha kasb-hunar kollejlari jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlardan samarali foydalanish masalalari yetarlicha ochib berilmagan va nazariy hamda tajribalar yordamidagi asoslanishni talab qiladi. Shu nuqtai nazaridan qaraganda, mazkur maqola bu muammoni ilmiy yo'nalishda yechishga qaratilganligi bilan muhimdir.[2] Bu esa eng avvalo kasb-hunar kollejlarning davlat ta'lim standartlari talablari asosida basketbol sport turini o'rgatishda xalq harakatli o'yinlardan samarali foydalanish bilan bog'liq masalalarni to'liq yaxlit holda ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash va ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda tanlagan mavzuning dolzarbli va muhimligi yaqqol namoyon bo'ladi. Mazkur yunalish ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilgan. Masalan, F.N. Nasriddinov., A.Sh.Qosimov (51), T.S. Usmonxo'jayev (47), A.Islamov (72), F.Xodjayev (105) singari olimlarning tadqiqotlarida qizlarning jismoniy rivojlanishi hamda harakat faoliyati jihatdan tayyorgarligi yetarli emasligini tavsiflovchi faktik ma'lumotlar keltiriladi. Harakatli va milliy xalq o'yinlarining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini o'rganish sohasida ko'pgina ishlar amalga oshirilgan. G'.M.Salimov (46), A.Sh.Qosimov (52), A.N.Atayev (61), U.Islomov (73), X.A.Meliyev (84), M.M. Raximov (89), M.A.Qurbonova (108), D.Tojiboyev (102) va boshqa olimlar o'z tadqiqotlari doirasida ta'lim sohasida xalq harakatli o'yinlarini qo'llash hamda buning ustuvorligi xususida mulohaza yuritganlar.

Bizning maqsadimiz basketbol sport turini o'rgatishda xalq harakatli o'yinlardan samarali foydalanish orqali kasb-hunar kollejlarda ta'lim olayotgan o'quvchi-yoshlarning jismoniy sifatlarini oshirish yo'llarini aniqlash, xalq harakatli o'yinlarining rolini oshirishning samarador shakllarini topish hamda nazariy jihatdan asoslashdan iboratdir. Yuqorida qayd etilgan maqsadga erishish uchun Respondentlarning basketbol sport turini o'rgatishda xalq harakatli o'yinlardan foydalanishga munosabatini aniqlandi. Taxminimizga ko'ra, kasb-hunar kollejlardagi o'quvchi-yoshlarni jismoniy tarbiya darsida basketbol sport turini o'rgatish orqali milliy harakatli o'yinlar qo'llash har bir o'quvchi-yoshlarni jismoniy tayyorgarligi va jismoniy rivojlanishi hisobga olinib, barkamol shaxs sifatida shakllanishiga hamda jismoniy sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlanishiga tez va oson erishish mumkin. Olib borgan tadqiqot natijalari asosida kasb-hunar kollejlari jismoniy tarbiya darslarida amalda qo'llash uchun quyidagilar ishlab chiqilib, tavsiya etildi:

- basketbol sport turi bilan shug'ullanish vaqtidagi texnik-taktik harakatlarni takomillashtirishga yordam berish hamda alohida harakat sifatlariga maqsadli ta'sir ko'rsatish imkonini beruvchi xalq harakatli o'yinlar tasnif qilindi;

- jismoniy tarbiyalash jarayonining samaradorligiga yordam beruvchi xalq harakatli o'yinlardan foydalanishning tashkil etilishi joriy qilindi.


Ilmiy tadqiqotlarimiz natijasida hosil bo'lgan tavsiyalar kasb-hunar kollejlari jismoniy tarbiya darslarida basketbol sport turiga o'rgatish orqali harakatli o'yinlari vositasida o'quvchi-yoshlarni jismoniy sifatlarini rivojlantirish, o'quv-tarbiyaviy jarayonda ularni qo'llash, nazariy asoslash

usullarini ishlab chiqish hamda turli sport musobaqlarida iqtidorli sportchilar tanlashga katta yordam berdi.

1-Samarqand Pedagogika kasb-hunar kollejida ta'lim olayotgan o'quvchi-yoshlar bilan o'tkaziladigan jismoniy tarbiya darslarida xalq harakatli o'yinlarning jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi roli va qaysi sport turlariga ko'maklashishi mumkin ekanligi haqidagi fikrlarini bilish maqsadida 12 nafar jismoniy tarbiya mutaxassislaridan savolnomalarga javoblar olindi. Savolnomalarda talabalarga mos bo'lgan xalq harakatli o'yinlardan:

“To'pni olib yurish va savatga tashlash estafetasi”, “kim uzoqqa sakraydi”, “ro'molchani olmoq”, “to'p uchun kurash”, arqon tortish”, “saylab bering”, “otib qochar”, “basketbol estafetasi”, “uy basketboli”, “halaqachani kiyg'izish”, “basketbol to'pi bilan estafeta”, “basketbol taxtasiga tekkish”, “to'plarni uzatish”, “kim tezroq”, “bo'ron”, “to'pni kim oldin oladi”, “to'pni halqaga tushirish”, “hujum”, “ro'molchani olmoq”, “to'pni oldirma”, “do'ngdan-do'ngga sakrash”, “kim birinchi”, “koptok o'yini”, “ovchilar va o'rdaklar”, “to'siq tagidan o'tish”, “kartoshka ekish”, “arg'amchi bilan yugurish”, “qal'ani himoyalash”, tutqich bermaydigan arqon”, “tez yuguruvchilar”, “qarmoqcha”, “quvlashmachoq” o'yinlari berilib bu o'yinlar kollej o'quvchilarining jismoniy tarbiya darsi jarayonida qaysi jismoniy sifatlarni rivojlantiradi va qaysi sport turlariga ko'proq yordam beradi, degan savolnomalarga jismoniy tarbiya mutaxassislaridan javoblar olindi.[5]


Respondentlarga harakatli o'yinlar o'quvchi-yoshlarning jismoniy sifatlarni rivojlantirishiga qanday ta'sir ko'rsatadi, deb bergan savolnomalarga ular quyidagicha javob berishdilar:



1-rasm. Xalq harakatli o'yinlarning jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi hissi.

Chaqqonlik - 39,45 foiz (“To'pni olib yurish va savatga tashlash estafetasi”, “Koptok o'yini”, “Qarmoqcha”, “Kim uzoqqa sakraydi”, “Otib qochar”, “Hujum”, “Bo'ron”, “To'pni kim oldin oladi”, “Tun va kun”, “Do'ngdan-do'ngga sakrash”, “Arg'amchi bilan yugurish”, “Tutqich bermaydigan arqon”), **egiluvchanlik** – 5,89 foiz (“To'siq tagidan o'tish”, “Kartoshka ekish”, “Tutqich bermaydigan arqon”), **kuch** – 11,56 foiz (“Kim uzoqqa sakraydi”, “Arqon tortish”, “Bo'ron”, “Arg'amchi bilan yugurish”), **tezkorlik** – 39,0 foiz (“Ro'molchani olmoq”, “Otib qochar”, “basketbol estafetasi”, “Hujum”, “Kim tezroq”, “To'pni kim oldin oladi”, “Ikki sovuq”, “Kim birinchi”, “Arg'amchi bilan yugurish”, “Tez yuguruvchilar”), **chidamlilik** – 4,08 foiz (“To'p uchun kurash”, “Halaqachani kiyg'izish”, “Tosh o'yini”, “To'siq tagidan o'tish”) tashkil etishini ko'ramiz.[6]


Kasb-hunar kollejida ta'lim olayotgan o'quvchi-yoshlarning jismoniy tarbiya darsi jarayonida xalq harakatli o'yinlardan foydalanganda ularning qaysi sport turlariga ko'proq yordam beradilar, degan savolnomalarga bergan javoblari quyidagicha:[4]



2-rasm. Xalq harakatli o'yinlarning sport turlariga qo'shgan hissasi.

Sport o'yinlari Basketbol – 41,22 foiz foiz "basketbol taxtasiga tekkish", "ro'molchani olmoq", "otib qochar", "koptok o'yini", "qarmoqcha", "hujum", "bo'ron", "to'pni kim oldin oladi", "basketbol estafetasi", "kim tez", "kim birinchi", "tez yuguruvchilar"), *yengil atletika* – 38,1 foiz ("kim uzoqqa sakraydi", "kim tezroq", "kun va tun", "kim tez", "kim birinchi", arg'amchi bilan yugurish", "tez yuguruvchilar"), *kurash* – 6,6 foiz ("arqon tortish", "hujum", "to'siq tagidan o'tish", "kim tezroq", "tutqich bermayotgan arqon"), *Gimnastika* – 5,8 foiz ("to'siq tagidan o'tish", "kartoshka ekish", "arg'amchi bilan yugurish", "to'pni kim oldin oladi"), *og'ir atletika* – 2,29 foiz ("ro'molchani olmoq", arqon tortish"), *karate* – 1,0 foiz ("tutqich bermaydigan arqon", "hujum"), *turizm* – 2,03 foiz ("kartoshka ekish", "to'siq tagidan o'tish", "do'ngdan-do'ngga sakrash"), *boks* – 2,79 foiz ("tutqich bermaydigan arqon", "arg'amchi bilan yurish", "hujum") yordam berishlari haqida fikr bildirganlar.

Respondentlarning, shu jumladan, sport o'yinlari savolnomalarga bergan javoblari quyidagicha:



3-rasm. Xalq harakatli o'yinlarning sport turlariga qo'shgan hissasi.

Sport o'yinlari uchun: *basketbol* – 28,04 foiz ("Ro'molchani olmoq", "Otib qochar", "Koptok o'yini", "Qarmoqcha", "Hujum", "Bo'ron", "To'pni kim oldin oladi", "Tun va kun", "Kim tez", "Kim birinchi", "Tez yuguruvchilar"), *voleybol* – 20,11 foiz ("Saylab bering", "Koptok o'yini", "Ikki sovuq", "Do'ngdan-do'ngga sakrash", "Arg'amchi bilan yugurish"), *futbol* – 22,09 foiz ("Saylab bering", "Otib qochar", "Koptok o'yini", "Qarmoqcha", "Kim tez", "Arg'amchi bilan yugurish", "Tez yuguruvchilar"), *qo'l to'pi* – 27,76 foiz ("Ro'molchani olmoq", "Sichqon va mushuk", "Hujum", "Bo'ron", "To'pni kim oldin oladi", "Tun va kun", "Kim tez", "Do'ngdan-do'ngga sakrash", "Kim birinchi", "Tez yuguruvchilar"), *tennis* – 1,98 foiz ("Otib qochar", "Mak-mak", "Tosh o'yini").[8]

Respondentlardan siz dars o'tish jarayonida, qaysi xalq harakatli o'yinlardan ko'proq foydalanasiz, deb bergan so'rovnoma: 1 nafar o'qituvchimiz 28 foiz, 2 nafar o'qituvchi 20 foiz, 8 nafar katta o'qituvchi 20 foiz, 8 nafar o'qituvchi 10 foiz hamda 12 nafar kollejining jismoniy tarbiya o'qituvchilari 20-30 foiz xalq harakatli o'yinlardan foydalanishlarini ta'kidlaydilar.

So'rovnomaning umumlashtirib qaraganda hamma jismoniy tarbiya o'qituvchilari ham jismoniy tarbiya darslarida basketbol sport turini o'rgatishda harakatli o'yinlar bilan asosiy materiallarni takomillashtirishi, tayyorgarlik va yakuniy qismlarda o'quvchi-yoshlarning ish qobiliyatini oshirishga bo'lgan tarbiya mashqlarini bajarishi, hamda o'quvchi-yoshlarning darsdan keyin dastlabki holatga kelishlarini ta'minlashmaydilar. Bu esa jismoniy tarbiya darslarida xalq harakatli o'yinlarning rolini susaytirib, darsni qiziqarli o'tishiga to'sqinlik qiladi va ko'pchilik o'qituvchilarning ushbu o'yinlarning to'liq mazmunini bilmasligi bilan ta'kidlanadi.

Xulosa qilib aytganda 1-Samarqand Pedagogika kasb-hunar kolleji 12 nafar pedagogi hamda I va II bosqich qizlaridan 60 nafari orasida so'rovnoma asosida savol-javob o'tkazish natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, basketbol sport turini o'rgatishda xalq harakatli o'yinlardan foydalanish ko'proq jismoniy sifatlarini rivojlantirishga ta'sir qilar ekan: chaqqonlik -31,45 %; tezkorlik – 39% va eng kam darajada chidamlilik – 4,08% hamda egiluvchanlik – 5,8%.

1. Xalq harakatli o'yinlarni qo'llab o'tiladigan mashg'ulotlar ma'lum darajada sport o'yinlari elementlari takomillashuviga yordam beradi: basketbolga – 28,04%, gandbolga – 27,76%, futbolga – 22,09% va voleybolga – 20,11%, tennisga esa bor-yo'g'i – 1,98 %.

2. Ko'rsatib o'tildiki, kasb-hunar kolleji o'quvchi-yoshlarida sport faoliyatining ustuvor turi xalq harakatli o'yinlarni qo'llab o'tiladigan amaliy mashg'ulotlar bo'lib, ular o'z navbatida jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanishga qiziqishni oshiradi.

3. Tadqiqot natijalari xalq harakatli o'yinlardan foydalangan holda o'tkazilgan mashg'ulotlarning jismoniy sifatlar hamda jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'siri haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori - T.: O'zbekiston. 1997-yil 20-bet
2. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat qurish yo'lida. -T, "O'zbekiston", 1998. 68-bet
3. Abdumalikov R.A., Abdullayev A. Xalq milliy o'yinlari mazmunida ma'naviyat masalalari. – Toshkent: 1995. 14- bet
4. Nasriddinov F.N., QOSIMOV A.Sh. O'zbek xalq milliy o'yinlari. 1- to'plam. - T.: 1998. 27-bet
5. Salimov G.M. Milliy harakatli o'yinlar asosida 7 – 10 yoshli o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish samaradorligi.: Dis. ... kand. ped. nauk. –T., 2007. 142-bet
6. Usmonxo'jayev T., Meliyev X. Milliy harakatli o'yinlari. – Toshkent: 2000. -114-bet
7. Axmedov F.K., Tilakov A.T., Nomozov Z.R., "Talabalar sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati". // Respublika ilmiy-nazariy anjumani ma'ruzalari. - Jizzax: 2005. 28-31- betlar
8. Islamov A. O'ZBEK xalq o'yinlari va ularning darsda qo'llanishi. // Xalq ta'lim. - Toshkent: 1992. № 4-5. 13-14- betlar

SPORTCHILARNING KO'P YILLIK TAYYORGARLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH VOSITALARINI TANLASH VA TADBIQ ETISH

Xaydarov B.T., Utayev Z.M.

Samarqand davlat universiteti

Annotasiya. Maqolada ko'p yillik sport takomillashuvi jarayonida tanlov va sport ixtisosligiga yo'naltirish masalalari talqin etilgan. Ushbu jarayonni ilmiy asosda tashkil qilish ko'p yillik mashg'ulotlar samaradorligini oshirish va uni ko'p bosqichli tadbir sifatida sportchilar amaliyotiga tatbiq etish muhimligi muxokama etilgan.

Kalit so'zlar: iqtidorli sportchilarni tanlash, jismoniy tayyorgarligini oshirish, ruhiy tayyorgarlik.

Выбор и внедрение средств повышения эффективности многолетней тренировки спортсменов

Аннотация. В данной статье представлены проблемы отбора и специализированной ориентации спортсменов в процессе многолетней тренировки. На основе научных данных в процессе организации многолетней тренировки проведен анализ с целью повышения качества, подтверждения и обсуждения ее многоуровневого представления на практике.

Ключевые слова: отбор одаренных спортсменов, повышение физической подготовки, психологическая подготовка.

Selection and implementation of means to improve the long-term training athletes

Annotation. There is a list of selection and orientation problems in the course of long-term training process performed in the article. Its successful decision on a scientific basis should promote increase of efficiency of long-term sports training as to an integral part of this process. Sports selection is necessary for considering as the regular multistage process, which carried out during long-term preparation of sportsmen.

Keywords: gifted students selection, handing the physical preparation, psychological preparation, endurance grade of the organism, selection, children's and youth sports school, effectiveness.

Iqtidorli sportchilarni izlab topish hozirgi davrda muhim masala hisoblanadi. Ushbu jarayonning yechimini ilmiy asosda tashkil qilish ko'p yillik sport mashg'ulotlarining tayyorgarlik samaradorligining ajralmas qismidir.

Ruhan chidamli, organizmi chiniqqan, mukammal tana tuzilishiga ega, sog'lom, jismoniy tayyorgarligi yuqori bo'lgan sportchilargina sportning ko'plab turlarida yangi rekordlarni o'rnatadi.

U yoki bu sport turida jismoniy sifatlar va qobiliyatlar uyg'unligi omad cho'qqilarini aniqlaydi. Kun sayin yangilanib, o'sib borayotgan marralar, yutuqlar sportchilarning oldiga ko'plab talablarni qo'yimoqda, bu talablar esa iqtidorlarni yuzaga chiqarishini qiyinlashtiryapti. Bu masalaning ijobiy yechimini mamlakatimizda sport turlarining rivojlanishiga bog'liq. Shuningdek, sportchilarimizning Xalqaro Olimpiya o'yinlaridagi ishtirokini belgilab beradi. Ammo, bu masalaning yechimini yosh sportchilarimizning boshlang'ich bosqichlarida ko'p yillik tajribalarini to'g'ri baholash mezonlariga xizmat qilmasligi emas, balki boshqa informativ ko'rsatkichlar, katta yoshdagi sportchilarda davom etayotgan organizm rivojlanishining, yoshga bog'liq dinamikasiga bog'liqdir.

Izlanishlardan maqsad – sportchilarning ko'p yillik tayyorgarlik samaradorligini oshirishning (yagona) tanlash va yo'naltirish sistemasini asoslashdir.

Yoshlarning sport bilan shug'ullanish jarayonida tanlash va yo'naltirish muammosiga bo'lgan qiziqish sohaning mashhur mutaxassislarining diqqatini o'ziga jalb etdi. Bu esa o'z navbatida bir qator nazariy va metodologik nizomlarni shakllantirishga olib keldi. Ularning asosiylari:

– sportchilarni tanlash va yo'naltirish ko'p yillik tajriba jarayonida tizimli tarzda amalga oshirilishi kerak, chunki bolalik davrida qilingan prognozlash ishonchligi, shu sportchilarning katta yoshlarida erishilgan yutuqlariga nisbatan yuqori emas. Alohida mulliflar tanlashning uch-to'rt bosqichini ajratdilar, ammo ular, har bir tanlash bosqichida, sinov tizimi sportchilarning ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida mashg'ulotlar maqsad va vazifalariga muvofiqlik qilishiga birdamlar;

– sportchilarning potensial imkoniyatlar xulosasi obyektivligi, ko'p hollarda musobaqaviy faoliyat sharoitlarida shug'ullanayotgan va ishga layoqatligini ta'minlanayotgan hayot faoliyatini kompleks baholashga bog'liqdir.

Tanlashni murakkab kompleks muammolarga bog'lab, uning ijtimoiy, pedagogik va mediko-biologik aspektlarini ajratadilar. [2]

Tanlashning ijtimoiy omillarini ko'p hollarda iqtisodiy omillar bilan bog'laydilar, chunki yuqori malakali sportchilarni shu jumladan, bolalar sport muassasalarida tayyorlanishi muayyan kapital mablag'ni talab qiladi. Tanlashning pedagogik aspektlari esa bolalik va o'spirinlik yoshining umumiy mashg'ulotlar tizimiga hamda shug'ullanayotganlarning sport mahoratini rivojlanishining sur'atlariga chambarchas bog'liq. Mediko-biologik aspektlar, sog'lom holatining diagnostikasi, hamda ornanizmning asosiy faoliyat tizimlarini rivojlanish darajasini o'z ichiga oladi.

Bolalar va o'smirlar sporti samaradorligining pastligi bois layoqatli sportchilarning tanlashi va yo'naltirish amaliyotining qoniqarsiz holati e'tiborni jalb etadi. Masalan, faqat 20-25% o'smirlar katta sportchilar kategoriyasiga o'tish davrida o'z pozitsiyalarini saqlaydilar yoki musobaqalarda sovrindor bo'ladilar.[4]

Bu yo'qotishlarni qisqartirish mumkin. Buning uchun tanlashni uzoq izlanish jarayoni deb bilib, har bir sport turida ilmiy asoslangan tanlash tizimini joriy etish zarur.

Bugungi kunda shu ma'lumki, tanlash muammolarini har bir sportchining o'zining bor mahoratini ro'yobga chiqaradigan tayyorlash yo'nalishlarining orientatsiyasini birdamligida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Hozirda sport qobiliyatlarini tanlash metodikasining tashkiliy shakllarini, tanlash va yo'naltirish muammolariga metodologik yondoshishlarni muhokama qilish borasida ancha ilmiy materiallar to'plangan. Sportchilar oldiga bitta vazifa mavjud sportchilarning nafaqat tanlash hisobidan, balki betakror tabiiy mahorat va qobiliyatlar hamda ularning zamonaviy rivojlanish usullari yordamida eng yuqori cho'qqilarni zabt etish. Sport mahoratlarini tanlash yordamida, yutuqlar ko'rsatkichlarini oshirish haqida gapirganda aynan shuni nazarda tutadilar.

Shuning uchun sportga tanlashning maqsadi aynan shu sport turiga layoqatligini aniqlashda emas, balki tayyorlash jarayonida sportchilarning potensial imkoniyatlarini ajratib, uning qobiliyatlarini aniqlashdadir.

Har xil sport turlariga moyillikni ajratish alohida sport turiga javob beradigan iste'dodlarni aniqlash asosida tuziladi. Sport qobiliyatlarini asosiy o'rganish yo'nalishlari yaqin kelajakda va uzoq muddatli prognozlarni tuzishdir. Hozirgi vaqtda prognoz qilish eng muhim va nisbatan kam o'rganilgan sport orientatsiyasi sohasidir. U sport qobiliyatining biologik va ijtimoiy omillari va harakatlantiruvchi sifatlar rivojlanishining sur'atiga asoslangan.

Yaqin prognozlash iste'dodlarni o'rganishda tuziladi va buning natijasida o'smirning u yoki bu sport turiga layoqatliligiga tavsiyalar beriladi. Uzoq prognozlar esa sport mahoratini aniqlovchi o'sish darajasi hamda rivojlanish sur'atiga shartlanadi.[5]

Bir qator sportchilarni tanlashga qaratilgan izlanishlar paydar-pay, qisqa muddatli prognozlarga asoslanadilar.

Bunday yondoshish irsiy belgilar bilan shartlangan barqarorlikka tayangan uzoq muddatli prognozlarga nisbata ishonchli ko'rinadi. Bosqichma-bosqich, qisqa muddatli prognozlar jismoniy funksional rivojlanish dinamikasiga oid ma'lumotlarga asoslanadi. Shu bois bir qator mutaxassislar genetik usullarni istisno qilmasdan, sport amaliyotida ma'lum bo'lgan pedagogik, mediko-biologik va psixologik usullarga tayanishni maslahat beradilar.

Tanlashning ijtimoiy zaruriyati sportda saralash va yo'naltirishni chuqur o'rganishga olib keladi.

Adabiyotlarda alohida e'tibor tanlashning prinsiplari va vazifalariga qaratilgan. Ammo, mutaxassislar fikrlari qarama-qarshi va bir-biriga to'g'ri kelmaydi.

Ular orasida eng muvaffaqiyatli shakllantirilgan sportga tanlash prinsipi V.M.Zatsiorskiyga tegishli. [3]

U keyingi vazifalarni aniqladi: idealni aniqlash, prognoz qilish, tasnif va tashkil qilish.

Idealni aniqlash yuqori toifidagi sportchiga muvofiq talabalarni izlash va tartibga solishni ifodalaydi. Prognoz qilish, sport mahoratining rivojlanish yo'llarini oldindan aytishga, o'rganib chiqilgan, u yoki bu sport turiga layoqatli va layoqatsiz bolalar kontingentiga yo'naltirilgan. Va nihoyat, tanlashni tashkillashtirish bir qator omillar bilan aniqlanadi, xususan, nomzodlar soni va mahorati sinov jarayonining murakkabligi hamda sinov qiymati bilan.

Tanlash muammosining yechimini insonning har xil qobiliyatlar shakllanish tabiatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq.

Bir qator mualliflarning aniqlashicha, qobiliyatlar bu – biron alohida harakatni bajarish uchun insonning layoqatlilik xususiyatidir. Taqriban, faqat sportga oid xuddi shunday shaklni boshqa mualliflar ham talqin qiladilar.

Shundan qilib, tanlash jarayoni, u yoki bu sport faoliyatiga yoshlar va o'smirlarni moslashtirish uchun ijtimoiy, ruhiy, mediko-psixologik usullarni ichiga oladigan metodik, kompleks xarakterga ega bo'lgan tadbirlar jarayonida aniqlanadi.

Mutaxassislar fikrini qiyoslagan holda shuni aytish mumkinki, iqtidorli yosh-o'smir sportchilarni tanlash ko'p yillik tayyorgarlik jarayonida bosqichma-boqich amalga oshiriladi. Bunda uchta bosqichni ajratish mumkin:

Birinchi bosqichda sportchining istiqbolli imkoniyatlari va shu sport turi bilan shug'ullanishning ma'qulligi aniqlab olinadi. Bu bosqichda anatomo-morfologik, ba'zi bir fiziologik va psixofiziologik ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Ikkinchi bosqich esa, sportchilarning yuqori marralarini zabt etish potensial qobiliyatlariga yo'naltirilgan. Bu yerda, oldingi bosqichda foydalangan ko'rsatkichlar bilan birga ijtimoiy-ruhiy va pedagogik, sport mahoratining rivojlanish sur'atlarini kuzatishga yordam beradigan ko'rsatkichlar hisobga olinadi. Tanlanishning bu bosqichida fiziologik ko'rsatkichlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Tanlashning uchinchi bosqichida sportchilarning halqaro natijalarini qo'lga kiritishi, jiddiy raqobat sharoitlarida o'z imkoniyatlarini namoyon etishini aniqlaydilar. Bu bosqichda tanlash asosan sport mahorati darajasi va qat'iyiligini aniqlovchi pedagogik va psixologik ko'rsatkichlar yordamida amalga oshiriladi.

Tanlash tashkiliga nisbatan boshqa nuqtai nazarlar ham mavjud. Ba'zi bir mutaxassislar bu jarayonning besh bosqichini ta'kidlaydilar: dastlabki, oldingi, oraliq, asosiy va yakuniy. Har bittasi ettita bosqichni o'z ichiga oladi. Boshqalar esa tanlashning to'rt bosqichini ta'kidlaydilar: dastlabki, shug'ullanayotganlarning sport turiga muvofiqligini chuqur o'rganish bosqichi, sport orientatsiya, terma jamoaga tanlash.

Mutaxassislarning bu qarashlari faqat bir joyda bir-biriga mos keladi. Ya'ni ularning hammasi tanlash bosqichma-bosqich, har bir bosqichda ko'rsatkichlardan foydalangan holda amalga oshirilishi kerak ekanligini tan oladi.

Umuman, mutaxassislar ko'p yillik tanlash jarayonini sportchining yoshiga, malakasiga va organizmga eng qulay "sensitiv" davrida jismoniy sifatlarning rivojiga bog'laydilar.

Shunday qilib, tanlashning har bir bosqichida nisbatan malaka darajasi turdosh bir qator sportchilar muvofiqlik qiladilar.

Xulosalar

Xulosa qilish mumkinki, tanlashning hamma bosqichlarida asosiy mazmun, obyektiv, miqdoriy ko'rsatkichlar va maxsus sinov jarayonlari yordamida sportchining sport qobiliyatlarini prognoz qilinishidir. Bundan tashqari tanlash bosqichlari sportchilarning ko'p yillik tayyorgarligini qamrab oladi. Tanlashning har bir bosqichi, ko'p yillik tayyorgarlik bosqichiga muvofiq keladi.

Sportga tanlashni ko'p bosqichli, sistematik, sportchilarning ko'p yillik tayyorgarlik jarayoni sifatida ko'rib chiqish lozim.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni. 1992 yil 14 yanvar (yangi tahrir, 2015 yil 4 sentyabr)
2. Булгакова Н. Ж. Спортивные способности: диагностика и формирование.//Теория и практика физической культуры, 2009, №9, С.49-51.
3. Зацюрский В.М. Проблемы спортивной одарённости и отбор в спорта теория и практика физической культуры с 54-58.
4. Нуриддинов Е.Хайдаров Б. Жисмоний маданият ва спорт физиологияси. -Самарканд 2015, 178-б.
5. Аминов А.Д. О возможностях использования среднегорья в повышении эффективности спортивной тренировки. Автореф. дис. ... докт. пед.наук -Л.: 1999.-28с.;
6. Саламов Р.С. Спорт машфулотининг назарий асослари. -Тошкент – 2005.154 б.

UDK:37:331.863

SHARQ ALLOMALARI MEROSINING YOSHLARGA XALQ HUNARMANDCHILIGINI O'RGATISHDAGI O'RNI

Muranov B.I., Raximov A.A., Igamov S.S.

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada sharq mamlakatlari allomalarining mehnat, kasb-hunar ta'limi, tarbiyasi to'g'risidagi g'oyalari va dono so'zlari keltirilgan. Shuningdek xalq hunarmandchiligini maktab mehnat ta'limi dasturida o'qitilishi va undagi kamchiliklar, uni bartaraf etish yo'llari muammolari va yechimlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: mehnat ta'limi, kasb-hunar, sharq allomalari, ta'lim, tarbiya.

Роль наследия восточных ученых в преподавании народных ремесел молодежи

Аннотация: В статье приведены мудрые слова, теории о трудовом профессиональном образовании, обучения и воспитание ученые мудрецы восточных стран. В том числе, проблемы и их решение в процессе изучения школьной программе народного промысла, их недостатки и совершенствование данного процесса.

Ключевые слова: трудовое обучение, профессиональное, восточные ученые, обучение, воспитание.

Role of eastern scholars' heritage on teaching national handicraft to youths

Abstract. In this article is given ideas and sayings of eastern scholars about labour, handicrafts-teaching and training. Moreover, teaching and involved problems of national crafts program at school teaching level, and solution to the problems were also discussed.

Keywords: professional education, handicrafts, eastern scholars, education, training.

Xalq hunarmandchiligining ma'naviy me'roslarimiz bilan hamohang rivojlanishi juda ko'p mutafakkirlarning, donishmandlarning bitik va adabiy meroslarida yuksak mahorat-labitildi, hamda jahonning madaniyat xazinasiga abadiy hissa bo'lib qo'shildi. Turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda yaratilgan hadis, pandnoma, rivoyat, hikoyat, doston, maqol, g'azal, ruboiy, masnaviy va boshqa ko'rinishlarda ta'lim-tarbiya va kasb-hunar o'rganishning afzalligi, halol mehnat bilan yashashning zarurligi to'g'risidagi fikrlar bizgacha yetib kelgan.

Bunday yozma manbalarga eramizdan avvalgi VI-VII asrlarda Zardusht (Zaraostra) tomonidan yaratilgan Avesto, XI asrda Kaykovus tomonidan yaratilgan "Qobusnoma", Abu Nasr Forobiyning "Baxt-saodatga erishuv" asari, hind faylasufi Beydabo (Bedpoy) tomonidan yozilgan "Kalila va Dimna", Al-Xorazmiy "O'g'itlar"i, Abu Rayhon Beruniyning "Minerologiya" asari, Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig", Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu-lug'otitturk", Ahmad Yugnakiyning «Hibat-ul haqoyiq», Pahlavon Mahmudning "Ruboiy"lari, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoilal-Buxoriy tomonidan to'plangan "Hadislar", Lutfiyning "Gul va Navro'z", Alisher Navoiyning "Xamsa", "Mahbub-ul-qulub" asarlarida, Aruz Samarqandiyning "Nodir hikoyatlar"i, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" va boshqa ko'pl abadabiy, tarixiy, madaniy-ma'rifiy merosimiz namunalarini misol keltirish mumkin.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblangan "Avesto"ning yaratilishi haqida turli bahsli holatlar mavjud bo'lsa-da, bizni uning kim, qachon qayerda yozilganligidan ko'ra, asarning mag'izi, g'oyasi, mohiyati ko'proq qiziqtiradi. "Avesto" dastlab 1200 betlik hajmda Zardusht tomonidan yozilib, 12 ming ho'kizterisiga bitiladi (eramizdan avvalgi 548-529 yillarda qog'oz bo'lmagan), hamda butun bir dinning ma'naviy, mafkuraviy asosi bo'lib xizmat qildi, davrlar o'tishi bilan, tarjima va o'girishlar natijasida qisman takomillashtirildi.

"Avesto"da mehnatqilish, halolkun kechirish to'g'risida shunday satrlar ko'plab keltirilgan: "Yaxshilik va ezgulik yaratish uchun kishi mehnat qilishi, o'z qo'llari bilan moddiy noz-ne'matlar yaratishi lozim".(6.36) Yana, "Mehnat qilmaydigan odam! Sen haqiqatdan ham tilanchilar qatorida, yot eshiklarga ta'zim qilib, abadul-abad bosh egib turajaksan, haqiqatdan ham sening yoningda turli xil ziroatlarni olib o'tadilar".(O'sha manba, 36 bet) U tarbiyaviy, ta'limiy, pandnoma ko'rinishidagi yirik asardir. "Qobusnoma" 44 bobdan iborat bo'lib (2), boshdan oxirigacha o'sib kelayotgan avlodga, axloq, bilimli bo'lish, hayotda o'z o'rnini topish, har kimga o'zining shaxsiy va ijtimoiy hayotni yo'lga qo'ya olish va turmushning boshqa qirralarini yoritib, tahlil qilib berish bilan sug'orilgan. Undagi "Hunarning afzalligi va qadri baland, oliy tabiatli bo'lish haqida" nomli 6-maqolot, "Dehqonchilik va bozor hunarlari haqida" deb nomlangan 43-maqolot bizning tadqiqotimiz kuzatishlarimiz uchun, ya'ni yosh avlodni mehnatga va kasb-hunar o'rganishga yo'naltirish uchun nihoyatda ahamiyatlidir. Jumladan, 6-maqolotda shunday deyiladi: "Ey farzand, ogoh bo'lkim, hunarsiz kishi hamma vaqt foydasiz bo'lur va hech kimga foydasi tegmaydi... Agar kishi oliynasab, asl bo'lsa-yu, hunari bo'lmasa, haloyiqning izzat va hurmatidan mahrum bo'ladi, undan batarroq bo'ladi" (6.38)

Ushbu maqolotda ham, asarda ham bir aytilgan pand-nasihat turli rivoyatlar keltirilib, xayotiy misollar bilan quvvatlangan. "Foydasiz bo'lur, hech kimga foydasi tegmaydi" deyilganda, albatta muallif avvalo, jamiyat, xalq manfaatini, kelajak manfaatini, so'ngra esa shaxs o'zining manfaatini ko'zda tutishni istaydi.

Demak, hunarni egallashdan avvalo jamiyatga moddiy yoki ma'naviy boylik yaratiladi, hunarmandlarning o'zi esa zoriqmay-zuriqmay yashaydi, nopok ishlardan parhez qiladi. "Oliy nasab, asl bo'lsa-yu,... deyilganda har bir kishining jumladan, shahzodalar ham o'zining o'tmishi, avlodi, quruq faxrlanishi bilan cheklanib qolmasdan ana shu avlodning yuzini erga qaratmag'il, buni faqat hunar o'rgansang, nopok ishlarga qo'l urmaysan, shundagina sen hunar orqali o'zingni, oilangni, atrofdagi yor-birodarlarnigina ham emas, balkim, avlodningni ham har xil istehzodan saqlaysan degan mazmunni keltirib chiqarishga, etkazishga harakat qildi. Demak, qissadan-hissa shuki, har qanday kishi lavozimidan, bilimidan, boyligidan, avlodining nasl-nasabining kim va qanday bo'lishidan qat'iy nazar, hunar egallashi lozim, shundagina u hayotda har xil nojoiz harakatlardan holi bo'ladi.

Albatta Sharq xalqlari, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari VIII-IX asrlardan boshlab, asosan, islom diniga, uning aqidalariga rioya qilib kelmoqdalar. Musulmonlarning eng oliy, eng muqaddas kitobi bo'lgan "Qur'oni Karim" o'zining oyatlarida, suralarida mu'tabar Olloh nomidan xalqni, ahli mo'minni to'g'ri yo'lga boshlaydi. "Qur'oni Karim"ning bevosita oyatlaridan kelib chiqib, xalq orasida turli pand-nasihat, uqtirishlar, ta'kidlashlar ko'rinishida bo'lgan "Hadis"lar ham kishilarning turmush tarzini, ijtimoiy faoliyatini bir-biriga munosabatini ma'lum darajada tartibga solish to'g'risida o'g'itlar beradi.

Islom olamining buyuk muhaddislaridan hisoblangan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'iyra ibn Bardazbeh al-Juafiy al-Buxoriy (810-870 yy) o'zining salaflari (6 muhaddis) orasida "Hadis ilmida amir al-muminiyn"dir. Ulug' olim Ibn Ismoil al-Buxoriyning 20 dan ziyod asari bo'lib "Al-jome' as-sahih" (Ishonarli to'plam)i eng yiriklaridan hisoblanadi, hamda

“Saxihi al-Buxoriy” nomi bilan ham yuritiladi. Ushbu asarda 720 - 750 takrorlanadigan holda, takrorlanmaydigan holda 4000 hadis ma’lum mavzuiy tartib holda to’plangan. Manbalarda esa al-Buxoriy hazratlarining 600000 ga yaqin hadisni yod bilganliklari tilga olinadi.

Jumladan, “Al-jome’ as-saxix”ning “Savdo-sotiq kitobi”dagi 14-bobda Kishining kasbi va o’z qo’li bilan mehnat qilishi haqida shunday deyiladi: “Oysha raziyallohu anho rivoyat qiladilar: “Abu Bakr Siddiq xalifa bo’lganlarida”: “Mening o’z kasbim borligini qavmimiz yaxshi bilur. Men garchi musulmonlar ishlari bilan band bo’lsam, ham, shu kasbim orqali oila tebraturman” derdilar.

Oysha raziyallohu anho rivoyat qiladilar: “Rasululloh samiolollohu alayhi va sallam: “Mening sahobalarim o’z kasblari (mehnatlari bilan tirikchilik qilurlar”, - dedilar”. Mikdom raziyallohu anho rivoyat qiladilar: “Rasululloh salolohu alayhi vasallom: “Hech kim o’z qo’li bilan topgan rizqdan ko’ra lazzatliroq taom yemagan. Ollohning payg’ambari Dovud alayhissalom ham o’z qo’llarining mehnati bilan tirikchilik qilganlar”, - dedilar”... (29 b.). Ya’ni, birinchi hadisda, Muhammad alayhi vassallomning xalifalari Abu Bakr Siddiq ham o’z yurt, rivoyat hamda diniy ishlar bilan (ijtimoiy) mashg’ul bo’lsalarda ro’zg’orini, kun kechirishni, ya’ni, moddiy ta’minotni o’z kasbi, hunari bilan amalga oshirganliklarini o’rnak qilib ko’rsatdi. 9- hadisda ham payg’ambarning o’zlari kasb-hunar orqali, mehnat orqali kun kechirishni maslakdoshlariga uqtirganliklari va bu xildagi kun kechirishni qo’llab quvvatlaganliklari uqtiriladi. 3-hadisda esa Muhammad payg’ambardan ilgari payg’ambarlardan Dovud alayhivassalom hazratlari ham o’z mehnati bilan kun kechirganliklari qayd qilib o’tiladi.

Shuningdek “Al-jome’ as-sahih”da bir necha hunarlarga ko’pgina boblar ajratilgan: 19-bob. Go’sht sotuvchi va qassob haqida (11 b.); 26-bob Buyoqchi haqida (14 b.); 27-bob Temirchi haqida (14-15 b.); 29-bob To’quvchi haqida (15 b.); 30—bob Duradgor haqida (16 b.) kabi boblarda yuqoridagi kasb-hunarlarning, hunarmandlarning turlicha xususiyatlari asosida to’xtalib o’tiladi.

O’rta asr Sharqining buyuk allomasi Abu Nasr Forobiy o’zining qator asarlarida ilm va ta’limning muqaddasligi, xushaxloqlik, sadoqat, insoniylik, tarbiya, mehnat va kasb-hunar o’rganish to’g’risidagi falsafiy, ilmiy g’oyalarni ilgari surdi. Masalan: uning “Risola fi-t tanbih asbob as-saodat” (Baxt-saodatga erishuv yo’llari haqida risola), asarida o’zining yaxshi, mukammal, baxtli jamiyat haqidagi orzularini batafsil bayon qiladi. U nomi ko’rsatilgan dastlabki asarida shunday yozadi: “Fozil jamiyat va fozil shahar shunday bo’ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo’lgan har bir odam kasb-hunar bilan shug’ullanadi. Odamlar chin ma’nosi bilan ozod bo’ladilar... ” (39 b.). Forobiy «Baxt-saodatga erishuv haqida risola» asarida ta’lim-tarbiya, mehnat va kasb-hunar kishisining fazilatlarini to’g’risida shunday fikr yuritadi: “Ta’lim faqat so’z va o’rganish bilangina bo’ladi. Tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo’lgan ish-xarakat, kasb-xunarga berilgan bo’lishi, o’rganishidir. Agar ular shu kasb-hunarga berilgan bo’lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, kasb-hunarning chinakam oshig’i bo’ladilar”. (6)Demak, mutafakkir oqil jamiyat qurishning ham, barkamol shakllangan insonlarni tarbiyalashda ham, millat va xalqning ravnaqi ham kasb-hunar o’rganish va halol mehnat qilish zarurligini angelaydi va uqtiradi. Markaziy Osiyoning, sharqning buyuk allomasi, shuxrati butun olamga mashxur qomusiy mutafakkir Abu Rayhon Beruniy fan olamida, tafakkur xazinasida yirik o’ringa ega bo’lgan ilmiy meros qoldirdi. Uning “Minerologiya” (Qimmatbaho toshlarni bilish), “Hindiston”, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kabi asarlarida tafakkurga, ilmga, falsafaga, ta’lim-tarbiyaga, mehnatga muhabbat va kasb-hunarlarni egallashning ahamiyati to’g’risida fikrlari bayon qilingan.

Abu Rayhon Beruniyning “Minerologiya” asarida jumladan, shunday iboralar keltirib o’tiladi: “Mehnatsiz shon-shavkatga, martabaga erishgan kishi hurmatga loyiqmi? Yuqori martabaga mehnatsiz erishgan kishi va farog’at soyasida yashaydi, yaxshi kiyinadi, ammo, ulug’lik libosidan mahrum, yalang’ochdir”. Demak, mehnatning tagi rohat, ammo, mehnatkash kishi juda katta amaldor bo’la olmasligi, juda boy-badavlat bo’la olmasligi, yalang’och bo’lishi mumkin, ammo, huzur-halovatda bo’ladi.

Sharqning ulug’ bilimdonlaridan biri Yusuf Xos Hojib o’zining “Qutadg’u bilig” (Saodatga yo’llovchi bilim) nomli asaridagi “Oyto’ldi o’g’li O’gdulmishga pand nasihat berishini aytadi” nomli hikoyatida kasb-hunar o’rganish shunday o’git qiladi: “O’g’il-qizga hunar va bilim o’rgatish kerak, toki bu hunarlar bilan fe’l-atvor go’zal bo’lsin”. Demak, ota-onalarning burchlaridan biri farzandlari hoh o’g’il bo’lsin, qiz bo’lsin, avvalo ularga hunar o’rgatish bilimlaridan xabardor qilsin, kelgusida ana shularni o’rgangach, ularning fe’l-atvori, odob-axloqi ham go’zal bo’lishiga erishildi. U yana

“O‘g‘il-qiz tug‘ilsa, ularni qanday tarbiyalashni aytadi” nomli hikoyatda shunday to‘xtaladi:

“O‘g‘il-qizga bilim ham odob o‘rgat,
Ikki olam uniki, uning manfaati yetarli bo‘ladi,
O‘g‘ilga barcha san‘at-hunarlarini to‘la o‘rgat,
Bu san‘at-hunarlar bilan u mol-dunyoyiga beradi”.
(O‘sha manba. 164 b.).

Yosh avlodni halol mehnat qilishga, turli kasb-hunarlarini egallashga o‘rgatilib borishi xalqimizning butun taraqqiyoti tarixida, turli davrlarda ham muqaddas aqida, an‘anaga aylanib borgan.

Mutafakkirlar, allomalar, ahli donishlar, nazariyotchi va amaliyotchilar, olimlar tomonidan bu soxada turlicha tadqiqot va izlanishlar, kuzatishlar olib borib, o‘zlarining fikr va mulohazalarini turli asarlarida bayon qilganlar.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘tkazgan so‘rovnomalar, anketalar, savol-javoblar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mehnat ta‘limining mavjud an‘anaviy tizimida xalq hunarmandchiligi aniq bir tizimli holatida, mukammallashgan va tartibli holda o‘rganilmagan va o‘rgatilmagan. O‘quvchilarning va o‘qituvchilarning bu sohadagi bilimlari bevosita o‘quv-dars jarayonidan emas, balkim, ko‘proq o‘zlarining mustaqil izlanishlari, o‘qib-o‘rganishlari, vaqtli matbuot, ilmiy-ommabop, metodik, pedagogik va qo‘shimcha axborot manbalaridan foydalanishlari natijasida mujassamlanadi.

Mehnat va kasb –hunar ta‘limining turli sohalaridagi muammolarini tadqiq qilingan va natijalari yoritilgan manbalar tahlili, ta‘lim-tarbiya tizimining turli bo‘g‘inlarida, turli muassasalarida olib borgan kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, umumta‘lim maktablarini bitirgan o‘quvchilarning ko‘pchiligi tarkibida xalq hunarmandchiligi yo‘nalishlari, sohaları mavjud bo‘lgan kasb-hunar o‘quv yurtlariga ham o‘qishga kiradilar. Demak, umumta‘lim maktablarida umumta‘lim fanlarini o‘rganish asosida egallagan bilimlar, o‘zlashtirgan ko‘nikmalari mazmunida bevosita xalq hunarmandchiligi sohaları, mohiyati to‘g‘risida boshlang‘ich bilim ko‘nikmalariga taalluqli ma‘lumotlarga ega bo‘lmasa-da, amalda, hayotda, ushbu soha bilimlari, ko‘nikmalari chuqur egallanishi lozim bo‘lgan kasb-hunar ta‘limi o‘quv yurtlariga o‘qishga kirishga majbur bo‘ladilar. Bundan ko‘rinadiki, umumta‘lim maktablarida xalq hunarmandchiligini tizimli ravishda o‘rganishga va o‘rgatishga bo‘lgan ijtimoiy buyurtma mavjud, ammo bu ta‘limning tabiiy ehtiyojga aylangan milliy buyurtma bajarilmasdan kelmoqda deyish mumkin.

Mehnat va kasb ta‘limi sohasida olib borgan ko‘p yillik kuzatishlar va tadqiqotlarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarni bayon etish mumkin:

1. Ta‘lim tizimining muhim bo‘g‘inlari va kasb tanlashga yo‘naltirishning asosiy bo‘g‘inlaridan biri hisoblangan umumta‘lim maktablarida o‘qitilayotgan mehnat ta‘limi ham yagona tizimga to‘lig‘icha solingan emas.

2. Shu paytgacha mehnat va kasb tanlashga yo‘naltirish ta‘limi sohasida olib borilgan tadqiqot ishlari, monografiyalar, o‘quv-qo‘llanmalari, dasturlar va boshqalar mazmunida xalq hunarmandchiligini o‘rganish va o‘rgatish muammosi va texnologiyalari to‘liq ochib berilmagan.

3. Umumta‘lim maktablaridagi ta‘lim turlari mazmuniga xalq hunarmandchiligini kiritishga ijtimoiy buyurtma mavjud, ammo, bu buyurtma mazmunan ham, shaklan ham mehnat va kasb-hunar ta‘limi fanlari xususiyatiga mos keladi.

4. Sharq allomalari tomonidan yaratilgan tarixiy meroslar to‘lig‘icha o‘rganilmagan, o‘rganilgan qismi ham ta‘lim-tarbiya jarayoniga butkul holda tizimli ravishda joriy etilgan emas.

5. Umumta‘lim maktablaridagi mehnat va kasbga yo‘naltirish o‘quv-tarbiyaviy ta‘limi o‘quv-dars mashg‘ulotlari, to‘garaklar, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar mazmunida xalq hunarmandchiligini o‘rganish va o‘rgatish singdirilsa, bu hol ushbu ta‘lim sohasining etnik, tarixiy, metodologik, mahalliy, ma‘naviy, ma‘rifiy zaminini yaratishga asos bo‘ladi.

6. Mehnat va kasbiy ta‘lim tizimida xalq hunarmandchiligi mazmuni aks ettirilgan o‘quv-metodik majmualar, dastur, darslik, qo‘llanmalar va o‘quv-me‘yoriy hujjatlar (konsepsiya, standart, taraqqiyot dasturi va o‘quv reja)larini yaxlit uyg‘unlikda ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

7. Xalq hunarmandchiligining turli sohalarining mehnat va kasbiy ta‘lim tizimiga kiritilishi o‘quvchilarning yosh, psixofiziologik, individual va aqliy xususiyatlariga mos kelishi to‘g‘risidagi turli tadqiqotlar o‘tkazish o‘quv-uslubiy ishlanmalar tavsiyanomalar yaratish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Abu Rayxon Beruniy. Xikmatlar. – T.: Yosh gvardiya, 1973.- 104 b.

2. Kaykovus. Qobusnoma. –T.: O‘qituvchi, 1986. –154 b.
3. Qur‘oni karim.Tarjima va izohlar muallifi. Alouddin Mansur–T.:Cho‘lpon 1992.-544 b
4. Yusuf Xos Xojib. Qutadg‘u bilig. So‘z boshi. N.To‘xliev. –T: Yulduzcha, 1990. – 189 b.
5. Xoja Ismoil al- Buxoriy, Al-jome‘-as Sahih. –T.: Qomuslar bosh tahririyati .1997. -1-4 jild
6. O‘zbekiston pedagogikasi antologiyasi. 1-jild. Tuz.mualliflar: K.Xoshimov. M.Xayrullaev va boshq.taxr. –T.: O‘qituvchi, 1995. – 464 b.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT ILMIY-TEXNIKA DASTURLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Ergashev Sh.Sh.

O‘zbekiston Milliy universiteti

E-mail: hamshod87@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin mamlakatda olib borilgan ilmiy-texnik siyosat, ilm-fan sohasidagi islohotlar va istoqlol yillarida bajarilgan ilmiy loyihalarning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi hamda ularni shakllanish bosqichlari aks ettiriladi. Shuningdek, O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanini o‘rganish doirasida mustaqillik yillarida ilmiy-texnik va innovatsiya faoliyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: davlat ilmiy-texnika dasturi, fundamental, amaliy tadqiqotlar, innovatsiya, ilmiy-texnika siyosati.

Формирование и развитие Государственных научно-технических программ в Республике Узбекистан

Аннотация: В статье обсуждаются вопросы, связанные с реформой в области науки и исследований и государственной поддержки осуществляемых научно-исследовательских проектов, а также стадии их формирования.

Ключевые слова: Государственная научно-техгническая программа, фундаментальная, прикладные исследования, инновация, научно-техническая политика.

Formation and Development of State scientific-technical programs in the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article will show the scientific and technical policy in the field of science and research and the reform of state support ongoing research projects, as well as in the stage of their formation. In addition, the most recent years of independence in the study of the history of science, scientific-technological and innovation activities are covered.

Keywords: state scientific-technical program, fundamental, applied research, innovation, scientific-technical policy.

Istiqlol yillarida buyuk ajdodlarimizning munosib an‘analarini davom ettirish va mamlakatimiz ilm-faning rivojiga katta e‘tibor qaratildi.Mustaqillikka erishilgandan so‘ng, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan modernizatsiya va iqtisodiy islohotlar ilm-fan sohasi bilan uzviy bog‘liqligi tufayli ham davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘rganish doirasida ilm-fan taraqqiyoti alohida qasb etadi. Shu nuqtai nazardan, 1991-2016 yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasidagi ilmiy-texnik siyosatni 3 bosqichga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yillar oralig‘ida fan va texnika sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda respublikaning ilmiy quvvatidan samarali foydalanish, fan va ishlab chiqarishning hamkorlik vositasini shakllantirish, patent-litsenziya va ilmiy axborot faoliyatini takomillashtirish, xalqaro ilmiy texnikaviy hamkorlikni rivojlantirish masalalarini muvofiqlashtiruvchi uchta yagona davlat organlari ketma-ketlikda shakllantirilgan. Har bir davlat organining faoliyati bosqichlarga bo‘lib o‘rganildi.

Birinchi bosqich – 1992-2002 yillar. O‘zbekiston Respublikasining Fan va texnika davlat komiteti (O‘zbekiston Respublikasi FTDK) – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 18 fevraldagi PF-345-sonli Farmoniga binoan tashkil etilgan va Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 19 fevraldagi 71-son qarori/pages/getpage.aspx?lact_id=393771 - [393863](http://pages/getpage.aspx?lact_id=393863)ga binoan Fan va

texnika davlat komiteti tasruffiga Iqtisodiyot komiteti va unga qarashli ilmiy tashkilotlar hamda Respublika fan-texnika va patent-litsenziya axboroti markazi (O'zFTPA) kiritilgan.

Fan va texnika davlat komitetining bosh vazifalari va faoliyati yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'lgan:

- fan-texnika taraqqiyotining respublika uchun ustuvor yo'nalishlarini belgilash, fan va texnikani rag'batlantirish vositalarini ishlab chiqish asosida fan-texnika sohasidagi davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish;
- katta ilmiy-texnikaviy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, istiqbolli yechimlar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishni tashkil qilish yuzasidan ilmiy-tadqiqot hamda loyiha-konstruktorlik tashkilotlari, korxonalar, birlashmalar faoliyatining muvofiqlashtirilishini ta'minlash, fanning ishlab chiqarish bilan aloqasini mustahkamlash;
- fan va texnika sohasi tarmoqlari majmuini, fan bilan ishlab chiqarishning ilg'or hamkorlik shakllarini tashkil etish va rivojlantirish, yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlashni takomillashtirish;
- respublikaning xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlikda qatnashishi ustuvor yo'llari va asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish, chet mamlakatlar, ilmiy va o'quv markazlari hamda boshqa tashkilotlar bilan fan, texnika sohasida va kadrlar tayyorlashda aloqalarni muvofiqlashtirish va ularni kengaytirishga ko'maklashish;
- fan va texnikaning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-texnikaviy loyihalar va dasturlarni davlat ekspertizasidan o'tkazishni tashkil qilish va shu ishlarni amalga oshirish, fan va texnika yutuqlari joriy etilishini, xalq xo'jaligi tarmoqlarini ilmiy-texnikaviy darajasini nazorat qilish;
- fan va texnika sohasida mualliflik huquqlari muhofaza qilinishini, kashfiyotlar, ixtirolar, sanoat namunalari va tovar belgilaridan O'zbekiston Respublikasida samarali foydalanishni ta'minlaydigan tizimni vujudga keltirish;
- patent-litsenziya ishlarini tashkil qilish va muvofiqlashtirish, respublika patent jamg'armasini tuzish, patentlash masalalarida korxonalar va tashkilotlarga maslahatlar hamda uslubiy yordam berish kabilar.

Qo'mita o'z faoliyati davomida bor imkoniyatlarini mamlakat ilmiy-texnikaviy salohiyatini saqlab qolishga va uni respublika ijtimoiy-iqtisodiy muammolari yechimini topish uchun yo'naltirishga sarfladi. Natijada mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari aniqlanib, ularni bajarish uchun ilk bor fundamental va amaliy tadqiqotlar Davlat ilmiy-texnika dasturlari shakllantirildi. Shuningdek, bazaviy moliyalashtirishga asoslangan ilmiy tadqiqot faoliyatini boshqarish, muvofiqlashtirish, moliyalashtirish va amaliyotga tatbiq etish tizimi joriy qilindi. Sobiq sovet tuzumi davridan endi ajralib chiqilgandan so'ng, qo'mita oldidagi asosiy vazifa ilmiy-texnikaviy salohiyatni saqlash edi. Buning uchun ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishni sobiq ittifoqdagi kabi bazaviy shaklda, budget mablag'lari hisobiga amalga oshirish talab qilinardi. Fan sohasiga ajratiladigan budget mablag'larining deyarli barchasi Davlat ilmiy-texnika dasturlarini bajarishga yo'naltirilgan edi. Shu sababli 1997 yildan boshlab tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilishni ko'zda tutuvchi innovatsiya tizimini shakllantirish bo'yicha dastlabki qadamlar qo'yildi.

Uzoq yillar mobaynida faqat ikki turdagi tadqiqotlar bajarib kelingan, ya'ni:

- Fundamental tadqiqotlar – yangi bilimlarni ochish, nazariyalar yaratish yoki mavjudlarini boyitishga xizmat qilishga mo'ljallangan loyihalar;
- Amaliy tadqiqotlar – zamonaviy bilimlar asosida yangi ishlanmaning namunasini yoki dastlabki qismini yaratishga mo'ljallangan loyihalar.

Zamonaviy globallashtirish sharoitida, O'zbekistonda ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatni jahon andozalari talablari darajasida muvofiqlashtirishga ehtiyoj sezila boshladi. Shu boisdan mamlakat ilmiy salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yangi Farmoni chiqdi.

Ikkinchi bosqich – 2002-2006 yillar. Fan va texnologiyalar markazi - 2002 yil 20 fevralda "Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident Farmoniga muvofiq, Fan va texnika davlat qo'mitasi o'rniga Vazirlar Mahkamasi huzurida Ilmiy-texnika taraqqiyotini muvofiqlashtirish kengashi tuzildi. Kengash qoshida Fan va texnologiyalar markazi hamda Yirik ilmiy va investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish kengashi tashkil etildi.

2003 yildan boshlab mamlakatda fundamental, amaliy tadqiqotlar hamda innovatsiya ilmiy-texnika loyihalarini tashkillashtirish va moliyalashtirish tanlovlarga asoslangan, bozor munosabatlariga mos yangi grant tizimi vositasida amalga oshirila boshlandi. 2003-2006 yillarda ushbu tizim sharoitida to'plangan amaliy tajribalar, ilmiy muassasalar va oliy ta'lim dargohlarida Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilgan ilmiy tadqiqotlar salmoqli natijalar berdi. Joylardagi oliy ta'lim va ilmiy muassasalar rahbarlari tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlarining bajarilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi, Loyihalarni, bazaviy moliyalashdan farqli o'laroq, manzilli moliyalashtirish tizimi joriy qilindi. Shu bois ijrochi tashkilotlar ajratilgan mablag'larni to'lig'icha olib, ulardan maqsadli foydalanadigan bo'ldilar.

Grant tizimi ijrochi tashkilotlar huzurida loyihalarni bajarish uchun muvaqqat ilmiy jamoalar tuzish imkonini yaratdi. Natijada oliy o'quv yurtlaridagi ilmiy tadqiqotlar faollashdi, Fanlar akademiyasining ilmiy muassasalari hamda tarmoq institutlari bilan hamkorlikda va ulardagi noyob ilmiy ob'ektlar, texnik jihozlaru asbob-uskunalaridan foydalanib, loyihalarni natijali yakunlash ishlari yaxshilandi. O'zbekiston olimlari jahon andozalari talablari darajasidagi ilmiy loyihalar tayyorlashni o'rgandilar. Bu mamlakat va boshqa davlatlarning fan va ilg'or texnologiyalar sohasidagi hamkorligini kuchaytirib, xorijdagi nufuzli ilmiy markazlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni jadal rivojlantirish imkonini tug'dirdi.

Shu davrda yirik oliy o'quv yurtlarida ilk bor ilmiy tadqiqotni tashkil etishning "Ta'lim, fan va ishlab chiqarish" tizimini mujassamlashtirish mexanizmi ishlab chiqildi. Toshkent Davlat agrar universitetida "Ta'lim, fan va ishlab chiqarish" integratsiyasini tashkillashtirishning agrosanoat yo'nalishiga mos modeli barpo etildi. Shuningdek, iqtidorli yoshlarni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb qilish va tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish niyatida o'quv ilmiy-tadqiqot markazlari ochildi.

Toshkent Davlat texnika universiteti kafedralarida ilmiy-tadqiqot va innovatsiya markazlaridan iborat kichik innovatsiya halqasi tashkil etildi. Hozir ushbu markazlarda kafedralar professor-o'qituvchilari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, magistrantlar va talabalar o'z ilmiy tadqiqotlarini o'tkazib, natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish bilan shug'ullanishmoqda.

O'tgan davrdagi amaliyot grant tizimining ijobiy tomonlari bilan bir qatorda kamchiliklari ham mavjudligini ko'rsatdi. Ayniqsa, tanlovga taqdim etilgan loyihalar bo'yicha g'oliblarni aniqlash, ya'ni ekspertiza jarayonining yopiqligi, Fan va texnologiyalar markazi, vazirliklar va ijrochi tashkilotlar loyihalardan ilmiy-texnika dasturlarini shakllantirish ishida qatnashish imkoniga ega bo'lmagani o'z asoratini qoldirdi. Ekspertiza kengashi tomonidan tanlovlar natijasiga ko'ra shakllantirilgan ilmiy-texnika dasturlari mayda mavzuli, maqsad-vazifalariga ko'ra o'zaro zanjirli bog'liqlikdan holi va iqtisodiyot tarmoqlari bilan to'liq uyg'unlashmagan loyihalar majmuasidan iborat bo'lib qoldi.

Shu vaqt oralig'ida Fanlar akademiyasida, tasarrufida ilmiy muassasalar hamda tajriba-konstruktorlik tashkilotlari bo'lgan vazirlik va idoralarda ilmiy-texnika taraqqiyoti ustuvorliklariga mos bo'lgan tarmoqda mavjud muammolarning ilmiy yechimini ta'minlashga qaratilgan, yaqin, o'rta va uzoq muddatlarga mo'ljallangan ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rivojlantirishning ilmiy konsepsiyaga asoslangan strategiyasi yaratilmagani ham salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Oqibatda "Fundamental izlanishlar + amaliy tadqiqotlar + innovatsiya ishlari"dan iborat biri ikkinchisini to'ldirib boruvchi zanjirli tizimning o'zaro yaxlitligiga erishish, ayniqsa, ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishni ta'minlash, soha muassasalarining iqtisodiyot tarmoqlari va korxonalar bilan bozor talablariga mos o'zaro manfaatli aloqalarini o'rnatib, intellektual mulk bozorini kengaytirish imkoni bo'lmadi. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish tizimida ilmiy-texnika axboroti almashinuvini ta'minlash bilan shug'ullanadigan yagona Davlat ilmiy-texnika axboroti tizimi yo'qligi tufayli ilmiy-tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish bilan bog'liq faoliyatni to'la rivojlantirishning iloji topilmadi. Innovatsiya faoliyatini jadallashtirishning asosiy omillaridan hisoblangan ilmiy-texnika axboroti almashinuvini ta'minlaydigan infratuzilma shakllanmadi. Natijada yangi Qonunga ehtiyoj paydo bo'ldi.

Uchinchi bosqich – 2006 yil - hozirgi kunga qadar. Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2006 yil 7 avgustdagi "Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida respublika ilmiy-texnika salohiyatining rivojlanish darajasi kun sayin ortayotgan talablarga, mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlar sur'atiga to'liq javob bermasligi qayd etildi. Shuningdek, ilmiy dasturlarni

shakllantirish va amalga oshirish, ilmiy-texnika ishlarini moliyalashtirish mexanizmi, Davlat ilmiy-texnika dasturlari va loyihalar iqtisodiyotning tegishli tarmoqlari rivoji uchun mas'ul vazirlik va idoralarning faol ishtirokisiz, chuqur va har yoqlama oshkoraviy ekspertiza o'tkazilmay, ijrochi olimlar va mutaxassislar tomonidan atroflicha muhokama qilinmay shakllantirilishi, moliyaviy mablag'larning tor doiradagi ekspertlar xulosasi asosida taqsimlanishini nazarda tutuvchi, mavjud ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishning grant tizimi mayda mavzular takrorlanishiga va ajratilgan mablag'lardan samarasiz foydalanilishiga olib kelishi ta'kidlandi. Shunga binoan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida fanning rolini kuchaytirish, ilmiy-texnika taraqqiyoti boshqaruvini erkinlashtirish, ilmiy tadqiqotlar, texnologik va konstruktorlik ishlanmalari darajasi, sifati va dolzarbligini oshirish, ulardan foydalanish uchun qulay sharoit yaratish maqsadida Ilmiy-texnika taraqqiyotini muvofiqlashtirish kengashi va uning ijrochi organlari tugatilib, Vazirlar Mahkamasi huzurida Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi tashkil etildi.

Qo'mita zimmasiga quyidagi dolzarb vazifalar yuklatildi:

— mamlakatning kelgusi ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotini hamda zamonaviy fan yutuqlarini hisobga olgan holda, fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish;

— vazirliklar va idoralar tasarrufidagi ilmiy-tadqiqot institutlari, muassasalar, loyiha-konstruktorlik tashkilotlari, oliy ta'lim maskanlari hamda Fanlar akademiyasining fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlash;

— ilmiy-texnika dasturlari amalga oshirilishini, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar natijalari turli sohalarda qo'llanilishini samarali monitoring qilishni tashkillashtirish;

— o'zaro foydali xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlikni mustahkamlash, mamlakat ilm sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, respublika ilmiy tashkilotlari, olimlari va mutaxassislarining xalqaro dasturlar va ilmiy loyihalar tanlovlarida qatnashishlariga ko'maklashish.

Qarorda Davlat ilmiy-texnika siyosatining asosiy maqsadi mamlakat ichki bozorini raqobatbardosh tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirish imkonini beradigan, iqtisodiyot tarmoqlarining texnologik yangilanishini ta'minlaydigan ilmiy va texnologik ishlanmalarni qo'llab-quvvatlashdan iborat ekanligi alohida ta'kidlandi. Fan va texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini aniqlash jarayonida, davlat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, qisqa fursat (2-5 yil) ichida mamlakat ravnaqiga xizmat qiladigan iqtisodiyot tarmoqlarining texnologik saviyasini oshirish hamda iqtisodiy islohotlarning hayotga tatbiq etilishini ta'minlash asosiy maqsad qilib belgilandi.

Ustuvorliklarni aniqlash mavjud ilmiy-texnikaviy salohiyatni aniq maqsad yo'lida mujassamlashtirishning eng samarali mexanizmlaridan hisoblanadi. Shu bois 2007 va 2011 yillarda qo'mita tomonidan Fanlar akademiyasi, vazirliklar, idoralar va iqtisodiyot tarmoqlarining takliflari hamda jahon fanining yuksalish tendensiyasi asosida respublika fani va ilmiy-texnika taraqqiyotining quyidagi yettita (2007) ustuvor yo'nalishi aniqlandi. Birinchi — O'zbekistonda demokratik davlatni rivojlantirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslarini tadqiq etish, islohotlarni takomillashtirish va chuqurlashtirish; ikkinchi — jamiyatni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy va tarixiy-madaniy jihatdan rivojlantirish; uchinchi — foydali qazilmalarni qidirib topish, qazish, ma'danli xom ashyolar va ikkilamchi resurslarni chuqur qayta ishlash hamda ulardan omilkorona foydalanishning eng samarali usullarini ishlab chiqish va ilmiy hajmdor texnologiyalarni yaratish; to'rtinchi — yer va suv manbalari hamda biologik xilma-xillikdan oqilona foydalanish, ularni qayta tiklash tizimini takomillashtirish, genetik resurslar va biotexnologiyalarga daxldor ilmiy yutuqlar asosida agrotexnologiyalarni, qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildor navlarini, chorva mollarining sermahsul va naslli zotlarini yaratish; beshinchisi — tibbiyotda ilmiy hajmdor texnologiyalar, zamonaviy ilg'or usullar va vositalarni vujudga keltirish, aholi salomatligini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash; oltinchisi — energiya va resurslarni tejash imkonini beruvchi samarali ilmiy hajmdor texnologiyalar, texnika vositalari, mashina va uskunalarning yangi avlodi hamda materiallarini yaratish; yettinchisi — axborotlarni uzatish, qayta ishlash va himoyalash texnologiyalarini, boshqarish va loyihalashtirishning intellektual tizimlarini yaratish.

Qo'mita ushbu ustuvor yo'nalishlar amaliyotini ta'minlash maqsadida me'yoriy hujjatlar ishlab chiqib, tasdiqladi. Ularni barcha vazirlik va idoralarga yetkazib, mamlakatda ilmiy tadqiqotni

tashkil etishni boshqarish hamda fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirishning yangi tizimini joriy etdi.

Yangi tizimga ko'ra, Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Sog'liqni saqlash, Qishloq va suv xo'jaligi, Xalq ta'limi vazirliklari Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajariladigan fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsiya ishlarining buyurtmachilari etib belgilandi. Ularning zimmasiga ilmiy tadqiqotlar va innovatsiya ishlarini dasturlar doirasida tashkillashtirish, moliyalashtirish, oraliq-bosqich va yakuniy hisobotlarini qabul qilish, ro'yxatga olish, saqlash va monitoringini o'tkazish, shuningdek, tanlovlar asosida fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsiya ishlari ilmiy-texnika dasturlarini shakllantirish va ularni moliyalashtirish hamda tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish vazifalari yuklatildi. Boshqa vazirliklar tasarrufiga kiradigan tashkilotlar bilan yuqoridagi ishlar bilan qo'mita qoshidagi Idoralararo ilmiy-texnikaviy kengashlar shug'ullanadigan bo'ldi.

Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishda mamlakat ilmiy-texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini to'g'ri tanlash muhim omil hisoblanadi. Fan va texnologiyalar taraqqiyotining amaldagi ustuvor yo'nalishlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari, Fanlar akademiyasi, vazirlik va idoralar, iqtisodiyot tarmoqlaridagi ishlab chiqarish korxonalarini takliflari hamda jahon fanining yuksalish tendensiyasi asosida aniqlanadi.

Darhaqiqat, fanda ustuvorliklarni aniqlash ilmiy jamoalar va olimlar faoliyatini muvofiqlashtirishning hamda mavjud ilmiy-texnikaviy salohiyat va kuchlarni aniq maqsad yo'lida mujassamlashtirishning eng samarali mexanizmlaridan hisoblanadi. Shu bois, 2011 yili Qo'mita tomonidan respublika fani va ilmiy-texnika taraqqiyotining quyidagi 8 ta ustuvor yo'nalishi aniqlandi:

Birinchisi - demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish;

Ikkinchisi - energetika, energiya va resurstejamkorlik;

Uchinchisi - qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish;

To'rtinchisi - axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish;

Beshinchisi - qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi;

Oltinchisi - tibbiyot va farmakologiya;

Yettinchisi - kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar;

Sakkizinchisi - yer to'g'risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xom-ashyoni qayta ishlash).

Qo'mita tomonidan tasdiqlangan ustuvor yo'nalishlar va budget mablag'lari hisobiga ularning amaliyotini ta'minlayotgan Davlat ilmiy-texnika dasturlari quyidagi masalalarni hal qilishga qaratilgan:

- iqtisodiyot tarmoqlaridagi mavjud muammolarni yechishga yo'naltirilgan fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsiya ishlanmalari loyihalarini tanlov asosida saralab olinishi;
- olingan natijalarning amaliyotga tadbiiq etilishi;
- tadqiqotlarning ilmiy va fundamental ahamiyatga molikligi;
- FA, Oliy ta'lim, ilmiy muassasalar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda bajariladigan yirik muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borish;
- oliy ta'lim, ilmiy muassasalar va ishlab chiqarish korxonalarining hamkorligiga erishish evaziga fan, ta'lim va ishlab chiqarish mujassamligini ta'minlash;
- yuqori malakali ilmiy kadrlarni tayyorlash va mustahkamlash, katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar, mustaqil izlanuvchilar instituti faolitini takomillashtirish;
- O'zbekistonning fundamental ilm-fanining integratsiyalashuvi jarayonida xalqaro dasturlar va loyihalarni amalga oshirishdagi ishtirokini ta'minlash, xalqaro ilmiy anjumanlar o'tkazish;
- Davlat dasturlarini amalga oshirish hamda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ilmiy tadqiqot va ishlanmalar natijalarining o'sishi, o'tkazilgan tadqiqotlarning sifatini oshishi, budget mablag'larining maqsadli va samarali ishlatilishi, ularning strategik dastur va loyihalarga yo'naltirilganligi, milliy iqtisodiyotning manfaatlarini ta'minlash, qishloq xo'jaligi, tibbiyot, arxitektura va qurilish, barkamol avlodni tarbiyalash, san'at, ma'naviyat, ma'rifat va boshqa sohalarni rivojlantirishni ta'minlash imkonini beradi.

Dasturlarning bajarilishida nodavlat, notijorat tashkilotlarining ham qatnashishi muhim ahamiyat kasb etadi. Nodavlat-notijorat tashkilotlarining ishtirok etishidan maqsad yangi innovatsion texnologiyalarni yaratish va ularni milliy ishlab chiqarishga joriy etish, davlat va xususiy sherikchilikning o‘zaro tizimli samaradorligini oshirish, xususiy investorlarni jalb etish, intellektual mulkni yaratish va tijoratlashtirish, uzoq muddatli yirik ilmiy loyihalarni moliyalashtirishni yo‘lga qo‘yish nazarda tutiladi.

2006-2016 yillarda tashkil etilgan tanlovlar natijasida 800 dan ortiq fundamental, 3400 ga yaqin amaliy tadqiqotlar hamda 1500 ga yaqin innovatsiya ilmiy-texnika loyihalari bajarilgan. Shuningdek, 400 dan ortiq yosh olimlarning fundamental va amaliy tadqiqotlari davlat ilmiy-texnika dasturlari shakllantirilib, amaliyoti ta’minlandi (1- jadval).

1-jadval. Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilgan loyihalarning soni va ishtirokchilari

Yillar	Fundamental tadqiqotlar dasturi		Amaliy tadqiqotlar dasturi		Innovatsiya ishlanmalari dasturi		Davlat ilmiy-texnika dasturlari	
	Loyihalar soni	Ishtirokchilar soni	Loyihalar soni	Ishtirokchilar soni	Loyihalar soni	Ishtirokchilar soni	Loyihalar soni	Ishtirokchilar soni
2005	310	2994	1180	8916	130	1296	1620	13206
2006	307	2986	1143	8774	128	1318	1578	13078
2007	417	3556	1140	8765	173	1376	1730	13697
2008	417	3560	1140	8738	174	1370	1731	13668
2009	417	3555	591	6935	199	1700	1207	12190
2010	415	3550	591	6910	221	1710	1227	12170
2011	415	3542	591	6898	210	1697	1216	12137
2012	435	2715	933	6838	352	2184	1720	11737
2013	433	2706	932	6900	348	2180	1713	11786
2014	431	2695	951	6955	360	2206	1742	11856
2015	430	2690	796	6980	349	2154	1575	11824

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1992 йил 18 февралдаги ПФ-345-сонли Фармони;
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2002 йил 20 февралдаги “Илмий тадқиқот фаолиятини ташкил этишни такомиллаштириш тўғрисида”ги Президент Фармони;
3. Вазирлар Маҳкамасининг 1992 йил 19 февралдаги 71-сон қарори/[pages/getpage.aspx?lact_id=393771 - 393863](#);
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 7 августдаги “Фан ва технологиялар ривожланишини мувофиқлаштириш ва бошқаришни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори;
5. Давлат илмий-техника дастурлари доирасида қишлоқ хўжалиги, биотехнология, экология ва атроф-муҳит муҳофазаси бўйича бажарилаётган илмий лойиҳаларнинг натижавийлиги. А.Мухаммадиев, Ш.Эргашев, 2016 йил.
6. А.Мухаммадиев, Я.Ходжаев, Ш.Эргашев, 2012 йил. 2012-2020 йилларга мўлжалланган фан ва технологиялар таракқиётининг устувор йўналишлари ва уларнинг амалиётини таъминлаш.
7. “The role and scientific tasks in the innovative development of Uzbekistan: the state, challenges and prospects” Sh.I.Salikhov, 2015 y.
8. С.Пўлатова, “Ўзбекистоннинг маънавий-маданий таракқиёти хрестоматияси” Тафаккур нашриёти, 2016 йил;
9. [Uzscience.uz](#) (ФТРМҚнинг расмий сайти)

UDK 159.9

PSIXOLOGIK YORDAM KO'RSATISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI**Madjitova N.X.***Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti*E-mail: nmadzhitova@mail.ru

Annotatsiya. Psixologik yordam ko'rsatish amaliyoti o'z metodologiyasiga ega bo'lib, bunda psixologik xizmat ko'rsatishning maqsadini belgilab olish muhim hisoblanadi. Maqolada ta'lim muhitida psixologik yordam ko'rsatish masalasiga doir fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim muhiti, psixologik faoliyat, pedagogik muhit, psixologik korreksiya, psixologik yordam, psixologik holat, psixologik bilim, rivojlanish psixologiyasi, ijtimoiy mavqe.

Социально-психологические аспекты оказания психологической помощи

Аннотация. Практика оказания психологической помощи имеет свою методологию, в данном случае, важным является определение цели оказания психологической помощи. В данной статье автор анализирует оказание психологической помощи в условиях образовательной среды.

Ключевые слова: образовательная среда, психологическая деятельность, педагогическая среда, психологическая коррекция, психологическая помощь, психологическое состояние, психологические знания, психология развития, социальный статус.

Socio-psychological aspects of psychological support

Annotation. The practice of psychological assistance has its own methodology, in this case, the important is to determine the purpose of providing psychological assistance. In this article the author analyzes the psychological support in the conditions of the educational environment.

Key words: educational environment, psychological activities, pedagogical environment, psychological correction, psychological counseling, psychological condition, psychological knowledge, developmental psychology, social status.

Ta'lim sohasida o'tkazilayotgan modernizatsiya jarayoni nafaqat o'quv-ta'lim jarayonini samaradorligini oshirish uchun nafaqat uni informatsiyaviy va texnik ta'minotiga, balki o'quvchi shaxsini kamolotini ta'minlashga alohida e'tibor qaratib, ta'limiy materiallarni faol tarzda o'zlashtirish masalasiga ham urg'u berish lozimligini taqozo etmoqda. "Natijasida ta'lim jarayonini ta'minlashga ko'maklovchi mutaxassislarining funksonal roliga talab oshib bormoqda". Ta'lim jarayonini ta'minlashga ko'maklashuvchi mutaxassislar deganda, pedagog, o'quvchilar va ularning ota-onalarini kasbiy-pedagogik, individual-shaxsiy mazmunlarga ega bo'lgan turli ko'rinishdagi muammolarini aniq psixologik metodikalar yordamida o'rganib, mutaxassis sifatida taklif va tavsiyalarni beribgina qolmasdan, aniqlangan nuqsonni psixologik korreksiyasini amalga oshirish uchun faoliyat yurituvchi psixolog, defektolog va logopedlarni tushinish lozim. Garchi ularning faoliyatining maqsadi va shakli bir-biridan farqlansada, ammo faoliyat ob'ekti o'quvchi shaxsi hisoblanadi. Ular o'quvchi shaxsini o'rganib, maktab ta'limi amaliyotiga psixologik bilimlarni kiritib, pedagog tomonidan o'quvchi shaxsini ichki dunyosini chuqur bilish uchun amaliy yordam berdilar. Bugungi kunda psixologik yordam ko'rsatish amaliyotida qo'llaniladigan uslublar sifatida psixologik trening (nazariy jihatdan psixologik treninglar shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi, o'rgatuvchi kabi turlarga ajratiladi), erkin assotsiatsiyalar, tush talqini, yo'naltiruvchi intervyu, videoyozuvlar analizi, hazil, audio muloqot, ko'maklash, dildan suhbat, yaxshi ko'rgan jonzot, chalkashlashtirish, relaksatsiya, hissiy kechinmalarni jonlashtirish, rolni mustahkamlash, tasavvur etish, psixodramma, psixologik modellashtirish, ijro etish, jismoniy faollik, art-terapiya, uchlik samarasi kabi mashqlarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Ammo, psixologik yordam olishga barcha ham tayyor emasligini, gohida psixologning faoliyatini tibbiyot xodimining faoliyatidan ajratilmayotganligida kuzatiladiki mutaxassislar uni shaxsiy madaniyat tizimida psixologik madaniyatni etarlicha shakllanmaganligi bilan bog'liq deb hisoblashadi. Mazkur masalani maktab psixologining faoliyati misolida o'rganish maqsadida "Maktab psixologining faoliyatini ijtimoiy-psixologik o'rganish so'rovnomasi" tayyorlandi. So'rovnomaning

maqsadi etib, maktab o'quvchilari va ularning ota-onalariga yuqori darajada psixologik yordam ko'rsatishni ta'minlash mexanizmini aniqlash belgilandi. Tadqiqotda 40 nafar ota-onalar ishtirok etib, so'rovnoma "Farzandingizni o'qishi masalasi bo'yicha maktab psixologidan maslahat so'rab turasizmi?" degan savol ham kiritildi. Bundan ko'zlangan maqsad ota-onalarni psixologik yordam olishga doir bo'lgan real tasavvurini aniqlashdan iborat edi. Tadqiqotda qatnashgan respondentlarning 21 nafari bu savolga "ha, vaqti vaqti bilan maktab psixologiga murojaat etib, farzandimni maktab dasturi bo'yicha materiallarni o'zlashtirishi, xulqiga doir maslahat olib turaman" degan javobni keltirgan. Bizningcha, bu toifadagi ota-onalar psixologik yordam olishni biluvchilar hisoblanib, olingan natijalar ularni individ, shaxs, jins va yosh xususiyatlari, psixologik holat, o'yin, o'quv va muloqot faoliyati haqida etarlicha tasavvurga ega ekanligini ko'rsatdi. Va ularni psixologik savodxonligi yuqori bo'lgan ota-onalar deb ajratsak xato qilmagan bo'lamiz. Chunki qolgan ota-onalardan 18 nafari bu savolga "javob berishga qiynalaman" va yana 2 nafari "yo'q" degan javobni keltirgan.

Ijtimoiy-psixologik so'rovnoma "Maktab psixologiga qaysi masalalar yuzasidan ko'p murojaat etasiz?" degan savol ham joylashtirildi. Bu savolga javob bergan 45% ota-onalar bolani dezadaptatsiyasi, qo'rquv holatga tushishi, axloqiy me'yorlarni buzishi, boshqarish qiyinligi, o'yin faoliyatini muhim hisoblashi, sabrsizligi kabi o'zgarishlar meni ko'proq bezovta qilganligi uchun maktab psixologiga murojaat etaman deb javob keltirganlar. A.A.Rean ta'kidlaganidek "psixologiyada rivojlanish, bu insonni psixikasi va xulqidagi son va sifatli strukturaviy qaytarilmas qonuniyatli o'zgarishlarning jarayoni hisoblanadi". SHunday ekan, bu toifadagi ota-onalar farzand tarbiyasi bo'yicha tajribaga ega ekanliklarini, ta'lim-tarbiya dinamik jarayon hisoblanishini anglay olishlarini bildiradi. Maktab psixologi bu toifadagi ota-onalar bilan ishlashda ularga bolani psixologik rivojlanishga ta'sir ko'rsatadigan omillar haqida psixologik ma'rifat ishlarini olib borsalar maqsadga muvofiqdir.

Аннотация. Данная статья посвящена теме значение самоуверенности в формировании жизненной стратегии в начальном периоде юношества и раскрыты проблемы связанности между жизненной стратегией и самоуверенностью; представления возникновения самоуверенности и их содержание, функции, критерии и основы, а также взгляды учёных об уверенности.

Ключевые слова: начальный юношеский период, уверенность, самоуверенность, жизненная стратегия, общественность, эмоциональная близость.

A sense of self confidence – as factor of shaping the life strategy in an early adolescence

Abstract. This article is dedicated to the theme of the importance of self-esteem and the unitial formation of adolescent life strategies, confidence in the scientists' views on the importance of a sense appears to be the nature of the grounds, criteria and functions on the cross of self-confidence and a sense of a vital strategic relationship between the issues.

Keywords: the first period of adolescence, the student's personality, life strategy, sociality, emotional closeness.

Bugungi kun psixologiyasining eng ommabop mavzularidan biri hayot strategiyasini o'rganishdir. S.L.Rubenshteyn inson hayotini ikki turga bo'lgan. K.A.Abulxanova-Slavskaya hayot strategiyasini aniqlashda asosiy o'ringa hayotni tashkillashtirishni qo'ygan, ushbu shaxsning individual yo'naltirilganligi va hayotini doimiy qadriyatlarga muvofiq hayot strategiyasini individual tashkillashtirish kabi o'rganishni taklif etgan[1][2]. Bizning tushunishimiz bo'yicha hayot strategiyasi o'z hayotini individual ravishda tashkillashtirish va tartibga solishni bildiradi.

Hayot strategiyasining tarkibiy qismlari umumiydashganida hayot strategiyasining ma'lum ko'rinishini hosil qiladi. Insonlar bir biridan shaxsiy hayotlarining turli darajadagi tashqi hodisalarga bog'liq bo'lgan turli xil vaziyatlarni egallaganligi, turli xil hayotiy qoniqlashlari bilan farq qiladi. Aynan shaxsda hayotiy strategiyaning shakllanishida o'z-o'ziga ishonch tuyg'usi muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonning yirik olimlari, soha mualliflarining asosiy falsafiy tadqiqotlariga, ilmiy yo'nalishiga, ijtimoiy nuqtayi nazari va siyosiy e'tiqodiga qarab ular ishonch mohiyatini tushunib yetishga turlicha yondashuvlarni taklif etadilar. Eng ko'p tarqalgan ba'zi tavsiflarni keltirib o'tamiz. Masalan, D. Levis va A. Veygert ishonchni "biror bir voqeaga jalb etilgan barcha shaxslar asosli va o'z burchini anglagan holda harakat qiladilar degan holatni dadillik bilan kutishga asoslangan mutlaqo tavakkalli harakat" – deb qarashgan.

Shunga o'xshash ravishda ishonchni S. Robinson ham tavsiflagan: "ishonch – bu boshqa shaxsning kelajakdagi harakatlari manfaatli, ijobiy ta'sir ko'rsatadigan va hech bo'lmaganda boshqa shaxslarning manfaatlariga shikast yetkazmasligi ehtimolini kutish, taxmin qilish yoki unga e'tiqod (imon) qilishdir". Dj. Rempel, Dj. Xolms va M. Zanna oldindan shunday bo'lishini kutish, ishonish va kuyinchak bo'lish, boshqa insonning farovonligi to'g'risida qayg'urishning o'ziga xos ahamiyatini ko'rsatib o'tadi. P. Ring va A. Van de Ven ishonchni boshqa shaxsning orzu-tilaklari va xayrxohligini tasdiqlashga e'tiqod qilish deb bilgan.

O'z navbatida P. Bromili va L. Kamings ishonchni birorta individ yoki guruh har qanday majburiyatlarga: ham ochiq-oydin, ham nazarda tutiladigan majburiyatlarga mos ravishda o'zini tutishga harakat qilishini; ana shu vaziyatlardan oldin keluvchi har qanday so'zlashishlarda o'zini halol tutishini; agar shunday imkoniyat tug'ilgan taqdirda ham birovni haddan tashqari aldamasligini kutib qolish deb tavsiflagan. T. Yamagiyazi va M. Yamagiyazi ishonchni odamlar boshqalarning ezgu irodasini ekspluatatsiya qilmasliklariga qat'iy imon keltirish deb ko'rsatadi. Biznes sohasidagi ishonch to'g'risidagi munozaralarning ba'zi bir natijalari "The Academy of Management Review" jurnalining

mavzuli nashrida keltiriladi. Kirish maqolasida D. Russo, S. Sitkin, R. Bert va K. Kamerer quyidagi tavsifni taklif etadi: ishonch bu shunday ruhiy holatki, u o'zining zaifligini tan olishni o'z ichiga oladi va boshqaning niyatlari hamda xatti-harakati borasidagi ijobiy umidlarga asoslanadi.

Boshqa muhim tavsiflarda ishonch boshqa odamlar va ijtimoiy tizimlardan yanada umumiyroq munosabatni yoki umid sifatida qaraladi (B. Barber, X. Garfinkel, N. Lumann). Masalan, B. Barber ishonchni "boshqa odamlar, tashkilotlar, muassasalar va hayotning fundamental mazmunini tashkil etuvchi turmush tabiiy, axloqiy va ijtimoiy tartiblarga nisbatan ijtimoiy asoslangan va ijtimoiy tasdiqlangan umidlarning" majmuasi sifatida tavsiflaydi. Shunday qilib, ishonchning asosini tashkil etuvchi alomatlar sifatida emotsional yaqinlik, ijtimoiy bir xillik, almashuv, shartnoma, ijtimoiy saxovatlar va hokazolar qaraladi. Haqiqatdan ham, turli madaniyatlarda ishonch roliga asoslangan taxminlar, axloqiy saxovatlar, shartnomaviy majburiyatlarga suyaladi.

Shuningdek, shunday nuqtayi nazar mavjudki, unga ko'ra ishonch "o'z-o'zidan paydo bo'ladigan ijtimoiylik" (spontaneous) sifatida namoyon bo'ladi. F. Fukuyama buni individning "yangi birlashmalar va o'zaro hamkorlikning yangi chegaralarini yaratish" qobiliyati deb tushunadi[5]. Ruhshunoslik nuqtayi nazaridan bu qobiliyat ortida ehtiyojlar va mansub bo'lishlar, qabul qilishlar, hurmat qilishlar va tan olishlar, birlashishlar, boshqalar to'g'risida g'amxo'rlik qilishlar va hokazolarga asoslanadigan o'zaro hamkorlik qilish, birlashish va yaqin bo'lishga asosiy ijtimoiy ehtiyoj turadi. Bunday tushunishdan kelib chiqqan holda, insonning o'z atrofidagi odamlar va dunyoga ishonishga bo'lgan maxsus ehtiyojning mavjudligi to'g'risida gapirish mumkin.

Ishonchning paydo bo'lish tabiati, asoslari, mezonlari va funksiyalari to'g'risidagi tasavvurlarga, shuningdek, insoniyat tarixidagi ularning ko'pchiligini tashkil etuvchi turlari va shakllarining evolyutsiyasi ham ta'sir qiladi. "An'anaviy jamiyatlar" deb atalmish jamiyatlar uchun xarakterli bo'lgan ishonchning tarixiy jihatdan eng qadimiy shakli deb tadqiqotchilar obyektning alohida ruhiy maqomga ega bo'lgan ijtimoiy guruhga tegishli bo'lishiga asoslangan ishonch hisoblanadi. An'anaviy jamiyatlarda bu odatda qonli qarindoshlik aloqalari hisoblanadi. O'z "guruhiga" tegishli bo'lish uning a'zolarini ishonchning eng oliy krediti bilan ta'minlaydi va bu hol hazil, masxara qilish, ruxsatsiz bironing narsalarini o'zlashtirish – ya'ni boshqa odamdan jinoyat qilish yoki haqoratlash sifatida qabul qilinadigan barcha narsalar ko'rinishidagi birgalikda yashash me'yorlarining buzilishiga yo'l qo'yadi. A. Seligmen ta'kidlaganidek "bu aslo e'tiqod emas, balki rol munosabatlarning tabiatiga ko'ra yaxshi taqdim etilgan (ruxsat etilgan), akriptiv bo'lgan rol munosabatlarning mavjudligiga ishonchdir".

Bizning vaziyatda ishonch birgalikda yashash faoliyatini tartibga solishda tobe bo'lgan funksiyani bajaradi – ular mavjud bo'lgan ijtimoiy tuzilmani saqlab qoladilar va qayta ishlab chiqaradilar. Ishonchning bunday roli yangi ijtimoiy aloqalar va munosabatlarning yangi tizimlari o'zaro harakat qilish davomida ishtirokchilarning bir-biriga nisbatan ishonchlik yoki ishonchsizlik asosida shakllanadigan bir sharoitda ishonchning zamonaviy jamiyatdagi rovidan sezilarli darajada farq qiladi. An'anaviy jamiyatlarda "barcha" narsaga yuksak darajadagi ishonch boshqa guruh vakiliga, va ayniqsa, "begona"ga nisbatan ishonchsizlik bilan almashib keladi (G.Zimmel).

Ushbu xulosani bizning ishonch va ishonchsizlikni o'rganish bo'yicha empirik tadqiqotimiz natijalari ham tasdiqlaydi. Ular boshqa insonga nisbatan qiziqish bildirish ishonchning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Respondentlarimiz tomonidan ishoncha bo'ladigan kishining quvnoq, kuchli, faol, keng qiziqishlar doirasiga ega inson sifatida baholanishi ham tasodif emas. Ushbu ko'rsatkichlar mazkur kishining subyekti uchun vaziyat jihatdan foydaliligi va unga ko'rsatilayotgan yordamning ahamiyati bilan bog'liq emas. Bundan tashqari, ishonch haqidagi implisit tasavvurlarning tahlili, odamlarning ko'pchiligi tomonidan boshqa odamga ishonish, birinchi navbatda, o'zining adolatli va halol munosabatga tayyorligi sifatida, biror-bir shartlarsiz ko'mak va yordam ko'rsatishga tayyorligi sifatida qabul qilinishini ta'kidlash imkonini beradi. Bularning barchasi subyektning sherigiga nisbatan emotsional-pozitiv munosabatini, qiziqishi va ochiqligini ishonchning dastlabki asosi va uning boshlang'ich shakli deb hisoblashga asos bo'ladi. Ishonchning sal "ulg'ayganroq" shakli ham sherikka nisbatan o'zining ezgu ixtiyorini namoyon etishga tayyorlik bilan ifodalanadi, faqat shundan keyingina adolatli va halol munosabatni kutish keladi.

Ilk o'spirinlik davri shaxs taraqqiyotida o'ziga xos o'rnini egallaydi. Shuningdek, mazkur davr uchun xos bo'lgan psixologik, psixofiziologik xususiyatlarni rivojlanishi jadal kechishi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan olganda, ilk o'spirin shaxsida o'ziga nisbatan ishonch hissini

o'rganish maqsadida tajriba sinov ishlari amalga oshirildi. Tadqiqot ishida N. Raydasning o'ziga ishonch testidan foydanildi. Tadqiqot metodikasi sinaluvchilar guruhida o'tkazilib, natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi.

Ilk o'spirinlik davrida o'z-o'ziga nisbatan ishonch hissini namoyon bo'lishi

Sinaluvchilar	juda yuqori	yuqori	o'rta	past	juda past
1-kurs	17%	22%	27%	24%	10%
3-kurs	19%	24%	31%	18%	8%

Jadval natijalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1-kursva 3-kurs o'quvchilarida juda yuqori ko'rsatkichi 17% va 19% ni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu ulardagi o'ziga bino qo'yanlik darajasining yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Odatda bunday kishilar xudbin va mag'rur bo'ladilar, chunki ular o'zlarini har doim haq deb o'ylaydilar. Hech bir inson ularni nohaq ekanliklariga ishonтира olmaydilar. Sinaluvchilarning natijalariga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, yuqori ko'rsatkich ularda 22% va 24% ni tashkil qilganligi bilan ajralib turadi. Ular doimiy faoliyatlarida o'ziga ishonadi. Ular har doim to'g'ri ish qilayapman, deb o'ylaydi. Qaysi holatda xato qilayotganlarini juda yaxshi biladilar. Ularga boshqa odamlarning fikri mutlaqo kerak emas.

Metodika bo'yicha natijalarni o'rtacha ko'rsatkichiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 27% va 31% ni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu ulardagi o'ziga nisbatan ishonch darajasining o'rtacha ekanligi bilan tavsiflanadi. Bunday insonlar o'zlariga ishonadilar va boshqalarning ularga to'g'ri ish qilayotganlarini uqtirish shart emas. Shuningdek, sinaluvchilarning past ko'rsatkich bo'yicha natijalari 24% va 18% ni tashkil qilganligi ham o'smir shaxsida o'z-o'ziga bo'lgan munosabatni nechog'lik qaror topganligidan dalolat beradi. Bunday o'spirinlar guruhida o'ziga ishonchidan ko'ra ishonchsizlik kuchliroq. Bunday insonlar kimlarningdir maslahatlari bilan o'zlariga ishonishlari mumkin. Ular har doim o'zgalarning rag'batiga ehtiyoj sezadilar.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari va o'rganilgan adabiyotlar tahliliga ko'ra quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

Hayot strategiyasi tarkibiy qismi sifatida quyidagi tushunchalar tushuniladi: o'z-o'ziga ishonch tuyg'usi, o'z hayotini boshqara olish imkoniyati yoki qobiliyati borligi yoki yo'qligi, vaqtinchalik istiqbol, shaxsning mustaqilligi, shaxsning ijodiy yo'nalishi, o'zini o'zi faollashtirish, hayotdan qoniqish hayot maqsadi, hayot mazmuni, kadriyatlar. O'z-o'ziga ishonch tuyg'usi o'rganish davomida, tadqiqotimizda ishtirok etgan sinaluvchilar o'zlari va o'zgalar xislarini tushunishlari, o'zlari va o'zgalar xislarini boshqara olishlari aniqlandi.

Shunday qilib, olingan ma'lumotlarga ko'ra, juda past ko'rsatkich o'ziga xos talqinda namoyon bo'lganligi bilan tavsiflanadi. Bunda ular o'zlariga nisbatan mutlaqo ishonmaydilar. Har bir xatti-harakatlarini o'ylab qiladilar. Faqat boshqa insonlarning buyurgan ishlarini bajaradilar. Bunday insonlar hatto o'z soyalaridan ham qo'rqadilar. Shu nuqtayi nazardan olganda ularda tavakkalchilikka moyillik kuzatilmaydi.

Adabiyotlar

1. Купченко В. Е. Психология жизненного пути и его диагностика. - Омск : Изд-во ОмГУ, 2002. - 40 с.
2. Абулханова-Славская К. А. Стратегия жизни. - М. : Мысл, 1991. - С. 69.
3. Алгин А. П. «Риск и эго рол в общественной жизни», М., 1989;
4. Антоненко И.В. Доверие: социально-психологический феномен. Монография. М.: Социум; ГУУ, 2004. 320с.
5. Фукуяма Ф. Доверие: социальные добродетели и пут к протсветанию / Ф. Фукуяма. – М. : АСТ, 2008. – 730 с.
6. Корнилова Т.В. «Диагностика мотивации и готовности к риску», М., 1997;
7. Корнилова Т.В. «Риск в мышлении как условие риска в действии»// «Управление риском», №3,1997;
8. Липатов С. «Риск, который трудно измерит»// «Управление риском», №3,1998;
9. Праворотова Т.А. Говир Т. Недоверие как практическая проблема «Социология». 1994. № 3. С.94-98.
10. Ренн О. «Три десятилетия исследования риска: проблемы и новые перспективы»// «Вопросы анализа риска», №1,1999.

UDK 616-036.12:159.9

BOLALARDAGI SURUNKALI KASALLIKLARNI DAVOLASHDA PSIXOLOGIK YONDASHUVLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI**Ithamova D.I.***O'zbekiston Milliy universiteti*

Annotatsiya. Maqolada bolalarda uchraydigan surunkali kasalliklarni davolashda psixologik yondashuvlarning ahamiyati ko'rsatib berilgan. Psixosomatik yondashuv mazkur kasalliklarni organik va funksional buzilishlar nuqtai nazaridan qarab chiqsa, ijtimoiy-psixologik yondashuvda bolaning shaxslararo munosabatlar tizimi, ya'ni ota-onalar, o'qituvchi va tarbiyachilar hamda tengdoshlar bilan munosabatlari xarakteri bilan izohlashga urinish qayd etiladi. Madaniy-tarixiy konsepsiya doirasida yagona konseptual sxemada tana ontogenezi va psixosomatik buzilishlar dolzarb genezini birlashtirishga intilish seziladi. Mavjud nazariy va amaliy yondashuvlar bolalardagi surunkali kasalliklarni davolash va rehabilitasiya jarayonlarida yaxshi samara berishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: bolalar, psixologiya, yondashuv, surunkali somatik kasalliklar, psixosomatika, somatopsixika, funksional va organik buzilishlar, psixodiagnostika, rehabilitasiya.

Теоретическое и практическое значение психологических подходов к лечению хронических заболеваний у детей

Аннотация. В статье показана значимость психологических подходов в лечении хронических соматических заболеваний у детей. Если психосоматический подход рассматривает эти болезни с точки зрения органических и функциональных нарушений, в социально-психологическом подходе наблюдается попытка объяснения этих болезней через призму межличностных отношений ребенка со своими родителями, учителями, воспитателями и сверстниками. В рамках культурно-исторического подхода в единой концептуальной схеме чувствуется стремление объединить онтогенез тела и актуальный генез психосоматических расстройств. Подчеркивается, что данные научные и практические подходы способствуют эффективности процессов лечения реабилитации хронических соматических заболеваний у детей.

Ключевые слова: дети, психология, подход, хронические соматические заболевания, психосоматика, соматопсихика, функциональные и органические нарушения, психодиагностика, реабилитация.

Theoretical and practical significance of psychological approaches to the treatment of chronic diseases in children

Abstract. The article shows the importance of psychological approaches in the treatment of chronic somatic diseases in children. If the psychosomatic approach considers these diseases in terms of organic and functional disorders in the socio-psychological approach, there is an attempt to explain these diseases through the prism of the interpersonal relationships of the child with their parents, teachers, caregivers and peers. As part of the cultural-historical approach in a single conceptual scheme felt the desire to unite the body ontogenesis and actual genesis of psychosomatic disorders. It is emphasized that these scientific and practical approaches contribute to the efficiency of the processes of rehabilitation treatment of chronic somatic diseases in children.

Keywords: children, psychology, attitude, chronic somatic diseases, psychosomatic medicine, somatopsihika, functional and organic disorders, psycho-diagnostics, rehabilitation.

So'nggi yillarda u yoki bu surunkali kasalliklar asosida yotgan psixologik omillarni o'rganishga yo'naltirilgan bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi [4,5]. Shu narsa niqlandiki, psixologik omillar va ular orasida oilaviy munosabatlar nafaqat kasallikning kelib chiqish manbai bo'lib qolmasdan, kasallikning kechishiga ham ta'sir ko'rsatadi [2,4]. Psixosomatik buzilishlar ko'proq bolalik va o'smirlik davrida uchraydigan keng tarqalgan patologiya hisoblanadi. Germaniyalik tadqiqotchilar fikriga ko'ra poliklinikalarga murojaat qiluvchi 40% bemor bolalar psixosomatik kasalliklar bilan og'rigan. Rossiyalik olimlar ma'lumotlariga ko'ra esa maktabga ilk marotaba borgan bolalarning 60%i o'qishga tayyor emas va nevroitik reaksiyalarni boshidan kechirgan. Bu nevroitik reaksiyalar

barmog'ini so'rishda, yaxshi uxlamaslikda, agressivlikda ishtaha yomonlashuvida, qorindagi og'riqlarda, kardialgiya, enurez va boshqa shu kabi belgilarda namoyon bo'ladi. Keyingi yillarda bu patologiyaning ko'payish sabablari ichida ijtimoiy-pedagogik xatolar ko'rsatilishidan tashqari, psixik taraqqiyot sustlashuvi, allergik reaksiyalar ham asosiy sabablardan deb e'tirof etilmoqda.

Bir qator mualliflar fikricha, zamonaviy medisinaning xatolaridan biri shifokorlarning asosiy diqqat-e'tibori ko'pincha kasallikning yakunlovchi fazasiga qaratilganligidadir, bu fazada bosh miya moddasidagi bioximik reaksiyalar darajasidagi adaptasion mexanizmlar keskin buziladi, ular insonning butun hayoti davomidagi kechinmalarini patologik o'lvovlargacha to'playdi: patologik ezuvchi va uzoq davom etuvchi buzilishlar, o'qish va ishdagi nizolar, shovqin, charchash va boshqa stress holatlari bilan bog'liq salbiy emosional zo'riqishlar shular jumlasidandir. Mantiqan olib qaraganda inson butun hayoti davomida o'zini qandaydir somatik kasallik darajasiga olib boradi. Bolalik davriga kelsak, vegetotomir buzilishlari, aslida psixosomatik buzilish bo'lib, bolalarning deyarli yarmida uchraydi. Pediatria murojaat qilgan bolalarning 8 dan 40% gachasi psixolog xizmatiga muxtoj, ya'ni psixosomatik buzilishlarga ega. Amerikalik pediatrlar fikricha, pediatria kuzatuvda bo'lgan bolalarning 68%ida funksional buzilishlar, ya'ni organlar va tizimlar buzilishlarining psixogen shakllari mavjud. Agar alohida holatlarni hisobga olsak, yuqori sinf o'quvchilarining 28%ida bosh og'rig'i, 4%ida uyquning buzilishi, 27%ida astenik holatlar bilan kechadigan charchash kuzatiladi. Ba'zi tadqiqotchilar 38% vaziyatlarda turli nevroitik va nevrozga o'xshash holatlarda organlar va tizimlar buzilishlarini qayd etishgan.

Pediatrlar fikricha, maktab o'quvchilari o'rtasidagi noinfeksion genezdagi subfebralit chastotasi (bu ham psixosomatik buzilishlarga kiradi) 18% holatlarni, enurez 12%, arterial gipotenziya 20%, gipertenziya 14% gacha holatlarni, bosh og'rig'i 30% gacha, hushdan ketish 4-5% gacha holatlarni tashkil etadi. Bolalar psixiatrlari ma'lumotlariga ko'ra, bolalar poliklinikalari sharoitida tekshiruvdan o'tganlarning 39%ida titrash, enurez, bosh og'rig'i, ishtaha yo'qolishi, yaxshi uxlamaslik va boshqa psixosomatik buzilishlar uchraydi. Stasionar sharoitda davolanayotgan bolalarning 30%ida emosional buzilishlar, 33% holatlarda esa xulq buzilishlari kuzatiladi. Ba'zi mualliflarning ta'kidlashicha, pediatrlar o'z vaqtlarining ko'p qismini simptomatik terapiya yordamida psixosomatik buzilishlarni davolashga ketkazadilar[6,9]. Buni ko'p tarmoqli bolalar kasalxonalarida misolida ko'rishimiz mumkin, chunki bu yerga ko'proq uzoq yillar davomida o'z istiqomat joylarida muvaffaqiyatsiz davolangan bolalar keladilar.

Psixosomatik buzilishlar haqida gap ketganda ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda uning faqat keng tarqalganligi emas, balki yildan yilga ko'paya boshlagani ham xarakterlidir V.V.Nikolayeva[10] ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda ovqat xazm qilish yo'li psixosomatik patologiyasi bolalar o'rtasida 1000 ta bolaga 75 nafardan 110 nafarga ortdi. Bolalar o'rtasida astmaning tarqalganligi esa 300% ga ko'paydi, modomiki 1960-yillarda bu kasallik bolalarning 2%ida kuzatilar edi. Psixosomatik buzilishlarning tarqalishi haqidagi bu raqamlar shundan dalolat beradiki, bu muammo faqatgina psixologlar va pediatrlar tomonidan emas, turli tarmoq mutaxassislari tomonidan ham ishlab chiqilishni talab etadi. Psixosomatik va somatopsixik buzilishlarning yuzaga kelishi hamda kechishida emosional omil muhim rol o'ynaydi, ko'proq bu yerda depressiv emosiyalar, depressiv holatlar yetakchilik qiladi.

E'tirof etish joizki, umumiy tarmoqdagi bolalar shifoxonalarida bunday buzilishlarga ega bolalar ko'p, biroq aynan psixosomatik buzilishlarga xos qirralar nimalarda namoyon bo'ladi? Birinchidan, bu buzilishlar faqatgina bitta organni yoki tizimni jarohatlab qolmasdan 2dan 5 tagacha organ yoki tizimlarga jarohat yetkazadi. Psixosomatik buzilishlarning bunday politizimli namoyon bo'lishi 80% holatlarda kuzatiladi. Faqat bitta organ yoki tizimi kasallangan bolalar stasionar sharoitida juda kam uchraydi[5]. Lekin asab tizimi ham jarohatlanishini hisobga olsak, barcha psixosomatik buzilishlar ko'p tizimli ekanligi namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, psixosomatik reaksiyalar nisbatan kamroq, masalan 20% holatlarda uchraydi. Bemorlarning ko'pchiligida psixosomatik holatlar kuzatiladi. Reaksiyalar, odatda qisqa muddatlidir; ularni paraklinik qayd etish imkoni yo'q. Masalan, bolaning qorni og'riyapti, ultratovush tadqiqotida organda qandaydir o'zgarishlar borligi ko'rilmadi. Funksional buzilishlarni qaytarish mumkin, ya'ni funksiyalarning buzilishi nisbatan tez o'tib ketishi mumkin va ular bilan birga og'riqlar ham yo'qoladi. 90% bolalarda qorindagi og'riq psixogen (psixosomatik) xarakterga ega. Faqat ba'zida aniq, subshokli reaksiyalar kuzatiladi. Umuman olganda statistik ma'lumotlarga ko'ra psixosomatik buzilishlar qizlarda ko'proq uchraydi - 1:1,5. Psixosomatik

holatlar uzoq vaqt davomidagi u yoki bu funksional buzilishlar ko'rinishida kechadi. Psixosomatik va somatopsixik buzilishlar 14-15% bolalarda uchraydi. Psixosomatik kasalliklar ichida 12-barmoqli ichak yarasi xastaligi ko'proq uchrashi qayd qilingan [2,4,13,14]. O'tkir ravishda yuzaga keladigan psixosomatik kasalliklarga oshqozon yarasi, bronxial astma, qandli diabet, total alopesiya va boshqalar kiradi. Ko'pincha bolalar asabiylashganlarida yoki psixik jarohat vaziyatini boshidan kechirganlarida oshqozon yarasi qon ketish bilan birga namoyon bo'ladi, modomiki bu bolalar shu paytgacha oshqozon-ichak kasalliklari bilan og'rimaganlar. Bolalik davridagi patologiyalarga to'xtalib, shuni ta'kidlash joizki, bolalarda gomeostazning o'zgarishi ovqat xazm qilish organlari kasalliklarining mavjudligi bilan bog'liqdir. Asab tizimi parasimpatik bo'limi tonusining ustunlik qilishi tadqiqotchilar tomonidan reaktivlikning pasayishi, gastroenterologik kasalliklarning uzoq muddat kechini va to'liq tuzalmasligi haqida darak beruvchi ma'lumotlar sifatida qaralgan. Bolalik davrida gomeostazning buzilishi ko'pincha tomir tonusining buzilishi bilan birga kechgan. I.Gretser fikricha, 25% dan 75% gacha bolalarda vegeto-tomir distoniyasi kuzatiladi[12].

Bolalar ota-onalari bilan shunchalik uzviy bog'langanlarki, oilaviy munosabatlardagi har qanday buzilish bolani kasallik yuzaga kelish xavfi chegarasiga olib kelib qo'yadi. Shuning uchun ham oilaviy tuzilmaga somatik kasalliklarning kelib chiqishiga va kechishiga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida juda ko'p tadqiqotchilar e'tibor qaratib, turli psixologik yo'nalishlar nuqtai nazaridan talqin [2,4,10]. Psixoanalitik nazariya namoyandalari D. Vinnikott, G. Amon, O. Kernberg, F. Dolto va boshqalar nuqtai nazariga ko'ra erta bolalik davridagi oilaviy o'zaro munosabatlar ayniqsa ona va bola munosabatlari buzilsa, keyinchalik psixosomatik kasalliklarning kelib chiqish xavfi ortar ekan [13]. Tizimli-kommunikativ yo'nalish vakillari fikricha, oila a'zolaridan birortasidagi simptom, kasallik yoki xulq buzilishini himoya rolini bajaruvchi maxsus kommunikasiya sifatida qarash lozim. [1,3].

Madaniy-tarixiy konsepsiya doirasida yagona konseptual sxemada tana ontogenezi va psixosomatik buzilishlar dolzarb genezini birlashtirishga intilish seziladi. L.S.Vigotskiyning intrapsixik funksiyalarning intersixik funksiyalardan kelib chiqishi haqidagi g'oyasiga asosan P.D. Тішченко, V. V. Nikolayeva, Ye.T. Sokolova, A.Sh. Txostov, G. A. Arina va boshqalar shunday tadqiqotlarni amalga oshirganlar[10]. Bolaning psixosomatik rivojlanishi madaniy-tarixiy yondashuv nuqtai nazaridan qaraganda bolaning katta odam bilan o'zaro ta'siri jarayonida tanadagi funksiyalar, harakatlar va fenomenlarning psixologik mexanizmi yetilishi sifatida qaraladi. Shunday qilib, bu holat psixosomatik buzilishlarni faqatgina psixologik jarohat vaziyatiga oddiy reaksiya sifatida emas, balki bola emosiyalari va kechinmalarini ona tomonidan buzilishi sifatida qarash imkonini beradi, bu esa o'z navbatida bolaning o'zidagi emotsiyalar, hissiyotlar, kechinmalarni boshqacha ifodalashga olib keladi.

Adabiyotlar

1. Александер Ф. Психосоматическая медицина. Принципы и практическое применение/ Пер. с англ. С. Могилевского.- М.: ЭКСМО-Пресс., 2000.- 352 с.
2. Антропов Ю.Ф. Психосоматические расстройства у детей и подростков, М. -1997. - 197 с.
3. Бройтигам В., Кристиан П., Рад М. Психосоматическая медицина. -М.: Гэотар Медицина, 1999. – 376 с.
4. Исаев Д.Н. Психосоматические расстройства у детей: руководство для врачей. – СПб: Издательство «Питер», 2000. – 512 с.
5. Исаев Д.Н. Психосоматическая медицина детского возраста, С.-Птб. - 1996. - 436 с.
6. Исмагилов М.Ф., Якупов р.а., Якупова А.А. Головная боль напряжения. -Казань: Медицина, 2001. – 132 с.
7. Кабанов М.М., Личко А.Е., Смирнов В.М. Методы психологической диагностики и коррекции в клинике. – Л., 1983.
8. Ковалев В.В. Психиатрия детского возраста, -М. - 1986. - с. 372.
9. Лакосина Н. Д. Клиническая психология: Учебник для студ. мед.вузов. - М.: МЕДпресс-информ, 2003. – 415 с.
10. Николаева В.В. Влияние хронической болезни на психику. Психологическое исследование. —М.1988. .
11. Оудсхоорн Дж. Детская и подростковая психиатрия, -М. - 1993. - 318 с.
12. Gretser I. Psychosomatische Stoerungen, in: A.Schaffler, U.Renz. Leitfaden Paediatric, 1993. - ss. 554 - 560.

13. Ford M., Miller P., Eastwood J., e.a. Life events, psychiatric illness and irritable bowel syndrome. *Gut*, 1987. - v.28. - №2. - pp. 165 - 166.
14. Levorici M. L'evaluation clinique de l'adulte maltraitant ou abuser. *Maltraitance repetition evaluation*, Paris. - 1996. - pp. 41 - 53.
15. Nissen G. *Depressions in Childhood and Adolescence*, Triangle. - 1982. - v.21. - pp. 77 - 83.

UDK 316.6**ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ИЗУЧЕНИЯ ПРОЦЕССА ИНКУЛЬТУРАЦИИ В СОЦИАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИИ****Насимджанова М.М.***Ташкентский Исламский университет*E-mail: masumaxon0590@mail.ru

Аннотация. В статье рассматриваются исторические аспекты изучения процесса инкультурации как процесса освоения и присвоения культуры в детском возрасте. Отмечается, что участвуя в этом процессе, ребенок не только усваивает все основные идеи культуры и связи между ними, но и перенимает методику реагирования на весь спектр возможных ситуаций, в том числе и непредвиденных.

Ключевые слова: детство, социализация, инкультурация, культурные нормы, ценности, обучение, воспитание.

Sotsial psixologiyada inkulturatsiya jarayonini o'rganishning tarixiy manbalari

Maqolada inkulturatsiya jarayonini bolalik davrida madaniyatni o'zlashtirish jarayoni sifatida o'rganishning tarixiy jabhalari qarab chiqilgan. Ta'kidlanadiki, mazkur jarayonda ishtirok eta turib, bola faqatgina madaniyatning asosiy g'oyalarini o'zlashtirib qolmasdan, bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyatlarning barcha doirasi, jumladan kutilmagan tomonlariga javob berish uslublarini o'rganadi.

Kalit so'zlar: bolalik, ijtimoiylashuv, inkulturatsiya, madaniynormalar, qadriyatlar, o'qitish, tarbiyalash.

Historical background of study process of including in social psychology

Abstract. The article examines the historical aspects of the study of the process of inculturation as a process of development and appropriation of culture in childhood. It is noted that by participating in this process, the child not only learns all the basic ideas of culture and communication between them, but also adopts the method of responding to the full range of situations, including contingency.

Keywords: childhood, socialization, enculturation, cultural norms, values, training.

Для современной психологии характерен диалектический анализ факторов развития, признание того, что развитие является и процессом биологического роста, и процессом присвоения ребенком культурных ценностей. Именно с изучением проблем вхождения индивида в культуру своего народа связаны наибольшие достижения этнопсихологии [3]. Если обратиться к истории, впервые интерес к детству проявляется уже в античной культуре в рамках философского подхода. В трудах Сократа, Платона и Аристотеля оно рассматривается как период незрелости, который требует внимания со стороны общества для формирования личности. Средневековая схоластика усугубляет идею «неценности» детства, вслед за античными авторами определяя его как *tabularasa*, на которой следует запечатлеть основы религиозной нравственности. Тем не менее, само выделение детства в некий отдельный возрастной период говорит о начале осознания особенности этого явления.

Гуманисты эпохи Возрождения уже видели в ребенке личность (Я.А. Коменский, Дж. Локк и др.). Однако лишь в эпоху Просвещения тема детства начала освещаться в европейской письменной традиции более полно. Именно «семейная» педагогика этой эпохи сформулировала понятие «детства» как общей фазы становления личности. Данное положение получило развитие в трудах К.А. Гельвеция, Ж.Ж. Руссо, Д. Дидро, И.Г. Песталоцци и др. в рамках философско-просветительского подхода.

Культурные значения развития человека и детства в целом представлены положениями

конкретно-исторического и философского подхода, в частности такими авторами, как Ф.Ариес, П.Бюхнер, В.Вундт, К.Гроос, Л.Демоз, М.Дюбуа-Реймон, М.Кляйн, Л.Леви-Брюль, К.Леви-Строс, Э.Фромм, Й.Хейзинга, В.Штерн, И.Эйбл-Эйбесфельд, К.Ясперс и др.

Как известно с самого раннего детства человек усваивает принятые манеры поведения и образцы мышления до тех пор, пока большинство из них не становятся привычными. Это вхождение в мир происходит путем усвоения индивидом необходимого количества знаний, норм, ценностей, образцов и навыков поведения, позволяющего ему существовать в качестве полноправного члена общества. Основная причина этого процесса состоит в том, что общественное поведение человека не запрограммировано природой, и поэтому всякий раз он вынужден заново обучаться тому, как понимать окружающий мир и реагировать на него. Этот процесс освоения индивидом норм общественной жизни и культуры обозначается в различных гуманитарных науках понятиями «инкультурация» и «социализация». Инкультурация, продолжающийся всю жизнь процесс усвоения традиций, обычаев, ценностей и норм родной культуры; изучение и передача культуры от одного поколения к другим. Конечный результат инкультурации — интеллигент, а не личность, как при социализации. Интеллигент — совокупность приобретенных культурных норм. Как известно термин введен известным американским культурным антропологом Меллвиллом Херсковицем в работе «Человек и его работа. Наука культурной антропологии». Понятие «инкультурация» - ключевое для М. Херсковица в его построениях целостной культурно-антропологической концепции. Именно в процессе вхождения в культуру проявляются механизмы воспроизводства этнокультурных общностей и возможности изменения того или иного общества (культуры). Усвоение деятельностной, поведенческой стороны культуры, а также различных аспектов духовной культуры при инкультурации М. Херсковиц считал основным звеном своей концепции[4]. Херсковиц выделяет два этапа инкультурации, единство которых на групповом уровне обеспечивает нормальное функционирование и развитие культуры: Детство, когда происходит освоение языка, норм и ценностей культуры. Ребенок, по мнению Херсковица, хотя и не является пассивным элементом процесса инкультурации, скорее инструмент нежели игрок. Взрослые, применяя систему наказаний и поощрений, ограничивают его права выбора или оценки.

Хотя инкультурация индивида в первые годы жизни – главный механизм стабильности и непрерывности культуры, она не может привести к полному повторению предыдущих поколений. Результат процесса инкультурации может находиться в любой точке континуума между точным и безусловным освоением культуры новым поколением (с едва уловимыми различиями между родителями и детьми) и полной неудачей в ее передаче (с детьми, абсолютно непохожими на родителей). Если вспомнить классификацию культур М. Мид, то первый вариант инкультурации характерен для постфигуративных, а второй – для префигуративных культур. Второй этап - зрелость. Вхождение в культуру не заканчивается с достижением человеком совершеннолетия. Но инкультурация во взрослом возрасте носит прерывистый характер и касается только отдельных «фрагментов» культуры – изобретений, открытий, новых, пришедших извне идей. Основная черта второго этапа – возможность для индивида в той или иной мере принимать или отбрасывать то, что ему предлагается культурой, возможность дискуссии и творчества. Поэтому инкультурация в период зрелости открывает дорогу изменениям и способствует тому, чтобы стабильность не переросла в застой, а культура не только сохранялась, но и развивалась.

Используя – вслед за Херсковицем – понятие инкультурации, исследователи сталкиваются с серьезными трудностями при попытках отграничить его от понятия социализации, тем более что и последний термин имеет множество толкований. Так, М.Мид под социализацией понимает социальное научение вообще, а инкультурацию рассматривает как «реальный процесс научения, как он происходит в специфической культуре»[3]. Д. Матсумото видит различие между двумя понятиями в том, что «социализация, как правило, больше относится к процессу и механизмам, с помощью которых люди познают социальные и культурные нормы», а инкультурация – «к продуктам процесса социализации – субъективным, базовым, психологическим аспектам культуры». Приблизительно в то же время Клакхон ввел аналогичный по смыслу термин «культурализация», т.к. существовавший к тому времени

термин «социализация» не охватывал процессов усвоения когнитивных аспектов культуры (знаний, верований, ценностей). Инкультурация обозначала и процесс приобщения к культуре, и результат этого процесса. В узком смысле инкультурация обозначает усвоение культурных норм и ценностей ребенком; в широком смысле инкультурация понимается как процесс, не ограничивающийся периодом раннего детства и включающий в себя процессы усвоения культурных паттернов взрослым индивидом. Понятие инкультурация подверглось критике ввиду и неопределенности его значения [3], кроме того, оно по-сути дублировало гораздо более широко использовавшийся термин «социализация», а его происхождение было напрямую связано с не вполне правомерной попыткой противопоставления общества и культуры. В современной психологической литературе до сих пор не проведено четких разграничений сходных по смыслу понятий инкультурации и социализации. Понятие инкультурации не получило широкого распространения и использовалось преимущественно в американской антропологии[1].

На протяжении XX столетия происходило последовательное вытеснение народных традиций на периферию культурного пространства, замещение их массовой культурой. Однако в последней четверти XX в. в мире произошел ряд событий, позволяющих говорить о таком явлении, как «этнический парадокс современности». С одной стороны, происходит нивелирование духовной и социальной культуры, вызванная процессами глобализации, с другой – наблюдается стремление сохранить свое «Я» на уровне определенного этноса – этническую самоидентификацию. Начинается активный поиск «национальных корней». Процессы социализации и инкультурации могут идти в одном направлении, а могут развиваться в противоположных направлениях. Их фазы могут совпадать, но могут существенно различаться. Это два расходящихся потока жизни. Процесс социализации традиционно рассматривается как институционально-заданный и определяется, исходя из социальной структуры общества. Понятие же «инкультурация» дает возможность перевернуть ситуацию: мы становимся на позицию индивида и, исходя из его внутренних потребностей, мотивов, индивидуальной картины мира, определяем направленность и закономерности вхождения человека в мир общей культуры. В отличие от процесса социализации, инкультурация осуществляется не только в специализированных социальных институтах, а в течение всей жизни практически с самого раннего детства. Трудность определения термина «инкультурация» во многом связана с тем, что она изучается и социальной психологией, и этнографией, и культурной и социальной антропологией, этнопедагогикой и т.д. Необходимость определения собственного понятийного аппарата и методологии связана здесь во многом с новым статусом культуры в современном мире, которая становится важнейшим фактором развития общества.

Таким образом, инкультурация как процесс освоения и присвоения культуры в детском возрасте является главной целью социума. Участвуя в этом процессе, ребенок не только усваивает все основные идеи культуры и связи между ними, но и перенимает методику реагирования на весь спектр возможных ситуаций, в том числе и непредвиденных. В этом смысле детский фольклор как нельзя лучше демонстрирует механизм вхождения ребенка в культуру. Мы считаем, что одним из факторов обуславливающих эффективность инкультурации является детский фольклор (считалки, приговорки, скороговорки, пословицы, сказки, загадки).

Литература

1. Кравченко А.И. «Культурология». М., Академический проект.- 2002.- с.130.
2. Крыско В.Г. Этническая психология. Саратов, 2001.
3. Стефаненко Т.Г.Этнопсихология. М. -1999.-171с.
4. Херцковиц М. Культурная антропология. – М., 1955.- С. 306-334.
5. Чубрик Е.О.Русский детский фольклор как средство ранней инкультурации//Автореф.дис. канд.культурологии. Владивосток, 2007. – 28 с.

SPORT TURLARINING PSIXOLOGIK TAVSIFI**Masharipov Y.***Samarqand davlat universiteti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada, sport turlari va umumiy psixologik tayyorgarlikning o'xshash tomonlari va farqi; sport o'yinlari va sport turlari uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi chidamlilik, kuchlilik, tezkorlik kabi jismoniy sifatlarini o'stirishda murabbiyning mahorati, psixologik tayyorgarligi, bilim va uning sport ko'rsatkichlar darajasiga ta'siri; sportchining og'ir jismoniy mashq turlarini bajarishda psixologik faollik darajasiga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: sport turlari, sportchi kuchini safarbar qilish, muskul tuzilishi, qattiq hayajonlanish, tezlik.

Психологическая характеристика различных видов спорта

Аннотация. В данной статье уделяется внимание сходствам и различия общей психологической подготовки спортсменам и спортивным видам, роль тренера при повышении таких физических качеств имеющие важное внимание для спортивных игр и спортивным видам, как – терпимость, выносливость, быстрота, психологическая подготовка, образованность, степень психологической активности при выполнении трудных физических упражнений спортсмена.

Ключевые слова: различных видов спорта, расхождение физических качеств, структуры мышц, сильная эмоциональная состояния, быстроты.

The psychological characteristic difference types of sport

Abstract. The main attention is paid for similarities and differences of general psychological training of sportsmen and to types of sport, the role of coach in increasing such physical features as endurance, tolerance, velocity, psychological training, education, degree of psychological activity in doing hard physical exercises by sportsmen in this article.

Key words: differences type of sport, discrepony, physics quality, the structure of muscles, the strong emotional state, quickness.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng jahon birinchiliklari va xalqaro olimpiada o'yinlarida faol ishtirok etib kelmoqda. Shu bois so'nggi yillarda respublikamizda ko'pgina sport turlari jadal rivojlanib bormoqda. Sport turlarining har biri o'ziga xos xususiyati bilan farqlanadi, alohida e'tibor berish lozim bo'lgan jismoniy va psixologik tayyorgarlikni talab qiladi, har bir sport turi texnik va taktik jihatdan o'ziga xos qonun-qoidalarga ega bo'ladi. Biz sport turlarini sportchining harakat faolligiga qarab quyidagi besh guruhga ajratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Birinchi guruh sport turlariga boks, kurashning barcha turlari, gimnastika, yengil va og'ir atletika, suzish, sport o'yinlari, qilichbozlik kabilar kiradi. Ma'lumki, sportning har qanday turida sportchilar musobaqalarda g'alabaga erishish uchun o'zlaridagi butun jismoniy va ruhiy imkoniyatlarni safarbar qilishadi va har qanday og'ir vaziyatlardan chiqib ketish uchun o'zini majbur etishadi. Biroq, har bir sport turi bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarda g'alaba qilish mezoni turlicha bo'ladi. Bu me'yor va mezonlarni nazariy jihatdan bilish, ularga sport amaliyotida rioya qilish sportchiga g'alaba keltiradi. Albatta, ball, gol, ochko, masofa, vaqt, og'irlik kabi ko'rsatkichlar asosida har bir sportchi o'zining kuchi, irodaviy va jismoniy sifatleri yordamida g'alaba qilishga harakat qiladi.

Ikkinchi guruh sport turlari (motosport, mashina, samolyot va yaxta sporti kabilar) sportchidan texnik jihatdan alohida tayyorgarlikni talab qiladi. Bu sport turlari sportchidan xavfli vaziyatlarda ham o'zini yo'qotmaslik, mustaqil aniq bir qarorga kelish, texnikani dadillik bilan to'g'ri boshqarish, tashqi shamol qarshiliklarini idrok qilish, katta tezlikda ketayotgan mashinani baland-past joylardan qo'rqmasdan mahorat bilan boshqarish uchun jismoniy va ruhiy jihatdan yuqori darajada chiniqishni talab etadi.

Uchinchi guruhga mansub sport turlari (kamon va to'punchadan otish)da sportchilar to'g'ri nishonga olishda hayajonlanish, tashvishlanish, bezovtalanish, vahimaga berilish kabi salbiy

hissiyotlarini yo'qotishga alohida e'tibor berishi lozim. Sportchi o'zi otayotgan qurolning texnik jihatlari yaxshi o'rganishi, musobaqa jarayonida ochkolar soni raqibi hisobiga o'zgarganda ham musobaqadan so'vib ketmasligi, g'alabaga intiluvchanlik kabi ijobiy sifatlarini rivojlantirishi zarur.

To'rtinchi guruhga aviamodel, avtomodel va shunga o'xshash konstruktorlik qobiliyatlar bilan bog'liq bo'lgan sport turlari kiradi. Sportning bunday turlari sportchidan talant va ijodkorlik qobiliyatlarini o'stirishni talab qiladi. Sportchi o'zidagi ijodiy xayoliy obrazlar yordamida yangidan yangi aviamodel va avtomodel qurilmalarini ixtiro qilish qobiliyatlarini o'stirishga e'tibor beradi.

Beshinchi guruh sport turlariga shaxmat va shashka kiradi. Bu sport turlari bilan shug'ullanuvchi sportchilarda fikrlash qobiliyati hamisha aniq maqsadga qaratilgan, ixtiyoriy xarakterga ega bo'ladi. Yaxshi shaxmatchi o'yin paytida o'ta murakkab, qiyin usullarni raqibidan aniqroq, tezroq anglaydi. Sportchi ongida hal etilishi talab qilinadigan mulohazali xayoliy masalalar va ularning yechimi tez-tez paydo bo'ladi. Sportchi o'yin jarayonida raqibining fikrini oldindan tez sezadi, uni vahimaga soladi, og'ir vaziyatlarni vujudga keltiradi va tez-tez o'yin taktikasini o'zgartirib turadi.

Hozirgi kunda eng qadimgi sport turlaridan: chopish, sakrash, uloqtirish, kurash kabilar zaminida yangi yangi sport o'yinlari ko'payib bormoqda. Shuningdek, suv chang'isi, batuta, badiiy va ritmli gimnastika, muzda raqsga tushish, parashutdan sakrash, suv tagida hamda suv ustida suzish kabi juda ko'p sport turlari paydo bo'lmoqda. Bizning milliy kurashimiz ham jahon sport turlari qatoridan o'zining munosib o'rnini topmoqda. O'zbek milliy kurashi bo'yicha bir necha davlatlarda jahon birinchilik musobaqalari o'tkazildi. So'nggi yillarda o'zbek kurashiga bo'lgan qiziqish oshib, sportning bu turi bo'yicha jahon chempionlari yetishib chiqmoqda. Bu esa bizdan kurashchilarimizni jismoniy, ruhiy, taktik va texnik tayyorgarliklarini yanada rivojlantirish uchun alohida ilmiy asoslangan uslublardan foydalanishni talab etadi.

Sportchi o'zi sevgan va shug'ullanayotgan sport turidan muvaffaqiyatlarga erishish uchun kuch-g'ayratini no'liq ishga soladi, o'zidagi bor mahorat va qobiliyatini namoyish etadi. Har bir sport turida raqibdan ustun kelish, g'alaba qilish yo'llari turlicha bo'ladi. Sportchilarning yuqori ko'rsatkichlarga erishishlari ularning individual xususiyatlari va umumiy tayyorgarlik darajasi; moddiy jihatdan ta'minlanganligi, ovqatlanish sifati va jismoniy rivojlanganligi; sportchining jismoniy, ruhiy va ma'naviy tarbiyasi hamda sport harakatlarining takomillashganligi kabi omillarga bog'liq bo'ladi.

Hozirgi sportda rekordlarning yangilanib va o'zgarib turishi sportchidan maksimal (yuqori) kuchlanish bilan mashq qilishni talab etadi. Sportchi bajaradigan har bir harakatini to'g'ri idrok qilishi lozim. Buning uchun sportchi organizmi har qanday qarshiliklarni yengishda chidamli bo'lishi; baland va past temperaturada, turli sharoitlarda (masalan, baland tog'larda) mashq qilishga moslashishi to'g'risida fiziolog va psixolog olimlarning ilmiy tajribalari, amaliy izlanishlari natijalariga asoslangan nazariy xulosalarga amal qilishi maqsadga muvofiq. Ko'pincha yetarli tajribaga ega bo'lmagan sportchilar jismoniy mashqlarni tez, muntazam, izchil va uzoq muddat bajarishga ruhiy jihatdan tayyor emasligi sababli sport musobaqasi jarayonida paydo bo'ladigan tashqi va ichki qiyinchiliklarni yengishda turli xil to'siqlarga uchraydilar. Ayrim sportchilar jismoniy mashqlar bajarish tempini (sur'atini), ritmini (maromini) va ketma-ketlik farqini to'g'ri idrok qilish malakalarining yaxshi rivojlanmaganligi (masalan, 100 metrga yugurish jarayonida masofani to'g'ri idrok qilsa-da, lekin musobaqada kuchli hayajon va vahimaga berilib, yugurish sur'ati va maromiga e'tibor bermaganligi) bois, o'zining imkoniyat darajasini hisobga olmasdan, chopish tezligini oshirib yuborishi natijasida tez charchab qoladilar. Shu sababli murabbiy sportchilarni musobaqada vahimaga berilmasligi uchun mashg'ulotlar jarayonida o'rtoqlik musobaqalari uyushtirishi, har xil masofalarga vaqtga qarab takror va takror tezlikni oshirib chopishda qadamlarining uzunligiga e'tibor berishi, belgilangan masofa bo'ylab chopishda kuchni to'g'ri taqsimlash hamda harakat va vaqtni to'g'ri idrok qilishga o'rgatishi zarur. Agar sportchi maxsus mashqlarni takror va takror bajarsa, masofa bo'ylab yugurishda vaqt va harakat tezligi hamda sarflanadigan kuchni to'g'ri taqsimlash malakasini aniq va puxta egallab boradi. Sportchi musobaqada 800 metrga yugurishni mashq qilmoqchi bo'lsa, bundan yaqin bo'lgan 200 m – 400 m – 800 m – 100 m – 150 m masofaga belgilangan vaqtga ko'ra chopishni mashq qilishi, 800 metrga chopishda kuch va tezlikni o'zi mustaqil idrok qilish darajasiga yetishi, masofa bo'ylab yugurishda o'z kamchiligi haqida to'g'ri fikr yuritishga odatlanishi lozim. Sportchi 800 m masofa bo'ylab yugurishni muntazam ravishda mashq qilishi natijasida chopish tezligi oshadi, qadamlarining

uzunligi ham o'zgaradi, nafas olish sur'ati yaxshilanadi. Natijada sportchi organizmida psixofiziologik o'zgarishlar paydo bo'ladi, musobaqada o'z kuchiga ishonch hislari oshadi.

Bir qator sport turlarida, jumladan, yengil va og'ir atletika, suvga sakrash, gimnastika, figurali uchish, kamon va to'pnonchadan otish musobaqalarida yaxshi ko'rsatkichlarga erishishning muhim omillaridan biri sportchining barcha yo'nalishlar bo'yicha ruhiy jihatdan tayyorgarligidir. Shuningdek, musobaqa jarayonida bajariladigan jismoniy mashqlarning sifati, bajarilishi kerak bo'lgan harakatlarga diqqatning maksimal darajada yo'naltirilishi hamda sportchining fikrlash qobiliyati ham g'alabaga erishish omillari hisoblanadi.

Ayrim sport mutaxassislari musobaqada g'alaba qilish ko'p jihatdan sportchi jismoniy sifatlarining yaxshi rivojlanganligiga bog'liq degan g'oyani ilgari surmoqchi bo'ladilar. Biroq, bizningcha, sportchining musobaqada g'alaba qilishi yoki mag'lubiyatga uchrashining asosiy sabablaridan biri uning ruhiy jihatdan qaydarajada chiniqqanligi hamdir. Buni murabbiylar unutmasligi kerak. Masalan, tennischi to'pga diqqatini chalg'itmasdan barqaror ushlab tura olmasligi sababli raketka bilan to'pni qayta urolmay qoladi. Xuddi, shuningdek, balandlikka sakrovchi sportchi mashqlarda plankaga (to'siqqa) urilish holati ketma-ket sodir bo'lib, vahimaga tushishi, bezovtalanishi, o'z kuchiga ishonmasligi va boshqa salbiy his-tuyg'ular ta'sirida harakatlarini to'g'ri boshqara olmay qoladi. Natijada sportchining chopib kelib, deysinib sakrash harakatlari qiyinlashadi, musobaqa yoki mashg'ulotlardagi ko'rsatkichlari pasayadi. Buning uchun murabbiylardan sport mashg'uloti jarayonida planka (to'siqqa)ga urilmasdan sakrash mashqlarini yanada ko'proq takror-takror bajartirish yordamida sportchida to'g'ri sakrash malakalarini rivojlantirish talab qilinadi.

Barcha sport turlarida ruhiy tayyorgarlik bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Masalan, sportning qilichbozlik turida ikki xil ruhiy tayyorgarlikka ega sportchilarning ikki xil jangovar holati, ikki xil irodaviy harakatlari, ikki xil texnik va taktik sifatlarining takomillashgan harakatlarini kuzatamiz. Har ikkala sportchining sovuq qurollar bilan qisqa muddat ichida g'alaba qilishga intilishidagi muskul harakatlarining sezgirligi ularning psixologik jihatdan tayyorgarligiga naqar bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, qisqa masofaga yuguruvchi va bokschilarning tezkor harakatlari, suzuvchining suzishda suv qarshiligini yengish bilan bog'liq bo'lgan harakatlarni bajarishdagi mahorati; uzoq masofaga yuguruvchining harakatni, vaqtni to'g'ri idrok qilish zaminida bo'lajak musobaqaga ruhiy jihatdan tayyorgarlik holati muhim o'rin tutadi.

Barcha sport turlarida go'zallik va nafosatlilik talab qilinadi. Ba'zi bir sport musobaqalari o'tkaziladigan joy estetik jihatdan talab darajasida jihozlangan bo'lmasa-da, o'sha joyda musobaqa o'tkaziladi. Sport amaliyotida kuzatiladigan bunday noxush vaziyatlar sportchining ruhiy holatiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Masalan, og'ir atletika yoki kurash musobaqalari ishtirokchilari uchun musobaqa oldi tayyorgarlik maydonchasining yorug' bo'lmasligi, shtanga yoki kurash zalining me'morchilik talablariga javob bermasligi, dam olish joyining torligi yoki dam olish uchun sharoitning yo'qligi, kurash gilamining yaroqsizligi, birinchi og'irlikni raqibdan oldin ko'tarish holatidagi ruhiy kechinma, raqibning boshlang'ich og'irlikka bergan buyurtmasi va uning birinchi ko'tarishdagi natijasi, sportchiga murabbiy yoki tomoshabinlarning munosabati, sportchining shaxsiy qiziqishi bilan komanda a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning to'g'ri kelishi yoki kelmasligi, sinov urinishining muvaffaqiyatsizligi, birinchi urinishdagi mag'lubiyat, og'irlikni kutilmaganda yaxshi ko'tarishdagi ruhiy o'zgarishlar, sportchining shtangani ko'kragiga to'g'ri va yengil olishi yoki shtangani ko'kragiga olishidagi xatolar, avval olingan jarohatning ta'siri, raqibga bergan bahosi va boshqa shu kabi noxush hodisalar sportchining ruhiy holatiga salbiy ta'sir etadi.

Har bir sport turida sportchining musobaqalarda va musobaqa paytida bajariladigan harakatlarga tayyorgarlik holati turlicha bo'ladi. Mashhur gimnastikachilar musobaqa paytida bajariladigan mashqlarni amalda bajarishdan oldin o'sha mashqlarni fikran bajaradilar. Gimnast mashqni bajarish ko'prigining eng chekka burchagida harakatsiz, ko'zi yarim yopilgan holatda turadi. Labi qisilgan, qo'li pastga tashlangan holatda barmoqlarini sekin harakatlantirgandek bo'ladi. Sportchi xayolida o'zini sport anjomini shartli ushlayotgandek his qiladi, bajariladigan hamma mashqlarni ongida rejalashtiradi: qo'llarining tagiga halqa keltirilayotgandek o'zini xuddi halqaga chiqqandek, tasavvur etadi; bajariladigan barcha mashqlarni ongida, fikrida xayolan to'la aks ettirganidan so'ng, mashqni amalda bajarishga kirishadi.

Murabbiylardan shogirdlarda har bir mashqni tez va aniq idrok qilish xususiyatlarini o'stirish; sportchidan esa har bir sport turiga xos jismoniy mashqlarni bajarishda alohida sezgirlik, har bir

mashqni tez va aniq idrok qilish xususiyatlarini rivojlantirish talab qilinadi. Masalan, balandlikka sakraydigan sportchilar o'zlari ko'tarilgan balandlikda bo'ladigan juda kichik, qisqa masofa yoki daraja (santimetr)dagi har bir o'zgarishni sezish hamda balandlikdan o'tish uchun zarur bo'lgan harakatlarni ko'rib idrok qilish malaka va ko'nikmalarini puxta o'zlashtirishlari lozim. Ular ana shundagina jiddiy muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritadilar, musobaqalarda g'alabaga erishadilar. Ana shundagina vestibulyar sezgirligi yaxshi rivojlangan gimnastikachi har bir aylanma harakatning elementlarini gimnastik snaryadlarda to'g'ri, aniq va tez idrok etadi, amalda mahorat bilan bajara oladi. Agar gimnastikachida vestibulyar sezgirlig yaxshi rivojlanmagan bo'lsa, sportchi harakat koordinatalarini bajarishda juda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yadi, hatto, mashqlardan zo'riqib, boshi aylanish darajasigacha yetib boradi. Og'ir atletikachi jismoniy mashqlar va sport musobaqasi jarayonida 1-2 kilogramm og'irlikdagi farqni aniq, to'g'ri idrok qilishi, zarur bo'lgan og'irlikni ko'tarishda muskul harakati sezgirligidan foydalanish malakasini o'zlashtirishi kerak.

«Sport psixologiyasi» fanida uzoq yillar davomida muskul harakat sezgilari to'g'risida deyarli ilmiy izlanishlar olib borilmaganligi, mazkur sezgilar «noaniq sezgi» sifatida o'rganilmaganligi sababli bu sezgilar haqida yetarli darajada ilmiy ma'lumotlarga ega emasmiz. Vaholanki, sportchilar subyektiv(ichki) sezgilari yordamida turli harakatlarni bajarishlarida barcha muskul guruhlarining ishtirok etishini yaxshi anglab yetishlari zarur.

Har qanday sport turida harakat mashqlarini takomillashtirish yordamida g'alabaga erishiladi. Masalan, boksning jangga tayyorgarlik darajasi aynan himoyalash harakatlari bilan aniqlanadi. Himoya qilish harakatlariga nafaqat shaxsiy himoyalar (to'sishlar, qaytarishlar, qochishlar, og'ishlar, orqa og'ishlar va boshqa harakatlar), balki alohida qarshi va javob zarbalari ham kiradi. Agar himoya qilish harakatlari qarshi hujumga aylanmasa, qarshi harakatlar raqib hujumini to'xtatish maqsadida qo'llaniladi. Bokschilarda himoyalash uchta bosqichda davom etadi: birinchi bosqich gavda yordamida, ikkinchi bosqich qo'llar yordamida, uchinchi bosqich oyoqlar yordamida amalga oshiriladi. Boksning himoyalash harakatlari qo'llar yordamida 50 foizni, oyoqlar yordamida 29,6 foizni, gavda yordamida himoyalash 20,4 foizni tashkil etishi aniqlangan. Bokschi tayyorlov harakatlarining katta qismini aldamchi harakatlar (79,7 foiz) tashkil etadi. Shuningdek, «manyovr» harakatlari miqdori 17,0 foizni, «razvedka qilish» harakatlari umumiy miqdorning 3,3 foizni tashkil etadi. «Razvedka qilish» harakatlarining ahamiyati juda katta bo'lib, ular raqibning yaxshi ko'rgan harakat va holatlarini, kuchli zarbasi masofasini, jang olib borish xususiyatini, jismoniy tayyorgarligini aniqlash uchun juda asqotadi. Boksning tayyorlov harakatlarida raqibiga ruhiy ta'sir ko'rsatish hamda ma'lum darajada jangni keskinlashtirish kabi usullar ham qo'llaniladi. Bu vaziyatlarda kimdakin turli xil jangovar vositalardan yaxshiroq foydalana olsa, o'sha g'olib bo'ladi.

Hozirgi kunda sport turlarining, o'quv sport mashg'ulotlarining eng ta'sirchan, eng ommabop, eng qiziqarli turlaridan biri harakatli o'yinlardir. Harakatli o'yinlar tufayli sportchilarda ular uchun juda zarur bo'lgan harakat malakalari hosil qilinadi. Unutib yuborilgan o'zbek milliy o'yinlari («Durra soldi», «Qirq tosh», «Qo'rg'on», «Kun va tun», «Nayza sanchish», «Olomon poyga», «Daraxtda olma», «Ro'molchani yetkaz», «Quvlashmashoq», «Otib qochar», «Qoch qorovul keldi», «Tez yugur» va boshqalar)dan o'quv-sport mashg'uloti jarayonida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun o'qituvchi va murabbiylar sport turlariga mos o'yin turlarini tanlay bilishi hamda o'yinni tashkil etish uchun yetarli darajada bilim, ko'nikma va malakalarni egallagan bo'lishi, mavjud bilimlarni amaliyotda qo'llay olishi talab qilinadi.

2003-yilning 25-avgustida Fransiyada sportning yengil atletika turi bo'yicha bo'lib o'tgan jahon birinchiligi musobaqasida 203 ta mamlakat sportchilari ishtirok etishdi va yengil atletikaning barcha turlari bo'yicha juda yaxshi natijalarga erishildi. Ayniqsa, iqtisodiy jihatdan eng qoloq davlatlardan biri bo'lgan Efiopiya erkaklar komandasi 10 km masofaga chopish bo'yicha 1-2-3-o'rinlarni egalladi va yangi jahon rekordini o'rnatdi. Ular startdan finishgacha bo'lgan masofani katta mahorat bilan chopib o'tdilar. Butun musobaqa davomida efiopiyalik sportchilarda ruhiy va jismoniy tayyorgarlik, maqsadga intiluvchanlik, g'alabaga chanqoqlik, chidamlilik, tezkorlik, irodaviy faollik kabi sifatning yaxshi rivojlanganligi sezilib turdi. Shu bois ular g'alabaga erishdilar. Biroq mazkur birinchilik musobaqalarida juda ko'plab davlatlarning sportchilari bosqon uloqtirish, yadro itqitish, langar cho'p bilan sakrash kabi sport turlari bo'yicha yengil atletika musobaqasi talablariga javob bera olmadilar.

Qozog'istonlik Dmitriy Karpov sportning 10 kurash turi bo'yicha 2-o'rinni egalladi. Belorussiyalik ayollar komandasi ham bosqon uloqtirish bo'yicha yaxshi ko'rsatkichlarga erishdi. Rossiya sportchilari yengil atletikaning ko'plab turlaridan oltin, kumush, bronza medallarini qo'lga kiritdilar. Biroq respublikamiz viloyatlarida bosqon uloqtirish, yadro itqitish, langar cho'p bilan sakrash, to'siqlar osha yugurish kabi sport turlarini rivojlantirishga yetarli darajada e'tibor berilmayotir. Faqatgina Toshkent shahrida sportning bu turlari bo'yicha birmuncha quvonarli ishlar amalga oshirildi.

Mustaqil respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotining hamma jabhalarida bo'lgani kabi sport sohasidagi muammolarni ham o'zimiz hal qilishimiz lozim. Vatan ravnaqi, istiqboli uchun har birimiz, har bir sohada ijodkorlik va tashabbuskorlik bilan tinimsiz mehnat qilishimiz, o'z faoliyatimizni g'oyat bilimdonlik bilan bugungi davr talablari darajasida tashkil etishimiz kerak. Mustaqillik jismoniy madaniyat va sport sohasida mehnat qilayotgan mutaxassislardan ham o'z kasbiga mehr, fidoiylilik talab qiladi. Chunki, sport sohasi tirikchilik vositasi emas. O'zbekistonda sportga katta e'tibor berilayotgan hozirgi kunlarda jismoniy madaniyat va sport xodimlari sport turlarining o'ziga xos xususiyatlarini, sportchilarning yuqori ko'rsatkichlarga erishish omillarini, sport turlarining psixologik tavsifi kabi bilimlarni chuqur o'zlashtirgan bo'lishlari zarur. Ana shundagina bu fidoiy, vatanparvar sportchi-murabbiylarimizning shogirdlari jahon birinchiliklarida yetakchi o'rinlarni egallaydilar, o'z g'alabalari bilan Ona-Vatanimiz sharafini yanada yuqoriga ko'taradilar.

Adabiyotlar

1. I.M.Mamatov Sport psixologiyasi kursidan ma'ruza mavzulari. UzMU. Toshkent 1999 y. 19-23 b.
2. Y.Masharipov. Sport psixologiyasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. T.: 2010 y. 120-124 b.
3. Y.Masharipov Umumiy va sport psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent "Ilm Ziyo" 2016 y. 180-183 b.
4. X.B.Tulenova. Jismoniy tarbiya va sport psixologiyasi. Ma'ruzalar matni. Toshkent 2001 y. 11-12 b.
5. M.A.Tursunov, Z.G.Gapparov. Sport psixologiyasi (laboratoriya mashg'ulotlari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma) Toshkent 2011 y. 17-18 b.
6. B.B.Kipchakov, O.E.Toshmurodov. Jismoniy madaniyat darslarida harakatli o'yinlarni qo'llash. SamDU ilmiy axborotnoma juranli. Samarqand 2015. № 2 (90) – 136-141 betlar.

МЕТОДИКА ТЕСТИРОВАНИЯ HAVE - СТРУКТУР

Темиров А.

Самарқанд давлат архитектура қурилиш институти

Аннотация. В данной статье показана возможность использования тестовых заданий при изучении языка, что играет важную роль при закреплении языка.

Ключевые слова: глагол to have, структура, методика, тест.

The method of auxiliary verb to have testing structure

Abstract. The author is minded on this article about the acquirements of students, who learn English and questions of tests are possible for consolidate them.

Keywords: verb, structure, method, test.

Have fe'lining testlashgan strukturasi

Annotatsiya. Ushbu maqola tilni o'rganishdagi muhim bo'lgan o'zlashtirish va unimustahkamlash uchun test savollarining muhimligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: to have fe'li, tuzilish, metod, test.

Тестирование структур с личной формой глагола have . Тестированию подвергаются минимальные структуры, полученные путем предварительных процедур (усечения). Регулярное применение системы тестов в определенной последовательности должно свести к минимуму субъективность суждения аналитика-лингвиста, хотя полное устранение субъективности принципиально невозможно в силу того, что в конечном счете весь анализ производится с помощью коммуникативного аппарата исследователя. Значительно большая степень объективности была бы достигнута, если бы все суждения об исследуемых явлениях проверялись достаточным числом носителей языка - информантов, которые к тому же должны быть не лингвистами, чтобы не иметь предвзятых и ошибочных суждений. Однако полноценная методика такого рода, во-первых, не разработана и, во-вторых, практически неосуществима по ряду причин.

При описании have - структур целесообразно применять следующие виды тестирования:

- а) собственно - трансформация;
- б) субституция;
- в) перифраза;
- г) таксономический анализ;
- д) вопросный тест.

Подчеркнем, что методика усечения с целью получения минимальных структур.

- а) Собственно - трансформационные тесты.

Здесь имеются ввиду трансформации в узком смысле слова, состоящие только в преобразовании базисной структуры

S-----P

V-----S

have

что может сопровождаться введением новых лексических компонентов без изменения общего смысла синтагмы (предложения). Таким образом, усечение и субституция как таковые остаются за пределами собственно-трансформационных тестов.

При выполнении трансформационных тестов необходимо соблюдать отмеченность (грамматическую, лексическую, стилистическую) получаемых трансформов и их соответствие исходной синтагме в семантическом отношении. Необходима также адекватная репрезентация обеих структур. Между тем в цитированной выше диссертации Н. Порман, где широко используются трансформационные процедуры, нарушаются оба указанных выше условия. Структуры в большинстве случаев либо вообще не репрезентируются, либо представлены линейными " дистрибутивными цепочками ", лишенными какой - либо информации (напр. S +

have +Ob----- There + be + Ob + in + S).
 Во многих случаях трансформы характеризуются степенью неотмеченности, ср. She had a small face -----She was small faced (лексическая неотмеченность), I have a flat -----There is a flat in my possession (стилистическая неотмеченность), I have three roubles ----- There are three roubles in my possession (тоже), I have an estate in Hungary ----- There is my estate in Hungary (структурная неотмеченность) ит.п. Кстати говоря, и указанной работе при обсуждении общих свойств структур с have в качестве исходного используется русский пример "Я имею книгу", который может встретиться лишь в учебниках русского языка, написанных иностранцами, плохо знающими этот язык. В этой же диссертации встречается случаи, когда "трансформы" далеко не эквивалентны по значению исходному примеру, ср. "трансформации"

- I have a hundred roubles -----I am rich. Have you any watch, Jack?
 Is your watch with you, Jack?

где замена any на your и have на with you существенно меняет смысл предложения. Грубо ошибочной является трансформация "Haven't you any pride or shame? ----- Aren't you proud or shameful?", где автор воспроизводит типичную ошибку учащихся, истолковывающих слово shameful как feelingshame, тогда как в действительности это слово дефинируется как causingshame и т.п.


Аналогичные дефекты встречаются в диссертации А. А. Корсакова, где, впрочем, трансформации применяются значительно реже, ср. We'll have you in uniform again----- You will be in uniform again, где в трансформе "исчез" инициатор состояния компонента (we) и, (что еще важнее) выражение волюнтаривности, присутствовавшее в исходной структуре с глаголом "have". Несостоятельна и предлагаемая автором универсальная трансформация (точнее, ее разновидность - субституция), при которой have замещается на be associated with (подробнее см. ниже гл. I).

Ниже описываются некоторые трансформации, которые могут быть применены для дифференциации функций глагола have – структурах.

Трансформация с заменой глагола have на фразу there be, (there be – трансформация.)

He had a napkin in his hand.....
 There was napkin in his hand.

Здесь существенно наличие обстоятельственно синтагмы которая является подчиненной в "have" – структуре и становится "старшей" в трансформе. Общность моделирующего члена (in his hand-) косвенно указывающего на личный субъект, даёт возможность избежать прямой репрезентации личного субъекта в трансформе. В обоих предложениях выражено наличие чего-то в пространственной сфере лица. Трансформационная формула сокращенно может быть изображено так:



При соблюдении определенных корреляций: C=S (Выражение ремы), mod(L) =mod(R) совпадение временной категорий глаголов have и be что особенно важно корреляции S(PrPers) по лицу и числу с A(PrPoss).

Литература

1. Т.Т. Почепцова "Конструктивный анализ структуры предложений". Киев. 1976.
2. Э.П. Шубин "О структуре предложений" 1968.

DIDAKTIK O'YINLARNING TOPSHIRIQLARINI TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI**Muradova F.R.***BuxMTI*

Annotatsiya. Kasb-hunar kollejlarda "Informatika" fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish maqsadida didaktik o'yinlardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlangan hamda didaktik o'yinlar optimal sinflarga ajratilib, ularni dars jarayonida qo'llash metodikasi ishlab chiqilgan.

Технология создания задач дидактических игр

Аннотация. Обоснованы возможность и необходимость использования дидактических игр в процессе обучения учеников информатике; выявлены педагогические условия применения дидактических игр на уроках информатики с целью развития познавательной активности учеников, разработана методика использования дидактических игр при обучении информатике в профессиональных колледжах.

The technology of creating tasks of didactic games

Abstract. The possibility and the need for didactic games in teaching students computer science identified pedagogical conditions of didactic games on science lessons to develop the cognitive activity of students, developed the technique of using didactic games for teaching science in professional colleges.

Didaktik o'yinlarni tanlashda o'quvchilarning ruhiy holati, bilish qobiliyatlari, nutqi, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot tajribasi-ning har tomonlama rivojiga ko'maklashishi, o'quv mashg'ulotlariga qiziqish uyg'otishi, o'quv faoliyati bilim va malakalarini shakllantirishi, natijalarni tahlil qilish, taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirishni o'rganishda o'quvchiga yordam berishiga e'tibor qaratish lozim. O'yinlarni o'tkazish jarayonida o'quvchining aqliy faoliyati fanlarga nisbatan uning harakatlari bilan bog'liq bo'lishi kerak. Informatika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish mobaynida ko'rib chiqilayotgan predmet xususiyatini inobatga oladigan didaktik o'yinlarni tanlash tamoyillarini sanab o'tish lozim.

Kasb-hunar kollej o'quvchilari o'quv faoliyatini faollashtirishga ko'maklashuvchi va qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'lgan o'yin quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

1. Har bir o'yin ishtirokchisining faolligi.
2. Har bir o'quvchi uchun didaktik o'yinning ochiqiligi.
3. Muammolilik.
4. O'yinning qiziqarli va hissiy rang - barang bo'lishi.
5. O'yinning yakkama - yakkaligi va jamoaviyligi.
6. Bahs va musobaqaviyligi.
7. Har bir ishtirokchi uchun o'yinning natijaviy bo'lishi.

Yuqorida sanab o'tilgan tamoyillarning har birida qisqacha to'xtalib o'taylik.

Istalgan didaktik o'yinning tamoyillaridan biri *har bir ishtirok-chining faollikdarajasi* hisoblanadi. U o'yinga tayyorgarlik ko'rishda aks etishi lozim, o'yin davomida kuchayishi va cho'qqisiga yetishi, shuningdek, natijalarni muhokama qilish jarayonida ham shunday yuqori darajani saqlab turishi lozim.

O'yinning ochiqiligi - barcha ishtirokchilar tomonidan o'yin qoidalari-ning tushunarli bo'lishi va uning istalgan bosqichida o'quvchilarga mos bo'lgan vazifalarning mavjudligidir.

Didaktik o'yinning muammoliligi shunda ifodalanaidiki, istalgan o'yinda muammoli vaziyatlar va ularni yechish uchun sharoit yaratiladi. Bunda har bir o'quvchi raqobat sharoitida muayyan maqsadga erishishga intilib, musobaqa davomida paydo bo'ladigan turli muammoli vaziyatlarni yechish yo'llarini o'zi bilmagan holda rejalashtiradi.

Didaktik o'yinning qiziqarliligi va hissiy rang - barangligi barcha bosqichlarda o'quvchilar bilish faolligini, shu bilan birga o'yin tayyorgarligi va keyingi tahlilini ham kuchaytirishga yo'naltirilgan. Bundan tashqari, bu tamoyil har bir o'yin ishtirokchisining bilish faolligini rivojlantirishga ko'maklashadi.

Didaktik o'yinning yakkama-yakkaligi shuni nazarda tutadiki, har bir o'quvchi uchun o'yinda muayyan rol topilishi lozim, bu rol uning shaxsiy xususiyatlarini maksimal tarzda amalga oshirishga, o'quvchiga o'zini ifoda-lashga imkoniyat berishi kerak.

Individuallik tamoyili har bir o'yin qatnashuvchisiga o'zining keyingirivoji uchun ishlashga imkon beradi, ayni paytda o'quvchi muayyan faoliyatda o'zidagi ustun xususiyatlarni ochish imkoniyatiga ega bo'ladi. Didaktik o'yinning jamoaviyligi esa har bir ishtirokchining individualligiga barham bermasdan, muammoli vaziyatlarni yechish bo'yicha jamoa, juftlik, guruhlarda o'zaro faoliyatni amalga oshiradi.

Jamoaviylik tamoyili birgalikda harakatlanish va fikrlash kabi muhim malakalarning rivojiga olib keladi. Individual, ko'p hollarda qarama-qarshi xarakter, dunyoqarashga ega bo'lgan o'quvchilarning jamoaviy ishi do'stona munosabatlarni rivojlantirishda yordamlashadi.

Bahs va musobaqaviylik ko'p hollarda didaktik o'yindagi asosiy harakatlantiruvchi kuch bo'lib hisoblanadi va bu kuch o'yinchilarning aqliy imkoniyatlarini katta miqdorda safarbar etadi.

Natijaviylik tamoyili didaktik o'yinning asosiy tamoyili bo'lib, uni har bir ishtirokchi va butun jamoaning faol ijodiy faoliyati sifatida ko'rsatadi. Barcha jamoaviy musabaqalar kabi jamoa faoliyati natijasi bevosita har bir o'yinchi hissasiga bog'liq. Ko'rib chiqilayotgan tamoyil har bir o'quvchi va butun jamoa natijasining mos kelishi hamda o'yinchi va uning raqibi uchun yagona bo'lishini taqozo etadi.

Yuqorida sanab o'tilgan tamoyillarni hisobga olib, didaktik o'yinlar qatoridan informatika darslarida o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtirish uchun foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladigan o'yinlarni tanlash mumkin.

Didaktik o'yinlarning ko'pgina afzalliklariga qaramasdan, ularni tayyorlash va o'tkazish o'qituvchi uchun murakkab vazifa bo'lib hisoblanadi va ko'p vaqtni talab qiladi.

Ko'rib chiqilgan tahlil o'qituvchiga informatika darslarida didaktik o'yinlarni asosli tarzda qo'llash imkonini beradi.

Bizning fikrimizga binoan "Informatika" fanidan didaktik o'yin-larni tayyorlash va o'tkazishda quyidagi bosqichlarni inobatga olish lozim: g'oya, tashkil etish, o'tkazish va tahlil qilish.

Didaktik o'yinning g'oyasi. Didaktik o'yinning birinchi, mushkul va eng mas'uliyatli bosqichi hisoblanadi. G'oyaning tarkibiy qismlariga:

- guruhni tanlash;
- darsning mavzusini tanlash;
- darsning turini tanlash;
- vaqt chegaralarini aniqlash;
- o'yinning turi va shaklini tanlash jarayonlari kiradi.

a) Guruhni tanlash. Didaktik o'yinlar o'tkaziladigan guruhni ba'zi xususiyatlarini (yo'nalishi, o'qitilish darajasi, ishga layoqatligi, tashkilotchiligi) inobatga olgan holda tanlanadi. Bunda o'quvchilarning nafaqat fanga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, balki o'qitish va tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish zarurligini inobatga olish lozim. Didaktik o'yin informatika fanini o'qitish bo'yicha chuqurlashtirilgan yo'nalishdagi guruhlarda o'tkazilishi mumkin. Bunda o'yin topshiriqlari va shaklini guruhning o'qitish darajasi va o'zlashtirish ko'rsatkichiga qarab ajratish kerak bo'ladi.

b) Dars mavzusini tanlash. O'qituvchi o'yinni o'tkazish uchun ixtiyoriy mavzuni tanlash huquqiga ega. Bu yangi mavzuni tushuntirish uchun yoki o'tilgan mavzularni mustahkamlash uchun ham qo'llanilishi mumkin, lekin, bunda o'qituvchi mavzuni tushuntirish uchun o'yinni tashkil etish va o'tkazish uchun ko'p vaqt va kuchni sarflash zaruratini inobatga olishi kerak.

v) Dars turini tanlash. Didaktik o'yinlar darsning barcha turida qo'llanilishi mumkin. Didaktik o'yinlarning muvaffaqiyatli o'tkazilishi, o'qituv-chining didaktik o'yin turlari bilan ishlay olish malakasiga bog'liq. Didaktik o'yinlar o'tilgan mavzularni takrorlash va olgan nazariy bilimlari va malakalarini mustahkamlash va o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilishda qo'llanilishi mumkin.

g) Vaqt chegaralarini aniqlash. Vaqtni belgilash bosqichi deb, didaktik o'yinlarni o'tkazish va ularni tayyorlash jarayoniga sarflangan vaqtni tushunish kerak. O'yin to'liq dars davomida yoki darsning bir qismida, yoki bir necha dars davomida o'tkazilishi mumkin. O'yinni tayyorlash jarayoni bir necha kun yoki hatto bir necha hafta ham bo'lishi mumkin. Bu o'yin ko'rinishi, o'yin maqsadi hamda o'qituvchi va o'quvchi orasida taqsimlangan vazifalarning bajarilishiga bog'liq bo'ladi.

d) Didaktik o'yinning turi va shaklini tanlash. Didaktik o'yinlarning turi va shaklini aniqlash bir necha omillarga bog'liq: guruhning xususiyatlari (jumladan, mazkur guruhni o'qitishda, dars jarayonida qanday o'qitish shakli qo'llanilganligi); o'quvchilarning yoshi, dars mavzusining xususiyati.

Shuni ta'kidlash lozimki, didaktik o'yinlarni tashkil etish va o'tkazishda o'qituvchining roli juda muhim. O'yinning muvaffaqiyatli o'tishi nafaqat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga, balki o'qituvchining kasbiy pedagogik tayyorgarligiga, uning o'quvchi bilish faoliyatiga ta'sir etuvchimuqobil faoliyat turiga ham bog'liq.

Adabiyotlar

1. Бондаренко А. К. Воспитание детей в игре. - М.: Просвещение, 1983 - 137 с.
2. Борисова О. В. Конструирование деловых игр // Новые методы и средства обучения. Вып. 2, - М., 1989. - С.54 - 78.
3. Венгер Л. А. Сюжетно-ролевая игра и психологическое развитие ребенка // Игра и ее роль в развитии ребенка дошкольного возраста. - М., 1978. - С. 32-36.
4. Зареская Г., Аксенова Ю. Деловые игры для деловой молодежи // школьный экономический журнал. - 1996. - №2. - С. 29-37.

ZIYOLI ZIYOKOR BO'LISHI KERAK

Vatan manfaati barchamizni birlashtirishi zarur.

Islom Karimov.

Agar XX asr oxirlarida milliy mustaqilligimizni qo'lga kiritgan bo'lsak, XXI asrning ilk o'n yilliklari davlatimiz uchun barqaror rivojlanish, xalqimiz uchun esa iqtisodiy va ma'naviy jihatdan yuksalish davri sifatida tarix sahifalariga muhrlanmoqda. Bugun bizga iqtisodiy inqiroz ham, ma'naviy inqiroz ham xavf solayotgani yo'q. Biz bu bosqichlarni eson-omon bosib o'tdik. Lekin shiddat bilan ildamlab borayotgan zamondan orqada qolmaslik, mamlakataning har tomonlama barqaror o'sib va yuksalib borayotganligi yurt taqdiriga daxldor har bir insonning oldiga yangi talab va vazifalarni qo'yayotgani aniq.

Taraqqiyotimizning mana shu yangi bosqichida mamlakatimizning turli qatlamlariga mansub aholisining ishtiroki qanday bo'lmoqda yoki qanday bo'lishi kerak, degan savol ko'pchilikni qiziqtiradi, albatta. Tabiiyki, bu savol insoniyat tamaddunining barcha bosqichlarida ilg'orlar safidan o'rin olib kelgan ziyolilarga ham tegishlidir.

Darhaqiqat, hamisha xalqning oldi bo'lish, lozim bo'lganda ularni muayyan g'oyalarni amalga oshirishga yo'naltirish hamma zamonlarda ham insoniyatning ana shu qatlami zimmasiga tushgan.

Ziyoli so'zining izohli lug'atlarda *aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi, ilmi, o'qimishli, ma'rifatli* ma'nolarini anglatishi ularning boshqa insonlardan ushbu xususiyatlar bilan ajralib turishini anglatadi.

Vatanimizning keyingi 25 yillik tarixiga nazar tashlash qisqa hamda g'oyat murakkab bir siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda mustaqillikni qo'lga kiritish barobarida izchil rivojlanish yo'lidan borib, dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlari qatoridan o'rin olishida ziyolilarning ham sezilarli o'rni bo'lganligini tasdiqlaydi.

Aholining bu qatlami jamiyatni harakatlantiruvchi qudratli kuch ekanligini inobatga olgan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov mustaqillikning ilk yillarida – 1993-yilda xalqimizning taniqli adiblari Ozod Sharafiddinov, Said Ahmad, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Jamol Kamol va boshqalar bilan uchrashib, ular bilan ma'naviy inqirozdan chiqish yo'llari haqida maslahatlashganini eslaymiz.

Davlatchiligimiz tarixida buyuk Amir Temur saltanatida odat tusiga kirgan bu an'analarning davom etib kelayotganini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2016-yilning oxirida ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvi ham yana bir bor tasdiqladi.

Ilm ahlini bir qadar sergak qilgan bu uchrashuv ma'lum ma'noda olib borilayotgan faoliyatni sarhisob qilishga ham da'vat edi. Mana shu anjumandan so'ng nafaqat ilm kishilari, balki barcha ziyolilar ham tabiiy bir holatda o'zlariga «islohotlarning bundan keyingi amalga oshirilishida mening ishtirokim qanday bo'ladi?», degan savolni berib boshladilar. O'zbek fanining darg'alari bo'lgan Shavkat Solihov, Aziz Qayumov, Mahmud Salohiddinov, Ra'no Ubaydullayeva, Sayyora Rashidova, Behzod Yo'ldoshev, Baxtiyor Nazarov va boshqa nufuzli akademiklarning Prezidentimiz bilan bo'lgan suhbatdagi chiqishlaridan olimlar qalbida favqulodda bir jonlanish yuz berganini angladik.

Ziyoli so'zining yuqorida keltirilgan izohiga e'tibor beradigan bo'lsak, aqliy mehnat bilan shug'ullanishlik, ilmlilik yoki o'qimishli bo'lishlik *bilimlilik* bilan sinonim bo'ladi va *ziyolilik* so'zining tushuncha ko'lami torayadi. Bu izohga *ma'rifatli* tushunchasi kiritilishi bilan bu doira kengayadi. Ammo bilimli bo'lishlik ma'rifatlilikning asosiy sharti emas. Muayyan sabablarga ko'ra bilim olish imkoniyatiga ega bo'lmagan, ammo katta hayot tajribasiga ega bo'lgan ma'rifatli insonlar jamiyatimizda oz emas. Mana sizga bir misol keltiraman.

Rektorimizning taklifiga ko'ra «Samarqand universiteti» gazetasi tahririyati universitet professor-o'qituvchilariga «Bugungi ziyoli qanday bo'lishi kerak?», degan savol bilan murojaat qildi va ko'plab javoblar oldi. Savolga arxeolog olimi Nona Avanesova: ziyoli deganda yuksak darajadagi aqliy mehnati, maxsus ma'lumoti va axloqiy madaniyati bilan ajralib turadigan ma'rifatli odamni tushunish qabul qilingan. Qachonki bularning barchasiga uning fuqarolik va axloqiy pozitsiyasi, xayrli ishlarni amalga oshirish qobiliyati, qalb uyg'unligi va odamiyligi qo'shilsa, mana shular uning ziyoliligi haqida gapirishga imkon beradi, deb javob berib, Surxondaryoda olib borgan arxeologik

tadqiqotlari jarayonida tanishgan va ekspeditsiyani o'z xonadoniga mehmondorchilikka taklif qilgan oddiy o'zbek cho'poni haqida so'zlab berdi. Bor-yo'g'i 8-sinfni bitirgan Shuhrat cho'pon Xayyom va Navoiydan me'yoriga yetkazib she'rlar o'qiganligini, Amir Temur tarixidan boy ma'lumotlarga egaligi, o'tovdagi kitob javonida o'zbek va rus tillarida bitilgan kitoblarning tartib bilan terib qo'yilganligidan, mehmonlarni kuzatayotgan paytida ust kiyimlarni kiyishga yordamlashganligidan hayratga tushganligini aytib, ana shunday insonlarni bemalol ziyoli deb aytish mumkinligi haqida fikr bildirdi.

Olimaning bu aytgan gaplaridan ziyolilik insonning ichki madaniyati bilan bog'liq ekanligi haqida fikr kelib chiqadi. Demak, ma'naviy dunyosi boy bo'lgan har qanday insonni ziyoli deb atash mumkin.

Ammo Alloh bergan iste'dod tufayli ziyolilarning ijodkor va ilm-u ma'rifat bilan mashg'ul qatlami, shuningdek, hayotning achchiq-chuchugini tortgan, katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan nuroniy-ziyolilarimiz hamisha oldinda yuradi va o'z xalqini orqasidan ergashtiradi. Ularning xalq orasida obro'si bor, ular xalqimiz hurmat qiladi. Biz ularni oltin ham qimmat turdigan ma'naviy boyligimiz deb ataymiz. Ularning o'g'itlari intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalashda ijobiy samara berishi aniq. Ana shuning uchun ham ularning ko'magiga bugun mamlakatimizda katta zaruriyat bor. Nega deganda, xalqimiz ilmiy va ma'naviy oziqni aynan ana shu insonlardan, ularning asarlaridan oladilar.

Buning ustiga, ziyoli elning nazaridagi inson. Uning har bir harakati, aytgan so'zi odamlar nazoratida bo'ladi. Faqatgina nazoratda emas, balki taqlid qilish va o'rnak olish manbayi ham hisoblanadi. O'z navbatida, ziyoli o'zini-o'zi qat'iy nazorat qiladi va o'zini hamisha hayot imtihonlariga tayyor holda sezadi.

Biz xalqimizning ulug' farzandi Islom Karimov boshchiligida juda katta mehnatlar evaziga yaxlit bir Vatan barpo etdik. Bunga xalqimizning birligi, mamlakat rahbari olib borgan siyosatni qo'llab-quvvatlash evaziga erishdik. Endi ana shu birlikni mustahkamlash ham bundan keyingi barqaror taraqqiyotimiz omili bo'lib qoladi.

Bir paytlar – bundan 25 yil muqaddam ziyolilarimiz davlatimizga ma'naviy inqirozdan chiqishga qanday ko'maklashgan bo'lsalar, bugun ham taraqqiyotimizning yangi bosqichida ular ana shu islohotlarga bevosita daxldorlik hissi bilan yashaydilar va mehnat qiladilar, deb o'ylayman. Kelajagi buyuk davlatning imoratini qurayotgan ekanmiz, uning baquvvat bo'lishi uchun hammaning fikri bir joydan chiqadi, davlatimizning yangi rahbarini qo'llab-quvvatlaydi. Zero, xalqning millat bo'lish shartlaridan biri ham shu.

Ziyolilik haqidagi bu mulohazalarim bot-bot meni bir to'xtamga – ziyoli ziyokor bo'lmog'i kerak, degan xulosaga olib kelaveradi. Ziyoli egallagan ilm-u ma'rifat Vatanimizning bugungi rivoji uchun zarur ekan, egoizm ustunlik qilib, uni ko'pchilik bilan baham ko'rmaslik, jarayonlarga loqayd tomoshabin bo'lib o'tirish insofdan emas. Xalqning, davlatning hisobidan o'qib o'rgandikmi, endi olmoqning bermog'i bor. Har bir ziyoli to'plagan tajriba, ilmiy va ma'naviy xazina xalqqa qaytarilishi zarur, deb bilaman. Buning birdan bir yo'li ziyolining ziyokor bo'lishidir.

Boringki, mustabid tuzum davrida o'zbek olimlari tomonidan yaratilgan yangiliklar, qilingan kashfiyotlarni amaliyotga qo'llash uchun to'siqlar mavjud edi va biz bunga ko'nikkan, moslashgan edik, deylik. Endi bu tazyiqlar yo'q, hatto hukumatimiz ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga tayyor. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvi buning yaqqol dalili bo'ldi.

Ziyokorlikka bir misol keltirmoqchiman. Yaqinda akademik Saidahrar G'ulomov SamDU jamoasi bilan uchrashib «Barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan intellektual ta'limning omillari» mavzusida ma'ruza qilib berdilar. Tadbir 2 soat atrofida davom etgan bo'lsa-da, biz suhbatning qiziqariligidan vaqtning qanday o'tganligini bilmay qoldik. Eng muhimi, mavzu doirasida juda ko'p yangi ma'lumotlarga, nazariy bilimlarga ega bo'ldik. Barqaror rivojlanish sharoitida ta'lim islohotlarini qanday yo'lga qo'yish haqida amaliy tavsiyalar oldik. Bu tadbirdan keyin ziyolilar, ayniqsa, el tanigan olimlar va murabbiylar, ijodkorlar va san'at namoyandalarining xalq bilan muloqoti tizim shakliga keltirilishi va muntazamligi nihoyatda zarurligini angladim.

To'g'ri, islohotlarning mazmun-mohiyati haqida biz vaqtli matbuot, ommaviy axborot vositalari orqali juda ko'p ma'lumotlar o'lyapmiz. Ammo ular qisqa va tezkor bo'lganligi tufayli, mavzu atrofida chuqur mulohaza yuritishga ko'maklashish vazifasini o'z zimmasiga olmaydi. Soha

mutaxassislari sanaladigan ziyolilarning sharh va izohlariga ehtiyoj borligini mana shu uchrashuv yana bir bor tasdiqladi.

Biz dunyoga tanilgan olimlar – akademiklar Shavkat Alimov, Tolib Mo‘minov va Tursun Rashidovlarning universitetimizga kelib talabalarimizga dars berishlari haqidagi xabarni eshitib quvondik. Bu ziyokorlarning saboqlari ham juda katta ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lishiga shubha yo‘q. Aslida bunday ziyokorlar universitetimizning o‘zida ham anchagina. Bu borada men Mavlon Jo‘raqulov, Jo‘raqul Xo‘jayev, Ali Abdulqosimov, Muslihiddin Muhiddinov, Rustam Xalmuradov, Yevgeniy Malinovskiy, Dilorom Salohiy, Jo‘raboy Yaxshilikov, Ahmadjon Soleev, Baxtiyor Xo‘jayorov, Saidahmad Laqayev, Abdulla Nasimov, Ergash Abdurahmonov, Nurali Muhammadiyev, Ne‘mat Nizomov, Abduvohid Jumaboyev kabi muhtaram professorlarimizning nomlarini chuqur hurmat bilan tilga olishni istardim.

Bugungi shiddatli zamonada shunchaki tanqid qilish, kamchiliklarni sanash, tavsiyalar berishning o‘zi yetarlib bo‘lmay qoldi. Bugun endi olimlarning olimi, ustozlarning ustoz, ziyolilarning ziyolisi bo‘lish uchun mavjud nuqsonlarni bartaraf etishda rahbariyatga amaliy yordam berish, bosh-qosh bo‘lishga to‘g‘ri keladi. Bilimli, fidoyi va sog‘lom fikrli ziyolilarning universitetimizda ko‘pligi quvonarlidir.

Ziyokorlar inson universitetimizning tayanchi, uning o‘tmishini ham, kelajagini ham belgilagan va belgilaydigan ilm-u ma’rifat ahli. Mening nazarimda, ularning zimmasida bir qator vazifalar turadi. Jumladan:

1. Ziyoli maqomidagi har bir ilm-fan namoyandasi faoliyati o‘z sohasi bo‘yicha olib borayotgan tadqiqot va kuzatishlarining samaradorligi va amaliyot uchun foydalilik darajasi bilan baholanishini chuqur anglab yetishi va zarur bo‘lganda uni qayta qurishi kerak deb o‘ylaymiz.

2. G‘urur masalasi har qachongidan ham dolzarbdir. G‘urur haqida gap ketganda beixtiyor Birinchi Prezidentimizning quyidagi gaplari yodimga keladi: *biz sovet tuzumida uch-to‘rtta avlodni ko‘rdik. Ular qanday tarbiya oldi? «Kreml yulduzi»ga itoat qilmasang, mansabda o‘tirmaysan, degan gaplar bo‘lgan. Kimki o‘z yurtini, o‘z xalqini sotmasa, mansabdan ketardi. Mustaqillik, xalqning milliy an‘analari, g‘ururini tiklashga qarshi chiqadiganlar o‘sha toifadagi odamlardir. Mening xavotir bo‘layotgan joyim ham shu. Agar ahil bo‘lsak, o‘zimizdan sotqin chiqmasa, o‘zbek xalqini hech kim yenga olmaydi. Oramizda ertani o‘ylamaydigan, shaxsiy manfaatini xalq, vatan manfaatidan yuqori qo‘yadigan kimsalar bo‘lmasligi uchun ziyolilar bizga ko‘mak berishi lozim.*

To‘g‘rida, g‘ururli odam arzimagan mablag‘ yoki amal uchun o‘z mehnatini, tanasini, Vatanini sotishgacha bo‘lgan pastkashlikka bormaydi.

3. Bizga ahillik kerak. Ziyolilar o‘rtasida ahillik, birlik bo‘lmasa, ularga kim ergashadi? Mayli, tabiatimiz, dunyoqarash va maslagimiz har xil bo‘lsin. Ammo manfaatlarimiz bitta ekanligini unutmaylik.

4. Bugun davlatimiz olib borayotgan ko‘p qirrali siyosatni, islohotlar mazmun-mohiyatini xalqimizga tushuntirish, O‘zbekiston erishayotgan yutuqlarni jahonga keng yoyish, ulug‘ ajdodlarimizning ilmiy va ma’naviy merosini targ‘ib qilish ham ziyolilar zimmasida.

5. Noyob iste’dodlarni tanlash ham ziyolilarning ishi bo‘lib qoladi. Oliy ta’lim ziyolilari faoliyatida millat boyligi bo‘lgan iste’dod tarbiyasi g‘oyatda muhim. Chunki sohibqiron Amir Temur ta’kidlaganlaridek, yuzta iste’dodsiz kishining ishini uning bir o‘zi qiladi. O‘zini ziyoli hisoblaydigan har bir professor-o‘qituvchi individual tartibda iqtidorli talabani ilm zoye ketmasligi uchun avval har tomonlama o‘rganib, keyin u bilan shug‘ullanishi va ilm-u ma’rifatga yo‘naltirishi real samara berishiga hamda bu boradagi ishlarimizni sifat bosqichiga qadamma-qadam olib chiqishiga qat’iy ishonaman.

Ilm-u ma’rifati va din-u diyonati bilan Samarqand dong‘ini yetti iqlimga taratgan farzandlarining vorislari bugun ham ana shu ezgu amallar bilan band. Ularning bir qismi Samarqand Davlat universitetida ziyokorlik bilan mashg‘ul ekanligi qalblarimizga cheksiz g‘urur va iftixor tuyg‘usini bag‘ishlaydi, Vatanimizning ravnaqi yo‘lida fidoyilik bilan mehnat qilishga undaydi. Zero, ziyolilik baxt-u saodati ham ana shunda.

Suyun KARIMOV,
SamDU professori.

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog'ozda chop etilgan va elektronshaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar:**UDK, ishning nomi (o'zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro'yxati (to'liq familiya, ismi, otasining ismi –o'zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o'zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so'zlar (5-7, o'zbek, rus va ingliz tillarida) bo'lishi lozim.

MAQOLALARGA QO'YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo'ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag'ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo'yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo'lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo'lib, mumkin qadar qisqa so'zlar bilan ifodalangan bo'lishi kerak va unda umumiy qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; "Ilmiy axborotnoma" jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

**MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA
QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:**

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro'yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko'rinishida terilgan bo'lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro'yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo'lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o'ng tomonlaridan - 2,5 sm; orientatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o'lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo'g'in ko'chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro'yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro'yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oy davomida birmartacha qildi.
- "Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi" danko'chirib bosish faqat tahririyatning yozmaroziligibila namalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqiqoniyligiga shaxsan mas'ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo'llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E- mail: axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

Mas'ul kotib
Musahhih
Texnik muharrir

X.Sh. Tashpulatov
M.M. Ro'ziboyev
S. D. Aronbayev

Muharrirlar:

E. U. Arziqulov - f.-m.f.n., dotsent
O. R. Raxmatullayev - geogr.f.n., dotsent
B. S. G'oyibov - t.f.n., dotsent
I.Sulaymonov - f.f.n., dotsent
A.I.Inatov

Mas'ul muharrirlar:

D. M. Aronbayev - k.f.n., dotsent
A. Sh. Yarmuxamedov - f.-m.f.n.
R.Toshquvatova - fals.f.n., dotsent

Muassis: Samarqand davlat universiteti
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87
e-mail: axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.
Bosishga 20.05.2016 yilda ruxsat etildi. Qog'ozo'lchami A-4. Nashriyot hisobtabog'i 10,00.
Buyurtma raqami 88. Adadi 500 nusxa.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitetxiyoboni, 15.
SamDUbosmaxonasida chopetildi.